



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**

MAKTABGACHA PEDAGOGIKA



5111800 – MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI

O'QUV-USLUBIY MAJMUUA

2018

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSIITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI



5111800 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi uchun

**« MAKTABGACHA PEDAGOGIKA »
fanidan**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: **100000 – Gumanitar**
Ta'lim sohasi: **140000 – Pedagogika**
Ta'lim yo'nalishi: **5111800 – Maktabgacha ta'lim**

Termiz-2018

Mazkur o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016 yil "25" avgustdagi 355-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida
katta o'qituvchisi BERDIYEVA M.M.

Taqrizchilar: Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida
dotsenti NORBOSHEVA M.A.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Termiz davlat universiteti ilmiy-metodk Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2018 yil " ____ " _____ dagi ____-sonli bayonnoma).

M U N D A R I J A

| № | O'quv-uslubiy majmua bo'limlari | bet |
|------|---|-----|
| 1. | Ma'ruzalar matni | |
| 1.1 | Estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyati. | |
| 1.2 | Tarbiyalanuvchilarning estetik madaniyatini shakllantirishning tarkibiy qismlari. | |
| 1.3 | Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar | |
| 1.4 | Tarbiyalanuvchilarni estetik tarbiyalash omillari va vositalari | |
| 1.5 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining maqsad hamda vazifalari. | |
| 1.6 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish | |
| 1.7 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya | |
| 1.8 | Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy ta'lim berishning nazariy asoslari. | |
| 1.9 | Barkamol avlodni tarbiyalashda iqtisodiy ta'limning ahamiyati | |
| 1.10 | Maktabgacha ta'lim muassasasida iqtisodiy tushunchalarni berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari | |
| 1.11 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. | |
| 1.12 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish | |
| 1.13 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya berishda bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi bilan tanishtirish | |
| 1.14 | Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari. | |
| 1.15 | Bolalar xuquqlarini ximoya qilish to'g'risidagi Konvensiya. | |
| 1.16 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi va vazifalari | |
| 1.17 | Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o'ziga xosliklari | |
| 1.18 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish shakl, metod va vositalari | |
| 1.19 | O'yinning bola faoliyatining asosiy turi sifatidagi o'ziga xosligi | |
| 1.20 | Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi . | |
| 1.21 | O'yinning ijtimoiy xarakteri. | |
| 1.22 | O'yin bolalar xayotini tashkil etish vositasi ekanligi. | |
| 1.23 | O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar , milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida. | |
| 1.24 | Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yiniga raxbarlik qilish | |
| 1.25 | Bolani intellektual zukko bo'lishini ta'minlash. | |
| 1.26 | Bolaning rivojlanishida o'yinchoqlarning ahamiyati | |
| 1.27 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning nazariy asoslari. | |
| 1.28 | Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab xamkorligi | |
| 1.29 | Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab dasturining izchilligi. | |

| | | |
|------|---|--|
| 1.30 | Bolani maktabda o'qishga tayyorgarligi. | |
| 1.31 | Bolani maktabga ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi. | |
| 1.32 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning shakl,usullari | |
| 1.33 | Bolalarni tarbiyalashda oilaning o'rni. | |
| 1.34 | Sharq mutafakkirlarining farzand, oila tarbiyasi to'g'risidagi qarashlari | |
| 1.35 | Maktabgacha ta'lim muassasalarining oila bilan ishlash shakllari | |
| 1.36 | Oila bilan yakka va jamoatchilik tarzida ishlash | |
| 1.37 | Bolani maktabga tayyorlashda oilaning o'rni. | |
| 1.38 | MTMda bolalar hayotini tashkil etish. | |
| 1.39 | Bolalarning faoliyatida ta'lim- tarbiya vazifalarini amalga oshirish va raxbarlik qilish | |
| 1.40 | Rejalashtirishning nazariyasoslari | |
| 1.41 | Ta'lim-tarbiyaviy ishni rejalashtirish mazmuni | |
| 1.42 | Ta'lim-tarbiyaviy ishni rejalashtirish shakllari | |
| 1.43 | Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish. | |
| 1.44 | Pedagogik jarayonni rejalashtirish turlari. | |
| 1.45 | O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalari tizimi, unga rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari | |
| 1.46 | Mudira va uslubchi tomonidan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etish tamoyillari, maktabgacha ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minlash. | |
| 1.47 | Maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etish bo'yicha qonun hujjatlari va amaliyotga joriy etish prinsiplari | |
| | Amaliymashg'ulot | |
| 2.1 | Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar | |
| 2.2 | Estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyati | |
| 2.3 | Turli yosh guruxlarida estetik rivojlantirish | |
| 2.4 | Maktabgacha ta'lim muassasasida iqtisodiy tushunchalarni berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari. | |
| 2.5 | Katta va tayyorlov guruxlarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish | |
| 2.6 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish | |
| 2.7 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish | |
| 2.8 | Maktabgacha yoshdagi bolalarda huquqiy tarbiyani shakllantirish | |
| 2.9 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish | |
| 2.10 | Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari | |
| 2.11 | Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o'ziga xosliklari | |
| 2.12 | Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish | |
| 2.13 | Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o'ziga xosliklari. | |
| 2.14 | Mashg'ulotning turlari va tuzilishi. | |
| 2.15 | O'yinning bola faoliyatining asosiy turi sifatidagi o'ziga xosligi. | |
| 2.16 | Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi | |
| 2.17 | O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida | |
| 2.18 | Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yiniga raxbarlik qilish | |
| 2.19 | O'yinning ijtimoiy xarakteri. | |

| | | |
|------|--|--|
| 2.20 | O'yin bolalar xayotini tashkil etish vositasi ekanligi. | |
| 2.21 | O'yin turlari: ijodiy o'yinlar,qoidali o'yinlar , milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida | |
| 2.22 | Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yiniga raxbarlik qilish | |
| 2.23 | Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yiniga raxbarlik qilish. | |
| 2.24 | Sharq mutafakkirlarining farzand, oila tarbiyasi to'g'risidagi qarashlar | |
| 2.25 | Bolalarni tarbiyalashda oilaning o'rni | |
| 2.26 | Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari | |
| 2.27 | Bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligi. | |
| 2.28 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning nazariy asoslari. | |
| 2.29 | Bolani maktabga ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi | |
| 2.30 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning shakl,usullari | |
| 2.31 | Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab xamkorligi | |
| 2.32 | Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab dasturining izchilligi. | |
| 2.33 | Bolani maktabda o'qishga tayyorgarligi | |
| 2.34 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning shakl,usullari | |
| 2.35 | O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalari tizimi, unga rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari.uslublari | |
| 2.36 | Mudira va uslubchi tomonidan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etish tamoyillari | |
| 2.37 | Maktabgacha ta'lim muassasalariga rahbarlik nazorat | |
| 2.38 | Bolanimaktabgatayyorlashdaoilano'rni. | |
| 2.39 | Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish tamoyillari va rahbarlik usullari | |
| 2.40 | Bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim musaasasining o'rni | |
| 2.41 | Ota-onalar bilan ishlashni rejalashtirish va xisobga olish | |
| 2.42 | Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish | |
| 2.43 | Bolani maktab ta'limiga tayyorlashga ta'sir etuvchi omillar | |
| 2.44 | Bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligini aniqlash va taxlil qilish | |
| 2.45 | Oilada bolani maktabga tayyorlash metodi | |
| 2.46 | Bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorligini tashxislash usullari | |
| 2.47 | O'yinning bolalar faoliyatining asosiy turi sifatidagi o'ziga xosligi | |
| 2.48 | Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning aqliy rivojlanishini aniqlash va mustahkamlash | |
| 2.49 | Maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar o'rtasida olib boriladigan ishlarning mazmun va moxiyati. | |
| 2.50 | Ota-onalar bilan ishlashni rejalashtirish va xisobga olish | |
| 2.51 | Oilada aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik tarbiya berish mazmuni | |
| 2.52 | Bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim musaasasining o'rni | |
| 2.53 | Maktabgacha ta'lim muassasasi guruhlaridagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning maqsad va vazifalari | |
| 2.54 | MTMda bolalar hayotini tashkil etish | |
| 2.55 | Bolalarning faoliyatida ta'lim- tarbiya vazifalarini amalga oshirish va raxbarlik qilish. | |
| 2.56 | Rejalashtirishningnazariyasoslari | |

| | | |
|------|--|--|
| 2.57 | Ta'lim-tarbiyaviyishnirejalashtirishmazmuni | |
| 2.58 | Ta'lim-tarbiyaviyishnirejalashtirishshakillari | |
| 2.58 | Kunningikkinchiarminirejalashtirish. | |
| 2.59 | Pedagogikjarayonnirejalashtirishturlari. | |
| 2.60 | MTMdauslubiyishlarnitashkiletish | |
| 2.61 | MTMdaBolajontayanchdasturiningaxamiyati | |
| 2.62 | Tarbiyachiningpedagogikfaoliyati | |
| 2.63 | MTMdauslubchiningvazifasivaishfoaliyatining o'rni | |
| 2.64 | O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalari tizimi, unga rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari | |
| 2.65 | Mudira va uslubchi tomonidan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etish tamoyillari | |
| 2.66 | Maktabgacha ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minlash | |
| 2.67 | Maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etish bo'yicha qonun hujjatlari va amaliyotga joriy etish prinsiplari | |
| 3. | Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari | |
| 4. | Glossariy | |
| 5. | Ilovalar | |
| 5.1 | Fan dasturi | |
| 5.2 | Ishchi fan dasturi | |
| 5.3 | Tarqatma materiallar | |
| 5.4 | Testlar | |
| 5.5 | Baholashmezonlari | |

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Ta'lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da uzluksiz ta'lim tizimida bolalarni o'quv fanlari bo'yicha muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va melmat ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ta'lim-tarbiya ishlarining samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish ko'rsatilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatadigan tarbiyachilar zimmasiga yuklanadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yuksak umumiy madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga:

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida “Maktabgacha ta'lim to'g'risida”gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida oladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyani tarbiyachi pedagoglar amalga oshiradi. Har bir ota-ona o'z farzandining bilimdon, yuksak mahoratli, odobli pedagog-tarbiyachi qo'lida ta'lim-tarbiya olishini xohlaydi.

Jamiyat talabi darajasidagi tarbiyachi-pedagoglarni yetishtirish pedagogika oliy ta'lim muassasalarining “Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi zimmasiga tushadi. Mutaxassislik fani bo'lgan Maktabgacha pedagogika fanining nazariy asoslari, ta'lim-tarbiya berishning tartib-qoidalari O'rta Osiyo va jahon ma'rifatparvar, mutafakkir olimlarning asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalashga asoslanadi.

“Maktabgacha pedagogika” fani orqali talabalar ilk yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni, uslublari, uni tashkil etish shakllari va bolalarni maktabga tayyorlashning samarali usullarini bilib oladilar.

“Maktabgacha pedagogika” o'quv-uslubiy majmuasida maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash mazmuni va uslubi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish mazmuni va uslubi hamda maktabgacha ta'lim muassasasi menejmenti, mudira va uslubchi faoliyati, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab va oila hamkorligiga doir masalalar tizimli, izchil va ketma-ketlikda yoritib berilgan.

1-mavzu: ESTETIK TARBIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muassalarida estetik tarbiyaning mazmuni
2. Estetik tarbiyaning mohiyati
3. Estetik tarbiya bolalarni go'zallik bilan tanishtiruvchi vosita

Tayanch so'zlar: *tarbiya, ta'lim, axloq, munosabat, mazmun, tabiat, vosita, bolalar*

Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabat tarbiyalash kiradi. Estetik tarbiya o'z navbatida bolalarga bir qismi hisoblanadi. U ayniqsa axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir.

San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish, hissin tarbiyalab qolmay, shu bilan bir birida uning xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi.

Bolalarni go'zallikka oshno qilish ularda hayotiy voqealarni turri tushunish, olijanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini xis eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham kurish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida o'zoro talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi.

Estetik ehtiyoj-kishi borliqni, badiiy faoliyatni uning har xil ko'rinishlarida estetik idrok etishga undovchi subyektiv omildir. Estetik ehtiyoj guzallik turrisidagi fanning rivojlanish qonuniyatlarini yanada chuquroq o'rganishga undaydi.

Estetik qiziishq shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga yunaltiradi. Estetik qiziqish estetik ehtiyojni yuzaga keltiradi.

“Estetik tarbiya” tushunchasi bilan bir qatorda “badiiy tarbiya” tushunchasi ham mavjuddir.

Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. U shaxsda san'at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va san'atning ma'lum turlari buyicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir. Uning natijasi fiksing paydo bulishida, uni amaliy faoliyatda qo'llashda, o'z bilim va taassurotlarini qo'sha bilishda, his-tuyg'ulari va fikrlarini samimiyat bilan ifodalashda namoyon bo'ladi.

Estetika tabiatdagi, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlarida aks etgan, shuningdek estetik ongning paydo bulishi, rivojlanishi va vazifasi to'g'risidagi qonuniyatlarni, obyektiv borliqni estetik bilishning muhim usullaridan biridir

Go'zallik bilan uchrashish kishida estetik his, ruhiy hayajon, begaraz quvonch uygotadi.

Estetik xisda idrok etilayotgan voqelikka nisbatan xudbinlik oxangi, shaxsiy manfaat nuqtai nazaridan garazli qarashlar bo'lmaydi. N. G. Chernishevskiy bu to'g'rida shunday yozadi: «Kishidagi guzallik hosil qilgan sezgi, odam eng yaqin kishisi bilan uchrashganda paydo buladigan porloq quvonchga o'xshaydi. Biz go'zallikni beqiyos sevamiz, undan eng yaqin kishimizni uchratganda quvongandek завкланиб quvonamiz». Go'zallik insoniyatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida yaratiladi va madaniy-tarixiy tajribaning bir kismini tashkil etadi. Uning mavjudligi, obyektivligi yosh avlodga estetik tajribani sistemali ravishda singdirish va shu orqali ularning estetik tomondan taraqqiy etishini ta'minlaydigan estetik tarbiya nazariyasining faol usullarini ishlab chikishga yo'naltiradi. Bunda tarbiya va ta'lim jamiyatning estetik madaniyatini o'zlashtirishning asosiy vositasi xisoblanadi. Estetik va ahloqiy tarbiyaning o'zaro bogliqligi shundaki, kishining go'zallikni idrok etishdan uvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishiga o'xshab ketadi.

Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmaslik, undan zavqlanmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi. San'atning tarbiyaviy kuchi shundaki, u odamni hayotdagi voqealarni, hodisalarni chuqur his-hayajon bilan idrok etishga majbur etadi. Estetik tarbiy mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bogliqdir. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular bironta foydali ishni bajarayotib kerakli narsani yasayotib, o'zlarining kuch va imkoniyatlari o'sib borayotganini sezadilar. «Go'zallik quvonchisiz mehnat quvonchi bo'lmaydi,- deb yozgan edi V. A. Suxomlinskiy,- ammo bo'larda go'zallik bola ega bo'layotgan narsa emas, balki birinchi navbatda u yaratayotgan narsadir. Mehnat quvonchi - bu turmush quvonchidir». Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo'lsa, u xar qanday qiyin ishda ham go'zallikni ko'ra oladi va uni yaxshi, zo'r shavq-zavq bilan bajaradi. San'at uzining hissiy ta'sir kuchi bilan kishining faqat hissini emas, fikr va irodasini ham maftun etadi, uning tarbiyalovchi roli ham mana shunda namoyon bo'ladi, shuning uchun u estetik tarbiyaning mazmuni va vositasi xisoblanadi.

Estetik tarbiya axloqiy, aloqiy, mehnat va jismoniy tarbiyabilan chambarchas bog'liqdir. Estetik va ahloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi shundaki, kishining go'zallikni idrok etishdan quvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishiga o'xshab ketadi. Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmaslik, undan zavqlanmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi. San'atning tarbiyaviy kuchi shundaki, u odamni hayotdagi voqealarni, hodisalarni chuqur his-hayajon bilan idrok etishga majbur etadi.

Estetik tarbiy mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular bironta foydali ishni bajarayotib kerakli narsani yasayotib, o'zlarining kuch va imkoniyatlari o'sib borayotganini sezadilar.

«Goʻzallik quvonchisiz mehnat quvonchi boʻlmaydi,- deb yozgan edi V. A. Suxomlinskiy,- ammo bularda guzallik bola ega boʻlayotgan narsa emas, balki birinchi navbatda u yaratayotgan narsadir. Mehnat quvonchi-bu turmush quvonchidir».

Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan boʻlsa, u har qanday qiyin ishda ham goʻzallikni koʻra oladi va uni yaxshi bajaradi. Estetik va jismoniy tarbiya oʻrtasida mustahkam bogʻlanish bor. Kishining mustahkamligi, jismoniy kamolotisiz uning goʻzalligini tasavvur etib boʻlmaydi. Uning chiroyli gavda tuzilishi, harakatlarni chiroyli bajarishi, musiqa ostida chiroyli xarakterlar qilishi va xokazolar shular jumlasiga kiradi.

Koʻpchilik pedagog va psixologlarning tadqiqot ishlari bolalarning ijodiy faoliyatlari, hissiyotlari, estetik tasavvurlarining oʻziga xos xususiyatini va ulardagi estetik tasavvur va hissiyotlarning qanday rivojlanishini ochib bergan. Bu tekshirishlar bolalardagi estetik tasavvur va hissiyotlarni rivojlantirishni ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birga qoʻshib olish borish kerak, degan xulosaga olib keldi. Estetik tasavvurning oʻziga xosligi shundaki, idrokning boshqa turlariga qaraganda narsalarni his qilish shakli «koʻrinadigan» va «eshitiladigan» narsalar butunlay boshqa mazmun kasb etadi. Oddiy idrok qilishda narsalarning koʻrinishi, ohangdorligi unchalik muhim bulmay, balki uning ahamiyati muhimdir. Estetik idrok qilishda sa eng muhimi idrok qilayotgan narsaning obrazi, uning ifodali tomonlarini, nozik ranglarini koʻra bilish talab qilinadi. Shuning uchun estetik tarbiya yuqori darajadagi sensor madaniyatni, kuzatuvchanlikning rivojlangan boʻlishini talab etadi. Kishi narsa va hodisalarga goʻzallik mezoniga asoslangan holda, alohida qadr-qiyamat bilan yondoshgandagina estetik kechinmalar paydo buladi. Estetik hislar fikrlash bilan bevosita bogʻliqdir.

Estetik kechinmalarda hap doim xayol ishtirok etadi, bu siz guzallikni idrok etish ham, ijodiy faoliyatni rivojlantirish ham mumkin emas. Xayol faoliyat jarayonida shakllanadi. Oʻyin, rasm chizish, ertaklarni eshitish xayolning ishlashini talab etadi. Dastlabki va xayol faoliyat jarayonida narsalar bilan taʼsir etish natijasida yuzaga keladi. Keyingi bosqichlarda esa ijodiy faollikning tashqi shakllaridan sekin-asta fikrlashga utadi. Bola rayem chizganda yoki uynaganda obrazni tasvirlashdan yoki ifodalashdan oldin shu obrazni xayolida yaratadi. Badiiy asarlarni idrok qilganda ham xuddi shunga uxshash voqea yuz beradiki, bolalar asardagi qahramonlarga xayolan qoʻshilib, ularning xatti-xarakatlarida uz xayollari bilan qatnasha boshlaydilar.

Demak, estetik kechinmalar murakkab xodisa boʻlib, hissiyotlar, xayol va fikrning faol ishlashini, uz fikr va hissiyotlarini ifodalashga, faoliyatga ehtiyoj turilishi kabi xususiyatlarni oʻz ichiga oladi.

Nazorat savollar:

1. Bolalarda estetik tarbiya orqali ijodiy qobiliyati qanday shakllantiriladi?
2. Badiiy asarni idrok qildirish orqali estetik tarbiyani shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

3. Estetik tarbiyaning boshqa tarbiya turlari bilan bog'liqligining mazmun-mohiyati qanday?

2-mavzu: TARBIYALANUVCHILARNING ESTETIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING TARKIBIY QISMLARI

Режа:

1. Estetik tarbiyaning bolalarning hissiy va sensor rivojlanishiga ta'siri
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik madaniyatni shakllantirishda tabiat burchagining o'rni
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilarining estetik madaniyatini shakllantirishning tarkibiy qismlari

Tayanch so'zlar: *estetik, tarbiya, madaniyat, sesor, tabiyat, rivojlanish, bola*

Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo'shqin hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda, hali ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlar-dan huzur qiladi. Bola hayodning birinchi yilida ularning, sansor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Shu yoshdagi bolada hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo'shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki ho'mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning siyratiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyat-larini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim es-tetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi va h. k.

Bolalarda go'zallikni idrok qilish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu ayniqsa ular qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, telespektakllarni tomosha qilganlarida aniq namoyon bo'ladi. Bolalar asar qahramonlari harakatiga bemalol qo'shib harakat qiladilar, ularda mu-ayyan vaziyatda o'zini qanday tutishni aytib turadilar, go'yo o'zlarini ular bilan birga o'ynayotgandek his etadilar. Bu yosh-dagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalar she'rni nasrdan, badiiy asarning ba'zi bir janrlarini, tasviriy faoliyat va musiqaning bir xil turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan va h. k.) bir-biridan ajrata boshlaydilar

Maktabgacha ta'lim muassasasida tabiat burchagi tashkil etiladi. Undagi

hayvonlar va o‘simliklarni kuzatish va parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, go‘zallik yaratish xohishini shakllantiradi va qizg‘in faoliyatga undaydi. Yilning yoz fasllarida polizda, gulzorda, bog‘cha maydonchasida mehnat qilishda ham bolalar estetik zavq ola-dilar. Kuzda o‘z mehnati mevasini yeyish bolaga alohida estetik huzur bag‘ishlaydi, Dala va bog‘larga sayrga borganda tabiatning go‘zalligi va boyligidan, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan benihoya zavqlanishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tomondan tarbiya-lashda san‘atning har xil turlari va janrlaridan (musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san‘ati, adabiyot va h. k.) foydalaniladi.

San‘at yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiligining tuganmas manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda u har bir kishining rivojlanishi, ma‘naviy boyishi uchun ham vositadir.

Badiiy asar kishining his-tuyg‘ulariga ta‘sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikrlashni uyg‘otadi. Badiiy asardan haya-jonlanish fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rasm bolada fikrlar o‘yinini uyg‘otadi. Bu to‘g‘rida S. Y. Marshak shunday degan edi: «Qizil shapkacha» ertagini bolalar qatorasiga 20 marta eshitishga tayyorlar. Bunga sabab ertak o‘z tuzilishi bo‘yicha aniq, uning mantiqi va motivi izchil, har qanday bola o‘zini ertakdagi qahramon o‘rniga qo‘ya oladi va «Qizil shapkacha»ni o‘ynay oladi. San‘atning hamma turlari-adabiyot, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino bolalarga tushunarlidir. San‘atdan bolalar bog‘chasini bezashda, ta‘lim berishda, bolalarning mustaqil faoliyatlarida foydalaniladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalari ganch, chinni, yog‘och, loy, plastilindan xilma-xil buyumlar, o‘yinchoqlar yasash mumkin. Bolalar o‘yinchoqlarining yaxshi namunalaridan guruh xonasini bezatishda foydalansa bo‘ladi.

Gilamchilik, to‘qimachilik, kulolchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, popopchilik, badiiy oyna, metall patnislar, to‘qilgan va tikib gul solingan buyumlar va boshqalar tasviriy san‘atning manzarali shakliga kiradi. Bundan tashqari, bog‘chada har bir viloyat, o‘lka, respublikaning milliy madaniyatidan foydalanish kerak.

Ta‘lim-tarbiya ishlarida o‘zbek xalq amaliy san‘ati namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. O‘zbek naqshlari tushirilgan chiroyli guldor matolar qo‘g‘irchoqlar uchun ko‘ylak, oyna pardalari, dasturxon kabilar uchun ishlatilishi mumkin.

Tasvirda badiiy, musiqa, teatrlashtirish kabi hamma faoliyatlarda qo‘yilgan vazifani bajarishda mustaqillik, ijodkorlikka intilish namoyon bo‘la boshlaydi. Bolalar o‘yinga tushganda, ashula aytganda, sahnalashtirish o‘yinlarida obrazlarning ifodali bo‘lishiga ongli ravishda intila boshlaydilar.

Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san‘at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahra-monlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san‘at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo‘ladi.

Bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi, ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she'rlar to'qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydilar. Endi ular o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo'lib qoladilar.

Quzatayotgan san'at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiiy asarlardagi ba'zi she'riy obrazlarni eslab qoladilar va o'z nutqlarida ishlatadilar. Tevarak-atrofdagi go'zallikka, san'atga, badiiy va o'yin faoliyatining har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi.

Bolalar badiiy asar qahramonlari xatti-harakatiga juda katta his-hayajon bilan munosabat bildiradilar, ammo asardagi qahramonlar xulqidagi yashirin sabablarni «ular hali anglab yeta olmaydilar, Bolalarda badiiy ijodkorlikning rivojlanishi davom etadi, ammo ularning fikrlari hali aniq, barqaror emasligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, maktabgacha tarbiya yoshi davri tarbiyaviy ta'sir orqali bolalarni estetik ruhda tarbiyalash maqsadlaridan va uning bola shaxsini shakllantirishda tutgan o'rnidan kelib chiqib, estetik rivojlanishlarini takomillashtirishdir

Estetik tarbiya keng maioli lushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi.

Estetik tarbiya o'z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U, ayniqsa, axloqiy tarbiya bilan uzviy bogliq. San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarda go'zallikni idrok etishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish: xursandchiliklariga sherik bo'lish, qay-g'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

«Estetik tarbiya» tushunchasi bilan bir qatorda «badiiy tarbiya» lushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. Estetik va axloqiy tarbiyaning o'zaro bogliqligi shundaki, kishining go'zallikni idrok etishdan quvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishiga o'xshab ketadi. Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmaslik, undan zavqlana olmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi.

Tarbiyaning bu turi mehnat tarbiyasi bilan ham bogliq. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular biror bir foydali ishni bajarayotib, o'zlarining imkoniyatlari o'sib borayotganligini sezadilar.

Estetik va jismoniy tarbiya o'rtasida o'zaro boglanish bor. Kishining mustahkam sog'iigi, jismoniy kamolotisiz uning go'zalligini tasavvur etib bolmaydi. Uning chiroyli gavda tuzilishi, musiqa oslida chiroyli harakatlar qilishi shular jumlasiga kiradi.

Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik hayoti bilan chambarchas bogliq. Ilkyoshdagi bolalarni nazarda tutganda ham ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand boiadi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida uning sensor-hissiy

qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bunda kattalarning ta'siri alohida o'rinni egallaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan so'zlashuvlari bolaga buyumlarning xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ularning yuzidagi xursandchilik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib berishlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillashib boradi. Bola endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini idrok eta boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amginligiga ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi.

O'rta guruh bolalarida go'zallikni idrok etish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu, ayniqsa, qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, teatrlarni tomosha qilganlarida namoyon bo'ladi. Bu yoshdan boshlab bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalar ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan ajrata boshlaydilar. Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar. Ularda ijobiy qahramonlardan quvonib, salbiy qahramonlarning harakatlardan xafa bo'lish holatlari yuz beradi. Bolalarning sevimli yozuvchilari Qudrat Hikmat, Mirmuhsin, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiyning bolalar uchun yozgan she'rlari ularda ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalaydi, ularni yashashga o'rgatadi, dunyoqarashini shakllantiradi, ona tilining boyligini, so'zlarning ta'sirchanligini his qilishga yordam beradi. Kichkintoylar hammadan ham ertaklarni sevadilar. Ertakning yaxshi tomoni shuki, unda uzoq fikr yuritilmaydi. Ertak qahramonlari bolaga yaqin va tanish. Ertak tili hayotiy hamda jonli bo'ladi. Eng muhimi, tarbiyachining o'zi badiiy adabiyot-ni sevishi va tushunishi, nasriy asar va she'rlarni ifodali o'qiy bilishi kerak. Bolalar bog'chasida kattalar rahbarligida bolalar tomonidan konsertlar, bayramlar, kichkintoylarning tug'ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg'otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan qilib tashkil etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim qismi' bo'lib, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog'langan xolda amalga oshiriladi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha tarbiya yoshi davri tarbiyaviy ta'sir orqali bolalarni estetik ruhda tarbiyalash maqsadlaridan va uning bola shaxsini shakllantirishda tutgan o'rni qanday?
2. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda san'atning qanday turlari va janrlaridan foydalaniladi.
3. Estetik madaniyatni shakllantrishda ertaklarning ahamiyati nimalardan iborat?

3-mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING ESTETIK RIVOJLANISHIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi vazifalarining o'ziga xosligi
2. Turli yoshdagi bolalarning estetik madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati
3. Kichik yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasining katta yosh guruhlardagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'ziga xos xususiyatlar.

Tayanch so'zlar: *tarbiya, vazifa, yosh, bola, rivojlanish, madaniyat, gurux, voqea*

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Estetik tarbiya oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. Bolalarni hayotdagi, voqelikdagi go'zallikni tushunishga, sevishtga, tabiatda va turmushda, yaratuvchilik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilar xatti-harakatida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash, kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, rasm va boshqalar) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishtga o'rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini shakllantirish; chiroylini xunuk-dan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish; ranglarni, shakl, tovushlarni bir-biridan ajrata olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

3. Bolani san'atning turli sohalari: ashula, o'yin, she'r o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat (ijodiy o'yin, hikoya qilib, rasm chizish, biror narsa yasash yoki qurish) ka-bilarda yanada faolroq harakat qilish va o'zini ko'rsata bilishga o'rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, fazoviy va rang munosabatlari-ni, mo'ljalga olish, ko'rish xotirasi, qo'llarni chaqqon harakat qildirish olish malakasi, jo'shqin kayfiyatni ko'rsatuvchi hissiy sezgirlikni rivojlantirish va h. k.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning har bir yosh guruhlarida estetik tarbiya berishning mazmuni va metodlari ishlab chiqiladi.

Estetik tarbiyaning mazmuni bolaning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni, estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Bular quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

-o'yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash;

-san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berish.

Pedagogika fanida bolalarni chizishga, loy va plastilindan narsalar yasashga, ashula aytishga va shunga o'xshashlarga o'rgatish metodikasi mukammal ishlab chiqilgan.

Bola ijodining mazmuniga ta'sir etadigan asosiy vosita, bolani hayajonlantiradigan, uning xayol va hislariga ta'sir etuvchi narsa tevarak-atrofdagi yorqin, jonli taassurotlardir.

Badiiy faoliyatning hamma turlarida ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish estetik idrok va hislarni rivojlantirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Agar bola qishki tabiatning go'zalligini his eta olsa, u albatta shu go'zallikni rasmda, hikoyasida aks ettiradi. Agar bola badiiy adabiyotlardagi obrazlarni idrok eta olsa, undagi qahramonlar bola tushunchasiga yaqin bo'lsa, bunday kitoblar bolalar o'yini uchun kerakdir.

Bolalarga estetik zavq uyg'otish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bola-larning hislariga ta'sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalarning namunasidir. Tarbiyachi-ning o'zi zavqlansa, ortiqcha so'zlersiz go'zallikka qiziqish uyg'ota oladi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi.

Bolalar tarbiyachidan «Nima uchun oltin kuz deyiladi?»- deb so'rashadi, tarbiyachi istirohat bog'iga borib ko'ramiz, deb javob beradi. Bog'ta borishganda bolalarga taklif etadi: «Sayr qilib daraxtlarni, yo'lkalarni kuzatamiz». Bog'ning eng xushmanzara joyiga kelganda bolalar to'xtab, jim atrofga nazar tashlashadida, nima uchun oltin kuzligini tushundik. Chunki barglar tillaga o'xshaydi. «Ana qizil barglar», deyi-shadi ular hayajon bilan. Shamol bo'lishi bilan barglar yerga tushadi. yo'lklar esa gilamga o'xshaydi.

Ko'chaga sayrga chiqishadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Biz hozir sizlar bilan bog'cha ko'chasidan yurib o'tamiz. Sizlar diqqat bilan kuzatib boringlar, kim qanday chiroyli narsa ko'rsa, sayrdan keyin so'zlab beradi».

Shuni ta'kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalar-ni shu ajoyibotni ko'ra bilishga, undan hayratlana olishga o'rgatish lozim. Tabiatning go'zalligini va ajoyibligini inson hayot go'zalligiga, san'at go'zalligi va ajoyibotiga aylantiradi.

Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go'zalligi hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg'ular va xayollarda saqlangan go'zalligi bolalikda ayniqsa yorqin va chuqur idrok qilinadi, inson ularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o'zgarishi va uyg'unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o'rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko'rib, atrofdagi go'zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar.

Musiqqa bolalarning kayfiyatini ko'tarib ertalabki badan tarbiyada yangray boshlaydi. Iilning quruq va issiq vaqtlarida ekskursiya, sayr va o'yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko'taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg'unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag'ishlaydi.

Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynai jahonda san'at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida katta yordam beradi.

Ashula aytib o'yinga tushishda asosan xalq ijodi asarlaridan foydalaniladi, bu bolalarni ahloqiy-estetik tarbiyalash uchun g'oyat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylari va obrazlarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi, musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqsga tushishga o'rgatishda faqat to'g'ri aytish va to'g'ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish va yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o'rgatiladi.

Bolalarning badiiy qobiliyatlarini tarbiyalash masalasi ularning ijodiy o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun bolaga o'rgatish, undagi ijodiy tashabbusni rivojlantirish ishi bir-biri bilan uzviy aloqada amalga oshirilishi lozim. Pedagog tarbiyaviy nuqtai nazardan yondashib, bola ijodining eng birinchi, hali to'liq namoyon bo'lmagan tomonini seza bilishi va baholay olishi kerak, bu bilan u boladagi kamolot yo'lini to'g'ri belgilashi mumkin.

MTMda o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiyaning vositalaridan biri qo'g'irchoq teatrdir. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi (o'yinchoqligi), shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi kishi ko'zi o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qolmay, balki unda o'zlari ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatik qobiliyati, tashabbusi, nutqini o'stiradi, hayotiga quvonch bag'ishlaydi

Kichkintoylar, ayniqsa 2-3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri ayniqsa qatta So'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga «o'qib» berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Qattalar mehnati, qahramonlik, shuningdek, ona Vatanga bo'lgan muhabbat, do'stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo'lishlari kabi temalarda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir.

Nazorat savollari:

1.Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasining rivojlantirishda qo'g'irchoq teatrlarining o'rni qanday?

2.Sayr va ekskursiyalarning tarbiyalanuvchilarning estetik tarbiyasini shakllantirishda qanday ahamiyatga ega?

3.Bolalarning badiiy qobiliyatlarini ijodiy o‘sishi nima bilan bog‘liq?

4-mavzu:TARBIYALANUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASH OMILLARI VA VOSITALARI

Режа:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni estetik tarbiyalash omillari
2. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni estetik tarbiyalash vositalari
3. Bolalarda estetik tarbiyani shakllantirishda kattalarning o‘rni

Tayanch so‘zlar: *bola, tarbiya, ta’lim, vosita, muhit, tabiat, faoliyat*

Maktabgacha ta’lim muassasalarida estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

- bolalarni urab turgan muhit, turmush estetikasi;
- tevarak-atrofdan olingan taassurotlar;
- tabiat, san’at asarlari;
- bolalarning tasviriy faoliyatlari;
- bayramlar, kungil ochar tadbirlar;
- ma’lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta’lim.

Maktabgacha ta’lim muassasalarini urab turgan guzallik muhiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi.

Pedagogika sistemasiga xos bulgan estetika va etikaning birligini oilada, bolalar bogchalarida kichkintoylarnn tarbiyalashda bemalol qo‘llash mumkin. Lekin turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo‘lishlari talab etiladi. Tarbiyachi bolalarning did, yaxshilab joylashishiga kuyilgan mebelga, chiroyli idishlarga, gullarga qaratadi. Harbir yangi narsa, yangi bezak bolalar bilan birga kurib chitsnladi. Eng muhimi, hamma narsalarni bolalarda estetik zavqni quzg‘ata oladigan qilib ko‘rsatish kerak.

Bolalarga estetik zavq uygotish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bolalarning hislariga ta’sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalarning namunasidir. Tarbiyachining uzi zavqlansa, ortiqcha suzlarsiz guzallikka qiziqish uyg‘ota oladi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi. Bolalar tarbiyachidan «Nima uchun oltin kuz deyiladi?»-deb so‘rashadi, tarbiyachi istirohat bog‘iga borib ko‘ramiz, deb javob beradi. Bog‘ga borishganda bolalarga taklif etadi:

Shuni ta’kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalarni shu ajoyibotni ko‘ra bilishga, undan ayratlana olishga o‘rgatish lozim. Tabiatning go‘zalligini va ajoyibligini inson hayot go‘zalligiga, san’at go‘zalligi va ajoyibotiga aylantiradi.

Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat guzalligi xattoeng kichik bolani ham quvontiradi. Uning

tuygular va xayollarda saqlangan go‘zalligi bolalikda ayniqsa yorqin va chuqur idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarni tabiatning rang-barangligiga, uning uzgarishi va uygunligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uygotadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o‘rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini ko‘rib, atrofdagi go‘zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar. MTMda tabiat burchagi tashkil etiladi. Undagi xayvonlar va usimliklarni kuzatish va parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan tugri munosabatni, guzallik yaratish xo‘shini shakllantiradi va qizg‘in faoliyatga undaydi. Yilning yoz fasllarida polizda, gulzorda, bogcha maydonchasida mehnat qilishda ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o‘z mehnati mevasini yeyish bolaga alohida estetik huzur bag‘ishlaydi. Dala va bog‘larga sayrga borganda tabiatning go‘zalligi va boyligidai, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan benihoya zavqlanishadi. MTMda bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda san‘atning har xil turlari va janrlaridan (musika, rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san‘ati, adabiyot va .x. k.) foydalaniladi.

San‘at yuksak estetik zavkning, kishi xursandchiligining tuganmas manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda har bir kishining rivojlanishi, маънавий бойиши учун ham vositadir. Badiiy asar kishining his-tuygulariga ta‘sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikrlashni uygotadi, Badiiy asardan hayajonlanish fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rayem bolada fikrlar o‘yinini uygotadi. Bu tugrida S.YA.Marshak shunday degan edi: «Qizil shapkacha» ertagini bolalar qatorasiga 20 marta eshitishga tayyorlar. Bunga sabab ertak o‘z tuzilishi bo‘yicha aniq, uning mantini va motivi izchil, har kanday bola o‘zini ertakdagi qahramon o‘rniga qo‘ya oladi va «Kizil shapkacha»ni uynay oladi. San‘atning hamma turlari - adabiyot, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino bolalarga tushunarlidir.

Musiqqa bolalarning kayfiyatini ko‘tarib ertalabki badan tarbiyada yangray boshlaydi. yilning quruq va issiq va ekskursiya, sayr va uyin va ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini kutaradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uygunlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag‘ishlaydi.

Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san‘at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynai jahonda san‘at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida katta yordam beradi.

Ashula aytib uyinga tushishda asosan xals ijodi asarlaridan foydalaniladi, bu bolalarni ahloiqy-estetik tarbiyalash uchun g‘o‘yat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylari va obrazlarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarli hislarini tarbiyalaydi, musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqsga tushishga o‘rgatishda faqat to‘g‘ri aytish va to‘g‘ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish va yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o‘rgatiladi.

Nazorat savollari:

1. Estetik tarbiya qanday maqsadni ko'zlaydi?
2. Qanday tarbiya estetik munosabatni san'at vositalari yordamida shakllantirish maqsadini ko'zlaydi?
3. Shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi subyektiv omillar qanday nomlanadi?

5-mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA TA'LIMI VA TARBIYASINING MAQSAD HAMDA VAZIFALARI

Reja:

1. Maktabgacha ta'limda musiqiy mashg'ulotlarning tashkil etilishi
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsadi
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'lim-tarbiyasining vazifalari

Tayanch so'zlar: *Hayot, go'zallik, musiqa, ta'lim, tarbiya, vazifa, ijod, tabiat*

Bolalarni hayotdagi go'zallikni tushunishga, sevishtga, tabiatda, turmushda, yaratuvchanlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilarning xatti-harakatlarida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash. Kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, raqs, rasm) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishtgao'rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini shakllantirish; chiroylini xunukdan, g'amginlikni xursandchi likdan farqlay olish; ranglarni, shakl, tovushlarni bir-biridan farqlay olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

Bolalarni san'atning turli sohalari: ashula, o'yin, o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyatlarda yanada faolroq harakat qilish, o'zini ko'rsata olishgao'rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolnio'stirish, fazoviy va rang munosabatlarini, ko'rish xotirasi, qo'llarni chaqqon harakatga keltira olish malakalarini rivojlantirish.

Bolalar bog'chasini o'rab turgan go'zallik muliiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi.

Pedagogika sistemasiga xos bo'lgan estetika va etikaning birligini oilada, bolalar bog'chalarida kichkintoylarni tarbiyalashda bemalol qo'llash mumkin. Lekin haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo'lishlari talab etiladi.

Bolalarnio'rab turadigan chiroyli narsalarningo'zi bolaga hech narsa bermaydi, shuning uchun bolalarni ularni ko'rishga, qadrlashga, baholay bilishgao'rgatish kerak. Tarbiyachi bolalarning diq-qatini polning tozaligiga,

chiroyli idishlarga, gullarga qaratadi. Har bir yangi narsa, yangi bezak bolalar bilan birga ko'rib chiqiladi. Eng muhimi, hamma narsalami bolalarda estetik zavq uyg'otadigan qilib ko'rsatish kerak.

Bolalarda estetik zavq uyg'otish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bolalarning hislariga ta'sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerdan kattalarning namunasi. Tarbiyachiningo'zi zavqlansa, ortiqcha so'zlarisiz go'zallikka qiziqish uyg'otadi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi.

Bolalar tarbiyachidan: «Nima uchun oltin kuz deyiladi?» deb so'rashadi, tarbiyachi istirohat bog'iga borib ko'ramiz, deb javob beradi. Boqqa borishganda bolalarga taklif etadi: «Sayr qilib daraxtlarni, yo'lkalarni kuzatamiz». Bog'ning eng xushmanzara joyiga kelganda bolalar to'xtab, atrofga nazar tashlashadida: «Nima uchun oltin kuzligini tushundik. Chunki barglar tillagao'xshaydi. Ana qizil barglar», deyishadi hayajon bilan. Shamol bo'lishi bilan barglar yerga tushadi. Yo'lkalar esa to'shalgan gilamgao'xshaydi.

Ko'chaga sayrga chiqishadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Biz hozir sizlar bilan bog'cha ko'chasidan yuribo'tamiz. Sizlar diqqat bilan kuzatib boringlar, kim qanday chiroyli narsa ko'rsa, sayrdan keyin so'zlab beradi».

Shuni ta'kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalarni shu ajoyibotni ko'ra bilishga, undan hayratlana olishgao'rgatish lozim. Tabiatning go'zalligini va ajoyibligini inson hayot go'zalligiga, san'at go'zalligi va ajoyibotiga aylantiradi. Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go'zalligi hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg'ular va xayollarda saqlangan go'zalligi bolalikda ayniqsa yorqin va chuqur idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uningozgarishi va uyg'unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashgao'rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko'rib, atrofdagi go'zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar.

Tarbiyachi bolalarning g'unchadagi bir tomchi shabnamda ham, o'tlarning biri ikkinchisi bilan qo'shib ketishida ham, qu-yoshning nur taratishida ham, oqshom bo'yoqlarida ham tabiat go'zalligini ko'ra bilishlariga yordam beradi.

Bolalar bog'chasida tabiat burchagi tashkil etiladi. Undagi hayvonlar vao'simliklarni kuzatish va parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to'g'ri munosabatni, go'zallik yaratish xohishini shakllantiradi va qizg'in faoliyatga undaydi. Yilning yoz faslida polizda, gulzorda, bog'cha maydonchasida mehnat qilishda ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzdao'z mehnati mevasini yeyish bolaga alohida estetik huzur bag'ishlaydi. Dala va bog'larga sayrga borganda tabiatning go'zalligi va boyligidan, u yerdagi dehqonlarning yaraluvchilik mehnallaridan benihoya zavqlanishadi.

Bolalar bog'chasida bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda san'atning har xil turlaridan (musiqqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati,

adabiyot va h.k.) foydalaniladi. San'at yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiligining tuganmas manbayi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda u har bir kishining rivojlanishi, ma'naviy boyishi uchun ham vositadir.

Badiiy asar kishining his-tuyg'ulariga ta'sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikrlashni uyg'otadi. Badiiy asardan hayajonlanish fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rasm bolada likrlaro'yinini uyg'otadi. Bu to'g'rida S.Y.Marshak shunday degan edi: «Qizil shapkacha» ertagini bolalar qatorasiga 20 marta eshishga tayyorlar. Bunga sabab ertako'z tuzilishi bo'yicha aniq, uning mantiqi va motivi izchil, har qanday bolao'zini ertakdagi qahramono'rniga qo'ya oladi va «Qizil shapkacha»nio'ynay oladi». San'atning hamma turlari-adabiyot, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino bolalarga tushunarlidir.

San'atdan bolalar bog'chasni bezashda, ta'lim berishda, bolalarning mustaqil faoliyatlarida foydalaniladi. Bolalar bog'chasida ganch, chinni, yog'och, loy, plastilindan xilma-xil buyumlar,o'yinchoqlar yasash mumkin. Bolalaro'yinchoqlarining yaxshi namunalaridan guruh xonasini bezatishda foydalansa bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya ishiarida o'zbek xalq amaliy san'ati namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. O'zbek naqshlari tushirilgan chiroyli guldor matolar qo'g'irchoqlar uchun ko'ylak, oyna pardalari, dasturxon kabilar uchun ishlatilishi mumkin.

Musiqa bolalarning kayfiyatini ko'tarib ertalabki badantarbiyada yangray boshlaydi. Yilning quruq va issiq vaqtlarida ekskursiya, sayr va o'yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko'taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg'unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag'ishlaydi.

Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynayi jahonda san'at ustalari va tengdoshlari ijro etgan acapлар bolalarning estetik rivojlanishida kalta yordam beradi. Ashula aytib o'yinga tushishda, asosan, xalq ijodi namunalaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun g'oyat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi, musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqsga tushishgao'rgatishda faqat to'g'ri aytish va to'g'ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish, yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o'rgatiladi.

Bolalarning badiiy qobiliyatlarini tarbiyalash masalasi ularning ijodiy o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun bolagao'rgatish, undagi ijodiy tashabbusni rivojlantirish ishi bir-biri bilan uzviy aloqada amalga oshirilishi lozim. Pedagog tarbiyaviy nuqtayi nazardan yondashib, bola ijodining eng birinchi, hali to'liq namoyon bo'lmagan tomonini seza bilishi va baholay olishi kerak, bu bilan u boladagi kamolot yo'ini to'g'ri belgilashi mumkin.

MTMda o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuclii vao'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik

mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan bogliq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'yib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiya vositalaridan biri qo'g'irchoq teatridir. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishining sababi soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi (o'yinchoqligi), shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi kishi ko'zio'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qolmay, balki undao'zlari ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatik qobiliyati, tashabbusi, nutqinio'stiradi, hayotiga quvonch bag'ishlaydi.

Qo'g'irchoq teatri, soya teatri ko'rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda alohido'rin egallaydi. Bu o'yinchoq, qo'g'irchoqlar bolalarga tanish bo'lsada, ularni tarbiyachi qoii yordamida harakatga keltirib, badiiy so'zlar bilan qo'shib olib borishi natijasida ular bolaning ko'z o'ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar.

Badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rolo'ynaydi, kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

Kichkintoylar, ayniqsa 2-3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri katta boiadi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qaytao'zo'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchoq'iga «o'qib» berish bilan uning mazmuninio'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Kattalar mehnati, qahramonlik, shuningdek, ona Vatanga boi-gan muhabbat, do'stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon boiishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir.

Bolalarning sevimli yozuvchi va shoirlari Qudrat Hikmat, Mirmuxsin, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiyning bolalar uchun yozgan she'rlari ularda ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalaydi, ularni yashashga o'rgatadi, dunyoqarashini shakllantiradi, ona tilining boyligini, so'zlarning ta'sirchanligini his qilishga yordam beradi.

Kichkintoylar hammadan ham ertaklarni sevadilar. Ertakning yaxshi tomoni shuki, unda uzoq fikr yuritilmaydi. Ertak qahramonlari bolaga yaqin va tanish. Ertak tili hayotiy hamda jonli boiadi. Eng muhimi, tarbiyachining o'zi badiiy adabiyotni sevishi va tushunishi, nasriy asar va she'rlarni ifodalio'qiy bilishi kerak.

MTMda kattalar rahbarligida bolalar tomonidan konsertlar, bayramlar, kichkintoylarning tug'ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg'otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan qilib tashkil etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya bolalarni har tomolama barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim qismi boiib xizmat qiladi.

Nazorat savollar:

1. Musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa tinglash, musiqa savodi,

qo‘shiq kuylash, bolalar cholg‘u asboblari jo‘r bo‘lishni izohlab bering?

2. Shaxsni ijtimoiy voqelik go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni qanday nomlanadi?

6-mavzu: MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TARBIYA BERISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI FIKRLARIDAN FOYDALANISH

Reja:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda sharq mutafakkirlari fikrlari.

2. Bolalarning iqtisodiy bilimni oshirishda tarbiyaning o‘rni.

Tayanch so‘zlar: *Iqtisod, tarbiya, ta’lim, bolalar, vatanparvar, tabiat*

Kattalarga hurmat ila munosabatda bo‘lish tarixga bo‘lgan hurmat, ehtiromning bir qirrasidir. Unut bo‘lgan tariximizni tiklash, payhon bo‘lgan zaminimizni poklash, kelajak avlodga ajdodlarimizdan qolgan merosimizni eson-omon yetkazish - har bir insonning, vatanparvar, xalqparvar, tarixparvar insonlarning ham qarzi, ham farzidir.

Vatan tuyg‘usi kichkina odam ko‘z o‘ngida ko‘rayotgan narsadan qoyil qolishidan, uni hayratlantiradigan va qalbida aks-sado beradigan narsalardan boshlanadi.

Kattalarning vazifasi - bola oladigan ko‘plab taassurotlardan unga eng tushunarli bo‘lganlarini: eng yaqin kishilari, jonajon o‘lka tabiati va hayvonot dunyosi, kishilarning xalq farovonligi, vatanning gullab-yashnashi yo‘lidagi mehnati, o‘r-toqlik, o‘zaro yordam va boshqalarni tanlab berishdan iboratdir.

Xo‘sh, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tushunchasiga nima ko‘proq mos keladi va nima uni qiziqtirishi va hayajonlantirishi mumkin?

Dastavval, bu u tug‘ilgan va yashayotgan joylardir. Jonajon ona tabiat vatanga muhabbatni tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi. Uning go‘zalligi bilan zavqlanish, tabiat dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishdan, inson mehnatining tabiatdagi o‘zgartiruvchilik rolini tushunishigacha - bularning hammasi jonajon o‘lkaga muhabbatni shakllantirishning manbalaridir. Bolalikda jonajon tabiat haqida hosil qilingan yorqin taassurotlar inson xotirasida bir umrga saqlanib qoladi, chunki uning obrazlarida vatan o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Odam vatanga bo‘lgan muhabbatini o‘zi tug‘ilgan va o‘sgan oilasi, bolalar bog‘chasi va maktabi, bolalar bilan o‘ynagan o‘yinlari va joylari bilan bog‘laydi.

Vatanga muhabbatni tarbiyalash. Vatanga muhabbat eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalmilalchilik hissi bilan uyg‘unlashib ketadi. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e’tiborga olgan holda ma’lum izchillik bilan

tarbiyalab boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Tarbiyachilar bolalarda o'z oilasiga, uyiga, bolalar bog'chasiga va bolalarni o'rab turgan tevarak-atrofga mehr-muhabbatni va ularga sodiq bo'lishni tarbiyalayotib, eng muhim ijtimoiy his bo'lgan vatanga muhabbatni tarbiyalab boradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar tevarak-atrofdagi voqea, hodisalarning faqat tashqi belgilarini anglab oladilar. Ular Hayit, Navro'z bayramini hamma kishilar shodiyonalik, bilan kutib olishlarini ko'radilar, bundan juda zavqlanadilar, ammo buning saboblari, natijalari bilan qiziqmaydilar. Masalan:

Mehnat kilsang, ko'ksing tog',

Hurmat qilsang, diling bog'.

Mehnatli non - shakar,

Mehnatsiz non - zahar.

Mehnat baxt keltirar.

Mehnat qilib topganing,

Qandu asal totganing.

Bu maqollar orqali dono xalqimiz mehnatni ulug'laydi uning samarasi haqida fikr yuritadi. O'zbek bolalar yozuvchi va shoirlari ham kattalar mehnatning mazmunini yoritib berganlar.

Yuqorida aytganlarimizdan ko'rinib turibdiki, mehnat har qanday moddiy va ma'naviy boyliklarning asosiy manbal shu bilan birga shaxsni har tomonlama kamol toptirishnin; muhim vositasidir. Mehnat jarayonida insoniy hislatlarnin faol namoyon bo'lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi va har bir kishida ma'naviy qoniqish hosil qiladi.

Har bir bola maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnatga ishtirok etishi zarur. Bolalar bog'chasida, oilada bajariladigan uncha murakkab bo'lmagan har bir topshiriq o'king kundalik vazifasiga aylanishi kerak.

Bola mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunib yetishl uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o'zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatyash yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi.

Bolalar quruvchilarning mehnatini kuzatishyapti, deylik. Qurilish maydonchasiga katta-katta bloklar keltirilib, ular ko'tarma kran bilan tushiriladi. Keyin bolalar g'isht teruvchilar, duradgorlar, suvoqchilar, tom yopuvchilar, bo'yoqchilar mehnatini kuzatadilar.

Bolalarning qurilish bilan tanishish davomida bilib olgan barcha tasavvur va tushunchalari, ularning ko'zi oldida ajoyib bino bunyod etgan kishilar mehnatining go'zalligi namoyon bo'ladi.

Mana, tarbiyachi bolalar diqqatini chinni buyumlarga gul sotuvchi kishilar mehnatiga jalb etadi.

Tarbiyachi bolalarga jonajon shahar, qishloqdagi eng chi-royli ko'chalarni, maydonlarni, binolarni, bog'larni ko'rsatadi. Ko'chalar, maydonlar, xiyobonlarning nomi shahar yoki qishloqning tarjimai holini, xalqning

o‘tmishini anglati-shini tushuntiradi. Bu nomlar buyuk olimlar, sarkardalar, yozuvchilar, xalq z‘ozlagan boshqa kishilar sharafiga qo‘yilganini tushuntiradi.

Pedagog kichik guruhdan boshlab bolalarda jonajon o‘lka tabiatiga muhabbat uyg‘otishi, uning go‘zalligini his etish qobiliyatini tarbiyalashi, uning boyliklarini saqlash va ko‘paytirish istagini uyg‘otib borishi lozim. Buning uchun u bolalar bilan bog‘larga, polizga, issiqxonalarga, paxta dalasiga, gulzorga, daryoga, pillaxonalarga, tovuqxona, fermalarga sayr-ekskursiyalar uyushtiradi.

U o‘zbek va boshqa millat yozuvchi-shoirlarining tabiat haqidagi she‘r va qo‘shiqlaridan, buyuk rassomlarning rasmlaridan foydalanadi. Tarbiyachi bolalarni jumhuriyatimizning boshqa nohiya va qishloqlari, shaharlari, undagi ijtimoiy hayot bilan tanishtiradi. Bolalar kitob, hikoya, kinofilmlardan bepoyon vatanimiz xalqlari, ularning hayoti va mehnati, o‘lkamiz boyliklari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Tarbiyachi «Vatan», «Bizning shahar», «O‘zbekistonning poytaxti-Toshkent», «Qishlog‘imizning eng yaxshi kishilari», «Shahrimizning eng yaxshi kishilari» va shunga o‘xshash mavzular bo‘yicha kitob va rasmlar tanlaydi, turli albomlar, papkalar tayyorlab, bolalar bilan olib boradigan ta‘lim-tarbiyaviy ishida foydalanadi.

Nazorat savollar:

1. Bolalarga bilim berishdagi iqtisodiy ta‘lim tarbiya ishida mutaffakkirlarning fikrlarining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Bolalarga iqtisodiy ta‘lim tarbiya berishdan maqsad nima?

7- mavzu: MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TARBIYA

Reja:

1. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berish yo‘nalishlari
2. Turli yoshdagi bolalarda iqtisodiy tarbiya berish shakllari
3. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishning maqsad va vazifalari

Tayanch so‘zlar: *tarbiya, ta‘lim, mehnat, iqtisod, estetik, bolalar*

Inson o‘z kamoloti davo‘ida turli yo‘nalishda tarbiyalanadi. Ular ma‘naviy, ma‘rifiy, ekologik, vatanparvarlik, huquqiy, mehnatsevarlik, fuqarolik, estetik, jismoniy va iqtisodiy tarbiya kabi yo‘nalishlarda joriy etilgan. Ular ichidan iqtisodiy tarbiya bo‘lajak mutaxassislarni jamiyat va davlat, qolaversa, oiladagi jarayonlarga ongli munosabatini shakllantirish bilan birgalikda, tejamkorlikni, isrofgarchilikka nafratni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, tashabbuskorlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabi iqtisodiy jihatlarni qamrab oluvchi insoniy fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy asosdir.

Demak, iqtisodiy tarbiya insonning ham ma'naviy jihatdan, ham moddiy jihatdan yuksaklik sari sa'y-harakatlarini ta'minlashdan iborat.

Barkamol avlodni tejamkorlik ruhida tarbiyalashda iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Ma'lumki, insonning kundalik turmush tarzi mehnat yoki boshqa bir faoliyat turi bilan bog'liq bo'ladi. Ularda mehnat (xoh jismoniy bo'lsin, xoh aqliy) sarfining nechog'liq kam bo'lib, yuqori samaradorlikka erishish muhimdir.

Kam mehnat sarflab, ko'proq (yaxshiroq) natijani qo'lga kiritish ushbu sohadagi optimal variant hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya bolalarning tevarak-atrofdagi muhitni, muayyan buyumlarni anglab, ularni avaylab-asrash va bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, ularga nazariy bilimlarni qo'Uash imkoniyatini yaratib beradi va ularning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi.

Iqtisodiy tarbiya - ishlab chiqarishning jamiyatda tutgan o'rni, ishlab chiqarish vositalari va ish qurollarining mohiyati, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o'rgatish va odamlarda shu bilimlarga ko'nikma hosil qilish.

Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy **maqsadi** o'quv mashg'ulotlarini olib borishda talaba-yoshlar ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator **vazifalarni** hal qilishga to'g'ri keladi. Ular quyidagilar:

- Iqtisodiyotning mohiyatini anglatish orqali inson iqtisodiy qudratining oila va davlat iqtisodiy qudratini yuksaltirishdagi ahamiyatini yoritish;
- Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylash;
- tejamkorlik, ishbilarmonlikka muhabbatni uyg'otish;
- oila budjeti va moddiy boyliklarni sarflash haqidagi bilimlarni yuksaltirish;
- tejamkorlik va boylikni ijtimoiy burch sifatida qarash;
- moddiy va ma'naviy boyliklar haqida muntazam ravishda tasavvurlar shakllantirish;
- iqtisodiy faoliyatni tashkil etishga ongli munosabatni tarbiyalash;
- iqtisodiyotni ilmiy asosda tashkil etish;
- mehnat samaraligidan faxrlanish.

Har qanday tarbiyada ham o'sha tarbiyaga tegishli tushunchalarning mazmunini to'liq anglab yetish o'sha tarbiya samaradorligini oshirishi hech kimga sir emas.

Bu borada o'quv yurti va oila sharoitida talaba-yoshlarning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirishda, ularni hamkorlikka va ishbilarmonlikka chaqirishni, iqtisodiy hisob-kitoblarni o'rganishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish iqtisodiy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiyada tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti va boylik kabi tushunchalarning muhim ahamiyati bor.

Ular ichidagi boylik tushunchasiga juda qadimdan boshlab turli fikrlar

bildirilgan.

• Talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishda tarbiyaning mazmun-mohiyatiga e'tibor berilsa, ijobiy pedagogik samarani qo'lga kiritish mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotda dastavval, oila budjeti va iqtisodiy qudrati eng muhim asoslardan ekanligi hech kimga sir emas. Shu sababli oila budjeti to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Oila budjeti.

➤ Inson shaxs sifatida shakllandimi, endi u oilaga va jamiyatga xoh iqtisodiy, xoh ma'naviy jihatdan bo'lsin foydasi tegishini harakatlarni qilishi lozim. Ayniqsa, shaxs oilali bo'lganida oila iqtisodiy qudratini mustahkamlash asosiy vazifa bo'lish kerak.

➤ Oila budjetini mustahkamlash va sarflashda quyidagilarga e'tibor berib borish zarur:

➤ oilaviy ehtiyoj;

➤ oilaviy orzu-havas;

➤ oila ravnaqini o'ylash va shu kabilar.

➤ Bunda oilaviy ehtiyoj zarur, uni bajarishga harakat qilish kerak.

➤ Oilaviy orzu-havas, oila ravnaqi uchun imkoniyat darajasida harakat qilish lozim.

➤ Demak, iqtisodiy tarbiyani oiladan boshlash talab qilinadi. Bu orqali oilasiga va qolaversa, shaxsan o'ziga tegishli bo'gan imkoniyat hamda ne'matlarning qadr-qimmatiga etishga erishiladi. Bularning keyingi holatlarda ham, ya'ni o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limdagi o'quv muassasalarida ham iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga ijobiy ta'siri katta bo'ladi.

➤ Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib kelavergan.

➤ Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma'lumotlarni ilohiy kitob - Qur'oni Karimda va muqaddas kitob - Hadisi sharif hamda «Avesto» bitiklarida ham topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham bayon etib kelingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo'yicha alohida xodim faoliyat ko'rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun jalb etilgan.

➤ Bu borada Farobiyning «Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etaklaydi», degan fikri o'rinidir.

➤ Tejamkorlikda vaqt masalasi alohida e'tiborga molik tushunchadir. U inson ixtiyoridagi bebaho xazina. Shu sababli ham «Kun qaytadi, ammo vaqt qaytmaydi», degan naql bor, chunki vaqt o'lchovidir. Undan dunyoni o'rganish, o'zgartirish, shaxsiy manfaat, el-yurt xizmati va mehnat samaradorligini oshirish borasidagi faoliyatlarda foydalanish mumkin. Shu sababli ham u qadrlidir. Tarixiy voqealardan foydalanish iqtisodiy tarbiya berishning samaradorligini oshiradi va

talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga yordam beradi.

➤ Talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berish yo'llaridan yana biri - bu tarixiy voqealar asosida, ularning iqtisodiy tarbiyaga oid tafakkurini boyitishdan iboratdir.

➤ Tejamkorlik tarbiyasi mehnat, axloqiy va iqtisodiy tarbiyalarning muhim asosi hisoblanadi. Shu sababli ham talabalarga iqtisodiy tarbiya berishda, o'g'itlar va hikmatlardan foydalanib, ularni tahlil qilib borilsa, iqtisodiy tarbiya samarali kechadi.

➤ Demak, iqtisodiy tarbiya berishning samarali yo'llaridan biri - bu iqtisodiy tafakkurni yuksaltirishga oid o'git va hikmatlardan foydalanishdan iborat bo'lib, dars mashg'ulotlarida ulardan mosini tanlab va uni tahlil qilib, talabalarning iqtisodiy tafakkuri rivojlantiriladi.

Nazorat savollar:

1. Iqtisod, mehnat, boylik, mulkiy munosabatlar, tadbirkorlik, bozor, pul, tushunchalar MTM ning qaysi guruh tarbiyalanuvchilari tomonidan o'zlashtiriladi?

2. Iqtisod, mehnat, oila, jamiyat, aloqa, ma'naviyat, boylik, qoida va tartibni saqlash, boshqarish, savdo, pul, mahsulot. Ushbu tushunchalar MTM ning qaysi guruh tarbiyalanuvchilari tomonidan o'zlashtiriladi?

3. Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi - bolalarni iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga tayyorlash. Ushbu maqsad uzluksiz ta'limning qaysi bosqichida amalga oshiriladi?

8-mavzu: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA IQTISODIY TA'LIM BERISHNING NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. Iqtisodiy tarbiya-bolalarning iqtisodiy ongini shakllantirishda asosiy vosita

2. Bolalarda iqtisodiy ongni izchillik bilan rivojlantirib boorish

Tayanch so'zlar: *tarbiya, ta'lim, mehnat, iqtisod, estetik, bolalar*

Iqtisodiy tarbiya-bolalarning iqtisodiy ongini shakllantirishga qaratilgan, uyushgan (tashkil etilgan) pedagogik faoliyat, maxsus o'ylangan ish sistemasidir. Uni amalga oshirish jarayonida bolalar tartibli va samarali iqtisodiyot haqida, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish to'g'risida, ishlab chiqarish munosabatlari haqida, amaldagi xo'jalik mexanizmi to'g'risida tushuncha va tasavvurlar majmuyini o'zlashtirib oladilar. Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy tafakkurning rivojlanishini iqtisodiy faoliyat natijasida hosil bo'ladigan ahloqiy va ishchan fazilatlarining, ijtimoiy faollikning, tadbirkorlikning, tashabbuskorlikning, ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan halol munosabatning shakllanishini ta'minlaydi. Shu asosda yuqori rentabellikka, jihozlar va texnologiyani yangilashga,

ratsionalizatorlik va ixtirochilikka, mahsulot sifatini yaxshilashga va pirovard natijada, shaxsiy muvaffaqiyat va farovonlikka intilish tarkib topadi.

Hozirgi kunda bozor bog'chadan iqtisodiy tafakkuri rivojlangan, uzluksiz rivojlanib va takomillashib borayotgan bozor munosabatlari sharoitidagi amaliy faollikka tayyorlangan shaxsni tarbiyalashni talab etadi. Agar avval iqtisodiy muammolar sunhiy ravishda boladan uzoqlashtirilgan va amaliy faoliyati boshlanguncha ulardan chetda qolayotgan bo'lsa, endi hayotning o'zi bog'cha yoshidanoq, bolaning ehtiyojlar nimaligini, ularni qondirish nima bilan cheklanganligini, tanlab olish doimo cheklangan bir paytda qanday qilib tanlashni bilish talab etiladi. Bola pulning vazifasi, oila va bog'cha budjeti strukturasi, tovarlar narxi qanday shakllanishi va uning manbalari nimalardan iboratligini va hokazolarni aniq tasavvur qilish lozim. Ammo, ilmiy-texnika taraqqiyoti nuqtai nazardan, hozirgi kunda bog'cha yoshining kasbiy tayyorgarligini tashkil etishning eskirib qolgan forma va metodlariga tayanadi. U ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo'shib olib borishda, juda sodda, ba'zan xonaki bog'cha xo'jaligiga asoslanadi. Keskinlashib borayotgan qarama-qarshiliklar bog'cha yoshlari orasida salbiy hodisalar: siyqa mazmunli va sodda mehnati bilan bog'liq ishlarni bajarishni istamaslik, dangasalik va mehnatga beparvo bo'lish, palapartishlik, o'ta intizomsizlik, mehnatning yomon tashkil etilishi va mehnat unumdorligining pastligiga odatlanish kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning maqsadi yosh avlodni mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarda ongli va iqtisodiy savodli ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Bu esa islohatlarning o'tkazilishini ancha tezlashtiradi, iqtisodiyotni o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarni qisqartiradi. Iqtisodiy ta'lim bolara ehtiyoj turlari va ularni qondirish manbalari haqida, tanlash zarurligi to'g'risida, inson va jamiyat hayotida pulning roli haqida, daromadlarning manbayi va oila sarf-xarajatlari strukturasi to'g'risida tushunchalar berish (tasavvur hosil qilishi) kerak.

Bolalarning tovarga va xizmatlar haqidagi, ularni qanday hosil bo'lishi, ishlab chiqaruvchining munosabatlari, savdo tashkiloti va iste'molchi to'g'risidagi, mulkning nima ekanligi haqida bilimlari yuqorida aytib o'tilgan tasavvur (tushuncha)larga asoslanishi kerak. Bolalarni ko'p darajali iqtisodiyot: bog'cha va uy-xo'jaligi, korxonalar, regional xo'jalik va iqtisodiyot olamiga olib kirishi lozim. Uni o'z oilasining ehtiyojlarini, shu jumladan o'z ehtiyojlarini tahlil qilishga, ulardan birinchilari - hayotiy muhimlarini ajratib ko'rsatishga, oila ehtiyojlarini qondirishda oila budjeti imkoniyatlarini aniqlashga o'rgatish kerak. Unga o'z pullaridan qanday qilib yaxshiroq foydalanish, magazinlardan eng oddiy narsalar xarid qilish haqida gapirib berish, ehtiyojlarini qondirishda mehnatning ahamiyatini tushuntirishi lozim. Jamiyatning yacheykasi sifatida oilaning stabillashuv, ommaning islohatlarni tushunishi va qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy o'zgarishlar samaradorligini oshirish oldida qo'yilgan maqsadga erishishning muhim natijasidir. Iqtisodiy tarbiya insonni iqtisodiy faoliyatga tayyorlashga, uni jamiyatimiz iqtisodiy hayotida ishtirok etishga, respublikaning tirishqoq, serg'ayrat fuqarolarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. U bolalar ongida jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy qonuniyatlari haqida aniq tasavvurlar

shakllanishi va shular asosida unda kundalik hayotida zarur bo'ladigan iqtisodiy bilimlar tarkib topishini ta'minlashi kerak.

Iqtisodiy tarbiyalangan kishida hayotimizdagi ko'ngina kundalik muommolarni hal etishga bo'lgan qarashi o'zgaradi. Lekin, afsuski, kundalik hayotda jamiyat va davlat mablag'laridan maqsadga muvofiq bo'lmagan holda foydalanishiga oid ko'plab misollar topish mumkin. Ularni kamaytirish uchun barcha fuqarolarga, "kichiklardan kattalargacha" hayotda paydo bo'ladigan iqtisodiy muommolarni xal qilishga progmatik, nostandart yondoshuv kerak. Buning uchun esa yangi iqtisodiy tafakkurni yaratish talab etadi. Bog'chada olib boriladigan iqtisodiy ta'lim va tarbiya ishlari aynan shu maqsadga xizmat qilishi lozim.

Iqtisodiy tarbiyada statistika ma'lumotlaridan mohirlik bilan foydalanish kerak. Bugungi kunda olib borilayotgan islohatlarning muhim va VMT tomonidan yuqori baholanadigan natijalari yetarlicha tushuntirilyapti. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- uy-joy muammosining xal etilishi;
- turar joylarning hamma yerda gazlashtirilishi;
- shahar tipidagi qishloq va ovullarda aholini vodoprovod suv bilan ta'minlash;
- ko'p sonli zamonaviy litsey va kollejlarni ishga tushurishva 12 yillik umumiy ta'lim sistemasiga o'tish;
- mamlakatning transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish, Qirg'iziston va Xitoy orqali avtomobil yo'li, Turkmaniston va Eron orqali temir yo'l barpo etib, Fors hamda Bosfor qo'ltig'iga shuningdek, Gruziya portiga chiqish va hokazo.

Shunday qilib, bizda gapirish mumkin bo'lgan muvaffaqiyatlar bor, ammo shu bilan birga kamchiliklar va hal etilmagan muammolar haqida ham unutmash kerak. Bunda tinglovchilarda islohatlarning muvaffaqiyatiga ishonch va ularni o'z mehnati bilan qo'llab-quvvatlash istagini uyg'otish lozim.

Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadiga bir qator vazifalarni hal etish natijasida erishish mumkin. Bu vazifalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- bolalarda iqtisodiy ongni izchillik bilan rivojlantirib borish;
- oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqoslash qobiliyatini shakllantirish, bolalarda o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirishga bo'lgan izlanishlarda mehnatga yo'nalganlikni tarbiyalash;
- kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lish, tejamkorlik, rejalilik, omilkorlik, ishchanlik, xo'jalikni tejab-tergab olib borish kabi sifatlarni tarbiyalash;
- bolalar iqtisodiy tahlil qilish malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish, tejamkorlik va iqtisod qilish odatlarini tarbiyalash, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini shakllantirish, mehnatni ilmiy tahlil etish asoslarini egallab olish;
- mas'uliyatsizlikka, mehnatdagi tartibsizlikka, bekorchilikka, boqimandalik kayfiyatlariga, xo'jasizlikka, isrofgarchilikka, beparvolikka murosasiz munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va xokazo.

Iqtisodiy ta'lim va tarbiya bolalarga tevarar-atrofimizdagi iqtisodiyot

olamini ochib berishi kerak. Buning uchun bog'cha iqtisodiyot darsligi iqtisod nimani o'rganadi? Iqtisodiy fanlar strukturasi qanday? Iqtisodni bilish kishiga nimalarni beradi? Bog'chada iqtisod o'rganish zarurligi nimalardan iborat? Mamlakatning bozor munosabatlariga o'tishida va har bir bolaning bozor muhitdagi bo'lajak hayot sharoitlarida va ishida iqtisodiy bilimlarning roli nimadan iborat? degan savollarni yoritib berishi kerak.

Iqtisod insoniyatning ibtidoiy davrlarida tovar ayriboshlashning paydo bo'lishidan boshlab tarixiy nutai nazardan ochib berilishi kerak. Qanday qilib tovar ayriboshlashning rivojlanishi bozor strukturalari: ochiq va yopiq bozor, ko'tarib yurib sotish, do'konlar yarmarka va birjalarga olib kelganligini ko'rsatib berish lozim. Modomiki bozor ayriboshlashning ibtidoiy shakllari xanuzga qadar takomillashtirilgan ko'rinishda saqlanib qolgan ekan, bola tovar ayriboshlashning qadimgi shakli elementlaridan bozor infrastrukturasi zamonaviy tartibotlariga o'tishni yaxshiroq eslab qoladi.

Bolalarga bozordagi o'yin qoidalarini tushuntirish va uning ishtirokchilari rolini ochib berish keyingi qadamlardan bo'lishi kerak. Bozor ishtirokchilari esa quyidagilardir:

- iste'molchilar uchun tovar yaratuvchi tadbirkorlar;
- tovar ishlab chiqarish uchun yollanadigan erkin ishchi kuchi; ishlab chiqarish vositalari sotib olinadigan kapital;
- bozor infrastrukturasi - banklar, birjalar, sug'urta kompaniyalari, advokatlik idoralari va hokazo;
- bozor qoidalarini va erkinliklarning himoyasini, monopoliyaga qarshi qonunchilikni joriy etish va erkin raqobatni rivojlantirish bilan ta'minlovchi davlatdir.

Shundan keyin oila budjetini ochib berish kerak. Bolalarga oila daromadlari qanday xosil bo'lishini, ularning tarkibi va tuzilishi: ish xaqi, pensiya, stipendiya, yordam pullari, tasodifiy daromadlar haqida gapirib berish lozim. Ularga, shuningdek, ota-onalarning jismoniy va intellektual kuch-g'ayrat sarflashi: kasblarni birga qo'shib olib borish, qo'shimcha vazifada ishlash, ish vaqtdan tashqari vaqtda ishlash, mavsumiy, vaqtinchalik ishlar, individual mehnat faoliyati evaziga vujudga keladigan qo'shimcha ish xaqi to'g'risida tushuncha berish zarur. Bundan tashqari, ularga yordamchi xo'jalik, dala xovlidagi ishlar, meva va sabzavotlarni qayta ishlash, halqunarmandchiligi buyumlari tayyorlab sotish natijasida kelib chiqadigan qo'shimcha daromatlarini (bularga ish vaqtdan tashqari bajariladigan og'ir mehnat tufayli erishiladi) ko'rsatib berish lozim. Asosiy vazifa - bolalarga oilaning yashash manbalari mehnat va faqat mehnat bilan yaratilishi va bolalarning tobora ortib borayotgan talablarni qondirish uchun ota-onalar keragadan ortiqcha, salomatliklarini yo'qotish xavfi bilan, ishlashlarini tushuntirishdan iborat.

Bilimlarning navbatdagi bo'limi oilaning sarf-xarajatlari strukturasi ochib berish kerak:

- kundalik xarajatlar tarkibini: ovqatlanish, kiyim-bosh va poyabzal, transport, kvartira xaqi, kommunal, maishiy va boshqa pullik xizmatlar;
- bir yo'la qilinadigan xarajatlar tarkibini: uzoq vaqt foydalaniladigan

buyumlar (uy, dala xovli, kvartira, transport vositasi, murakkab uy-ro'zg'or техникаси, мебел, sanitariya texnikasi, gaz plitasi va xokazo), uy anjomlari sotib olish, soliqlarni to'lash.

Bolalar daromadlar va xarajatlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirgach, oila budjetini planlashtirish masalalarini o'rganishga kirishishlari mumkin. Aynan shu bosqichda xar bir bola qimmatbaho buyumlar sotib olishga bo'lgan o'z talablarini oila budjetiga mos kelish-kelmasligini anglashi va meyoridan ortiq talablaridan ixtiyoriy ravishda voz kechishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiy tarbiya oilada ongli munosabatlar va bolalar ehtiyojlarini to'g'ri shakllantirish shakliga aylanadi.

Navbatdagi bo'lim mehnat shakllari - daromad manbalariga bag'ishlangan bo'lishi kerak:

- korxonalar, muassasa yoki tashkilotdagi ijtimoiy mehnat;
- kichikroq korxonadagi kooperativ mehnat;
- xilma-xil ko'rinishdagi individual mehnat.

Bolalarga tegishli mehnat turlari:

- tovarlar ishlab chiqaruvchi, turli xil ishlarni bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonadagi ishlab chiqarish mehnati;

- hokimiyat organlaridagi, fan, madaniyat, sanhat, maorif, sog'liqni saqlash sohasidagi boshqaruv mehnati haqida umumiy tasavvur xosil qilish lozim. Mehnat turlari haqida axborot berishda ulardan xar birining zarurligi to'g'risida izoxlar ham berib borish kerak.

Shundan so'ng oddiy va murakkab mehnat shakllarini ko'rsatib (ochib) berish lozim. Oddiy mehnat tarixan xalk xunarmandchiligi sohasida, murakkab mehnat esa sanoatning qayta ishlash sohasida paydo bo'lgan. Mehnatning barcha shakllari va turlari bir-biriga bog'liq, va o'zaro aloqada ekanligini, murakkab mehnat bilan oddiy mehnat yagona pul o'lchovi orqali qanday qilib bir-biriga taqqoslanishini ko'rsatish kerak. So'ngra bu taqqoslash bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mehnatga xaq to'lashda maoshlar ta'rif setkasida qanday hisobga olinishini konkret misollarda ochib berish lozim.

Keyingi bo'lim mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, tovar va xizmatlar bozorni to'ldirishda va bandlikni ta'minlashda kichik va o'rta biznesning rolini ochib berish kerak.

Yakunlovchi bosqichda zamonaviy iqtisodiyotning resurslarini sarflash ko'lamini ochib berish, qayta taxlanadigan va qayta taxlanmaydigan tabiiy resurslar haqida, resurslarni saqlashning jahon va mamlakatimiz tajribasi to'g'risida hikoya qilish zarur. Va nixoyat, shaxsiy buyumlarga, kanselyariya tovarlariga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, xaridlarni to'g'ri tanlash yuli bilan uy xo'jaligida resurslarini saqlash masalalarini ochib berish kerak.

Nazorat savollar:

1. Iqtisodiy ta'lim va tarbiya bolalarga tevarar-atrofimizdagi iqtisodiyot nimani o'rganadi?
2. MTMda iqtisod o'rganish zarurligi nimalardan iborat?

9-mavzu: BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA IQTISODIY TA'LIMNING AHAMIYATI

Reja:

1. Barkamol avlodni tarbiyalashda iqtisodiy ta'limning ahamiyati
2. Iqtisodiy ong, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy rag'batlantirish tushunchalarni o'rgatish
3. Bolalar iqtisodiy ongining qaror topishi ularda iqtisodiy tushunchalar tizimini shakllantirish

Tayanch so'zlar: *avlod, rivojlanish, tarbiya, ta'lim, tushuncha, iqtisod*

Sivilizatsiyaning ming yillik tajribasi, shuni ko'rsatadiki, xususiy mulkchilikni keng rivojlantirmay turib, xo'jalikni samarali boshqarib bo'lmaydi. Sharqiy Yevropa, Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrikaning bir qator mamlakatlarida va Kubada jamiyat hayotini huquqsiz (ya'ni xususiy mulkchiliksiz) yo'lga qo'yishga bo'lgan turli urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Mana shuning uchun xam O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar yo'lga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Respublika aholisining eng muhim iqtisodiy huquqi - mulk huquqi e'lon qilingan. Davlat iqtisodiy faoliyatni, tadbirkorlikni, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy himoyasini kafolatlaydi. Har bir mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni boshqaradi.

Lekin mulkdor yuqorida aytib o'tilgan mulk huquqidan samarali foydalana olishi uchun u iqtisodiy bilim asoslarini yaxshi bilishi va amalga oshirish uchun eng yaxshi variantni tanlashi lozim. Buning uchun, o'z navbatida, matematikani yaxshi bilishi kerak. Chunki matematika iqtisodiyot bilan chambarchas bog'langan. Bunda iqtisod matematika oldida inson hayotining kundalik va istiqboldagi dolzarb vazifalarni qo'yish kerakligini nazarda tutish juda muhimdir. Shu bois matematikani hayot bilan chambarchas bog'liq holda o'qitish kerak. Shunda bola bog'chada matematikani tushunmasdan yodlamaydi, balki uni o'zining kundalik va bulg'usi vazifalarni xal etish asbobi deb biladi.

G'arbda bu vazifa allaqachon xal etilgan va shu xolicha u muayyan vazifa hisoblanmaydi, u haqda yozmaydilar ham, gapirmaydilar ham. U jamiyat hayoti va oila tarzining ajralmas qismiga aylangan. Bolalar o'zlarrining barcha daromatlarini hisobga olgan holda, xarajatlarni planlashtiradilar, pullarini otalariga berib qo'yadilar va bergan pullarini ortig'i bilan oladilar. O'z pullarini ishonchli bo'lishi uchun o'ziga yaqin tutgan kishisini tanlaydilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bolalar uchun iqtisodiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Iqtisodiy ong, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy rag'batlantirish? Xo'jalik tizimi, iqtisodiy aloqalar, iqtisodiy integratsiya, ishlab chiqarish dasturi, korxonani rivojlantirishning biznes-plani, investitsiyalar, ishlab chiqarishni tashkil etish, tadbirkor - xo'jalik yurituvchi subyekt, ish o'rni, inson- iqtisod subyekt, yangi

texnologiyalar. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda idrok qilish oson bo'lishi uchun o'quv materiallarini yuqoridan pastga sxemasi bo'yicha tuzish maqsadga muvofiq:

- hayot va ish uchun zarur bo'lgan xamma narsalarni yetkazib beruvchi bog'chaning ijtimoiy xo'jaligi;

- regional xo'jalik - maxalliy xomashyo va mehnat resurslari manbai;

- xo'jalik yurituvchi subektlarning soxaviy birlashmalari, ular birlashma tarkibiga kiruvchi korxonalar ishini muvofiqlashtiradi;

- korxonalar - moddiy ishlab chiqarish va xizmat soxasining asosiy ishlab chiqarish yacheykasi.

O'quv materiallariga kiritiladigan barcha tushunchalar aniq mazkur mashg'ulot o'tayotgan vaqtga kelib bolalar ongida shakllangan lug'at doirasida bayon qilinishi, bolaning fikrlari iqtisodiyotga kirib boradigan asosiy sohalarni qamrab olishi kerak.

Yuksak ma'naviyatli ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyjanob qilib tarbiyalaydi.

Ma'naviyat ilm-fan, falsafa, ahloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar, din va boshqa ko'plab tarixiy amaliy va zamonaviy qadriyatlarining ta'sirida shakllanadi. Aynan shuqadriyatlar oilada ota-ona, katta yoshdagi oila a'zolari ta'sirida shakllanadi.

O'zbek xalqi qadimdan oila ma'naviyatiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda ma'naviy merosdan foydalanib, mustaqil respublikamiz talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir.

Bu burchni sharaf bilan ado etish oilada yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlari, an'analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, o'ziga xos ijobiy tarixini singdirish, undan g'ururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. O'z ota-onasidan, oilasi, avlod-ajdodlari tarixidan g'ururlangan inson o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, diini, madaniyatidan g'ururlanishi, Uni avaylab -asrashi, dunyoga ko'z-ko'z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada bolaning ongiga yoshlikdan boshlab «sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan», «sen ulug' mutafakkirlar, allomai-zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning ajdodisan», «o'zbek xalqi boy ma'naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq», «Bizning mamlakat dunyoda tabiati eng go'zal, boy diyor» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim.

Bolalar iqtisodiy ongining qaror topishi ularda iqtisodiy tushunchalar tizimini shakllantirishni, ularning jamiyatni iqtisodiy rivojlantirish qonunyatlarini, iqtisod, ishlab chiqarishni tashkil etishga doir umumiy ma'lumotlarni o'zlashtirib olishni, ularda fikrlash operatsialari (tahlil, sintez qilish, umumlashtirish va boshqalar)ni rivojlantiradi va keyinchalik eng oddiy iqtisodiy tahlil qilish ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishni nazarda tutadi. Shu sababli bog'cha yoshidagi bolalarning matematikaga oid mashg'ulotlarida iqtisodiy elementlarni oshirib borish lozim. Buning uchun bolalarni oila budjeti asoslariga o'rgatish kerak. Shunda ular turli xil oila xarajatlari, oila a'zolari daromadi (ish xaqi, pensiya, stipendiya, yordam puli va boshqalar)ning qanday manbalar hisobiga qoplanishini bilib oladilar. Bolalarni budjetning raqamlaridagi ifodasi bilan

tanishtirish, oilaning ovqatlanish, kiyim-bosh, poyabzal, kommunal xizmatlar, o'yin-kulgi, sayr-tamosha va hokazolar uchun bo'ladigan xarajatlarni misollar va o'yinchoqlar bilan tushuntirish kerak. Shundan keyin bolaning shaxsiy budjetini misol qilib ko'rsatish kerak. Bolalarni daromad va xarajatlarni taqsimlashga o'rgatish, jamg'armalardan qanday foydalanishni mumkinligini ularga gapirib berish lozim.

Shundan so'ng bolalarga ishlab chiqarish xarajatlari va ularning turlari haqida oddiy tushunchalar berish kerak. Ularga qo'shimcha ishlab chiqarish yoki uy xo'jaligini yuritishni, har qanday faoliyat xarajatlari bilan bog'liqligini eng oddiy misollarda tushuntirish lozim.

Nazorat savollar:

1. Bolalarni daromad va xarajatlarni taqsimlashga o'rgatish, jamg'armalardan qanday foydalanishni mumkin?

2. Bola MTMda matematikani tushunmasdan yodlamaydi, balki uni o'zining kundalik va bulg'usi vazifalarni xal etish asbobi deb biladi. Ushbu fikr muallifi kim?

10-mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA IQTISODIY TUSHUNCHALARNI BERISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasida iqtisodiy tushunchalarni berish usullari
2. Iqtisodiy ta'lim tarbiya berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari
3. Iqtisodiy tarbiya jarayonida bolalarda tejamkorlikni shakllantirish

Tayanch so'zlar. *Tarbiya, ta'lim, jarajon, bolalar, faoliyat, iqtisod, tejamkorlik*

Extiyojlar insonning hulk-atvori va rivojlanishining ichki manbalaridir. Binobarin, tarbiya birinchi navbatda ehtiyojlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Insonda ahloqiy jihatdan o'zini oqlaran, oqilona ehtiyojlar tarbiyalanishi lozim. Zero ular oila, bog'cha, jamiyatning moddiy imkoniyatlari bilan solishtirilishi va mehnat faoliyatida qondirilishi kerak. Bolalarni shunday fikrga olib kelish kerakki, ular hayotda biz doimo turli xil buyumlar to'plamidan yaxshisini, o'zimizga mosrog'ini tanlab olishga to'g'ri kelishini bilsinlar. Tanlash uchun esa dastlab sotib olinadigan buyumlarni o'zaro taqqoslash zarur. Taqqoslash uchun miqdor va sifat ko'rsatkichlari kerak bo'ladi. Demak bolalarga matematikani bilmasdan turib o'lchash, taqqoslash, to'g'ri tanlash mumkin emasligini tushuntirish lozim.

Bolalarga tanlash hayotimizning doimiy hamrohi ekanligi hamda u matematik hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladigan iqtisodiy mulohazalar va tanlashlarga asoslanishi haqida tushuncha berish kerak. Matematikani bilmay

turib doimo nimalarnidir oz-ozdan yo‘qotishimiz mumkin, lekin bir yil ichida bu yo‘qotishlar sezilarli summani tashkil etadi. Vaholanki, bu pulga o‘ziga yoki o‘z oilasiga birorta kerakli narsani sotib olish mumkin bo‘lardi. Shunday ekan, iqtisodni matematika bilan uyg‘un xolda bilmaslik har qanday kishi uchun zararlidir. Chunki u doimo o‘zi uchun kerakli puli, vaqtini yo‘qotadi, yaxshi imkoniyatlarni boy beradi. Iqtisod bilan matematikani yaxshi bilish hayotga to‘g‘ri tayyorlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, iqtisodiy tarbiya jarayonida bolalarda maqsadga muvofiq ravishda mehnat qilish, mehnat unumdorligini oshirishga intilish, o‘zi va jamoa mehnatiga, ish vaqtiga nisbatan tejamkor, rejali bo‘lish ehtiyojini shakllantirish muhimdir. Iqtisodiy tarbiya ishlab chiqarish qurollariga, mehnat predmeti va jarayoniga ongli munosabatning paydo bo‘lishiga yordam beradi.

Bog‘chada tejamkorlik, extiyotkorlik ko‘nikmalari va odatlarini avvalo bolalarning vaqt budjetiga, shaxsiy buyumlarga bular asosida umuman ijtimoiy mulkka nisbatan shakllanadi. Bunga faqat malakani emas, balki extiyojiga qarab ish ko‘rish odatini tarkib toptirish muhimdir.

Tejamkorlik va omilkorlik munosabati mehnatdagi mas‘uliyatsizlik faktlariga murosasizlik bilan birgalikda jamoat mulkini orttirishga olib keladi. Tarbiyada bu ikki vazifa bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lishi kerak.

Iqtisodiy ta‘lim va tarbiyaning mazmuni quyidagi masalalarni o‘z ichga olishi kerak.

-iqtisodiy rivojlantirishning o‘zbek modeli va jamiyatni yanada takomillashtirishda uning ahamiyati;

-O‘zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirishda davlatning roli;

-O‘zbekistonda davlat qurilishi va iqtisodiyisloxlarning asosiy tamoyillari;

-O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga kirishi zarurligi va uning vazifalari;

-O‘zbekiston davlat tuzilishining milliy shakliga, jamiyat ishlarini demokratik boshqaruviga o‘tishining mustaqil yo‘li;

-barqarorlik tushunchasi, uning asosiy belgilari, barqarorlikni ta‘minlash omillari;

-O‘zbekistonda narxlarni liberalizatsiyalash va bozor infrastrukturasi shakllana boshlashi;

-O‘zbekiston Respublikasida samarali soxaviy-ishlab chiqarishni shakllantirish yo‘llari va yo‘nalishlari. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan masalalarga javob tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning asarlari so‘zlaran nutqlari dastlabki manbalardan hisoblanadi.

Ammo, ilmiy-texnika taraqqiyoti nuqtai nazardan, hozirgi kunda bog‘cha yoshining kasbiy tayyorgarligini tashkil etishning eskirib qolgan forma va metodlariga tayanadi. U ta‘limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo‘shib olib borishda, juda sodda, ba‘zan xonaki bog‘cha xo‘jaligiga asoslanadi. Keskinlashib borayotgan qarama-qarshiliklar bog‘cha yoshlari orasida salbiy hodisalar: siyqa mazmunli va sodda mehnati bilan bog‘liq ishlarni bajarishni istamaslik, dangasalik va mehnatga beparvo bo‘lish, pala-partishlik, o‘ta intizomsizlik, mehnatning yomon tashkil etilishi va mehnat unumdorligining pastligiga odatlanish kabi

holatlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning maqsadi yosh avlodni mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarda ongli va iqtisodiy savodli ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Bu esa islohatlarning o'tkazilishini ancha tezlashtiradi, iqtisodiyotni o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarni qisqartiradi. Iqtisodiy ta'lim bolara ehtiyoj turlari va ularni qondirish manbalari haqida, tanlash zarurligi to'g'risida, inson va jamiyat hayotida pulning roli haqida, daromadlarning manbayi va oila sarf-xarajatlari strukturasi to'g'risida tushunchalar berish (tasavvur hosil qilishi) kerak. Bolalarning tovarga va xizmatlar haqidagi, ularni qanday hosil bo'lishi, ishlab chiqaruvchining munosabatlari, savdo tashkiloti va iste'molchi to'g'risidagi, mulkning nima ekanligi haqida bilimlari yuqorida aytib o'tilgan tasavvur (tushuncha)larga asoslanishi kerak. Bolalarni ko'p darajali iqtisodiyot: bog'cha va uy-xo'jaligi, korxonalar, regional xo'jalik va iqtisodiyotni olamiga olib kirishi lozim. Uni o'z oilasining ehtiyojlarini, shu jumladan o'z ehtiyojlarini tahlil qilishga, ulardan birinchilari-hayotiy muhimlarini ajratib ko'rsatishga, oila ehtiyojlarini qondirishda oila budjeti imkoniyatlarini aniklashga o'rgatish kerak. Unga o'z pullaridan qanday qilib yaxshiroq foydalanish, magazinlardan eng oddiy narsalar xarid qilish haqida gapirib berish, ehtiyojlarini qondirishda mehnatning ahamiyatini tushuntirishi lozim. Jamiyatning yacheykasi sifatida oilaning stabillashuv, ommaning islohatlarni tushunishi va qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy o'zgarishlar samaradorligini oshirish oldida qo'yilgan maqsadga erishishning muhim natijasidir.

Nazorat savollar:

1. Iqtisod, mehnat, boylik, mulkiy munosabatlar, tadbirkorlik, bozor, pul, mahsulot. Ushbu tushunchalar MTM ning qaysi guruh tarbiyalanuvchilari tomonidan o'zlashtiriladi?
2. Iqtisod, mehnat, oila, jamiyat, aloqa, ma'naviyat, boylik, qoida va tartibni saqlash, boshqarish, savdo, pul, mahsulot. Ushbu tushunchalar MTM ning qaysi guruh tarbiyalanuvchilari tomonidan o'zlashtiriladi?
3. Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi- bolalarni iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga tayyorlash. Ushbu maqsad uzluksiz ta'limning qaysi bosqichida amalga oshiriladi?

11-mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM MUASASASALARIDA HUQUQIY TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Xuquqiy ta'lim-tarbiya haqida tushuncha.
2. Xuquqiy ta'limning keng va tor ma'noda qo'llanilishi.
3. Xuquqiy ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari, prinsiplari

Tayanch soʻzlar: *Xuquqiy, tarbiya, ta'lim, shaxs, bola, jarayon, tushuncha, maqsad, yosh*

Huquqiy ta'lim- tarbiya umumiy tarbiyaning ajralmas qismi boʻlib, insonni jamiyatda oʻrnatilgan qonun-qoidalarga royiya etish, ularni hurmat qilishga chorlaydi. Huquqiy ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratilib, birinchi Prezident I.A.Karimov shunday deb yozadilar: «Iqtisodiy, siyosiy va eng avvalo huquqiy ta'lim- tarbiya tegishlicha bosqichma-bosqich ta'minlab borilmas ekan, insonning barcha huquqlari – davlat ishlarini yuritishda qatnashishi, e'tiqod erkinligi, yig'ilishlar, uyushmalar erkinligi va shu kabi huquqlar havoda muallaq boʻlib qolaveradi»¹.

Huquqiy davlatni barpo etishda qatnashuvchi shaxs, huquq va erkinliklarini bilib qolmasdan, demokratiyaning tub ma'nosini anglashi lozim. Chunki demokratiya huquqiy davlatning tarkibiy qismidir. Huquqiy ta'lim- tarbiya dastlab oilada, bog'chada, maktabda boshlanadi. Lekin huquqiy ta'lim- tarbiya inson hayoti davomida doimiy ravishda davom etadigan jarayondir. Huquqiy davlat qurar ekanmiz fuqarolarning qonunlarni bilishi, qonunga itoatkorlik, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish har birimizning burchimizdir.

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'qitishdan ko'zlangan maqsad ham shundaki, yosh avlodni huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarning huquqiy bilimlarini rivojlantirish hamda qonuniylik, qonunga itoatkorlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilangan.

O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Komil inson tarbiyasi har doim dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Yoshlarni huquqiy tarbiyalash huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik va milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashda hamda huquqiy bilimlarini oshirishda huquqiy ta'lim asosiy rol o'ynaydi.

O'zbekiston huquqiy davlat barpo etish sari qadam qo'yilib, bu yo'lda huquqiy ta'lim-tarbiya, huquqiy ongni takomillashtirish masalalariga katta etibor berib kelinmoqda. Bu mas'uliyatli vazifada mehnat jamoalarida, bilim maskanlarida va har bir shaxs bilan olib borish borasida ko'p qirrali ishlar qilinmoqda.

Respublikamiz Oliy Majlisi tomonidan 1997 - yil 29 - avgustda qabul qilingan va qarori bilan tasdiqlangan : «Ta'lim to'g'risidagi qonun», «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dastur»lari fikrimizning dalili bo'ladi. Jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilish uchun xalqning huquqiy madaniyatini oshirish lozim, bu esa huquqiy savodxonlikni, huquqiy ta'lim- tarbiyani oshirishni talab qiladi².

Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr al-Farobiy huquqni fozil kishilarning haqiqiy baxtga erishish vositasi deb tushungan. Huquq, uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart-sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkon yara-tish vositasidir. Huquq - ehtirolarni jilovlash vositasidir. Huquq - insonni asrash, avaylash qurolidir.

Farobiy asarlarini diqqat bilan o'rgansak, uning qarashlari o'z davridan ancha ilgari ketganligini ko'ramiz. Shuni aytish kerakki, alloma qadimgi mutafakkirlarning huquqiy sohadagi asarlariga sharhlar yozish bilan ularni shunchaki takrorlamadi, balki boyitdi. Arastu va Aftolun huquqiy qarashlariga bag'ishlangan kitoblari uning huquqiy sohada juda chuqur bilimga egaligi va fiqh fanlarini har tomonlama tadbiq etganligidan dalolat beradi. Shu sababli allomaning huquqiy ta'limoti xalqimizning bebaxo huquqiy merosini tiklash, uni avlodlarga yetkazishda katta ahamiyatga ega.

Mutafakkirning fikricha, qonun adolatli bo'lishi kerak va uning nomidan u (qonun) haqida naimaiki gapirilsa ham mo'tabar ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Qonunni mensimaydigan va shu bilan birga qo'l ostidagilarni ham shunga undaydiganlar o'z hatti-harakatlari ila katta tartibsizliklar keltirib chiqaradi, deydi Farobiy.

Ulug' alloma qonunni joriy etuvchi odamlar orasida do'stlik tuyg'ulari mavjudligini kuzatgan holda, qonunning kamchilik va nuqsonlardan holi bo'lishini ta'minlash uchun olimlar joriy etilgan qonunlarni chuqur ishonch, bilim bilan tushuntirib berishi, sharhlashi zarurligini aytadi. Chunki agarda davlat o'z qonunchiligida haqiqiy muhabbat, yuksak aqlga asoslanmasa, uning qismati haloqat va parokandalik bo'ladi. Bu qoida davlatga ham, alohida odamga ham barobar taalluqli ekanligini alloma alohida qayd qiladi.

Huquqiy ta'lim- tarbiyali bo'lish uchun har bir shaxs umumhuquq bilimga, uni ongli ravishda qabul qilishga va huquqiy madaniyatni alohida bajarishga yetarli darajada huquqiy saboq olish kerak. Lekin hozirgi paytgacha huquqiy ta'lim- tarbiya tushunchasi, uning tushuntirish metodlari olimlarimiz tomonidan to'laligicha yoritilmagan.

Huquqiy ta'limning keng va tor ma'noda ko'rish mumkin. Keng ma'noda butun jamoaning, ko'pchilikning ongiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan ta'lim, tor ma'noda esa alohida shaxsga, uning ongiga ta'sir etish yo'llari tushuniladi.

Huquqiy ta'lim natijasida keng omma yoki shaxs o'z hatti-harakatlarining qonuniy ekanligini tushunsa, huquq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa o'zini ongli ravishda, huquq normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishilgan bo'lib hisoblanadi.

Demak, huquqiy ta'lim bu- tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxsga «guruh shaxslariga» ta'sir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir³.

Ma'lumki, qonunga rioya qilish uchun, eng avvalo uni bilish kerak. Huquqiy ta'lim- tarbiya orqali har bir shaxsning ongiga nima qilmoq mumkin, nima qilmoq mumkin emasligini, jamiyat, davlat undan nimani talab qiladi, qonunlarga rioya etish yo'llari nimadan iborat ekanligini yetkazmoq lozim.

Tartib buzuvchilar orasida o'z hatti-harakatining noqonuniyligini anglamaslik, noqonuniy ekan deb ham o'ylamaslik va bunday harakatni jazoga loyiq emas deb tushunish ko'p uchraydi. Shunday tushuncha hosil bo'lmasligi uchun huquqiy ta'lim- tarbiya jarayonida har bir jamoada o'rnatilgan tartibni buzish, qonun normalariga rioya etmaslik natijasida intizomiy, ma'muriy, moddiy yoki jinoiy jazo kelib chiqishini tushuntirish, uqtirish zarur.

Huquqiy ta'lim-tarbiyani kuchaytirishga oltmishinchi yillardan boshlab alohida ahamiyat berilla boshlandi. Shu davrga aytish kerakki, hozirda ham huquqiy ta'lim- tarbiya bilan chambarchas bog'liq holda olib olib borilayapti.

Shaxs va jamiyat o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarning rivojlanish printsiplariga mos bo'lishi shaxs faoliyatini yo'naltirib turuvchi hayotiy pozitsiyaga bog'liq. Hayotiy pozitsiya esa ta'lim- tarbiya jarayonida shakllanadi. Shu sababdan ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq shaxs tarbiyasini jamiyat o'z na'zoratiga olgan va bu vazifani bajarishga eng dono kishilarga topshirgan. Shaxsni yashashga o'rgatish jamiyat faoliyatining muhim sohalaridan biri bo'lib kelgan. Ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy vazifasi shaxsni biror-bir foydali ishga, faoliyatga o'rgatish demakdir.

Masalan, bolalarni biror hunarga, muomalaga, sanatga, yurish turishga va boshqalarga o'rgatish.

Huquqiy ta'lim- tarbiya boshqa turdagi tarbiya bilan o'zaro yaqin. Masalan, shaxsda mehnatga bo'lgan munosabatni shakllantirishda ko'r-ko'rona itoatkorlikka emas, balki jamiyat va davlat manfaatlariga, davlatning tartib va qonunlarini hurmat qilishga o'rgatish lozim.

Axloq normalari bilan huquqiy normalar bir biriga juda yaqin turadi. Shaxs axloqsiz bo'lsa, u qonunlar talabiga rioya qilmaydi. Binobarin, bunday shaxsni huquqiy tarbiyalash samarasiz bo'ladi, hatto jazo choralarini ham to'g'ri yo'lga solish qiyin.

Huquqiy ta'lim-tarbiya tizimi uch tarkibiy qismdan tashkil topadi: davlat belgilangan qonun qoidalarini o'qitish; ularni jamiyat a'zolari o'rtasida tashviqot. Huquq normalarini o'qitish deyilganda davlat organlari tomonidan tasdiqlangan dastur asosida shaxsga bilim berish tushuniladi. Yuridik bilim berish umumiy va maxsus yo'nalishlarda bo'lish mumkin. Masalan, yuridik institutlar, fakultetlarida, «yurist operativ xodim» malakasi beriladi. Xalq maorifi tizimining barcha bo'g'inlarida aniq dastur asosida umumiy huquqiy bilim beriladi.

Huquqiy normalarni tashviqot qilishda jamiyat a'zolari bilishi lozim bo'lgan qonun qoidalarni, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, buyruq va yo'llanmalarni turli vositalar yordamida aholi orasida tashviqot qilishdir. Huquqiy normalarni aholiga tushuntirish muhim qonunchilik printsipi bo'lib hisoblanadi. Qonunchilik talabiga ko'ra har bir yangi qonun qoida matbuotda elon qilingandan keyin ma'lum vaqt o'tgach amal qila boshlaydi. Yangi tartib qachondan boshlab joriy qilinishi huquqiy normaning o'zida ko'rsatiladi.

Huquqiy ta'lim-tarbiyaning maqsadi ma'lum vositalar, shakl va metodlar yordamida shaxsning ongiga ta'sir ko'rsatib, unda davlat belgilangan qonun qoidalarga itoatkorlikni, davlat siyosatini ijro etish hamda o'z hatti harakatini davlat talabiga muvofiq holda tanlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir⁴.

Huquqiy ta'limning asosiy maqsadi shaxsda huquqiy ongni shakllantirish, yani huquqiy normalarga hurmatni, ularga ixtiyoriy, ongli ravishda rioya qilishni tarbiyalashdir. Huquqiy ta'lim-tarbiya shaxsning bolalik chogidan yetuklik davrigacha o'tkaziladigan tarbiyaviy jarayonni o'z ichiga oladi. Bu jarayon davrida shaxs oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktabda, maktabdan tashqari muassasalarda, oliy ta'limda, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash idoralarida huquqiy ta'lim- tarbiya oladi. Demak huquqiy ta'lim- tarbiya bosqichma- bosqich beriladi. Bosqichli huquqiy ta'lim- tarbiya berishdan maqsad yoshlarning huquqiy bilimlar va ko'nikmalarini tarkib toptirishni uzluksiz ta'minlashdir.

Huquqiy ta'limning oldiga qo'yilgan umumiy vazifa shaxsga qonunlarni va unga amal qilish yo'llarini o'rgatish. Huquqiy ta'limning yuridik vazifasi shaxsda muayyan holatlarda zarur huquqiy normalarni qo'llay olish qobiliyatini tarbiyalashdir.

Huquqiy ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri shaxsda huquq normalarni o'rganishga ehtiyoj o'yg'otish, yani o'zini mustaqil ravishda huquqiy tarbiyalashga odatlantirishdir. Huquqiy normalarga hurmat ruxida tarbiyalangan shaxs qonun-qoidalarga muntazam ravishda o'rganib boradi va boshqalarni ham shunday qilishga davat etadi⁵.

Amaliyotda huquqiy ta'limning har xil turlari mavjud. Lekin bugungi kungacha aniq bir ilmiy tushunchaga asosangan, ko'p qirrali huquqiy ta'lim-tarbiya shakllarini ko'rsatib beruvchi adabiyot deyarli yo'q. Bu ta'lim-tarbiya, yuqorida aytib o'tganimizdek, oilada, bog'chada, maktabda, bilim yurtlarida, institutlarda olib boriladi. Huquqiy ta'lim-tarbiya tarbiyalanuvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi, ularni tartib doirasida tutish uchu nasos bo'la oladigan bilim berishdir. Lekin tarbiyachi faqat bilim beribgina qolmasdan, tarbiyalanuvchilarga har xil shaklda ta'sir ham o'tkazishi kerak.

Huquqiy ta'lim-tarbiyaning shakllari asosida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, professor- o'qituvchilarining olib borgan ishlarining tashqi ko'rinishidagi ta'sir yo'li, ta'sir etish usullari yotibdi.

Huquqiy ta'lim-tarbiya shakllari har bir shu ish bilan shug'ullanuvchi uslubida o'z ifodasini topadi.

Masalan, o'quv yurtlarida huquqiy ta'lim-tarbiya shakli, mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilarnikidan farq qiladi. O'quvchilarga dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtda-suhbat, suhbatni huquqiy qoidalarini o'rgatish, o'yin darslari o'tkazish tariqasida olib boriladi.

Huquqiy ta'lim-tarbiya shakllari quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) huquqiy bilim; b) huquqiy tashviqot; v) jamoatchilik tomonidan olib boriladigan ishlar; g) huquqni himoya qiladigan davlat organlarining ishlari bilan tanishish (tergov, sud jarayonlarida qatnashish); d) xalq deputatlarini nomzodlikka tavsiya qilish majlislarida, mahalliy hokimiyatlar qoshidagi voyaga yetmaganlar komissiyalari ishlarida ishtirok etish. Huquqiy ta'lim-tarbiyani jamoa o'rtasida yoki individual shaklda amalga oshirish mumkin.

Huquqiy ta'lim-tarbiyaning metodlari:

Huquqshunoslar huquqiy ta'lim-tarbiya metodlarini odatda ikki turga bo'ladilar ishontirish va majburlash. Huquqiy ta'lim-tarbiya metodi-bu bir necha muayyan yo'l va usullar yig'indisi bo'lib, ular asosida kishilar ongiga, dunyoqarashiga ta'sir qilinadi. Buning natijasida tarbiyalanuvchilarda qonunga hurmat hissi uyg'otiladi va qonunning buzilmasligi ta'minlanadi.

Eng asosiy metod bu – ishontirish metodi. Ishontirish orqali ijobiy natijaga erishilmasa, majburlash metodi qo'llanadi. Huquqiy ta'lim-tarbiyada bu ikki metodni birga qo'llash ham mumkin.

Huquqiy ta'lim-tarbiyaning ilmiy printsiplaridan yana biri o'rganilayotgan qonun yoki qarorning kelib chiqish sabablarini, unga obyektiv zarurat borligini tushuntirib berishdir. Agar tarbiyalanuvchi qonun, qaror va qoidalarning vujudga kelishi, qabul qilinishi umumiy asoslarini tushunib olsa, ayniqsa, hozir o'rganilayotgan huquqiy normaning qabul qilinishi sababini bilsa, uni bajarishga ongli ravishda yondoshadi, o'zida ham huquqiy normaga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Huquqiy ta'lim-tarbiyaga ilmiy yondoshish quyidagi faoliyatlardan tashkil topadi:

- o'rgatilishi lozim bo'lgan qonun va qonuniy aktning nazariy va amaliy jihatlarini puxta o'zlashtirib olish;

- ta'lim-tarbiya obyektlarini o'rganish, ular bilan huquqiy norma o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash;

- mazkur mintaqadagi huquqiy normaga aloqador huquqiy holatni (huquq-tartibotni, qonunchilikka munosabat) o'rganish va tahlil qilish;

- huquqiy normani tushuntirish shakl va metodlarini tanlab olish;

- huquqiy ta'lim-tarbiya vositalarini tayyorlash;

- tarbiyalanuvchilarning fikrini o'rganish va savol – javobga tayyorlanish;

huquqiy ta'lim-tarbiyani shahar, tuman, viloyat, respublika miqyosida yagona shakl va metodlar asosida olib borish ham ilmiy printsiptir. Huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash butun mamlakatda huquqiy ta'lim-tarbiyaga chuqur ilmiy yondoshishni taqozo qiladi. Hozir bu muhim ish davlat organlari va jamoat tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Ta'lim-tarbiyaga har tomonlama yondoshish deb tarbiya maqsadining shaxs ongida shakllanishiga ko'maklashuvchi omillarni aniqlash, ta'lim-tarbiya shakl va metodlariga ularga tayanish aytiladi.

Bu vazifalarning zarar darajada amalga oshirilishi tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligiga bog'liqdir. Ikkala tomonning fikr almashishi, huquqiy tushunchalarga aniqlik kiritilishi, yakdillik asosida hayotiy holatining belgilab olinishi tinglovchilar huquqiy ongiga tegishli o'zgarish kiritadi va uni boyitadi.

Masalan, tarbiyachi mehnat qonuniga kiritilgan o'zgarishlar bilan tinglovchilarni tanishtirmoqchi. Maqsad ularning ongiga yagona qonun mazmunini aks ettirgan holda mehnat munosabatlarida qonundagi o'zgarishga muvofiq ish ko'ra olishni tarbiyalashdir. Buning uchun tarbiyachi masalaga keng yondoshib, qonun o'zgarishi sabablarini dalillar yordamida ko'rsatishi, yangi qonun mohiyatini isbotlashi, uni ijro etish tartibini o'rgatish, ko'zda to'tilgan maqsadni misollar yordamida tushuntirish kerak.

Har tamonlama yetuk shaxsni tarbiyalab yetishtirish maqsadi umumtarbiyaning maqsadi barcha yo'nalishlarini bir-biriga uyg'unlashtirilgan holda olib borishni taqozo qiladi. Bu bir kishining emas, balki butun jamoaning burchidir. Huquqiy ta'lim-tarbiya ham bir kishining emas, chunki shaxsni har tomonlama shakllantirish uchun bir tarbiyachi barcha omillarni bilishga qodir emas. Bir pedagog huquqiy ta'lim-tarbiyaning bir yoki bir necha yo'nalishigina shaxs ongida shakllantira olishi mumkin⁶. Pedagog muayyan masala bo'yicha huquqiy ta'lim-tarbiyaga keng yondoshishi uchun shu masalaga aloqador omillarni tanlab olishi, ularni yagona bir mavzuga yig'ishi, misollar yordamida uyg'unlashtirishi kerak. Masalan, o'quvchida O'zbekiston fuqarolariga sodiqlik burchini tarbiyalashda o'qituvchi-o'quvchi qanday qonunlarni o'rganishi kerakligini tanlab olishi, fuqarolarga taalluqli misollar topishi, fuqarolik burchi buzilganda davlat va jamiyat tomonidan ko'riladigan choralarni belgilashi, yuridik dalillar to'plashi, so'ngra keng ta'lim-tarbiya mavzularini ishlab chiqishi va shu mavzu bo'yicha ish olib

borilishi kerak. Lekin shuni unutmaslik lozim, huquqiy ongning hatto biror yo'nalishini shakllantirish uchun ham yuridik omillarning o'zigina kifoya emas: masalan, intizomsiz shaxsni qayta tarbiyalash uchun uning huquqiy ongida burilish yasash, dunyoqarashiga, mehnat munosabatiga, madaniyat darajasiga ta'sir ko'rsatishi kerak. Agar uni qonunga ko'ra jazolash bilan kifoyalansangiz, axloqiy buzuq ekan, yana eski odatini davom ettiraveradi.

Binobarin, huquqiy ta'lim-tarbiyaga aloqador omillar ikki guruhga bo'linadi: tarbiyachining axborotli hujjatlariga kiritiladigan omillar va tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillar. Ta'lim-tarbiya jarayonida ikkala guruh omillar baravar e'tiborga olinishi kerak.

Nazorat savollar:

1. Huquqiy ta'lim-tarbiya nima?

2. Farobiy fikricha qonun qanday bo'lishi kerak?
3. Huquqiy ta'lim-tarbiyaga ilmiy yondoshish qanday faoliyatlardan tashkil topadi?

12-mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM MUASASASALARIDA HUQUQIY TARBIYANI TASHKIL ETISH

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muasasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish.
2. Huquqiy tarbiya va ta'limni kuchaytirishning asosiy choralari
3. Huquqiy madaniyatni shakllantirishning vosita va usullarini takomillashtirish.

Tayanch soʻzlar: *Ta'lim, tarbiya, faoliyat, xuquq, tarbiyashi, bola shaxs.*

Tarbiyachining axborotli hujjatlariga kiritilgan omillari suhbat mavzusida qanday qonun, qonuniy ishlarni tushuntirmoq, asosiy maqsad nimaga qaratilganligini bilib olmoq. Masalan, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligining oldini olish bo'yicha ta'lim-tarbiya: jinoiy, moddiy, intizomiy, huquqbuzarlikda voyaga yetmaganlar qanday harakatlari uchun javobgar bulishlariga taalluqli hujjatlarni to'plashdan iborat. Tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillarda tarbiyachi tinglovchilarning qabul qilish darajasi, yoshiga, maxoratiga va boshqa xususiyatlariga e'tibor bergan holda tarbiya usulini tanlashdan iborat.

Jamiyat va davlat ijtimoiy faol va qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalashdan manfaatdordir. Davlat jamiyat madaniy hayotining tarkibiy qismi bo'lmish huquqiy madaniyat to'g'risida alohida g'amxo'rlik qiladi. Huquqiy ta'limning maqsadi har bir kishiga amaliy faoliyatda zarur bo'ladigan huquqiy bilimlarni belgilangan davlat standartlaridan kam bo'lmagan hajmda olish imkoniyatini berishdan iboratdir. Tarbiyaviy va o'quv ishlari shaxsning huquqiy ong darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan eng umumiy yuridik prinsiplar va normalarni anglab yetishga qadar oshirishga yo'naltirilishi lozim.

Huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar maktabgacha tarbiya muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida o'quv davomida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi, aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur⁷.

Huquqiy axborotdan barchaning erkin foydalana olishini ta'minlash, har kimga o'zining huquqiy bilimlarini oshirish uchun real sharoit yaratish fuqarolarga o'z huquqlari va erkinliklarini tegishli tarzda amalga oshirish, burchlarini bajarish, jamiyatning siyosiy hayotida ongli va faol ishtirok etish imkonini beradi. Huquqiy

ta'lim-tarbiyaning o'tmishdan qolgan faqat bir tomonlama axborot berish - ma'rifatchilikka yo'naltirilganligini bartaraf etib, uni qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish vazifalari bilan uzviyrog bog'lash zarur. Shuni muttasil nazarda tutish kerakki, huquqiy ta'lim- tarbiya insonlarni huquq, qonuniylik ruhida tarbiyalash, huquqiy ma'rifat, qonunga hamda huquqqa nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ijtimoiy-huquqiy faolligida, uning huquqiy madaniyatida o'zining tugalifodasini topadi.

Aholining huquqiy tarbiyasi va ta'limini takomillashtirishga ta'lim va tarbiyaning hali foydalanilmagan mexanizmlarini yaratish, ulardan samarali foydalanish, tarbiya va ta'limning yangi shakllari va vositalarini joriy etish, moddiy-texnika negizini kuchaytirish yo'li bilan erishiladi.

Huquqiy tarbiya va ta'limni kuchaytirishning asosiy choralari quyidagilardan iborat:

-davlat huquqiy tarbiya va ta'limning asosiy tashkilotchisi sifatida ta'lim va tarbiyaning usullari va vositalarini, bu faoliyat bilan bevosita shug'ullanayotgan muassasalar tuzilmasini muntazam ravishda takomillashtirib boradi;

-huquqiy tarbiya va huquqiy ta'limning muqobil tizimlarini shakllantirishga yordam beradi;

-aholi huquqiy madaniyatini oshirish borasida davlat tuzilmalari va jamoat birlashmalarining keng hamkorligini ta'minlash;

-ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish, kechiktirib bo'lmaydigan va istiqboldagi vazifalarni aniqlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va yuristlar jamoat birlashmalari faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan bo'lib qolishiga erishish;

-huquqiy tarbiya va ta'limning ta'lim-tarbiya muassasalari tomonidangina emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat organlarining va korxonalarining (muassasalar, tashkilotlarning), shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmatlari xodimlari ishtirokida ham amalga oshirilishi;

-huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning ularni maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta'lim o'rta maktablarda, akademik liseylarda, kasb-hunar kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida olib borilishini nazarda tutuvchi normativ va o'quv-uslubiy mezonlarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda yangi o'quv fanlarini joriy qilish;

-huquqiy fanlar asoslarini chuqur o'rgatadigan o'quv yurtlari va ularda tayyorlanadigan yuridik kadrlarning sonini iqtisodiy, ijtimoiy, demografik vaziyat va jamiyatning tegishli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini belgilovchi boshqa omillar e'tiborga olingan holda aniqlash;

-darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa adabiyotlar tayyorlash va nashr etishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashni kuchaytirish;

-ta'lim va tarbiya muassasalariga dahldor bo'lmagan shaxslarning (ishchilar, xizmatchilar, uy bekalari, pensionerlar, harbiy xizmatchilar va boshqalarning) huquqiy tarbiyasi va huquqiy ta'limi tizimini takomillashtirish. Bu ishga davlat

yuridik o'quv yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, huquqshunos olimlar va boshqalarni jalb qilish;

-yuridik o'quv yurtlarining moddiy-texnika negizini mustahkamlash kabilar tashkil qiladi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, siyosiy-huquqiy tizimni takomillashtirish sharoitlarida huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yangi vositalari va usullarini joriy etish lozim.

Huquqiy madaniyatni shakllantirishning vosita va usullarini takomillashtirish maqsadida:

-fuqarolar bilan olib boriladigan huquqiy ishlar saviyasini oshirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning va o'quv yurtlarining kadrlar bilan yetarli ta'minlanishiga erishish;

-mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va huquqiy madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish kerak. Chunki ular qonunlarni qat'iy ijro etishga, huquqning so'zsiz amal qilishini ta'minlashga, huquqiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga da'vat etilganlar.

Huquqiy bilimlarni davlat idoralarigina emas, balki jamoat birlashmalari tomonidan ham ommalashtirish jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishning yangi shakllari jumlasiga kiradi.

Huquqiy bilimlar targ'iboti – huquqiy tarbiyaning muhim shakli bo'lib hisoblanadi. Huquqshunos –lektorlar, olimlar va prokuraturalar, sudlar, militsiya, adliya organlarining amaliyotchi xodimlari respublikada, shu jumladan, voyaga yetmaganlar orasida huquqiy targ'ibot ishlarini olib borishadi. Bunday ishlarning asosiy maqsadi- davlat va huquq nazariyasi, yuridik bilimlarning ommalashtirilishi, huquqiy meyorlar va qonunchilikning demokratik printsiplarini tushuntirib berishidan iborat. Huquqiy targ'ibot aholining, huquqiy ta'limining, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va ogoxlantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Nazorat savollar:

1. Huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lib qachondan boshlab berib boriladi?
2. Huquqiy tarbiyaning muhim shakli nima?
3. Huquqiy madaniyatni shakllantirishning vosita va usullari nimalardan iborat?

13-mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA HUQUQIY TARBIYA BERISHDA BOLALARNI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSIYASI BILAN TANISHTIRISH

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy qoidalarini targ'ib qilish
2. Oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim-tarbiya.
3. Kichik yoshdagi bolalarni tabiatning muhofaza qilinishi bilan tanishtirish

Tayanch so'zlar: *Bolalar, tarbiya, ta'lim, huquq, oila, yosh, qonun, jamiyat*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy qoidalarini targ'ib qilish huquqiy tarbiyaviy ishlarning muhim yo'nalishidir.

Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy – psixologik va boshqa o'ziga xos xususiyatlari ular o'rtasida huquqiy targ'ibotni tashkil etishning yo'nalishlarini belgilaydi. Huquqiy tarbiyaga doir ishlarda voyaga yetmaganlarning quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsatish qabul qilingan: o'rta umumiy ta'lim maktablari, hunar-texnika bilim yurtlari, texnikumlar o'qituvchilari, 18 yoshgacha bo'lgan ishchi va qishloqdagi yoshlar, oliy o'quv yurtlari talabalari. Demokratik jamiyat qoidalarini mensimaydigan, qiyin tarbiyalanadigan, pedagogik jihatdan o'z holiga tashlab qo'yilgan, huquqbuzar voyaga yetmagan o'smirlar alohida toifani tashkil etadi.

Huquqiy targ'ibot shakllari doimiy amal qiladigan va bir martalik bo'lishi mumkin. Doimiy amal qiladigan shakllarga quyidagilar kiradi: huquqiy bilimlar xalq universitetlari, huquqiy lektoriylar, yosh huquqshunos klublari va maktablari.

Huquqiy bilimlar xalq universitetlari yoshlar fakul'tetlari yosh yigitlar va kizlarning huquqiy tarbiyasida muhim rol uynaydi.

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. «Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir, deydi yurtboshimiz. Bu insonparvarlikning qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy etiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklari ta'minlab beradigan davlatdir ». Ta'lim jarayonida endilikda mustaqil O'zbekistondagi o'zgarishlar, yuqorida berilgan baholar huquqiy munosabatga kirishishni o'rgatishning mazmunini ham, tarbiyalash metodini o'zgartirib yuboradi.

Huquqiy ta'lim - tarbiya mexanizmini, huquqni o'qitish jarayonini pedagogik printsiplar asosida ishlab chiqilgan huquqiy pedagogikaning asosiy maqsadidir. Shu sababdan biz shaxs tarbiyasi, xususan uning huquqiy tarbiyasi oilada, maktabda va ish joyida tarkib topishi kerak, deb xulosa chiqarishga xaqimiz.

Oila tarbiya uchog'i ekani O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Chunonchi, Konstitutsiyaning 64-moddasida «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar»

deb yozilgan. Oilada ota onalar o'z farzandlarini inson qilib tarbiyalashlari, ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart. Ana shu sababdan Konstitutsiyamizning 63-moddasida: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deb tasdiqlangan⁸.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunda maktab zimmasiga bolalar va yoshlarni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik va jismoniy tarbiyalashga ko'maklashish vazifasi yuklatilgan. Bu ishlarni maktab oila bilan birgalikda olib boradi. Demak, huquqiy pedagogikani amalga oshirishda maktab, oila, jamiyat tashkilotlari bilan birgalikda umumiy va maxsus yo'nalishda ish olib boradi. Oilada huquqiy pedagogika asosan bolalarni mehnatsevar qilib yetkazish, o'z burchlarini bilish, qonun doirasida ish tutish, ongli ravishda oilada o'rnatilgan tartib-tarbiyani mustahkamlashga chorlaydi.

Jamoa joylarida huquqiy pedagogika shu yerda joylashgan tashkilot va muassasalarning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, kinoteatr, oshxona, do'kon, firma va boshqa joylarda huquqiy ta'lim -tarbiya shu sohada ishlaydigan kishining huquq va burchidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy muhit sifatida jamoaning eng muhim belgisi uning o'rnatilgan huquqiy printsiplariga asoslangan bo'lishidir. Har bir jamoa o'z funksiyasini o'ziga xos turli shakl va metodlarga asoslanib, amalga oshiradi. Jamoa a'zolarining barchasi o'z mehnat burchiga va jamoa vazifasiga, huquqiy holatiga aloqador qonun-qoidalar bilan tanishtirilishi zarur.

Jamiyatimizdagi har-bir bola o'zining inson – eng ulug' zot ekanligini, boshqa tirik mavjudlardan nima bilan ajralib turishini go'dakligidan qalbi bilan his qilishi kerak.

Maktabgacha ta'lim turida huquqiy ta'lim-tarbiya uch bosqichda olib boriladi:

- 1) o'rta yosh (3-4 yosh);
- 2) katta yosh (4-5 yosh);
- 3) maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh).

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ilk huquqiy ta'lim tarbiya berishda bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Huquqiy qoidalarni bayon qilib berishda o'yin usullaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Bolalarga ilk huquqiy tushunchalarni berish orqali ularning shu davrdagi yoshiga mos qonun-qoidalarga rioya qilish maqsadi qo'yiladi va mashg'ulotlar tufayli ijobiy natijalarga erishiladi. Huquqiy ta'lim mashg'ulot tarzida bolalarga tevarak atrof, tabiat bilan tanishish, badiiy adabiyot, odobnoma mashg'ulotlarini mujassamlashtirib, har bir yo'nalishni bir-biriga moslab, uzviy ravishda olib boriladi.

Huquqiy ta'lim- tarbiyada shaxs xususiyatlarini hisobga olish lozim. Shaxs xususiyatlari xilma xil bo'lib huquqiy tarbiyalashda ulardan hech birini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Masalan shaxsning tabiiy xususiyatlaridan yoshi va jinsini olib ko'raylik. Yosh o'zgaruvchan jins doimiy bo'lgani bilan shaxsning rivojlanishi ko'p jihatdan shu ikki xususiyat bilan belgilanadi va ular o'zaro chambarchas bog'liqdir. Yoshga bog'liq holda tabiiy o'zgarish vujudga keladi va shaxsning huquqiy ta'lim- tarbiya elementlariga bo'lgan ehtiyoji ham o'zgaradi.

Kichik yoshdagi o`quvchilarni tabiatning muhofaza qilinishi bilan tanishtiradigan mashg`ulotlar qiziqarli o`radi.

“Odamlar tabiatdan qanday foyda olishadi” mavzuida O`zbekiston Respublikasining tabiat muhofazasi haqida maxsus qonun qabul qilishiga sabab bo`lgan misollar ko`rib chiqiladi, bolalarning ana shu qonunga rioya qilishi shartligi ta'kidlanadi, ularning e'tibori bolalar hayvonlar va qushlarning do`sti ekanligi va ular to`g`risida g`amxo`rlik ko`rsatishiga qaratiladi.

Tabiat haqidagi suhbatlarni o`quvchining qandaydir amaliy topshiriqning (daraxt o`tqazish va buta'zorlar yaratish, bog`da ishlash, “yaxil” va “zangori” patrullar tashkil etish va shu kabilarni) bajarishi bilan to`ldirish tavsiya qilinadi.

Tabiat haqidagi suhbatlarning o`zlashtirib olinishi va oddiy darslardan farqlanib turishi uchun ularni sayr qilish, boshqa tadbirlar (qushlar kuniya. O`rmon haftasi, gullar bayrami va boshqalar) paytida o`tkazish maqsadga muvofiqdir.

“Davlat va huquq asoslari” va “Inson huquqlari” o`quv fanlarining o`qitilishi o`quvchilarning bu ilmlarni o`zlashtirishi bir tizimga solingan huquqiy bilimlarni olishni eng samarali usuli hisoblanadi. Ta'limning boshqa hech qanday shakllari o`quv jarayonining dars, ya'ni huquq darsi kabi asosiy shakli o`rnini bosa olmaydi.

Barcha bilim yurtlarida qonunchilik asoslari va inson huquqlarining o`rganilishi joriy etilgan. Dasturga davlat huquqi, ma'muriy huquq, mehnat, yer, fuqarolik, oila va jinoyat huquqlari bo`yicha mavzular kiritilgan.

Qadimgi Sharqning buyuk mutafakkirlari, Markaziy Osiyo xalqlarining ilg`or ijtimoiy-siyosiy va huquqiy g`oyalarivakillari: faylasuf, tibbiy olim, tabiatshunos va matematik, shoir va adabiyotshunos Abu Ali ibn Sino; matematik, faylasuf, astronom davlat arbobi Mirzo Ulug`bek, iste'dodli adib, tarixchi, musiqashunos Amir Xisrav Dehlaviy asarlarida o`zining yaqqol ifodasini topgan. Yangi ilg`or oqimlar vakillari: Muqimiy. Ahmad Donish, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Furqat mehnatkash ommaning orzu-umidlarini ifoda qilishgan, zo`ravonlik va haqsizlikka qarshi norozilikni aks ettirishgan, yangi demokratik adabiyotning barpo qilinishida ishtirok etishgan.

Nazorat savollar:

1. Kichik yoshdagi bolalarda huquqiy bilim berishda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Necha yoshdan huquqiy ta'lim tarbiya beriladi?

14-mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA HUQUQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

Reja:

1. Yoshlarga huquqiy ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad har bir yosh huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishish
2. Huquqiy madaniyatining o'ziga xos jihatlari

Tayanch so'zlar: *Tarbiya, ta'lim, huquqiy, maqsad, shaxs, yosh, rivojlanish, madaniyat*

Yoshlarga huquqiy ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad har bir yosh huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatidir. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me'yorlar, huquqiy institutlar, huquqiy ong va xulq-atvor birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u atrof dunyoni idrok etadigan o'ziga xos "huquqiy qonun" bo'lib, u huquqiy mavqelikni o'zlashtirishining mezoni sifatida gavdalanadi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

- qonuniylik prinsipiga rioya etish;
- qonunga itoatkorlik;
- demokratizm, shu jumladan jamoat tashkilotlarining huquq me'yorlarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda, huquqning amal qilish mexanizmida keng ishtirok etishi;
- fuqarolarning qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan huquqlarining kafolatlanganligi;
- bu huquqlar bilan jamiyat oldidagi majburiyatlarning birligi.

Huquqiy madaniyat unga va umuman madaniyatga qonun hujjatlari ham, mansabdor shaxslar, muassasalar va fuqarolar xulq-atvori, faoliyati ham albatta mos kelishini talab qiladi, o'z navbatida huquqiy madaniyat ko'p jihatdan huquqiy tizimning o'zi bilan, huquqning hamma tarmoqlari va me'yorlari, huquqiy muassasalarning ishlash amaliyoti bilan belgilanadi.

Shaxs huquqiy madaniyatining o'ziga xos jihatlari:

- qonunga itoatkorlik;
- qonuniy va huquqiy institutlarni chuqur hurmat qilish;
- yuksak darajada ijtimoiy-huquqiy faollik;
- huquqni ijtimoiy o'zgarishlari va shaxs manfaatlarini himoya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida baholash. Individlarning va odamlar turli birliklarining huquqiy madaniyati ularning huquq me'yorlariga rioya etishlariga, shuningdek ularning ijtimoiy-huquqiy faolliklari darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini o'rganish jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy holatining istiqbollari baholashga imkon beradi. Chunki shaxs qaror topib borayotgan davrda uning qadriyatlarga munosabati shakllanadi, huquqqa ijobiy va salbiy munosabat vujudga keladi, faol yoki passiv ijtimoiy-huquqiy xulq-

atvorga qaratilgan yo`l-yo`riqlar vujudga keladi. Nihoyat, huquqiy ta`lim-tarbiyaning samaradorligi tarbiya obyektining ahvoli to`g`risidagi bilimlarning chuqurligiga va darajalanganligiga muvofiq keladi. Tarbiya objekti, shu o`rinda – yoshlarning ahvolini uning huquqiy madaniyati ko`rsatib beradi.

Odatla yoshlikda yigit-qizlar o`z mehnat yo`llarini boshlaydilar, shuningdek oila quradilar. Ana shu hol ularning mehnat va oila huquqiga bo`lgan qiziqishida aks etadi. Yoshlar turli guruhlarining yosh xususiyatlari aniq namoyon bo`ladi. Ma'naviy va intellektual yetuklik darajasi oshib borgan sari kriminal adabiyotga, shu tufayli jinoyat huquqiga ham bo`lgan qiziqish kamayadi, buning o`rniga mehnat, fuqarolik va uy-joy huquqiga bo`lgan qiziqish oshib boradi.

Yoshlarning huquqqa bo`lgan qiziqishining darajasini ularning ommaviy axborot vositalari (radio, televedenie, gazeta va jurnallar) tomonidan yoritilayotgan turli yuridik masalalarga qiziqishini o`rganish asosida aniqlash mumkin. Bu huquq haqidagi bilimlarni olish maqsadi va sabablari to`g`risida tasavvurga ega bo`lish imkonini beradi. Yoshlarning huquqiy axborotni foydalanishdan ko`zlagan asosiy maqsadi o`zlarining huquq va majburiyatlari to`g`risidagi bilimlarini kengaytirishdan iboratdir.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy ong nazariyasi bo`yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy kamchiliklaridan biri shundaki, ijtimoiy ong ko`pincha subyektga bog`lamasdan o`rganilmoqda. U yoki bu holda aynan kimning, aynan qanday ijtimoiy subyektning ongi tadqiq qilinmoqda degan savolga muttasil e`tibor berilmasligidadir. Bu fikr ijtimoiy huquqiy ongni tadqiq qilishga ham, huquqiy madaniyatga ham batamom taalluqlidir. Fikrimizcha, ma'naviy hayotga bag`ishlangan ko`pgina tadqiqotlarning “subyektsizligi” ularning “bo`lishi kerak narsaga” qaratilganligi bilan chambarchas bog`liqdir.

Aftidan, buning aksini aytish ham o`rinli bo`ladi: subyekt muammosiga, uning ma'naviy dunyosiga murojaat qilishning o`ziyoq tadqiqotchining “mavjud narsaga” qiziqishini ko`rsatadi, bo`lishi kerak bo`lgan narsa bilan mavjud narsa o`rtasidagi ixtilofni izlashga imkon beradi.

Subyektning ichki tuzilishi ijtimoiy huquqiy ong va madaniyatning eng kam tadqiq qilingan sohalaridan biridir. Yoshlar o`z huquqiy onglari va huquqiy madaniyatlarining subyekti bo`lib, ayni vaqtda jamiyat huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining subyektlaridan biri hamdir. Jamiyat huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining subyekti sifatida ular ana shu huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yaratuvchilaridan va ifodachilaridan biri vazifasini o`taydi.

Individlar va ijtimoiy guruhlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga falsafiy ilmiy adabiyotda asosan tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish va shakllantirish uchun obyekt deb qaraladi. Biroq mutlaqo ravshanki, ijtimoiy munosabatlarning qatnashchilari hamma vaqt ham huquqiy ta'sir ko`rsatishning passiv obyektlari bo`lavermaydi. Huquqiy boshqarishni huquq me'yorlarining individlar ongiga bir yoqlama ta'sir ko`rsatishi deb hisoblash noto`g`ri bo`lar edi.

Huquqdan amaliyotda foydalanuvchi va uni qo`llovchi odamga faqat huquqiy ta'sir ko`rsatish obyektigina deb qarash mumkin emas. U o`zining ehtiyojlariga (individual, ijtimoiy, professional ehtiyojlariga) qarab huquqiy boshqaruv tizimida amaldagi qonun hujjatlari bilan berib qo`yilgan va

ta'minlangan imkoniyatlariniro'yobga chiqarayotgan va ayni vaqtda o'z maqsadlari va manfaatlarini amalga oshirayotgan faol subyekt bo'lib chiqadi.

Keyingi yillarda sotsiologik (ijtimoiy) tadqiqotlarning jonlanishi, jamoatchilik fikrini o'rganishning faollashuvi yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining ahvoli muammosini chetlab o'tmaydi. Yoshlarning huquqiy tasavvurlari bilan bog'liq masalalar keng ko'lamda o'tkazilgan so'rovlarning natijalarida umumiy aksini topdi. Bunda quyidagi printsiplar ko'zatiladi.

Birinchi, to'g'ri tarbiya olgan yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati to'g'risidagi ma'lumotlarga qaraganda xulqi bo'zuq yoshlarning (huquqbuzarlar, jinoyatchilar, sodir qilgan jinoyatlari uchun sud belgilagan jazoni o'tagan va o'tayotgan shaxslarning) huquqiy ongi va huquqiy madaniyati to'g'risida ma'lumotlar ancha ko'p to'plangan. Shu bilan birga, yaxshi xulqli yoshlarning huquqiy tasavvurlari, bilimlari, baholari ko'pincha ularning anketalardagi javoblari bilan solishtirish uchuniga tadqiq qilinadi. Ilmiy qiziqishlari huquqbuzarliklarning oldini olish muammosidan tashqariga chiqadigan huquqiy ong tadqiqotchilarining soni, faolligi va imkoniyatlari ancha kam.

Ikkinchi, ishlaydigan yoshlarga qaraganda o'quvchi yoshlarning (shu jumladan talabalarning ham) huquqiy ongini sotsiologik tadqiq qilish ancha tez-tez amalga oshirib turiladi.

Uchinchi – tadqiqotchilarning asosiy ommasini voyaga etganlar tashkil etadi.

Yuqorida bayon etilganlardan huquqiyongi sotsiologik usullar bilan hammadan kamroq o'rganilayotgan yoshlar guruhlarida haqida ham xulosalar chiqarish mumkin. Xususan, bu guruhlar quyidagilardan iborat: yosh bo'yicha – ulg'aygan yoshlar; mashg'ulot turi bo'yicha – ishlaydigan yoshlar; huquqiy xulq-atvori bo'yicha – to'g'ri xulqli yoshlar.

Yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyati subyektiga xos bo'lgan va shu tariqa boshqa guruhlarning huquqiy ong subyektlariga xos bo'lmagan narsa ana shu omillarga bog'liqdir. Bu omillar quyidagilardan iborat:

huquq me'yorlari bilan tartibga solingan yoki bunday tartibga solishni talab qiladigan, yoshlarni o'z doirasiga tortgan ijtimoiy munosabatlar. Ana shu doira ichida inson hayotida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan, aynan yoshlik davrida yuz beradigan quyidagi hodisalarni ko'rsatib o'tish mumkin: o'quv yurtlarini tamomlash, kasbga ega bo'lish, mehnat faoliyatini boshlash, qurolli kuchlar safida muddatli xizmatni o'tash, nikohdan o'tish, bolali bo'lish va h.k.;

yoshlarga xos bo'lgan umumiy ijtimoiy va ijtimoiy-huquqiy tajribaning hajmi; yoshlarning ruhiy-jismoniy va ijtimoiy-ruhiy xususiyatlari.

Yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining o'ziga xosligini aks ettiradigan omillarning ta'sirini faqat ularning shakllanishi belgilab beradigan umumiy ijtimoiy omillar bilan bog'lab ko'rib chiqish mumkin. Ular orasida: iqtisodiyot va madaniyatning rivojlanish darajasi, demografik vaziyat, mamlakatdagi umumiy huquqiy vaziyat, tarbiyaviy ishning, xalq ta'limining, huquqni muhofaza qiduvchi organlar faoliyatining ahvoli va boshqalar. Yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining muayyan-tarixiy turi yoshlar

yashayotgan va amal qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy voqelik orqali namoyon bo`lgan.

Ong bilan bilishni bir narsa deb hisoblash mumkinmi, degan nazariy masala yoshlar huquqiy madaniyatining mohiyatini aniqlash uchun uni shakllantirish usullarini belgilash uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Bu usullarning samaradorligi, xususan, huquqiy ong kognitiv tarkibiy qismini baholash bilan bu bahoning xulq-atvoriga ta'siri aynan bo`lishiga bog`liqdir. Ravshanki, gap yuridik bilimlarning rolini kamsitish haqida bormasligi kerak, lekin uni ortiqcha baholab yuborish ham huquqiy tarbiya amaliyotiga noaniq yo`l ko`rsatadi.

Qonun hujatlari to`g`risidagi bilimlar muammosi juda puxta yondoshishni talab qiladi. Eng avvalo, so`z yuritiladigan qonunchilik me'yorlarining hajmini tasavvur qilish va bu hajmni odamning jismoniy va ruhiy imkoniyatlari, amaliyot talab-ehtiyojlari, qolaversa, sog`lom aql-idrok talablari bilan taqqoslash haqida boradi.

Qonun hujjatlarini bilish kerak, ularni o`rganish esa mumkin emas degan tushuncha ko`pdan beri ma'lum. Unday bo`lsa, huquqiy tarbiyaning kognitiv tarkibiy qismini ro`yobga chiqarish strategiyasi qanday bo`lmog`i kerak? Aytish mumkinki, bu masala pedagogikaga doir asarlarda hammadan batafsilroq ko`rib chiqilgan. Ishlovchi yoshlarning huquqiy madaniyatiga doir har qanday universal chizmalar to`zilmalari bir qadar sholastik bo`lishi muqarrar. Ayni vaqtda yoshlar orasida yuridik bilimlarni keng yoyishga umumiy yondoshuvlar tadqiqotchilarning jiddiy e'tiboriga loyiq.

Bunday yondoshuvlarning yuridik adabiyotda uchraydigan ta'riflari, qoida tariqasida, yoshlarga mo`ljallangan yuridik axborotni tanlash printsiplarini aniqlashdan, shuningdek axborotning turli toifadagi yoshlar uchun zarur bo`lgan eng kam hajmlarini aniqlashdan iborat qilib qo`yiladi. Bunday tadqiqot ishi, shubhasiz foydali, lekin uning zaif tomoni ham bor. Bu zaaif tomon yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish obyekti sifatida bir tomonlama qarashdan iboratdir.

Yoshlarni huquqiy xabardor qilish masalasining (shuningdek, huquqiy madaniyatni shakllantirishga doir boshqa masalalarning ham) eng maqbul echimlarini izlash, fikrimizcha, uning ijtimoiy subyekt ekanligini to`la-to`kis hisobga olishi kerak. Bundan, shu narsa kelib chiqadiki, huquqiy xabardor qilish strategiyasi yoshlarga istalgan hajmda yuridik bilimlarni tiqishtirishdan iborat emas, balki ularga hayotningo`zi talab qiladigan huquqiy bilimlardan bahramand bo`lish imkonini berishdan iboratdir.

Yuridik ilmiy adabiyot va darsliklarda, ko`pgina amaliyotchi xodimlar ongida jinoyatchilikning o`shishi sabablarini huquqiy bilimlarni targ`ib qilishni tashkil etishdagi kamchiliklardan izlash kerak degan siyqa fikr hali ham hukm surmoqda. Ikkinchi tomondan, ana shu tasavvurlarga muvofiq huquqiy tarbiyaning o`zi ham huquqbuzarliklarning oldini olish bilan tenglashtirib qo`yiladi. Ana shu andozalarning ildizlari haqidagi masalani ko`tarar ekanmiz, biz ularni bir necha o`n yilliklar mobaynida markscha-lenincha mafkurada hukm surib kelgan da'vo bilan, ya'ni sotsializm da'vo bilan bog`laymiz. Lekin nazariya bilan amaliyot ochiqdan-ochiq mos kelmay qoldi: jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlari yo`q, u esa kuchayib boraveradi.

Aftidan ana shunda bu kuchayishni tarbiyaviy ishdagi, huquqiy bilimlarni targ'ib qilishdagi kamchiliklar bilan izohlaydigan mafkuraviy qolip vujudga keldi.

Ravshanki, yuqorida bayon etilgan fikrlar huquqiy tarbiya ishining dolzarbligini shubha ostiga olmaydi. Biz huquqiy tarbiyaning huquqiy xulq-atvoriga qudratli ta'sir ko'rsatishi haqidagi xomxayollardan voz kyechish zarurligiga, shuningdek, huquqiy tarbiyani jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi bilan yaralashtirib yuborishga barham berish zarurligiga e'tiborni qaratmoqchimiz, holos. Shunga qaramay, huquqiy tarbiyani hozirgi sharoitda yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishning juda muhim omilari jumlasiga kiritish uchun hamma asoslar mavjud.

Yoshlarning huquqiy madaniyati voqelikning turli tomonlari va sohalarini aks ettirish bilan huquqiy munosabatlarni aks ettiradi, huquqiy me'yorlar, g'oyalar, qarashlar esa aks ettirish predmeti bo'ladi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini bunday tushunish uning ayrim tomonlarini ularni vositalovchi aloqalarsiz va butunning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq bo'lmagan holda bosqichma-bosqich yoritib boradi. Bu o'rinda huquqiy madaniyat yoshlarning ijtimoiy-huquqiy faoliyati jarayonida vujudga kelishini, ijtimoiy ong shakli ekanini va huquqning oddiy ongda bevosita aks etishidan farqli o'laroq, ijtimoiy ongni tushunishning dunyoqarash bilan bog'liq unsurlarini ozmi – ko'pmi tartibga solgan holda ifodalashini hisobga olish muhim. Bu unsurlar, huquqning muayyan tarixiy davrdagi ijtimoiy qadr-qimmatinigina emas, shu bilan birga huquqiy tizimning g'oyaviy mohiyatini ham aks ettiradi. Shuning uchun ham yoshlarning huquqiy madaniyatini tadqiq qilish va ta'riflash davlat va huquq taraqqiyotining tarixiy qonuniyatlarini ilmiy bilishga tayanmog'i kerak. Shu tufayli huquqiy madaniyat tushunchasining mazmunini tadqiq qilinayotgan predmetning hamma tomonlarini birgalikda olgan holda mavxumlikdan aniqlikka ko'tarilish yo'li bilan ko'rib chiqish imkoniyati tug'iladi.

Yoshlar huquqiy madaniyatining tarkibiy unsurlari huquqiy bilish, tushunish hamda unga rioya etishga odatlanishdan, huquq talablarini hurmat qilish, huquq ko'rsatmalarining to'g'riligiga va adolatliligiga ishonch hamda yuridik sohada faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishdan iboratdir.

Bizning fikrimizcha, masalan, har bir yosh inson egallashi lozim bo'lgan bilimlar deganda uning huquq masalalaridan xabardorligini, yuridik tushunchalar va atamalar bilan tanishligini tushunmoq kerak. Bu bilimlar o'z xulq-atvorini ongli suratda tashkil etishga, o'z xulq-atvorini o'zi yuridik na'zorat qilib turishga imkoniyat beradi. Bunda eng avvalo davlat huquqi, moliya, fuqarolik, oila, mehnat, jinoyat va boshqa huquq sohalarining asoslarini bilish nazarda tutiladi.

Huquqiy me'yorlarni bilish yosh insonlar o'z huquq va majburiyatlaridan to'g'ri va har tomonlama foydalanishlari hamda muayyan mazmunga ega bo'lgan u yoki bu huquqiy me'yorlar mavjudligidan shunchaki xabardor bo'lish degani emas. U huquqni anglashni, uning mazmunini tushunib yetishni, amaliy faoliyat uchun ahamiyatini belgilashni taqozo etadi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini baholaganda yosh inson huquq ko'rsatmalariga rioya etganligini aniqlash ham muhimdir. Masalan, yoshlar jazodan qo'rqib huquqiy me'yorlarning talablarini bo'zmayotgan bo'lishsa, ularda

huquqiy madaniyat mavjud deb aytish o`rinli bo`lmasa kerak. Shuning uchun ham huquqni bilish va tushunishning o`zi yetarli emas, bu kamlik qiladi, deymiz, uni hurmat qilish, o`zining barcha huquqiy talablarga rioya etishga majbur ekanligini e`tirof etish zarur.

Yoshlarning huquqiy madaniyati huquqni hurmat qilish bilan bir qatorda yana qonunga rioya qilish odatini ham taqozo etadi. Bu esa xususan madaniyatga, turmushga singib ketgan, odatga aylanib ketgan narsanigina erishilgan deb hisoblash mumkin degan qoidadan kelib chiqadi. Vazifa – o`zimizda xulq-atvor masalalariga to`g`ri, oqilona munosabatni tarbiyalabgina qolmasdan, yana to`g`ri odatlarni ham tarbiyalashimizdan iborat, ya'ni bu odatlarga ko`ra biz yaxshi o`ylab ko`rganimiz uchun emas aslo, balki boshqacha qila olmaydigan bo`lganimiz, odatlanib qolganimiz uchun to`g`ri yo`l tutaylik. Bu odatlarni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha qiyin ishdir. Yoshlarda muntazam yuvinish, o`z tashqi qiyofasini ko`zatib borish yoki gazeta o`qish zaruriyatini tarbiyalagan kabi huquqqa rioya qilish odatini ham singdirish zarur.

Huquqiy ta`lim- tarbiya bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko`rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq atvor ko`nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko`zlagan holdagi tasvir ko`rsatilishidir.

Shuni takidlash kerakki, yaqin utmishda ham huquqiy tarbiyaga u haqiqatda sa'zovor bo`lishi kerak bo`lganidek darajada etibor berilmas edi. Pedagogikaga doir darsliklarda shaxsning akliy kamoloti, mehnati, jismoniy, ma'naviy estetik tarbiyasi haqida so`z borar ekan, lekin huquqiy tarbiya xususida eslatilmas edi. Tarbiyaviy ishning mustaqil yo`nalishi tarzida huquqiy tarbiya yo`nalishining ajratib qo`yilmasligi o`sib kelayotgan avlodning ayrim qismi huquqiy ongi ahvoliga salbiy ta'sir ko`rsatmay qolmadi.

Shubxasiz, huquqiy, siyosiy va ma'naviy ongning o`zaro bog`liqligini esdan chiqarmaslik kerak, lekin shuni ham nazarda tutish lozimki, ularni bir-biri bilan kushib yuborish mumkin emas. Tarbiyaviy ishning o`ziga xos yo`nalishidagi huquqiy mustaqilligi avvalo uning mazmuni bilan bog`liqdir. Huquqiy tarbiya ongning mustaqil shaklini – huquqiy ongni shakllantiradi, bu esa tarbiyaning o`ziga xos shakllari va usullarini izlab topish va qo`llanish zaruriyatini taqazo etadi.

Tarbiyachilar zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan bo`lishi va tarbiyalanuvchilar huquqiy ongni shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyotini egallashi lozim.

Ma'lumki, huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri. Agar ijtimoiy ong umuman ijtimoiy borliqning aksi bo`ladigan bo`lsa, unda huquqiy ong faqat mavjud huquqiy voqea- hodisalarni, shuningdek huquq yordamida tartibga solinishi mumkin bo`lgan hodisalarni aks ettiradi. Huquqiy ong –bu jamiyatda ommaviylashgan huquqiy, shuningdek kishilarning xulq-atvoriga ijtimoiy muassasalar qadriyatlariga huquq haqidagi shunday tasavvurlar nuqtai nazaridan munosabatini ifodalaydigan nazariyalar, g`oyalar qarashlar va tasavvurlar majmuidir.

Huquqiy ongda quydagi besh elementni ajratib ko`rsatish mumkin: huquqni bilish; huquq haqidagi tasavvur; amaldagi huquqqa munosabat; huquqqa qo`yiladigan talablar; huquqiy ko`rsatmalarning ijro etilishiga munosabat. Ularning hammasi bir- biri bilan o`zaro chambarchas bog`langan va o`zaro aloqadorlikdadir. Shu bilan birga ular o`zaga xos shakllanish xususiyatiga ega va huquqiy ong «faoliyati»da turli rollarni uynaydigan har xil elementlar bo`lib, buni, albatta, huquqiy tarbiya jarayonida hisobga olish zarur.

Huquqni bilish huquqiy me`yorlarni bilishni anglatadi. Huquqni bilish va u haqda tasavvurlar, odatda, kishiga huquqqa zid narsani qonuniy narsadan farqlashida, qandaydir hodisani huquqiy jihatdan to`g`ri baholashida va uning ehtimol bo`lgan huquqiy oqibatlarini tasavvur etishida yordam berib, birgalikda «faoliyat ko`rsatadi». Bunda bilimlar bilan tasavvurlarning o`zaro bir-birini mustahkamlashi yuz berishimumkin yoki huquqiy amaliyot huquqiy meerlar talablaridan farq qilgani holda o`smir ongida huquq haqidagi tasavvurlar huquqiy bilimlar bilan raqobatlashuvi va shunda aynan noto`g`ri huquqiy tasavvurlarning g`olib bo`lishi ham istisno qilinmaydi. Shaxsning hayotiy tajribasi huquq haqidagi tasavvurlarning muhim manbai hisoblanadi.

Huquqiy tarbiyani huquqiy ta`limdan yoki faqat huquqshunoslikni o`qitishdangina iborat deb bilmaslik kerak.

Shuni unutmaslik kerakki huquqiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning hama jihatlarini qamrab olishi, maktablarda birinchi sinfdan boshlab amalga oshirila boshlashi, o`quv yurtlarida huquq bilan bir qatorda boshqa fanlarni o`qitish jarayonida, sinfdan tashqari ishlarda leksiyalar, huquqshunoslar bilan uchrashuvlar, og`zaki jurnallar, yosh huquqshunoslar klublari maktablari va boshqalarni tashkil etish yo`li bilan o`tkazilishi lozim.

Bunda yoshlarning o`zining huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi yuridik faoliyatining rolini ham hisobga olish kerak bo`ladi.

Huquqiy ta`lim-tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo`naltirilganligining tarkibiy qismi sifatidagi huquqiy qarashlari va dasturlari asoslariga negiz yaratish ayniqsa muhimdir.

Huquqiy ta`lim-tarbiya o`z tarixiga ega bo`lib, qonunlarni aniq ijro etilishiga ta`sir ko`rsatishga qodir, siyosiy tuzilishidan qatiy nazar hamma davlatlar undan manfaatdor.

Ma`lumki, qadimgi Yunoniston va Rimda bolalikdan boshlab fuqarolarga qonunlar o`rgatilgan. Rim davlatida 14 yoshgacha bo`lgan bolalar qonunlarning 12 jadvalini yod olganlar. Eramizdan oldingi III asr boshlarida mavjud bo`lgan va bizgacha yetib kelgan «Fuqaro Xersonesning qasamyodi»da, jumladan, shunday deyiladi: «Men fuqarolarning hech biriga nisbatan hech qanday adolatsiz ishni xayolimga keltirmayman...va bunaqa ishga yo`l qo`ymayman, buni yashirmayman ham, lekin uni sud e`tiboriga yetkazaman va suda qonunlarga muvofiq ovoz beraman». Bu o`rinda nafaqat qonunlarga rioya etilishi haqida, shu bilan birga yoshlarning va boshqalarning qonunlarni buzishlarini fosh qilishga jalb etilishi to`g`risida ham borgan.

Huquqiy ta'lim-tarbiya muammolari Frantsiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi mamlakatlarda huquqiy tarbiya masalalari doimo diqqat markazida bo'lib, uning ko'p muammolari hal etilgan. Bunda har doim huquqiy tarbiyaning ayni bir paytda o'sib kelayotgan avlodga ham siyosiy, ham ma'naviy ta'sir ko'rsatilishi ekanligini tushunib yetish namoyon qilingan va hatto takidlab o'tilgan. Masalan, Fransiyada 1879 yilda joriy qilingan maktablarda axloq va huquqning o'qitilishi «fuqaro», «mamlakat», «Askar», «qonun», «jamiyat», «adolat» kabi va boshqa bir qator shunday so'zlarning ma'nosini tushuntirib berishdan boshlangan. bolalar 9-11 yoshida davlat qurilishi, shuningdek, harbiy xizmat, soliqlar va shu kabilar haqida oddiy tasavvurlarga, keyinchalik esa – davlat va huquq to'g'risida ancha batafsil ma'lumotlar ega bo'lishgan.

Siyosat – iqtisodiyotning umumlashtirilgan ifodasi, deyiladigan bo'lsa, huquq to'g'risida u siyosat, iqtisodiyot va shu davlatda bo'lgan axloqning umumlashtirilgan ifodasi, deyish mumkin bo'ladi.

Huquqiy ta'lim - tarbiya hamisha davlatning siyosat, iqtisodiyot va axloqqa nisbatan o'z nuqtai nazarini aholiga aniq etkazib berish borasidagi eng ishonchli yo'l hisoblanadi. Huquqiy normalar yozma shaklda ifodalanadi va shu tariqa odamlar u bilan davlat tomonidan ta'riflanganidek shaklda tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'sib kelayotgan avlod huquqiy ta'lim - tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi.

Avvalo, huquqiy ta'lim - tarbiya yangi insonni kamol toptirishning samarali vositasi hisoblanadi. Qonunlar jamiyatimizning eng muhim axloqiy normalarini ifodalash bilan Ayni bir vaqtda ushbu normalarning nafaqat e'lon qilinishi, shu bilan birga real ta'minlanishining dalili bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda huquq qudratli tarbiya vositasi hisoblanadi.

Huquqiy ta'lim - tarbiya yana shuning uchun ham muhimki, jamiyat qonunlari o'zining dolzarbligini saqlab qoladigan ilg'or va insoniy qoidalarni o'z ichiga olgan bo'ladi. Turgan gapki, o'z mohiyatini yo'qotgan normalar barham topadi, lekin ko'pgina narsalar saqlanib ham qoladi. Endi ular huquqiy norma, qonun sifatida bo'lmaydi. Odamlar tegishli qoidalarga amal qilishga o'rganishadi, bu ular uchun odat tusiga kiradi. Ana ushanda bunday qoidalarni qonunlarda mustahkamlab qo'yish va ularni, mabodo bunday qoidalarga rioya qilinmaganda buning uchun tegishli huquqiy javobgarlikka jalb qilinadi, degan ko'rsatma orqali isbotlab qo'yishga bo'lgan zaruriyat o'z o'zidan barham topadi. Bunday qoidalar endi ma'naviy tartibga soluvchilar tarzida amal qilaveradi.

Rivojlanib borayotgan demokratik jamiyat sharoitida, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, yosh insonlarning yuksak ijtimoiy-huquqiy faolligini shakllantirish, ularning turli huquqbuzarliklarga qarshi, qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash uchun kurashda mustaqil ishtirok qilishiga erishish g'oyat muhimdir.

Yoshlarni huquqbuzarliklarga qarshi qonunlarda belgilangan tartibda kurashishga o'rgatish zarur. Bu ishda hokimliklar, kasaba uyushmalari, O'zbekiston yoshlari jamoat tashkilotlari, O'zbekiston xalq demokratik partiyasi faol ishtirok etmoqdalar.

Yangi insonni kamol toptirish va huquqiy ta'lim - tarbiyani ta'minlash yoshlar huquqiy tarbiyasining umumiy vazifalari hisoblanadi. Biroq huquqiy tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish manfaatlari bunday faoliyat yo'nalishlari va mazmuni haqida yanada batafsil tasavvur hosil qilinadigan bir muncha alohida vazifalarning ham ajratib ko'rsatilishini taqozo etadi.

Ular quyidagilar:

-birinchidan, davlat va huquq masalalariga doir bilimlarning zarur tizimini shakllantirish, huquqning joriy va dolzarb masalalari yuzasidan xabardor qilish.

-ikkinchidan, davlat va huquq, qonuniylik prinsiplariga nisbatan hurmatni shakllantirish.

-uchinchidan, qonunga muvofiq xulq-atvor ko'nikmalarini singdirish.

-to'rtinchidan, faol fuqarolik pozitsiyasining, har xil huquqbuzarliklarga nisbatan toqatsizlik munosabatini tarbiyalash.

-beshinchidan, qonunda belgilangan tartibda o'zining, davlat, jamiyatva boshqa shaxslarning manfaatlar va huquqlarini faol himoya qilishga ehtiyojni va bunday qobiliyatni shakllantirish.

-oltinchidan, davlat va huquqqa nisbatan noto'g'ri qarashlarga qarshi tura bilish, ularni faol va ishonarli tarzda fosh qilish qobiliyatini singdirish.

Bilimlar xususida gapirganda, bu o'rinda, avvalo, yoshlarga bilimlarni qanday hajmda yetkazish kerak, degan savol kundalang bo'ladi. Nazarimizda, umumiy ta'lim maktabi doirasidagi huquqiy ta'lim - tarbiya birinchi navbatda voyaga yetmaganlarni ular hozirda ijro etayotgan va kelgusida bajarishi lozim bo'lgan umumiy ijtimoiy rollarni «davlat fuqarolari, oila a'zosi, o'quvchi» ado etishga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Huquqlar bilan majburiyatlarning mustahkam aloqadorligi prinsipi muhim printsiplaridan biri bo'lib, bir toifadagi kishilar boshqa toifadagi kishilarning majburiyatlari bilan har doim o'zaro aloqador bo'lgan suveren, demokratik davlat qonunlarida ancha to'liq mujassamlashgan bir kishining huquqiga qaysidir boshqa kishining majburiyati muvofiq kelmasa, unda bunday huquq noreal huquq bo'ladi va «havoda muallaq holda osilib qoladi». Masalan, agar fuqaroni dam olish huquqiga ma'muriyatning ta'til taqdim etish majburiyati muvofiq kelmasa, unda bunday huquq quruq bayonatdan iborat bo'lib qolgan bo'lardi. Odamlarning o'z majburiyatlarini bilishiga va ayni bir vaqtda o'z huquqlarini aniq tasavvur qilishlari, ularni himoya qila bilishlariga ham erishish zarur. Ana shunday aniqlanmay qolgan va jazo olmagan huquqbuzarlik faktlari ancha kamayadi. Shuning uchun yoshlarni diqqat e'tiborini nafaqat majburiyatlarga qaratish, shu bilan birga ularni qonun bilan to'liq hajmda : ham huquqlar, ham majburiyatlar tomonidan tanishtirish nihoyatda muhimdir. Bu fuqarolarning yuksak ijtimoiy-huquqiy faolligini shakllantirish ularni jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustahkam o'zaro aloqadorlikda ekanliklarini anglab yetishning g'oyat muhim yo'lidir.

Nazorat savollar:

1. Tarbiyachilar zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va tarbiyalanuvchilar huquqiy ongni shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyotini egallashi lozim. Bu fikr muallifi kim?

2.Oilada, maktabgacha ta`lim muassasalarida huquqiy ta`lim-tarbiya berish shakllari qanday?

15-mavzu: BOLALAR XUKUKLARINI XIMOYA KILISH TO`GRISIDAGI KONVENSIYA

Reja:

1. Bolalar xukuklarini ximoya kilish to`grisidagi Konvensiya mazmuni
2. Bola huquqlarini himoya qilish to`g`risidagi konvensiyaning ahamiyati

Tayanchso`zlar: *Tabiya, ta`lim, huquq, yosh, shaxs, odat, guruh, qonun*

Huquqiy ta`lim - tarbiya faqat yoshlarning o`zlari, shuningdek ularning yaqin atrofdagi shaxslar, kichik guruhlar huquqiy ongining mavjud darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilgandagina samarali bo`lishi mumkin. Shu bilan birga huquq masalalari yuzasidan keng jamoatchilik fikri holatini ham hisobga olmaslik mumkin emas.

Tadqiqotlar yoshlarning huquqiy ongida hisobga olinishi zarur bo`lgan bir qator o`ziga xos jihatlar mavdudligidan dalolat beradi.

Ko`pgina yoshlar o`zlarining xulq-atvorini qonun bilan solishtirish va huquqiy tushuncha bilan fikrlashga o`rganmaganlar. Ular asosan «yomon», «yaxshi» degan baholarga asoslanib ish ko`rishga odatlanishganki, bu, albatta, yetarli emas. «Yomon» degani – bu shunchaki axloqqa zid bo`lishi mumkin va ayni bir vaqtda tegishli oqibatlariga olib keladigan huquqqa zid harakat haqida berilgan baho bo`lishi mumkin.

Ayrim yoshlar qonunning ijtimoiy rolini, uning ijtimoiy munosabatlarini tartibga solib turuvchi real tasavvur eta olmaydilar, balki huquqning asosan formal taqiqlashlar tizimi deb o`ylaydilar. Ularning fikricha, qonunlar faqat jinoyatlarga qarshi kurash uchun mavjud bo`lib «biz surovlar o`tkazgan bolalarning 28 %i ana shunday deb o`ylagan», asosan taqiqlanadigan narsalar ro`yxatini ko`rsatish va jazo choralarini bayon qilishga xizmat qiladi. Ko`pincha o`smirlar «qonun uni ijro etish uchun mavjuddir», deb ham javob qilishadi. Ular qonunlarning qanday, nima uchun yaratilishi, masalalarni ular nima uchun aynan shunday hal etishi, nega boshqacha yechim bermasligi, qonunlarning jamiyat va har bir kishi turmushida qanday rol o`ynashi, nima uchun ularni bo`zmaslik kerakligi xususida unchalik ko`p bosh qotirmaydilar.

Bolalar xukuqlarini ximoya qilish to`grisidagi Konvensiya 54ta moddadan iborat. 43–54moddalarda hukumatlar va umuman kattalar birgalikda qandayqilib bolalarning huquqlarini to`la ta`minlashlari haqida bayon etilgan. O`zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiyaga 1992 yil 9 dekabrda qo`shilgan

1-modda. 18 yoshga to`lmagan har bir inson shu Konvensiyada qayd etilgan barcha huquqlarga ega.

2-modda. Insonning irqi, dini, qobiliyatlari, u nima deb o`ylashi yoki so`zlashidan qat`i nazar, Konvensiyahar bir inson gani sibatano`llaniladi.

3-modda. Bolalar bilan olib boradigan barcha tashkilotlar har bir bola uchun barcha xshiliklarni qilishga intilishi lozim.

4-modda.

Davlat ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan bolalar huquqlarini amalga oshirish uchun barcha choralar-tadbirlarni qo'llash shart.

5-modda. Davlat bolaning rivojlanib borayotgan qobiliyatlariga muvofiq ravishda uning tarbiyasi bo'yicha ota-ona va kengaytirilgan oilaga tegishli huquq va majburiyatlarni shunday hurmat qilishi

darkorki, bolalar tobora ulg'ayib borishi sari o'z huquqlaridan to'g'ri foydalanishga o'rganib borishsin.

6-modda Har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega va davlat bolaning omon yashashi va sog'lom rivojlanishini ta'min etishga majbur.

7-modda Bola tug'ilgan zahoti ism bilan atalish huquqiga ega. Bola fuqarolik olish va, iloji boricha,

o'z ota-onasi kimligini bilish, shuningdek, ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlariga

egadir.

8-modda Davlat bolalarning ism, fuqarolik va oilaviy aloqalariga mansub huquqlarini hurmat qilish lozim.

9-modda. Bola o'z ota-onasidan ayrilish imkoniyatini, shunday choralar bilan manfaatlarida qo'llanilgan holatlar bundan mustasno. Masalan, ota-ona bolaga shafqatsiz bo'lish va g'amxo'rlik qilmasligi holatlari. Bola, shuningdek, ota-onasining bittasi yoki har ikkovidan ayrilgan hollarda, qachonki bu bolaga zarar yetkazmasa, ularning ikkalasi bilan ham aloqalarini saqlab qolish huquqiga ega.

10-modda Bola va uning ota-onasi oilani birlashtirish yoxud bolalar bilan ota-ona o'rtasida g'ashiyat va munosabat va to'g'ridan to'g'ri aloqalarni bog'lab turish maqsadida har qanday mamlakatni tark etish va o'z mamlakatiga qaytib kelishga ruxsat berilishi darkor.

11-modda Davlat bolalarning mamlakatdanoqonuniy olib ketilishiga barham berish uchun barcha tegishli choralar-tadbirlarni qo'llashga majbur.

12-modda Bola o'z qarashlarini erkin ifoda etish huquqiga ega, binobarin, ana shu bolaga taalluqli har qanday masalani haletish chog'ida uning ushbu qarashlarini hisobga olinmog'lozim.

13-modda Bola o'zining qarashlarini ifoda etish, axborot olish, chegaralardan qat'i nazar, axborot va g'oyalarni uzatish huquqiga ega. Bolaning bunday harakatlari uning o'zigaham, boshqa odamlargaham zarar yetkazmasligi lozim.

14-modda Bola o'ziga yoqqan narsa to'g'risida o'ylash va unga ishonish, o'z diniga amal qilish huquqiga ega, binobarin bu bilan u boshqa odamlar huquqlarini buzmasligi darkor. Ota-ona bolaga bunday masalalarni tushuntirib berishlari kerak.

15-modda Bola, qachonki bu boshqa odamlarning huquqlarini buzmasa, boshqa kishilar bilan uchrashish va uyushmalarga kirish yoxud ularni tashkil etish huquqiga ega.

16-modda Bolalar shaxsiy hayotga ega bo'lish huquqiga ega. Qonun ularning turmushi va oilaviy hayotini, shuningdek, o'z yozishmalariga aralashuvdan himoyalashi, tuhmat va bo'htonlardan muhofazalashi lozim.

17-modda Bolalar ommaviy axborot vositalari orqali ishonchli axborot olish huquqiga egadirlar. Televideniye, radio va gazetalar bolalarga tushunarli bo'lgan turli axborotlarni taqdim etib, bolalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan materiallarni tarqatmaslik choralarini ko'rishlari darkor.

18-modda Ota-ona birgalikda bola tarbiyasi uchun asosiy javobgarlar hisoblanadi va har bir bola uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berishdan kelib chiqadi, davlat esa bu borada ularni qo'llab-quvvatlash shart. Davlat bolani tarbiyalashda ota-onaga tegishli choydam ko'rsatish zarur.

19-modda Davlat ota-ona yoxud bola uchun g'amxo'rlik qiluvchi boshqa shaxslar tomonidan bolaga hisbatanyomon muomalada bo'lishning har qanday shaklidan uni himoya etishi oldi olinishini ta'minlashi darkor.

20-modda O'z oila muhitida tarbiya ko'ra olmaydigan bolalar to'g'risida ularning dini, madaniyati va tilini hurmat qiladigan kishilar tomonidan tegishli parvarish va g'amxo'rlik ko'rsatilmog'i lozim.

21-modda Bolani asrab olish paytida birinchi navbatda bolaning eng yaxshi manfaatlaridan kelib chiqish zarur. Bolani o'zyurtida yoxud boshqa mamlakatda yashash sharti bilan asrab olinishi bir xil qonun qoidalarasosida amalga oshirilishi darkor.

22-modda Mamlakatga qochoqlar sifatida kelgan yoxud qochoq maqomini olishga intilayotgan bolalar ushbu mamlakatda tug'ilib o'sgan bolalar bilan teng huquqlarga ega bo'lishlari lozim.

23-modda Har qaysi turdagi nogiron bola alohida parvarish, ta'lim va tayyorgarlikdan foydalanish huquqlariga ega, bundan. Maktab intizomi bola huquqlari inobatga olish va uning qadr-qimmatini hurmatlash asosida ta'min etilishi lozim. Davlat mamlakatlari xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yib, bolalarga shunday sharoitlarni yarata olmaydigan qashshoq davlatlarga bunga erishishga ko'maklashishlari darkor.

29-modda Ta'lim har bir bolaning shaxsiva qobiliyatlari eng to'la hajmda rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ta'lim bolani erkin jamiyatda o'z ota-onasiga, madaniy o'ziga xosligiga, til va qadriyatlariga, o'zгалarning madaniy an'analari va qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalamog'i shart.

30-modda Kichik millatga yoki tub aholiga mansub bo'lishidan qat'inazar, bolalar o'z madaniyati va ona tilidan foydalanish hamda o'z diniga e'tiqod qilish huquqiga ega.

31-modda Har bir bola dam olish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda madaniy va ijodiy hayotda ishtirok etish huquqiga ega.

32-modda Bolaga uning sog'lig'i, ta'lim olishi va rivojlanishiga tahdid soladigan ishlar topshirilgan taqdirda, davlat uni bunday ishlar dan himoyalashi darkor.

33-
modda Davlat bolalarni xavfli yohvand moddalarda' siridan himoya qilish usullarini ta'min etmog'i shart.

34-
modda Davlat bolalarni shahvoniy maqsadlarda foydalanishning barcha shakllaridan himoya etishi darkor.

35-modda Davlat bolalarni o'g'irlash, sotish va kontrabanda qilishning oldini olishga qaratilgan barcha imkoniyatlarni jalb etishga majbur.

36-modda Bolalar o'zlarining farovonliklariga oid har qanday jihatlar gaziyon yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlardan himoyalash huquqiga ega.

37-modda Birorta bola, u noqonuniy harakatlarga yo'l qo'ygan taqdirda ham, qiynoqlar, shafqatsiz muomalaga duchor etilmasligi kerak. Ozodlikdan mahrum etilgan har qanday bola kattalardan ajratib saqlanish hamda o'z oilasi bilan aloqa bog'lab turish huquqiga ega.

38-modda Davlat 15 yoshga to'lmagan birorta bola qurollik kuchlarsafiga xizmat gacha qirinishiga yo'l qo'ymasligi shart. Qurolli mojarolardan jabrlangan bolalarga g'amxo'rlik qilishni va ularni himoyalashni ta'minlash zarur.

39-modda Davlat shafqatsiz muomala, qiynoqlar yoki qarovsizlikdan jabrlangan bolani, uning sog'ayishi va o'z qadr-qimmatini tiklashini ta'minlash maqsadida, tegishli davolashni ta'min etishi shart.

40-modda Qonunni buzganlikda nayblangan bola huquqiy va boshqa turdagi yordamdan foydalanish huquqiga ega. Bola faqat o'ta jiddiy jinoyat qilgan vaziyatdagina uni ozodlikdan mahrum etish qarori qo'llanishi ma'quldir.

41-modda Biror alohida mamlakat qonunchiligining me'yorlarimazkur Konvensiyada belgilangan bola huquqlarini himoyalash bilan bog'liq me'yorlardan ustun hisoblangan taqdirda, ustun turuvchi me'yorlar qo'llanadi.

42-modda Davlat kattalarni ham, bolalarni ham mazkur Konvensiyada belgilangan huquqlar bilan keng ko'lamda tanishtirishni ta'min etishi darkor.

Nazorat savollar

1. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ahamiyatli jihati nimalardan iborat?
2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyadagi moddalar qisqacha mazmuni nima haqida?

16-mavzu:MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TARBIYA MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi
2. Ekologik madaniyatni shakllantirish
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to'g'risida bilim berish

Tayanchso'zlar: *Ekologiya, bolayosh, madaniyat, tushuncha, ta'lim, tarbiya*

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni ihamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikmava malakalarni shakllantirishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarimizga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

2. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim. Bu haqda mazkur bobning birinchi paragrafida ma'lumot keltirildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalardagi ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi jihatlar alohida e'tibor berilib borilmog'i lozim:

- atrofni ifloslantirish kishilarga kasalliklarini olib keluvchi manba bo'lishligiga;

- yong'in oqibatlarining tabiatga zarari va yong'in chiqmaslik chora-tadbirlarini ko'ra bilishlikka o'rgatish;

- «suvga tuflama, uni iflos qilma», degan da'vatning mazmun mohiyatini bilishlikka;

- gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirmaslik, uning mevasidan insoniyat foydalanishligi hayotiy ehtiyoj ekanligi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va shu kabi- larga.

3. Ekologik savodxonlikni shakllantirish. Bunga talaba yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda hayotiy misollardan foydalangan ma'qul.

- dam olishga chiqilganda o't-o'lanlarning payhon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlarining qolishi jamiyat, tabiat va kishilar salomatligiga ta'siri oqibatlari haqida maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tasavvurlarni shakllantirish;

- daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan murosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarining tabiat va jamiyatga zararli ta'sirini maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga singdirish;

- * • zavod va fabrikalardagi zararli chiqindilarning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini va uning oqibatlarini maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga singdirishning axborot-kommunikatsion texnologiyalarini yaratishga erishish;

- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi barcha fanlarni o'qitishda ekologik tarbiyani olib borish;
- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda va ekskursiya hamda sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish;
- fanlarni o'qitishda maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik muammolarni o'rgatish orqali ularda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar- ni shakllantirish.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlarni to'g'risida bilim berish. Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob jonzorlar ro'yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e'tibor beriladi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar ekologik tarbiyasidan ko'zlangan maqsadlardan biri - bir to'mondan - muqaddas Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo'lsa, ikkinchi to'ondan - musaffo osmonimizni aslidagi- dek saqlashdan iborat. Bu ona diyorumizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bular maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi ekologik qonuniyatlarni va tushunchalarni ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:

- tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy o'illar va ular orasidagi bog'lanish;
- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;
- tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday boisa, o'shandayligicha qoldirishga intilish va shu kabilar.

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo'sak, Markaziy Osiyo xalqlari jumladan, o'zbeklar ham jahondagi eng qadimiy xalqlardan hisoblanadi va uyar jahon ilm-faniga, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligining guvohi bo'amiz. Ota-bobolarimizning bu boradagi qoldirgan boy ma'naviy merosi milliy merosimizni chuqur, har taraflama o'rganishimizga va u haqda xolisona fikr bildirishga hamda O'zbekiston mustaqilligiga erishuvida buyuk ma'naviy ozuqabo'di yoki ota-boboiarimiz qoldirgan milliy qadriyatlarimizni tiklash va ularni targ'ib qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

«Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ekologik tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Atrof-muhitni muhofaza etish, moddiy boyliklardan oqilona foydalanishga oid tarbiyani milliy qadriyatlar va an'analar, sharqona urf-odatlar orqali berish ehtiyoji paydo bo'di.

Tarbiyachining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa - yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida «Suv sayli» otkazgan. Ota-bobolarimiz «**Suv - tabiat in'o'i, hayot manbayi**», deb bejiz aytishmagan. Har to'chi suvni gavhardek qadrlab, bog'-rog'lar yaratishgan. Biz esa suvdan xo'jasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol

muammosining tug'ilishiga sababchi bo'ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yerga to'la yetib bormasligi natijasida bugun O'rta Osiyo uchun ahamiyatli bo'lgan Orolning butunlay yo'qolish xavfi paydo bo'di».

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, nodir qo'lyozmalar va davlat arboblarning ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo'lib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sog'lo' turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga o'rgatiladi.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xo'jaligining turli jabhalariga ta'sir etadi. Bu borada o'ziga xos global va mintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelaveradi. Bunda global muammolarga Orol fojiasi, Chernobil halokati, Xirosima va Nagasaki shaharlardagi bomba portlashlar hamda shu kabilar misol bo'la olsa, zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma'lum hududdagi tuproq eroziyasi, ba'zi kasalliklarning ko'payishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

Shu sababli ekologik tarbiya yo'nalishlari ham turli xil bo'adi. Quyida ularning ba'zilari to'g'risidagi ma'lumotlar keltiramiz:

1. Maktabgachayoshdagibolalarniyashabtganganjoyidagitabiatimizboyliklari nitejab-tergashga, unimuhofazaqilishgao'rgatish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z o'quv muassasalarini va uning tevarak-atroflarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga o'rgatish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish.
4. Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.
5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.
6. Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
8. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tabiat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.
9. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda o'quv muassasaiari va oila o'rtasidagi umumiylik va xususiylik.
10. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.
11. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tabiatni muhofaza qilishda ota-ona ibrat-namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.
12. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oiladagi, o'quv muassasasidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani yuksaltirish.
13. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda milliy an'ana va urf-odatlarini tiklashga e'tibor qaratish.
14. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda to'garaklardan foydalanish va ularda «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson»,

«Orol madad soʻraydi», «Tabiatni eʼzozlaylik», «Suvni muqaddas deb bilaylik» va shu kabi mavzularda davra suhbatlari uyushtirish.

Nazorat savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik savodxonligi qanday amalga oshiriladi?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalaeda ekologik taʼlim tarbiya berishda tarbiyachi nimalarga eʼtibor berishi kerak?

17. Maktabgacha taʼlim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning oʻziga xosliklari

Reja:

1. **Maktabgacha taʼlim muassasalarida ekologik** taʼlim tarbiya berish yoʻllari va usullari
2. Maktabgacha taʼlim muassasalarida ekologik bilim berishning oʻziga xos xususiyatlari
3. Maktabgacha taʼlim muassasalarida ekologik bilim berish bilan bogʻliq mashgʻulotlar

Tayanchsoʻzlar: Ekologiya, bolayosh, madaniyat, tushuncha, taʼlim, tarbiya

Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldi rayotgan hodislardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. Jamiyatni ng atrof-muhit bi Ian oʻzaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik oʻratsida katta tashvish uygʻotmoqda.

Oʻzbekiston Respubl ikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlishga majburdirlar ", 55-moddasida esa "Er osti boyliklari, suv, oʻsiml ik, va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdi r, ulardan oq ilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir" deyilgan.

Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi oʻzgarib bormoqda. Yashil oʻrmonlar siyraklashib, oʻsimlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilma boyliklari tugab bormoqda. Suv xavzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqi ndi moddalarni ng ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan taʼminlash, energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda, million-million yillar davomida turgʻun boʻlgan tabiiy holatga putur etmoqda.

Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, oʻzgarishi, er yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit oʻrtasida boʻ lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, xajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yoʻllarini oʻzlashtirishdan iboratdir.

Inson tabiatga, oʻzini oʻrab olgan muhitga nisbatan oʻz munosabatini

o'zgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi, o'rganishi va ular asosida o'z hayotini rivojlantirishi shait. Tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yo'llarini ishlab chiqish kerak. Aks holda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi va shu ofatlardan halok bo'ladi.

Ekologik ta'lim va tarbiyaning tub ma'nosi - tabiat va jamiyat o'rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bug'luvchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Ekologik ta'lim va tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq odob yuzasidan halqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'u-rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg' otishdan iboratdir.

Insonni o'rab turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, go'zalligiga qo'shadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni etishtirish - bu ekologik tarbiya maqsadi.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq al lomalaridan Muhammad Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e' zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Muhammad Muso al-Xorazmiy (782-847) risolalaridan birida bunday deb yozadi: " Bilingki, dunyoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutumanglar". Dunyoning yoshl i ko'zlari deganda Muhammad Muso al-Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan?

Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? U eng avvalo daryo bilan odamlarning bir-biri ni tushinishlari va ti! topishishlari o'zaro mehr-muhabbat qo'yish lari ni nazarda tutgan.

847 yilda Muham mad Muso al-Xorazmiy "Kitob surat al-arz" degan asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruql ikdagi qif alar, qutblar, ekvatorlar, gullar. tog'lar, daryo va dengizlar. ko'llar va o'mlonlar va ulardagi o'simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek boshqa tabiiy resruslar Erning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

Abu Nasr Farobiy (870-950) tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, "Kitob qolhaji va al-Miqdor", "Kitob al-mabodi al-insonia", "Kalam fia' zo al hayvon" nomli asarlari bunga dalil bo' la oladi.

Farobiy o'zining "Ixsoa al-ulum va al-ta'rif" asarida zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o'rganib, ularni ma'lum tizimga solib, turkumlarga ajratdi, har bir ilm tarmog' iga ta'rif berishga harakat qildi, tabiatshunoslik ilmiga katta e'tibor berdi.

Tabiatshunoslikka oid "Kitob al-mabodi al-insonia", "Kalam fia'zo al

hayvon" kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a'zo larining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o'xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga, asosiy anatomik fiziologik tushunchalar berilgan. Ularining ruhiy holatlaridagi xususiyatlari haqida ham to'xtalib o'tilgan. Kasalliklarining oldini olish, sog'lomlashtirish va boshqa chora-tadbirlarni qo'llash lozim ekanligi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Abu Raybon Beruniy (973-1048) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan narsa va hodisalarining o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. U tabiatshunos sifatida tabait haqida quyidagicha fikr yuritadi: "Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi"

Beruniy "Saydana" asarida 1116 turdagi dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750tasi turli o'simliklardan, 10tasi hayvonlardan, 107tasi esa minerallardan olinadi. Har bir o'simlik, hayvon va minerallarning xossalari, tarqalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan olimlardan biridir. Yirik qomusiy olim sifatida u o'z davri ilm fanining deyarli barcha sohalari bilan shug'ullangan. Turli yozma manbalarda uning 450dan ortiq asar yozganligi eslatiladi. Bizgacha esa 24tasi etib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida uning mashhur "Tib qonunlari" nomli shoh asari tibbiyot ilmi ning qomusi hisoblanadi. "Agar duneda chang va g'ubor bo'lmasa insoniyat ming yil umr ko'rardi" deb aytgan edi. Oli mning juda ko'p qimmatli fikrlari, jumladan, uning inson sog'lomligi saqlash haqidagi, parhez, gigena to'g'risidagi xulosa va maslahatlari hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U barcha yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni tavsiya etgan

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) faqat shoirona bo'lmay balki tabiatshunos ham bo'lgan. Boburning eng yirik asari "Boburnoma" asarida shoirning ko'rgan kechirganlari, borgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odatlarini, hayvonot, o'simliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o'ziga keragicha ma'lumot topadi. Asar muhim atamalar manba larga boy. Unda er, suv, havo turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi.

Bobur har bir xududni ma'lum bir tartibda tasvirlaydi. Avvalo joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi, shifobaxsh joylari, o'simliklari, qazilmalari, hayvonoti va aholisi haqida ma'lumotlar beriladi.

Bobur ajoyib botanik bo'lgan. U o'simliklarni sevgan va yaxshi bilgan.

Bobur o'zi bo'lgan joylarning tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini jonajon vatani Andijon bilan taqqoslaydi, u ayniqsa gullar, manzaralari hamda mevali daraxtlarni ko'paytirishga, ularning tarqalishiga e'tibor bergan.

Inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan suv, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak ham tabiatdan olinadi, hattoki insonning xastaligidan qutulishi, salomatligini tiklashi uchun zarur bo'lgan dori darmonlar ham ona-tabiatda etishgan mevalar, turli giyohlar va ziravorlardan tayyorlanadi. Inson tanasida birorta ortiqcha a'zo bo'lmagunday, tabiatda ham ortiqcha yaratilgan birorta narsa yo'q. Ularning hammasi hayot uchun zarur.

Er yuzi ekologiyasi keskin buzilmoqda. Daraxtlarning kesib yuborilishi, qush va hayvonlarning shavqatsizlik bilan ovlab yo'q qilinishi tabiat muvozanati qonunlarining buzilishiga sabab bo'ldi va bo'lmoqda.

Dengiz va daryolarga, okeanlarga neft qoldiqlari quyilib, er yuzidagi suv ekologiyasi tubdan izdan chiqarilmoqda. Inson uchun quyosh nuri, toza havo, toza suv naqadar zarur bo'lsa, ona zamin ham shunday zarur, uni asrab-avaylash insonning o'z qo'lidadir.

Abu Ali ibn Sino "Dunyoda chang va tutun bo'lmaganida, odamzot ming yil umr ko'rishini mumkin edi" - degan edi.

Atrof - muhitning tozaligini ta'minlash o'zimizga bog'liq, biz katta-yu yosh toza havodan bahramand bo'lish uchun shahrimizga ko'chat ekib, ko'kalamzorlashtirsak, uning ozodaligini saqlasak, o'zimizning sog'lig'imizni saqlagan bo'lamiz.

Bahor faslida ko'chat ekish oyligi o'tkaziladi. Shunday ekan, nihollarni yaxshi niyat bilan ekish, parvarishlash, gullar ekib o'stirish har bir o'quvchi va kattalarning insoniy burchidir.

O'zbek halqi qadriyatlari orasida tabiatni saqlash, qadriga etish, chiroyiga chiroy, ko'rkiga-ko'rk qo'shishi odatlari bor.

Inson tabiatdagi har bir giyoh, o't-o'lan, dov-daraxt, parranda-darrandalarni, olamda nimaiki kerakli bor narsani zarur deb biladi.

Ota-bobolarimiz zilol suvni, buloqlarni, so'lim daraxtzorlarni, qoyag'orlarni, hosiyatli o't-o'lanlarni, gul-giyohlarni muqaddas bilib asrashga, niyati nopok kishilardan saqlashga, toptamaslikka, oyoq osti qilmaslikka alohida e'tibor berib kelganlar.

Avvalo har bir inson er yuzidagi o'simliklarni ko'paytirishga hissa qo'shishi, kamaytirishdan o'zini tiyishi lozim. O'simliklarni ko'paytirishning birdan bir yo'li

- mevali va manzarali daraxtlarni iloji boricha ko'proq ekishdir. Ularni parvarish qilish. bog'-rog'lar yaratish har bir inson uchun hayrli ish bo'lishi birlan birga, savobli ish hamdir.

Halqimiz bog' yaratgan odamlarni hech qachon eslaridan chiqarmaydi. Go'zal bog'lar yaratish yurtni gullar bilan burkash qadimdan eng yaxshi odatlarmizdan biri bo'lib kelgan.

Yaqin va O'rta Sharq halqlarining qimmatli va nodir yozma yodgorliklardan biri Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temurning davlat faoliyati va harbiy yurishlari bayon qilinish bilan bir qatorda, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida O'rta Osiyodagi madaniy hayotga doir bir qancha noyob ma'lumotlar ham keltirilgan. Ajdodlarimizning yuksak di'd va nafosat nigohi bilan yaratilgan bog'-rog'lari, ulkan qurilishlari hozirgi kunda ham Samarqand, Buxoroni, Ko'hna Urganch, Xivani bezab, Er yuziga zeb berib turibdi. Bu nodir obidalar bobokalonlarimiz el yurt obodonchiligiga alohida e'tibor qilinganliklaridan dalolat beradi.

"Zafarnoma"da Sohibqiron Amir Temur tomonidan barpo etilgan "Bog'i shamol", "Bog'i dilkusho", "Shahrisabz qo'rg'oni" va Oqsaroy kabi obidalar haqida batafsil hikoya qilinadi.

Bunday misollarni keltirishim izdan maqsad o'tmish ajdodlarimizdan bizgacha urf-odat bo'li b etib kelgan obodonchilik ishlaridan hozirgi yoshlarni xabardor etish ularni ana shu ishlar misolida tarbiyalashdir. Ular ham Jalol iddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Al isher Navoiy kabi el farvonligi, yurt obodligi uchun kurashuvchi zabardast o'g'il-qizlar, oliyhimmat inson, tabiatga mehr-muruvvatli kishilar bo'li b etishsinlar.

Odam har nafas olganda uning o'pkasiga yarim litrgacha havo kiradi. Odam bir minutda 16-18 marta nafas oladi yoki tanaga 8-9 litr havo kiradi. Bu miqdor bir kecha-kunduzda 11 ming litrdan ortadi. Demak, havo inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat in'omidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang o'pkada gaz almashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu insonning sog'lig'ini bora-bora izdan chiqarib, turli-tuman xastaliklarni vujudga keltiradi.

Tabiat shunday odil mo'jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o'simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi, demak o'simliklar Juuyosi, larnziy ma'noda aytganda, havoni chang va karbonat angidridan tozalab beruvchi bebaho vositadir. Bunda inson o'z atrofini o'rab turgan iabiatni, uning o'simliklar dunyosini ko'z qorachig'iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo'lidan kelganicha ko'proq daraxt ekishi, ko'kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa chiqadi. Shuning uchun otabobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi, deb bejiz aytishmagan.

Nazorat savollar

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik bilim berishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tarbiyalanuvchilarning ongini va jismoniy faolligini yaxshilashda ekologik tarbiyaning o'rnini qanday ahamiyatga ega?

18-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish shakli, metod va vositalari

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish shakllari
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish metodlari

3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish vositalari

Tayanch so'zlar: Ekologiya, bolayosh, madaniyat, tushuncha, ta'lim

Bugungi kunda ekologiya muammolari umumjahon (umuminsoniyat, umumbashariyat) muammosiga aylangan. Shusababli, bumasalaye chimgabir, ikki davlatemas, balki o'z atrofigimizdagi olam muvozanatini o'ylayotganki o'z g'inasidavlatlar e'tibor bermoqda. Jumladan, bu muammo yechimi respublikamizda ham davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida yer usti va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash, qo'riqlash hamda bu moddiy boyliklardan mamlakatimiz taraqqiyotini o'ylagan holda oqilona foydalanish, ob-havoning toza va musaffo bo'lishiga doimo harakat qilish, tabiiy (yer usti va osti) boyliklarni uzluksiz yuksaltirib borishni ta'minlash, atrofimizdagi olamni yaxshilash uchun doimo chora-tadbirlar ko'rib borishimiz ta'kidlangan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi-ning 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «**Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida**»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 23-apreldagi «Sog'lo' avlod uchun» Xalqaro nodavlat xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni, o'sha yili «Sog'lo' avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, shu no'da Davlat dasturi, «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi»ning ishlab chiqilishi, «Ekosan» jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga davlatimiz hukumatining g'amxo'rlikidan dalolatdir.

Qadimda ham ekologik muammolarni hal qilishga urinishlar bo'gan. Ayniqsa, «Avesto»da, Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda ham ushbu muammolarga e'tibor berib kelingan.

Muhammad allayhissalom hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: "Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, behosdan qiyomat qo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz, uni ekib qo'yigan. Ekologik tarbiyaga e'tibor yurtimizda oiladan, bog'cha va yasliardan oq boshlab yuborilgan. Hozirgi paytda umumta'lim maktablarida ham ekologik yo'nalishdagi sinflarning tashkil etilishi va shular asosida litsey va maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarining olib borilishi yoshlarga maktab partasidan oq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganligidan dalolatdir.

«**Ekologik ta'lim-tarbiya** ekologik bilimlarni berish, ularda tashqi muhit va vujud orasidagi uzviy bog'liqlik mavjudligini his ettirish, tabiiy va ijtimoiy muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini hosil qildirish».

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda ularga tegishli tushuncha va atamalarning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish ushbu sohadagi ishimiz samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir

etadi.

1. **Ekologik joy - eko'uhit** - tabiatda tur yashashi mumkin bo'gan barcha muhit o'illari majmuyi.

2. **Ekologik krizis - ekologik tanglik** - ekologik tizimlar, alohida hududlar yoki biosfera miqyosidagi tabiiy ofatlar: toshqin; yer silki nishi; vulqon otilishi; qurg'oqchilik; dovul; chigirtkalar ofati; yong'ln va boshqa holatlar oqibatida yuz beradigan ekologik vaziyat.

3. **Ekologik muvozanat** - inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'gan tabiiy sharoitlar muvozanati.

4. **Ekologik o'illar** - atrof-muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlar va elementlar majmuyi.

5. **Ekologik madaniyat** - kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarlik va boshqalar.

6. **Ekologik tanglik xavfi** - XX asr davo'ida texnikaning rivoj- ji, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, yer yuzi- da aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv, havoning inson hayoti- ga zararli darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'lgan holat.

«Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo (global) muammolar- ga aylanib bormoqda. Yer bag'ridan har yili 120 mlrd tonnadan ortiq turli xildagi xomashyo, qurilish materiallari, yoqilg'ini qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina zararli korxonalar, zavodlarning oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo'lib borayotir. Markaziy Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salo- matligi yo'onlashib, kasalliklar ko'paymoqda. Yer kurrasida insonning yashab qolish-qolmasligi masalasi endi ekologik muammolarni yechishga bog'liq bo'lib qoladi».

Ekologik ta'lim-tarbiya pedagogika sohasida muhim yo'nalish hisoblanadi.

Ekologik ta'lim - maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat va inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimini berish jarayonidagi o'qitishdan iborat.

Ekologik tarbiya - maktabgacha yoshdagi bolalarning atrofimizdagi olamga, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalashdan iborat.

Demak, bundan ekologik ta'lim-tarbiyaning **mazmun-mohiyatini** quyidagicha ifodalash mumkin, ya'ni umumiy ta'lim-tarbiyaning asosiy va tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning yordamida talaba- yoshlarda atrof-muhit va uning muammolari yechimlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish hamda ularni kelajakda ekologik tarbiyani olib borishga oid

bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollan- tirishdir.

Nazorat savollar:

1. Ekologik ta'lim tarbiyaning mazmun mohiyati nimalardan iborat?
2. Bolalarga ekologik bilim berishda qanday vositalardan foydalaniladi?

19.Mavzu : O'yinning bola faoliyatining asosiy turi sifatidagi o'ziga xosligi

Reja:

1. O'yin bola faoliyatining asosiy turi
2. O'yin bolalarning mehnat faoliyati asosidagi ijtimoiy faoliyati
3. O'yinlarning maktabgacha yosh davridagi bolalar faoliyatidagi o'ziga xosliklari

Tayanch so'zlar: Ekologiya, bola yosh, madaniyat, tushuncha ta'lim, tarbiya

O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda etakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ulanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dexqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega- deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o'yin - bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A.Komenskiy o'zi nga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sfiarti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni i, ularga oqi lona rahbarlik qilishni masalihat bergan edi.

P.F.Lestgail: bolalar o'z o'yin larida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradi lar, deydi. Bunday faol iyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o'yin iga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim. Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga hizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim- tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish keraqligini aks ettiradi.

Navbaldagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bulalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va qishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar har xii yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Shunday qilib MTMning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;

o'yin bolalarni o'g'uv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi.

Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilmaldir.

Bolalarni nutqini rivojlantirish uchun quydagi o'yinlarni o'tkazish mumkin: "So'z qo'sh", "Orkestr", "Jvlana bu tovushga so'z top". "So'zlardan hikoya tuz" va x.k.

Yuqorida sanab o'tilgan jamoa o'yinlaridir. Bular asosida yana bir qancha o'yinlar topish mumkin.

Didaktik o'yinlarga rahbarlik. Boshqa o'yinlar singari, didaktik o'yinlarga ham tarbiyachi rahbarlik qilishi lozim. Biri nchi navbatda didaktik o'yinni va unga keraqli materialni tanlash kerak. Hamma guruhlar didaktik jixozlarga, bo'yi 40-50 sm keladigan qo'g'irchoqqa ega bo'lishi lozim. Uning jihoziga quydagi lar kiradi:

ichki kiyim, ko'ylak, rezinka. uzun paypoq ;

paxmoq, satin, shoyi ko'ylak, fartuk, so'lakcha;

qishlik palto, kuzlik palto;

bosh kiyimlar: shapkacha. panasma, qalqopcha, shlyapacha;

poyafzal: tufli sandal, yumshoq shippak;

yotadigan va oshxonada ishlatiladigan narsalar - ko'rpa yostiq matrats, adyol, choyshab, ko'rpa jildi, yostiq jildi, sochiq, dasturxon, salfetka.

Bu hamma narsalar o'ziga mos rangda (qizi l, pushti, to'q qizil va x.k.) har xii sifatli gazmoldan tiq ilgan va nomi har xii bo'lishi kerak.

Qo'g'irchoqdan tashqari har xil xayvonlar, qushlar, idish-tovoqlar, va transportni aks ettiruvchi o'yinchoqlar ham bo'lishi kerak.

MTMda tevarak-atrof bilan tanishtirish dasturiga muofiq bir qancha rasmlar turqumi bo'lishi kerak:

qishilarning polizdagi, uy sharoitidagi mehnatini aks ettiruvchi, ularning mehnatini engillatuvchi mashinalar rasmlari;

qishilarning turar joylarini aks ettiruvchi rasmlar;

V) qishilarni suvda, quriqlikda, xavoda olib yuruvchi vositalarning rasmlari;

G) uy jixozlari: idish-tovoq, mebel, madaniyat buyumlari, bezaqli buyumlar, o'yinchoqlar;

dasturxon, choyshab, sochiq, yostiq jildi, qishki, yozgi, bahorgi, kuzgi ko'ylaklar, bosh kiyim, yil fasllariga qarab kiyiladigan oyoq kiyimlar;

YE) iste'mol mollari; sabzavotlar, mevalar, uy maxsulotlari, shirinliklar;

J) uy va yovvoyi xayvonlar;

Z) daraxtlar, butalar, gullar va boshqa o'simliklar;

I) qushlar.

Bu rasmlar asta-sekin to'planib boriladi. Ular yirik (15-20sm) va karton qog'ozlarga yopishtirilgan bo'lishi kerak.

Didaktik o'yinlarda tabiat materiallari va oddly narsalar ham ishlatiladi.

Didaktik o'yinlarga maxsus o'rin ajratilishi va bolalar kun tartibidan ma'lum joy olishi kerak. Didaktik o'yinlarni mashg'ulot bilan bog'lab olib borishni yaxshilab o'ylab amalga oshirish lozim.

Bu o'yinlar mashg'ulot va o'yin soatlarida o'tkaziladi. Ularni butun guruh bolalari bilan ham o'tkazish mumkin.

O'yinchok bola hayotining yo'ldoshi, uning quvonch manbaidir. U nafaqat

o'yin quroli, balki bolalar o'yinida sherik, o'rtoq, kattalar qo'lida esa tarbiyaning muhim quollaridan biridir. O'yinchoq o'yin yaratishda ishtirok etadi, bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga katta ta'sir o'tkazadi. U bolaga shunchalik yaqinki, bola o'z o'yinchoqlarini sevadi, ularga bog'lanib qoladi, shu tufayli u o'zini atrofdagi hayotning to'laqonli a'zosi deb hisoblaydi.

Didaktik o'yinlarda majburiy qoidalar juda ko'p uchraydi: navbat bilan harakat qilish, faqat so'raganda javob berish, o'rtog'iga quloq solish, o'ynaganda boshqalarga xalaqit bermaslik, qoidani bajarish. o'z ayibiga iqror bo'lish va hakazo.

Didaktik o'yinlarda bolalarning o'ziga xos hususiyatlari hisobga olinadi. Bir xil bolalarga qiyin topishmoq aytilsa, boshqasiga engilrog'i, osonrog'i aytiladi; yomon gapiradigan bolalar ko'proq gapirishga jalb qilinadi. Buning uchun o'inni o'tkazishdan avval hamma bolalarni yaxshilab eslab. o'yining imkoniyatlarini harakatlariga qarab topishmoq beriladi, ba'zi bir faolroq bolalarga boshqalarni qiziqishini bo'g'maydigan rol birlashtiriladi.

Didaktik o'yinga rahbarlik qilishda o'yining maqsad va mazmunini belgilash, o'yin g'oyasini o'ylab topish, o'yin qoidasi va asosiy harakatlarni tushuntirish, bolalar o'rtasidagi munosabatni yaxshilash, tarbiyaviy ta'sir orqali o'yinni borishga rahbarlik qilib borish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Didaktik o'yinni bolalarning bergan savollari, taqliflari va tashabbuslariga qarab, o'yin jarayonida kutilmaganda kengaytirish, uning mazmunini boyitish mumkin. O'yinni belgilangan vaqtda boshlash va tugatish katta maxoratdir. Tarbiyachi o'yin vaqtini o'zining tushuntirishini kamaytirish hisobiga siqishtiradi.

O'yinni tarbiyachi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otgan xolda tugatishi kerak, ya'ni bolalar shu o'yinni yana davom ettirishni xoxlab qolsinlar. Tarbiyachi shunday deydi: "Kelgusi gal bundan ham yaxshiroq o'ynaymiz". Yoki "Yangi o'yin bundan ham qiziqroq bo'ladi". Tarbiyachi o'yining yangi variantlarini ishlab chiqadi.

Didaktik o'yinlar guruh xonasida, zalda, maydonchada, o'rmonda, dalada va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Bu o'yining ta'sirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi "Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borganda, muhim bir masala haqida to'xtalib o'tish o'rinli deb o'ylayman. U ham bo'lsa. dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zgacha ma'no topishga intilayotgan murug'ak farzandlarimizning qiziqishi va xissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoqlarni ishlab chiqarish masalasidir.

Bir qaraganda bu muammolar arziyas narsa bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin, har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekanligi ayon bo'ladi.

Nazorat savollar:

1. Tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash maqsadida tashkil etiladigan erkin harakat yoki mashg'ulot- nima?
2. Qaysi o'yinda o'z tabiatiga ko'ra tasviriy(gavdalantira olish) tavsifga ega

bo'lib, unda bolalar o'zining tevarak atrof haqidagi tasvurlarini, avval egallagan bilimlarini aks etadi. Gap nima haqida bormoqda?

3. MTM da tashkil etiladigan bolalar o'yinlari qanday turlarga ajratiladi?

20. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi

Reja:

1. Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi
2. O'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini bilim doirasini kengaytirish vositasi
3. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish

Tayanchso'zlar: Bola, ekologiyayosh, madaniyat, tushuncha, ta'lim, tarbiya

O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "Bolajon"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida etakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsi ning hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabati ni bilib olish mumkin.

Shaxsdagi bi ron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashqilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlari ni rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashqil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta'lim- tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, guvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi.

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi. bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi.

O'yinda aks ettirayotgan narsani bili bolishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini. bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Ijodiy o'yni didaktik maqsadlarga bo'ysindirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta vazifalar hal qilinadi.

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, taffakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib bolaning umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat, so'zlab berish va hokozolar.

Bola o'ynayotib o'z bilimidan foydalanishni, uni har xil sharoitda ishlata bilishni o'rganadi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning fantaziyasi, buyum yasashi, tajriba qilishiga keng yo'l ochiladi.

O'yinda aqliy rivojlanish bilan birga axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechilmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislarni, ulug'vor orzular va intilishlarni, qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechilmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgani kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqlarini javobgarligini sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iborat.

O'yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o'z o'yinlarida har xil kasbdagi qishilarni aks ettiradilar. Bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga mehnatiga bo'lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O'yin bolada ko'pincha mehnat qilish

xoxishini uyg'otadi, o'yin uchun keraqli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. Bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o'yinchoqlar bilan o'ynaydilar.

O'yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O'yinda ijodiy hayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanJangan o'yinchoq bad iiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatl i o'yinlarda harakatning go'zalligi va maromi bolalarni o'ziga maftun qiladi.

O'yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o'z-o'zidan amalga oshmaydi. O'yin befoyda, hatto zarali bo'lishi, ba'zan yomon hislarni qo'zg'atishi mumkin. Tarbiyachi o'yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga muntazam ravishda ta'sir etib borishi zarur.

Bu vazifani hal etishda o'yin bolalar bog'chasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. O'yinda bolalarning mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o'rgatiladi. Ikkinchi tomondan, o'yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko'chi riladi.

Bolalarning narsalar, ularni sifati to'g'risida bilimlarni mustaxkamlash uchun har xii o'yinchoqlar, suratlar, uy-ro'zg'or buyumlaridan foydalaniladi.

O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar. "Xaltachada nima bor?" o'yinning maqsadi o'yinchoqlarning nomlari bilan tanishtirish va bu o'yinchoqlar to'g'risida bilimlarni mustaxkamlash, tovushlar talaffuzini mashq qildirishdir. "Bu nima?" o'yinida bolalar qo' g'irchoqqa har xii narsalar va ularni ishlatilishi to' g'risida gapirib beradilar. Bunday o'yin guruhda, bog'cha maydonchasida, uxlash xonasida o'tkazilishi mumkin.

Didaktik o'yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga keraqligi bilan tanishtiribgina qomay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta kichikligi, fazoda tutgan o'rni xaqida ham tanishtiradi.

Har bir buyum va o'yinchoq o'zining aniq tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi kerak, o'yinda esa qo'yilgan maqsad narsaning asosiy begisini ajrata bilishga imkon tug'dirishi lozim.

Bunday talabga xalq o'yinlari o'z shakliningi aniqligi, rangining tiniqligi bilan ko'proq javob bera oladi.

Bolalarni aqliy vazifalanii bajarishga undaydigan o'yinlar ham katta ahamiyatga ega.

Bolalarning rang xaqidagi tushunchalarini mustaxkamlash va aniqlash uchun quyidagi o'yinlar o'tkaziladi: sharlarni rangiga qarab to'plash, "Dumaloqni dumalatish", xalqachalarni ipga o'tkazish, "Shu rangdagi dumalaoqni dumalatish", "Kimda mana bu rangdagi xalqacha bor", "Kim mana bu rangdagi xaltachani topa oladi" va x.k ..

Qo'g'irchoq bolalarning eng sevimli o'yinchoqlaridan biri. Har bir bolalar bog'chasida didaktik jixozlangan o'yinchoq bo'lishi kerak. Qo'g'irchoq jixozlariga kiyim, ichki kiyim, poyafzal, idish-tovoq, mebel o'yinchoqlar kiradi.

Qo'g'irchoq bilan quyidagi o'yinlarni o'tkazish mumkin: "Qo'g'irchoqni kiyintirarniz", "Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz", "Qo'g'irchoqni mexmon qi lamiz". "Qo'g'irchoqlar bayrami", "Qo'g'irchoqning tug'ilgan kuni", "Qo'g'irchoqni uxlatamiz".

O'yinlar topishmoqlar bilan qo'shib olib borilganda qiziqarli bo'ladi. Masalan, "Qo'g'irchoqni uxlatamiz" o'yinida qo'g'irchoqqa karovat tayyorlayotganda tarbiyachi "Uzun, yumshoq, yo'l-yo'l... .." (matras), "Oq, toza, to'rt burchak ..." (yastiq), "Paxtali issiq ..." yoki "junli issiq" (adyol) va boshqa topishmoqlarni aytishi mumkin. Qo'g'irchoqning karovati tayyor bo'lgandan keyin qo'g'irchoqni yotqizib, "alla aytadi.

Mebellarning nimaga ishlatilishi, o'yinchoqlarning nomini mustaxkamlash uchun "Qo'g'irchoqqa xona yasatamiz", "Qo'g'irchoqqa o'yinchoq sovg'a qilamiz" kabi o'yinlarni o'tkazish mumkin.

Tarbiyachi bolalarni narsalar, ularning nomlari, belgi sifatleri, nimaga ishlatilishi bilan tanishtiribgina qolmay, muayyan predmetlar orqali ularni oddiy turlarga ajratishni o'rgatib boradi; ayiq, qo'g'irchoq, quyon-o'yinchoqlar; kastyulka, tarelka, choynak-idish-tovoq.

O'yinlarni narsa va buyumlarni tasvirlovsi rasmlar orqali ham o'tkazish mumkin. Bo'larga "Bu narsa o'zi to'g'risida nima deydi?", "Kim birinchi bo'lib aytib beradi?" (bolalarni diqqatini rivojlantirishga qaratilgan qo'g'irchoq, narsa va ularning shakli, rangi to'g'risida), "Kim bo'ladi?" "Qaysinisi bir xil?" kabi o'yinlarni ko'rsata bo'ladi.

Bolalarning tabiat to'g'risidagi bilimlarini mustaxkamlash uchun "Hidiga qarab top", "Mazasiga qarab top, "Ushlab ko'rib top "!"Kim nimani eshityapti" kabi o'yinlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Kichik yoshdagi bolalar bilan so'zli o'yinlar o'tkazilmaydi

Katta va tayyorlov guruhlarida didaktik o'yinlar o'zining mazmun va g'oyasi jixatidan ancha murakkabdir. Bu yoshdagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o'yinlar o'tkaza qolmay, so'zli didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi. Buyumlar va rasmlar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlarda bolalarning narsalar sifati, xususiyati, nimadan yasalgani, qayerda qilingani, nima uchun keraqligi va xakozolar to'g'risidagi bilimi aniqlanadi hamda mustaxkamlanadi. Bunday o'yinlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: "Nima nimadan yasalgan?", "Guruh xonasiga sayoxat", "Ovoziga qarab top" va boshqalar.

Umumlashtirishga o'rgatish bo'yicha turlarga ajratishni o'rgatuvchi o'yinlar katta o'rin egallaydi. "qaysi fabrikada nima ishlar bajariladi?", "Fabrikada nima ish qilinadi, dalada nima etishtiriladi?", "Kimga nima kerak" "Kim nima

bilan ishlaydi?", "Qayerda o'sadi?", "Sayoxat"(shahar bo'lab, dalaga maktabga va hokazo), "Pochta" va boshqalar.

Nazorat savollar


1. Qanday oyinlarning ichida qaysi biri stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar?
2. Bolalar faoliyatini necha balli shakl bo'yicha umumiy baholash amalga oshiriladi?
3. . O'yinchoqlarga qo'yiladigan umumiy talablar qanday me'yoriy hujjatlarda aks ettirilishi kerak?

21-Mavzu: O'yinning ijtimoiy xarakteri

Reja:

1. Bolalar o'yining o'ziga xosligi
2. Bolalar o'yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi
3. O'yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida

Tayanch so'zlar: Ta'lim ,ekalogiya,bola yosh,madaniyat,tushuncha, tarbiya
O'yin g'oyasi - bu nima o'ynashni belgi lab olish: "do'kon, "shifoxona", "uquvchilar", "bolalar muassasasi" va shunga o'xshashlar. O'yin mazmuniga, g'oyasiga qarab bolalarning bunday o'yinlarini bir necha o'ziga xos guruhlarga bo'linadi. Ular,



Sayr davomida harakatii o'yinlarni, qurish-yasash o'yinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o'yin uchun maxsus vaqt belgilash o'yinning mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo'lishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo'llanilishining eng muhim pedagogik shartidir.

Bolalar o'yining o'ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, qishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. O'yin paytida hona bolalar uchun dengiz,

o'rmon, metro, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin.

Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qaxramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechilmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi.

O'yinlarning bunday bo'lishi albatta shartli bo'lib, bir o'yinda har xil hayotiy voqayelar aks etishi ham mumkin.

G'oya o'yinning mazmuni, jonli to'qimasi, uning rivojlanishini, o'yin harakatlarini, bolalar munosabatlarining har xilligi va o'zaro bog'lanishini belgilab beradi. O'yining qiziqarli bo'lishi va unda bolalarning qanday ishtirok etishlari o'yinning mazmuniga bog'liq. O'yinda bola ij'ro etadigan rol o'yining asosiy o'zagi va tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham bu o'yinlar rolli yoki syujetli-rolli o'yinlar nomini olgan.

Bolalar o'yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi. O'yin bolalarning qiziqarli ermagina bo'lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o'yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, quyidagi talablarga e'tibor berishi zarur: o'yin mazmunini ta'lim-tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo'lishi, aks ettirilyotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to'g'ri va to'la bo'lishi, o'yin harakatlariga faol, ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo'lishi kerak. Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda o'yinga rahbarlik qilish, o'yinchoqlarni va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o'yinda xayrixoh va xursand bo'lishlarini ta'minlash lozim.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga: ongiga, his tuyg'ulariga, irodasiga, hulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi lozim.

Bola o'ynayotganda qishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri etarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi.

Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat qishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi.

O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir. O'yinda bola qishilarning axloq- odob normalari ni, mehnatga munosabatlarini bilib oladi.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham

tarbiyalab boradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z xoxishlarini jamoa xoxishi bilan kelishib olishga, o‘yinda o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o‘rgandilar.

Ammo o‘yinga to‘g‘ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o‘yindan keng foydalaniladi. Juda ko‘pchilik o‘yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o‘z navbatida organizmda modda almashinishini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavdasini to‘g‘ri o‘rnatishini, harakatlari chiroyli bo‘lishini ham ta‘minlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobiy ruhiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy, jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi.

O‘yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo‘llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqealikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O‘yinda bolalarning avval olgan tassurotlari orqali obraz yaratishlari - xayol juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko‘p o‘yinlarda avval o‘rgangan ashula, she‘r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

O‘yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg‘ulot o‘rtasida bolalar o‘yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘pincha avval boshlagan o‘yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o‘ynashlari uchun 1 soat - 1 soat 20 minut vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o‘yinga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘proq syujetli- rolli o‘yinlarni, qurilish materiallari, qo‘g‘irchoqlar bilan, stol usti o‘yinchoqlari o‘ynashlari mumkin. Shu bilan birga ermak o‘yinlardan ham foydalaniladi.

Ammo o‘yin bilan ta‘lim o‘rtasidagi bog‘liqlik bola ulg‘aygan sari o‘zgarib boradi. Kichik guruhda o‘yin ta‘lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg‘ulotlarda ta‘limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o‘zlarida maktabdagi o‘qishga ishtiyoq uyg‘onib qoladi.

Ammo bolalar uchun o‘yinning qadri yo‘qolmaydi, balki mazmuni o‘zgaradi. Endi bolalarni ko‘proq fikriy faollikni talab etuvchi o‘yinlar, sport tarzidagi o‘yinlar qiziqтира boshlaydi.

Didaktik o‘yinning mazmuni va turlari. Didaktik o‘yinning mazmuni "Bolajon tayanch dasturi" da bayon qilingan va quydagilarni o‘z ichiga oladi:

-buyumlar. Ularning nomi, rangi, shakli, xajmi, sifati va ishlatilishi to‘g‘risida bilimlar berish;

-mehnatning bar xil turi va uning qishilar hayotidagi roli to‘g‘risidagi bilimlar;

- tabiat voqealari, narsalar buyumlar, yil fasllari to‘g‘risidagi bilimlar;

- dastlabki matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl vaqt va fazoviy tushunchalar berish.

Didaktik o‘yinlar ularning ta‘lim tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turli bolalar bog‘chasining "Bolajon" dasturida har bir yosh guruhlar ajratib berilgan. Dasturda har bir yosh guruhning o‘ziga xos ruxiy fiziologik xususiyatlarini

e'tiborga olgan xolda didaktik o'yinning tutgan o'rnini va vazifasi, mazmuni, o'tkazish uslublari belgilab berilgan. Masalan, 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlardan asosiy maqsad- bolalarni ranglarni bir biridan farqlash va nuqta aytishga o'rgatish, har xil o'xshashlar (katta, kichik), shakllarni (sharcha, kubcha), bilishga, ko'rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda harakatlarni o'stirishga yordam beradi. Masalan, "Juft kartochkalar", "Kattalar va kichiklari", "Qo'g'irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz", "Qo'g'irchoqni cho'miltiramiz", "Bu nimaning ovozi?", "Xaltachada nima bor?" va shunga o'xshash o'yinlar.

Bundan tashqari, shu guruhda bolalarni musiqa tovushlarini farq qilishga o'rgatish uchun musiqaviy didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi.

Musiqaviy - didaktik o'yinlarda esa musiqa ovozlarning ba'zi bir xususiyatlarini farq qilishga o'rgatish, qadam va yugurish ritmi ("Kim kelayotir", "Sichqonlar yugurishayotir") ovoz va cholg'u asboblari tembrlarini ("Musiqaviy o'yinchoqni o'ylab top", "Ovozidan bili b ol" ajrata bilishga o'rgatish vazifalari ham xal etiladi.

O'rta guruhda didaktik o'yinlar orqali bolalar eshitish, ko'rish, sezish a'zolari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatiladigan materialning xossalari bilib olish, narsalarni tashqi ko'rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlarga ajratishni o'rgatish vazifalari amalga oshiriladi.

Aynan didaktik o'yin davomida bolalar o'rta qatlamga quyilgan masalani xal etishda sabr-matонатli bo'lishga, qiziquvchanlikka, diqqat-etiborlilikka odatlantirib boriladi. Musiqaviy-didaktik o'yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab, baland-pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir biridan farqqa olishga o'rgatib boriladi.

Katta guruhda didaktik o'yinlar quyidagi vazifalarni xal etishni maqsad qilib qo'yadi: kuzatuvchanlik, narsalarni teksbira bilish, bir biriga taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, materallarni seza bilish, narsalarning joylanishidagi o'zgarishlarni) aytib bera olish kabi sensor qobiliyatlarni tarbiyalash; biron xayvon, o'simlik, transport tavsif qilib berilganda, ularning nomini topa bilish malakasini o'stirish, bolalarning umumiy tasavvurini, buyumlarni umumiy belgilariga qarab guruhlarga bo'lish qobiliyatini rivojlantirish, so'z faolligini faollashtirish va to'ldirish; qisimlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaika va boshqalar) yasash malakasini o'stirish.

Musiqaviy didaktik-o'yinlar orqali tovushlarni bir biridan farq qilishni o'rgatish, ritmik usulni ajrata olish, ashulalar va cholg'u asboblari ovozinin tembrini farq qilish ("Kim kuylayapti?" "Shiqildoqli bildirma"), ovozning dinamikasini ajrata olish ("tez, sekin kuylaymiz") uchun foydalanib kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Maktabga tayorlov guruhda didaktik o'yinlar hamma yosh guruhlardagi kabi alohida o'rin tutadi va bu guruhda didaktik o'yinlar orqali quyidagi ta'lim - tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi: bolalarda didaktik o'yinlarga qiziqish uyg'otish, har bir narsani bilishga xavas, kuzatuvchanlik, diqqat-etibor, ziyraqlik, aqliy vazifalarni mustaqil xal qilish malakasini tarbiyalash. Ularga

narsalarni turqumlarga bo'lishda yordamlasbuvcbi o'yinlarni, domino, mozaikaning bar xii turlarini, shasbka, sakrovchi biryulkalarni jumboq o'yinlar, og'zaki o'yinlar ("Dengiz to'qillanmoqda", "Qora va oq"), ranglarni va ulardagi nozik ayirmalarni bir-biridan farqlasbni o'rgatadigan o'yinlar o'tkaziladi.

Nazorat savollar

1. Sahnalashtirilgan o'yinlar necha bosqichda tashkil etiladi?
2. Syujetli-rolli o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar, qurilish yasashga doir o'yinlar. ylar qanday o'yinlar turlari sanaladi?
3. Bolaning eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o'rgatadigan o'yinlar qanday o'yinlar sanaladi?


22-Mavzu;O'yin bolalar xayotini tashkil etish vositasi ekanligi.

Reja:

1. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini sifatida
2. Bolaning aqliy tomondan rivojlanishida o'yinning ahamiyati
3. Tarbiyachining o'yinga rahbarlik qilish

Tayanchso'zlar:O'yin,bola yosh, madaniyat, tushuncha, ta'lim, tarbiya,

Ijodiy o'yinlarda bolalar rning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yinning mazmunini ular o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashqilotchilik va ijodqorlik qobiliyatlari to'raligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o'yin g'oyasini yaratishlarida, uning mazmunini to'zib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o'xshashlarda namoyon bo'ladi.



Syujetli-rolli o‘yin o‘z xususiyatiga ko‘ra aks etti ruvchi faoliyatdir. Tevarak-atorfdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuniga manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalarning tevarak-atorfdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o‘yinda qayta ishlanadi, to‘ldiriladi, sifat jihatidan o‘zgartiriladi. Bolalarning bunday o‘yinlari tevarak-atorfdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Bolalar o‘yining o‘ziga xos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o‘yin jarayonida yuklangan rol va o‘yin syujetidan tashqil topadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi.

O‘yinning syujeti bir-biriga hayotiy aloqador bo‘lgan qator voqea hodisalar yig‘indisidir.

Syujetli-rolli o‘yinning asosiy zanjiri hisoblanadi. O‘yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi.

Bola o‘ynayotganda har hil harakatlar qiladi: sakraydi,ingichka taxta ustidan o‘tadi, engashdi, yuqoriga tirmashib chiqadi va hakoza.

Bu harakatlarning hammasini bola bemalol,o‘z xoxishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi,uharakatni engilroq, chaqqonroq bajaradigan bo‘lib qoladi.

Bolaning aqliy tomondan rivojlanishi uchun ham o‘yin katta ahamiyatga ega. O‘yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi. Rolli o‘yinlar bolaning kuzatuvchanligini,qiziquvchanligini, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi.

Bola o‘z o‘yinida borliqni aks etti rib, olgan rolining mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan u yoki bu h issiyotni boshdan kechiradi. Masalan, Dilnoza ona-bola o‘yinida ona roli ni o‘ynayotib, bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, ular bilan yaxshi munosabatda bo‘lib erkalaydi, ular bilan gaplashadi, kitoblar o‘qib beradi. Bu o‘yin bolada muloyimlilik, g‘amxo‘rlik, e‘tiborlilik kabi yaxshi hislarni uyg‘otadi.

Rolli-syujetli o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyati. Rolli o‘yinlarni ng boshqa o‘y inlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va xayol qil ingan vaziyatning mavjud bo‘lishidir.

Bolalar biror narsa yoki voqea to‘g‘risida etarlicha tasavvurga ega bo‘lgandagina syujet, fikr, yuzaga keladi. Masalan bolalar "paroxod" o‘yini ni o‘ynamoqchi bo‘lishdi. Bunga o‘yinning qanday borishi to‘g‘risida syujet kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog‘liq bo‘ladi. Bolalarda avval g‘oya paydo

bo'ladi, keyin mazmun rivojlanadi. Ba'zan bolalar o'yinning qanday borishini oldindan belgi lab oladilar. Masalan, "Afrikaga bormoqchi" bo'lsalar, sayyohat vaqtida qilinadigan ishlarni oldindan belgilab oladilar.

Bundan ko'rinib turi bdiki, rolli o'yin jamoatchilik xususiyatiga ega, chunki bolalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi lar.

Rolli o'yinda har bir bola o'ziga olgan rolni bajaradi masalan, ona, shafyor, tarbiyachi, enaga, artist va h.

Rolli o'yinlarda didaktik, qoidali - harakatli o'yinlardagi singari qaf iy o'rnatilgan qoida bo'lmaydi. Bunda ko'pincha bolalar o'z xayol qilgan narsalari bo'yicha harakat qiladilar. Masalan, "raketa tushib oyga uchadilar", "paroxodda so'zadilar", "kasalni davolaydilar"

Ammo, bolalarning xayollari bilan o'ynashlari ularni real voqealikdan uzoqlashtirib yubormaydimi degan savol tug'iladi, yo'q, bolalar o'zlari buning o'yinligini yaxshi biladilar.

Shu bilan birga bolalarning kechinmalari, hayajonlari, qilgan harakatlari hammasi rostakam, sidqidildan bo'ladi. Masalan "doktor" rolidaga bola kasal to'g'risida qayg'uradi.

O'yin mavzui bolalar olgan taassurotning kuchli, bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'yinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasining kengayib borishiga bog'liq bo'ladi.

Rolli o'yinlarining mazmuni va mavzusi o'zgarishi bilan bir qatorda uning tuzilishi va o'yin shakllari o'zgaradi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi.

Avvalgi bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda qishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo'lmagan guruhchalar 2-3 qishidan bo'lib o'ynashadi, katta va tayyorlov guruhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar.

Didaktik o'yinda amal qilinadigan qoidalar o'yin harakatlarining to'g'ri noto'g'riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi. Bolalarning biror bolaga nisbatan "U o'yin qoidasini buzib o'ynayapti" deyishlarining o'zi ularning o'yin qoidalariga qandaydir o'zgartirib bo'lmaydigan qonundek munosabatda bo'lishlarini ko'rsatadi.

Bolalarning o'yin qoidalarini o'rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o'yin jarayonida o'zini-o'zi, o'zaro bir-birini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi.

O'yinning natijasini ikki nuqtai nazardan: bolalar va tarbiyachi nuqtai-nazaridan baholash lozim.

Agar o'yin natijasini bolalar nuqtai-nazaridan baholaganda, unda bu o'yindan bolalar qanday ma'naviy va ahloqiy ozuqa olganlarini hisobga olish lozim. Didaktik vazifalarni bajarish bolalardan ma'lum darajada zo'r berishni, ya'ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi.

Bolalar fahm farosatlari, topog'onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish qiladilar. Bular hammasi bolalarning o'z kuchiga ishonchini oshiradi. Qalbini

xursandchilik xissi bilan to'ldiradi, ular bunday ma'naviy qoniqish xosil qiladilar.

Didaktik o'yining natijasini muxokama qiladigan tarbiyachi quydagilarga e'tibor berishi lozim: qo'yilgan maqsadga erishildimi, belgilangan harakat bajarildimi, shu ko'zlangan nuqtai nazardan ma'lum natijalarga erishildimi yoki yo'qmi.

Yuqorida keltirilgan ikki vazifa ham yaxshi bajarilsa, ya'ni bir tomondan, bolalarda qiziqish uyg'ota olsa va ular faoliyatini amalga oshirishga intilsalar, ikkinchi tomondan, qo'yilgan hamma maqsad, vazifaga erishilsa, bunday o'yin yaxshi natija beradi, deb hisoblash mumkin.

O'yin qatnashchilarini rag'batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganlari uchun etakchi rolni berish, ba'zan esa shu o'yinda foydalanilgan o'yinchoqni o'ynashga berish yoki mevalarni eyishga berish mumkin, ammo bolalar bunday mukofatlarni olaman deb har qanday yo'l bilan bu ishga intilishlariga yo'l qo'ymaslik kerak.

O'yin harakatli bolalar tomonidan bajariladi. O'yin harakatlari xilma-xil ishlarda: narsalarning joyini almashtirish, yig'ishtirish, ularning rangiga, katta kichikligiga, shakliga qarab bir-biridan ajratish, tanqidiy harakatlar va hokozalarda nomoyon bo'ladi. Katta bolalarning o'yin harakatlari esa murakkabroqdir: bu o'yin harakatlari bir guruh bolalar harakati bilan boshqa guruh bolalari harakati o'rtasida o'zaro bog'lanish bo'lishini, harakatlarning izchillik va navbati bilan amalga oshirilishini talab etadi.

O'yin natijasi didaktik o'yining muayyan natijasi bo'ladi, natija esa o'yinning finali hisoblanadi. Masalan. Topishmoqlarni topish, berilgan o'yin topshiriqlarini bajarish, fahm-farosatni nomoyon qilish kabilar o'yin natijasi bo'lib bo'lib, ularni bolalar erishilgan muvaffuqiyat deb tushunadilar.

O'yin mazmuni, g'oyasi, harakatlari va qoidalari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lib, xatto ulardan birortasi bo'lmasa ham o'yinni o'tkazib bo'lmaydi.

Tarbiyachi o'yin qatnashchisi yoki uning tashkilotchisi bo'ladi. Bolalar ko'pincha o'yin mazmuni bilan belgilanadigan va o'yin harakatlari talab etadigan biron-bir rolni bajaradilar. Masalan, "Magazin" o'yinida bilish mazmuni shundan iboratki haridor bolalar o'zlari sotib oladigan narsalarning belgilarini aytishlari, sotuvchi bolalar esa talab qilingan narsaning nimaligini haridor aytgan belgilar bo'yicha bilib olishlari kerak. O'yin kuzatuvchanlikni mashq qilish, nutqni ravon qilish uchun xizmat qiladi. O'yin harakatlari kuzatishdan, buyumni har tomonlama ko'rib chiqish, uni tasvirlash va boshqa buyumlar bilan taqqoslashdan iborat. O'yin qoidalari haridorning oladigan narsasini tanlab olish, sotuvchiga xushmuomila bo'lishi, oladigan buyumni tasvirlab berishi, uni har tomonlama ko'rib chiqish va boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytish va pul to'lashidan: sotuvchilarning vazifasi esa haridorlar gapirganda ularni zo'r e'tibor bilan tinglash. so'zlarini bo'lmaslik, so'ragan buyumlarni olib, qog'ozga o'rab berishdan iborat bo'ladi.

Ko'pincha didaktik o'yinlar bolalarning bilimiga biron-bir yangilik kiritmaydi, ammo ularni o'z bilimlarini yangi sharoitda ishlata bilishga o'rgatadi

yoki ular kichkintoylardan aqliy faoliyatning turli-tuman shakllarini nomoyon qilishga talab etadi. Masalan, "Ajoyib xaltacha" o'y inida bolalar o'zlariga tanish bo'lgan o'yinchoqni tasvirlab berish vazifasi yuklatiladi, buring uchun esa bola o'yinchoqni boshdan - oyoq yaxshilab ko'zdan kechirish va uning o'ziga xos begilarini eslab qolishi kerak bo'ladi.

Nazorat savollar

1. Narsalarning tashqi belgilari bo'yicha qiyoslash, guruhlash, qismlardan butunni o'yinlarning qaysi turiga kiradi?
2. Selofanga rasm chizish keyin qog'ozga ko'chirish qaysi usulda o'rgatiladi?
3. Bolalarda yetakchi faoliyat turini aniqlang.

23-Mavzu;O'yin turlari: ijodiy o'yinlar,qoidali o'yinlar , milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida.

Reja:

1. Ijodiy o'yinlarning o'ziga xos xususiyati
2. Qoidali o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari
3. Milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari

Tayanch so'zlar:Ekologiya,bolayosh,madaniyat,tushuncha,ta'lim,tarbiya

O'yinning to'zilishi va mazmuni o'zgarishi bilan o'yinchogning roli va bolalarning unga nisbatan talabi ham o'zgarib boradi va x.k.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijodiy o'yinning rivojlanib borishi. Uch yoshdagi bolalarning o'yinlari yangi tus oladi:masalan, bola mashina yasab uni boshqaradi. Kattalar undan sen kimsan?- deb so'rasa, "Haydovchiman" deb javob beradi. Yoki qo'g'irchog'qa ovqat pishirayapti. "Sen kimsan?"- degan savolga "Men oshpazman" deb javob beradi.

Bolalar o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'lmagan syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydilar. Bu nda asosan k undal ik turmushda takrorlanib turadigan voqealar aks etadi. Bolaga ovqat berishadi, uxlashga yotgizishadi, mashinada tortishadi. Yana ovqat berishadi va uxlatishadi. Yoki qo'g'irchoq kasal bo'lib qolsa, darrov uning qo'li, oyog'i bog'lanadi, yolg'ondakam dori beriladi.

Uchinchi yoshning oxiriga kelib bola rol tanlay boshlaydi. "Men oyisiman", "Men - vrachman" lekin bular birdaniga enaga, tarbiyachi, doktor bo'lib qolishi mumkin.

Bola to'rt yoshga o'tganda syujetl-rolli o'y inlar ancha rivojlana boshlaydi. O'yinlar mavzui har xil bo'lib, boyib boradi. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida oila, MTMni , avtobusda, tramvayda kelayotgan kishini aks ettiradilar.

Tevarak-artofni kuzatish natijasida tasavvurlari kenayadi, bu ularning o'yin mazmuniga ta' sir etadi: bayramlar, magazin, transportning har xil turlarini aks ettira boshlaydilar. Ammo bu yoshda ular hayotdagi voqealar o'rtasidagi bog'liqliklarni hali tushunib etolmaydilar.

Bola besh yoshga qadam qo'yganda undagi kuzatuvchanlik taffakuri rivojlanganligi, bilim doirasi kengayganligi sababli o'yin mazmuni ham murakkablashib boradi. Xayolni rivojlanib borishi orgasida ertak va hikoyalar mazmuni bo'yicha murakkab bo'lmagan o'yinlarni o'ynashadi.

O'yin mazmuni bilan bir gatorla bolalarda hislar ham rivojlanib boradi. Kundalik hayotga nisbatan bolalarda hissiyot yugori bo'ladi. O'yin birinchidan, xursandchilik bilan hamoxang kechadi. Ikkinchidan, bolalar kattalarning hislarini o'z o'yinlarida aks ettiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy o'yin juda ham yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zlari eshitgan, ko'rgan vogealar, hikoyalar, kitoblar va boshga manbalardan olgan bilim, malakalarini, hisxayajonlarini to'la qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'yinlarida berilgan ta'lim-tarbiyaning natijasi yaqqol ko'rinib, sezilib turadi.

Bolalar kim bilan o'ynashi to'g'risida va o'yinning qanday borishi to'g'risida o'zaro kelishib oladilar. O'yinlar uzoqroq davom etadigan bo'lib boradi. Bitta o'yinni uzoq vaqt, hatto bir necha kun o'ynash mumkin, bunda har gal o'yinga yangililik kiritib boriladi.

Uzoq davom etadigan o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarining yugori bosqichi hisoblanadi.

Bolalarda birgalikda ijod qilish qobiliyati rivojlanadi, o'rtoqlarining fikri bilan kelishadigan, fikriga quloq soladigan bo'lib boradi.

Bolalar jamoasining shakllanishi uzoq vaqtni talab etadigan murakkab ish. Bolalar o'rtasida murakkab munosabatlar yuzaga kela boshlaydi.

Har bir bola ning o'ziga xos xususiyati yaqqol namoyon bo'lib boradi. Bunda bolalar faol tashqilotchi. o'ziga ishonadigan va aksincha, tortinchoq, indamaslarga bo'linadi.

Faol bolalar har doim o'yinni o'z xoxishiga qarab tanlaydi, qiziqarliroq rolni talab etadi. Ular ba'zan o'yinni buzishadi, o'rtoqlarini xafa qilishadi, ammo tarbiyachining ta'siriga tez berilishadi. Ularini ijobiy xususiyatlari, sog'lom qiziqishlari bo'ladi, tarbiyachi mana shular asosida ularning ongi va hissiga ta'sir etadi.

O'yin mavzusi o'zgarishi bilan o'yinda qatnashuvchilarning ham o'zaro munosabatlari o'zgarib boradi. Kichkina bolalarning har biri o'z xolicha o'ynasa, keyinchalik 2-3 qishi bo'lib o'ynay boshlaydi. O'rta maktabgacha yoshga kelganda o'ynovchilar soni ko'payib, o'rtoqlik munosabatlari tarkib topa boshlaydi, bunday munosabatlar o'yinga mavzu mazmun tanlashda, rollar va o'yinchoqlarni taqsimlashda yuzaga keladi.

O'yinning tuzilishi va mazmuni rivojlanib borishi bilan o'yinchoqning roli va unga talab ham o'zgarib boradi. Kichkina bolalar o'yinini ko'pincha o'yinchoq belgi laydi. Bitta o'yinchoq bir nechta vazifani bajarishi mumkin. O'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin to'g'risidagi fikr avval tug'iladi. Keyin o'ynay boshlaydi. O'yinchoq o'yin mazmuniga qarab tanlanadi.

Bolalarning asosiy tasvirlovchi vositalari o'zlarining harakatidir. Masalan, bola ikki oyog'ida sakrab quyunchaga taqlid qiladi.

Bolalarning ko'p harakatlari qurish, yasash bilan bog'liq bo'ladi, ular soatlab

parovoz, paroxod, elektrovoz quradilar, ularni o'ziga o'xshatishga urinadilar. Ko'pincha qurish o'yinning boshlanishi bo'lib xizmat qiladi.

Taqlid vositasiga o'yinchoq ham kiradi. O'yinchoq bola harakatini to'ldiradi, o'ylagan obrazi va fikrini amalga oshirishga yordam beradi.

Kiyimlar va ularining qismlari ham bolaning olgan rolini yaxshiroq bajarishga va uni yanada aniqroq ijro etishga imkon tug'diradi. Bolalar o'yin jarayonida ba'zi bir narsalarni xoxlagan narsalari nomi bilan atab ham xuddi o'sha xoxlagan narsalarini faraz qilib juda yaxshi o'ynaydilar, masalan, taomni "konfet", qumni "shakar", stulni "mashina" deb atashlari mumkin.

So'z yordamida bolalar qanday o'yin o'ynashlarini kelishib oladilar. So'z yordamida bir-biri bilan muomalada bo'lib, o'z fikrlarini izhor etishadi. So'z har xii taassurotlarni ifodalash imkonini beradi. Bolalar bu hamma vositalardan ko'pincha bir vaqtda foydalanadilar

Aks etti ruvchi vosita qanchalik ko'p bo'lsa. o'yin mazmuni shunchalik bayroq bo'ladi hamda tevarak atrofdagi voqealardan taassurot shunchalik to'laroq aks ettiriladi.

O'yin mazmunining rivojlanib borishi bilan murakkab jarayon bo'lgan bolalar jamoasi ham shakllana boshlaydi. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lgani uchun uning syujetini bolalar o'zlari o'ylab topishadi va o'zlari tashqil etishadi. O'yinda bolalar o'zlarining kichkina jamiyatning a'zosi deb hisoblashadi, o'zaro kelishi b harakat qilishga o'rganishadi.

Ijtimoiy tarbiya olayotgan sharoitda har bir bola o'ynayotgan bolalar jamoasiga kira ol ishi, u erda o'z o'rnini topa olishi va shu jamoada o'rnashib olishi lozim.

Tarbiyachi ilk yoshli bolalarda ularning narsalar bilan o'ynay olishi, diqqatini shunga to'play olish qobiliyatini tarkib toptiradi. Bu boshqa bolalar bilan yonmayon tinch o'ynay olish malakasini shakllanishiga yordam beradi. Bolalar birgalikda o'ynashga o'tganlarida bir-birlari bilan ma'lum munosabat o'rnatishlari lozim bo'ladi. Xudda mana shu munosabat jamoatchilikni shakllanti radi. Bunga tarbiyachi bolalarni kelishib o'ynashga o'rgatish orqali erishadi.

Sahnalashtirilgan o'yinlar ijodiy o'yi nlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o'yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, hayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg'unligi, bolalarning mustaqillik va o'z- o'zini uyushtira olish jihadari xos. Sahnalashtirilgan o'yin badiiy asar asosida qo'riladi: o'yin syujeti, rolar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko'ra belgilanadi.

Sahnalashtirilgan o'yin bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biridir. Ba'zi bir bolalarda badiiy asaradan olingan parchani qayta so'zlab berishga hohish ham qiziqish ham bo'lmaydi, ammo unga o'yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o'sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi.

Bunday o'yinda bola o'zini o'sha asardagi qaxramon o'rnida his etib, uning

sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida soʻzlab berish boladagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud boʻlgan ijobiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan oʻyinda badiiy asarning gʻoyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi .

Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli boʻlib, bola unga kirishib ketgan taqdirdagina asardagi obraz va harakatlar toʻgʻri aks ettiriladi. Shuning uchun u yoki bu badiiy asar boʻyicha sahnalashtirilgan oʻyin oʻtkazishdan oldin tarbiyachi asarning mazmunini aks ettirishga yordam beradigan tayyorgarlik ishini oʻtkazishi kerak.

Bu ish oldindan bir qator mashgʻulot va oʻyinlar oʻtkazish orqali amalga oshiriladi.

Didaktik oʻyin taʼlim bilan bevosita bogʻliq boʻlib, unga yordam beradi.

Didaktik oʻyin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan taʼlim berish metodidir .

Tajribali tarbiyachi bu oʻyindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qoʻrqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.

Didaktik oʻyinni amalga oshirishda har doim gʻoyaviylik printsipligiga asoslanish kerak. Didaktik oʻyin tarbiyachining vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim.

Didaktik oʻyinlar bolalarning birgalikda oʻynab, oʻz manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uygʻunlashtirish olishi, bir-biriga koʻmaqlashish va oʻrtogʻining muvaffaqiyatidan xursand boʻlishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Oʻyinlar shaxsning soʻz, rostgoʻylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi.

Didaktik oʻyin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashgʻulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Bunday oʻyinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top », « Shakliga qarab top» kabi oʻyinlarni misol tariqasida keltirish mumkin .

Katta guruh bolalari uchun «nimalar va qanday ishlarni bilishadi?», «Dehqonlar nimalarni etishtiradi? », «Kim koʻproq narsalarni nomini ayta oladi?» va boshqa oʻyinlarni koʻrsatish mumkin .

Didaktik oʻyinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, oʻz shaxsiy tajribalari va mashgʻulotlarda olgan bilimlarni amalda qoʻllay olishga oʻrganadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarni taʼlimga soladi.

Didaktik oʻyinlar taʼlim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali oʻyinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi oʻzlashtiradilar.

Didaktik oʻyin bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda oʻyin elementlari qancha koʻp boʻlsa, bolalarga u shuncha quvonch bagʻishlaydi.

Didaktik oʻyining muhim tomoni - uni oʻtkazishdan koʻzda tutiladigan

g'oyadir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otadi, ko'pincha bu g'oya didaktik o'yinni boshlashga sababchi bo'ladi. Masalan, «Xaltachada nima bor?», yoki «Kim qanday qichqiradi» va shunga uxshashlar.

Har bir didaktik o'yinda o'yin mazmuni, g'oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo'ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat o'ynalishini yoki o'yining borishini belgilab beradi.

Nazorat savollar

1. Syujetli-rolli o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar, qurilish yasashga doir o'yinlar. Ular qanday o'yinlar turlari sanaladi?
2. MTM da tashkil etiladigan bolalar o'yinlari qanday turlarga ajratiladi?
3. Tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash maqsadida tashkil etiladigan erkin harakat yoki mashg'ulot nima?

24-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yiniga raxbarlik qilish.

Reja:

1. Tarbiyachi maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinlarga rahbarlik qilishdagi o'rni
2. Tarbiyachi har bir guruhdagi bolalar bilan ishlaganda qo'llaydigan rahbarlik usullari

Tayanch so'zlar: Ertak, bola, ijod, o'yin, usul, tarbiyachi, ta'lim, tarbiya

Ertak va hikoyalarni bolalar ko'pincha o'zlarining ijodiy rolli o'yinlarida sahnalashtiradilar, bu o'yinlarda tulki, sichqon, xo'roz, quyon kabi personajlarni o'yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xii she'r, ertak qahramonlari ning o'ziga xos xususiyatlari mana shunday o'rganiladi. Sahnalashtirish ishini quydagi bosqichlar bo'yicha o'tkazish mumkin:

1.bosqich. Adabiyotlarni tanlash. Sahnalashtirish uchun adabiyot tanlaganda quydagi talabga rioya qilish kerak:

Ertak, hikoya yoki she'rda qatnashuvchilarning ko'p bo'lishi kerak.

2.Asarda mazmun yaxshi bo'lib qolmasdan, harakatlarning ham ko'p bo'lishi kerak

3.Asar ifodali o'qishga mos kelishi shart.

4.Mazmuni qiziqarli bo'lishi kerak.

5.Asar bolalarning yoshiga mos kelishi kerak.

2-bosqich. Sahnalashtirishi uchun tanlangan hikoya, she'r yoki ertakning mazmunini o'qib berish yoki qo'g'irchoq,soyateatirida ko'rsatish orqali tanishtiriladi.

3-bosqich. Eslab qolish. Asarni bolalar eslab qolishlari uchun uni qayta o‘qib berish, postanovka ko‘rsatish, rasmlar nomoyish etish, didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

4-bosqich. O‘yin qiziqarli o‘tishi va uzoq davom etishi uchun o‘yinga keraqli materiallar, kiyimlar tayorlab berish va shu bilan birga to‘g‘ri rahbarlik qilish kerak. Bu ishni tarbiyachi bajaradi, katta guruhda esa tarbiyachi yordamida u bilan birgalikda bolalar bajarishadi. Tarbiyachi bir qancha ertakka doir rasmlar ko‘rsatadi

Guruhda shu yoshli bolalarga xos bo‘lgan ertaqlar, hikoyalar ularga tanish bo‘lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. «Sholg‘om», «Bo‘g‘irsoq» kabi ertaqlar sahnalashtiriladi. Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaqlargina olinmasdan, badiiy asarlar, xususan she‘rlar ham olinadi. Sahnalashtirish o‘yinlariga guruhlariga qarab har xii rahbarlik qilinadi. Masalan, tarbiyachi o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Tarbiyachi bajarilgan ishning hisobini olib boradi. Bolalarga qaysi asar yoqqanini, ular ko‘proq qaysi asarni sahnalashtirishni yoqtirishlarini, qaysi bola topshirilgan rolni yaxshi ijro eta olganini, rollarni ijro etishda bolalarda qanday qiyinchiliklar vujudga kelganini yozib boradi. Mana shu asosda bo‘lg‘usi sahnalashtiriladigan o‘yinlar jonlantiriladi.

Qurilish o‘yinlari ham ijodiy o‘yinlar sarasiga kiradi. Ularda bolalar atrof-muhitdagi buyumli dunyo haqidagi ta’surotlarini aks ettiradilar, mustaqil tarzda turli narsalar yasaydilar, bunyod etadilar.

Qurish-yasash o‘yinlarida bir xil buyumlarning boshqalari bilan almashinishi yuz beradi. Kichik va o‘rta guruh yoshidagi bolalarda qurilish o‘yinlari roli o‘yinlar bilan bog‘lanib ketadi.

Qurilish o‘yinlari samarali faoliyat hisoblanib, bolalarda bunyod etilgan inshootni mavjud buyum va narsalar, inshootning qurilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan tasavvur bilan qiyoslash, taqoslash ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. U bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Qurilish materiallari turli xildagi geometrik shakllardan iborat. Bolalar bu har bir shaklning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilib olishlari lozim aks xolda hech qanday qurilishni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Bolalar qurgan narsalar amaliy jihatdan yaroqli bo‘lishi va ulardan o‘yinda foydalanish uchun konstruktorlik malakasiga ega bo‘lish kerak. Bundan bolalarga qurilishning asosiy usullari ini o‘rgatish zarurligi kelib chiqadi.

Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yi nlarda bolalarni texnikaga qiziqishi ortadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi ular geometrik jisimlarning eng oddiy xususiyatlari bilan tanishadilar.

Qurilish o'yinlari bolalarning mehnat faoliyatiga yaqin bo'lib, ularni mehnatga tayyorlaydi. Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalar tafakkurini rivojlantiradi: kuzatilayotgan inshootlarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, tahlil va sintez qilishga, solishtirishga, o'xshash va farq qiladigan tomonlarini aniqlashga majbur etadi, vazifalarni to'g'ri xal qilishga o'rgatadi.

Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar geometrik jisimlarning xususiyatlarini, ular bilan ishlashni, fazoviy nisbatlarni (uzoq-yaqin, baland-past, o'ng-chap, uzun-qisqa, keng-tor) amalda olib borishga yordam beradi. Bunday o'yin orqali bolalarni maktabdagi politexnika ta'limiga tayyorlash vazifasi ham amalga oshiriladi.

Bolalar qurish-yasash jarayonida bir jamoaga birlashadilar, natijada ularning nutqlari rivojlanadi. Qurilish materiallari bilan o'ynash bolalarning ma'naviy dunyosiga ham ta'sir etadi: bolalar bilan biron inshootni kuzata turib, davlatimizning xalq farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatayotganligini tushuntiradi. Qurilish materiallari bilan ug'oyinish bolalarda mehnat sevarlik, mustaqillik, tashabbusqorlik, ishga javobgarlikni xis etgan xolda munosabatda bo'lish hamda irodaviy sifatlarni tarbiyalaydi. O'yinning qizig'i shundaki, u bolalarga zo'r zavq-shavq bag'ishlaydi.

Bolalarni ba'zi bir qurilish inshootlari bilan tanishtirish orqali estetik tarbiya vazifalari ham amalga oshiriladi. Bolalarda estetik xissiyotni tarbiyalash uchun faqat bitgan qurilish inshootini kuzatish etarli emas, balki ularning qurilishni borishi, ishning tashkil etilishini kuzatish, bunda bolalarning o'zlarini qatnashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'yin uchun sharoit yaratish. Qurilish materiallari bilan o'ynashni rivojlantirish uchun unga muvofiq shart-sharoit yaratish zarur

1. Qurilish materiallari butun guruh bolalarining bir vaqtda o'ynashi uchun etarli bo'lishi kerak.

Guruh xonasida qurilish materiallarini saqlaydilar, uni quradigan va bir necha kungacha saqlab qolishning iloji bo'lgan joy bo'lishi kerak.

Qurilish materiallari uchun har bir detalga alohida xonachalari bo'lgan g'ildiraqli shkaf bo'lgani yaxshi. Uni bolalar xoh lagan tomonlariga surib olib boradilar. Shkaf ichini tartibli saqlash zarur.

Qurilish materiallari saqlanadigan burchakda mayda o'yinchoqlar, o'yinchoqli odamlar, qushchalar, hayvonlar, transport bo'lishi mumkin.

Bolalarning o'zlari o'yinchoq yasashlari uchun har doim keraqli material bo'lishi zarur.

Ona o'lkamizni, uning poytaxti Toshkentni, transportning har xil turlarini tasvirlovchi albomlar, fotosuratlar bo'lishi kerak.

Qurilish materiallaridan barpo etilgan inshootlar namunalari tasvirlangan.

8. Qurilish jarayonini binolarning bezatilishini bolalar bilan kuzatish kerak.

9. Qurilish usullarini o'rgatish lozim.

10. Qurilish materiallaridan ishlangan buyumlarni bir necha kungacha xatto undan ko'proq muddat saqlash kerak.

Qurish-yasashga o'rgatishning asosiy usullari. Bolalarni qurish-yasashga o'rgatish uchun tarbiyachi turli xil usullarni qo'llaydi:

Tarbiyachi har bir harakatni tushuntirgan holda qo'rib ko'rsatadi.

Tarbiyachi biron narsani o'zi qurib ko'rsatadi va bunga kirgan har bir qismni taxlil qilib beradi.

3. Tayyor qurilish namuna sifatida ko'rsatiladi.

4. Qurish-yasashning ayrim qismlarini ko'rsatadi (tomini yasashni, qanday yopish keraqligini, biror detalni qaysinisi bilan almashtirish mumkinligini tushuntiradi).

5. Tarbiyachi ataylab chala qurib qo'yilgan qurilishni bolalarga qurib bitkazishni taqlif qiladi.

6. Nima uchun qurish lozimligini, uning mavzusini aytadi.

7. Har kim xoxlagan mavzuda qurishni taqlif qiladi.

8. Tayyor qurilishni: u qanday qismlardan iborat ekanligini, nimalar, qanday detallar ishlatilganini tahlil qilib beradi.

Qurish-yasash usullari bolalarga mashg'ulotlarda o'rgatiladi.

Qurish o'yinlariga rahbarlik. Bolalarning qurish materiallari bilan o'ynaydigan o'yinlariga rahbarlik usullari ularning yoshiga bog'liq. Kichik guruhda bolalar uncha murakkab bo'lmagan qurilishlarni bajaradilar.

Ular uchun stol ustiga qiyib o'ynaladigan mayda qurilish materiallari zarur. Bitta stol atrofida birdaniga 6-8 bola ishlashi mumkin. Stol ustini qurilish materiallari egallab olmasliklari uchun stolning u boshi bilan bu boshiga pastgina skameyka yoki taburetka qo'yiladi. Bolalar o'zlarining qurilish materiallarini yashigi bilan qo'yib qo'yadilar.

Xuddi shunday materiallar guruh xonasida ham bo'lishi kerak. Yilning ikkinchi yarimida bu materiallarni mashinalar qurish uchun kvadrat, to'g'ri burchak, har xil o'rtasi teshik dumaloq shakl dagi faner parchalari bilan to'ldirish

lozim. Bolalarning qurilish materiallari bilan o'ynashlari uchun tik turdagi daraxtlar, hayvonlar, mashinalar, qo'g'i rchoqlar ham kerak bo'ladi. Tarbiyachi bu materiallardan nima qurish mumkinligini bolalarga ko'rsatadi: qo'g'irchoqqa stol, stul, karovat yasash, ular uchun bog' va bog'ning ichiga skameyklar qo'yish, mashinaga garaj yasash va hokazo.

Bolalarni qurilish materiallari bilan o'ynashga qiziqtirish uchun tarbiyachi ular bilan birgalikda o'ynaydi va bu materiallardan hamma bolalar foydalanishlari ni kuzatib turadi. Yirik qurilish materiallari bilan guruh xonasidagi gilam ustida, yozda esa bog'cha xovlisida qurilish mumkin.

MTM maydonchasida yozda qum va suv bilan, qishda qor bilan o'ynash katta o'rin egallaydi. Qum bilan o'ynash. Qum bolalarning yozda o'ynashlari uchun yaxshi material. Har bir guruh uchun ikkitadan qum yashigi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shunda hamma bolalar o'ynash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qumda o'ynash uchun turli xil o'yinchoqlar kerak bo'ladi: qumdan har xil shakl yasaydigan mayda tunika mashinalar, rezina yoki selluloiddan yasalgan odamchalar, hayvonlar shakli, plastilindan yasalgan qo'g'irchoq mebeli, qurilish-yasash materiallari, uni bezaydigan narsalar: har xil faner taxtachalar (8\8, 10\10, 5\10, 4\10 sm) va yog'och kaltakchalar (10, 15, 20 sm) hammasi har xil rangdagi moyli buyoqqa bo'yalgan bo'lishi kerak. Shu materiallarni bolalar qumga o'rnatib yo'liq, hayvonlar uchun saroy va devorlar qurishadi. Qurgan narsalarini bezash uchun kichkina bayroqchalar kerak bo'ladi. Qumni kovlash uchun bolalarga kichkina yog'och kurakcha beriladi.

Bahorda va kuzda (yer namligida) bolalarning qum o'yinlari maxsus qirg'og'i ko'tarilgan stollarda tashkil etiladi. Qum bilan o'ynashda gigiyenik qoidaga rioya qilish kerak. Qum har doim toza va nam bo'lishi, bolalar jazirama quyosh tagida o'ynamasliklari lozim.

Kichik bolalar qum bilan o'ynaganda oldiga ma'lum maqsad qo'ymaydi. Tarbiyachi bolalarni qiziqtirish uchun o'zi quradi va bolalarga qurilishni taqlif qiladi. Masalan, qumni to'plab atrofni tekislashadi, bir yonini teshib eshik ochishadi. Keyin bu uychaning har xil rangdagi mayda bayroqchalar bilan bezashadi, keyin shu uy oldiga devorlar, bog'lar qurishadi, uyinga qo'g'irchoqlar ko'chib keladi. O'yinni uzgartirish uchun o'yinchoklarni vakti - vakti bilan uzgartirib turish kerak: mashinalar uchun garaj, hayvonlar uchun xayvonot bog'i va boshqalar. Tarbiyachi o'yinga kichik bolalarning hammasini jalb etishi kerak.

O'rta guruhda qum kichik guruhga nisbatan ko'p to'kiladi. Yashik oldiga buferda ham o'yinchoklar uchun javoncha bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'yinning mazmuni murakkablashib borishi uchun tarbiyachi yordam beradi: qumdan nimalar qurilish mumkinligini ko'rsatib, bolalarga ko'maqlashadi, ularning o'yinlarida qatnashadi.

O'yinga qo'shimcha materiallar: tabiat materiallari, ip, yog'och, faner va boshqalar ham zarur. O'ynab bo'lgandan keyin bularning hammasi maxsus ajratilgan joyga olib borib qo'yish kerak. Bolalar shahar ko'chalarini, xo'jalik

dalasi, hayvonot bog‘i, baland binolarni quradilar. Buning uchun qumdan, loydan va tabiat materiallaridan foydalanadilar.

Tarbiyachi bu materiallardan qanday qurishni ko‘rsatib beradi. Suv bilan o‘ynash. Bolalar suvni juda yaxshi ko‘rishadi. Ularning suv bilan o‘ynashlari uchun bog‘cha hovlisida maxsus suv xavzasi tashkil qilinadi, guruh xonasida esa oyoqli qurilma ustiga vanna o‘rnatiladi. Suv bilan o‘ynash uchun selluloiddan, rezinadan yasalgan o‘yinchoqlar: baliqchalar, o‘rdakcha, g‘ozcha, vannasi bor qo‘g‘irchoqcha, qayiqchalar (yasalgan va sotib olingan), suvda suzib yuradigan narsalar kerak.

Kichik bolalarning suv bilan o‘ynaydigan o‘yinchoqlari oddiy bo‘lib, unda o‘yinchoqlarning suzishini tomosha qiladilar. Bolalar suv bilan o‘ynab kichkina kichkina suv ujetni aks etiradi lar: baliq va o‘rdakchalarni ovqatlantirib, qo‘g‘irchoqni vannada cho‘mltirishadi, qayiqda yo‘lovchilarni uchirshadi.

O‘rta va katta guruh bolalarining suv bilan o‘yini ancha murakkablashadi. Ular daryoda poraxodlarni yurgizishadi, poraxod to‘xtaydigan bandargoxlar qurishadi. Suzadigan o‘yinchoqlarni harakatga keltirishadi. Suv bilan o‘ynash natijasida bolalar suvning xususiyatini, nimalar cho‘kib. Nimalar suzishini bilib olishadi. Suv bilan o‘ynash juda foydali, shuning uchun bolalarning guruh-guruh bo‘lib suv bilan o‘ynashlari uchun imkoniyat yaratib berish kerak.

Qor o‘yinlari. qishda bog‘cha maydonchasida qor bilan o‘ynash bolalar uchun eng qiziqarli faoliyat turi hisoblanadi. Har bir bolada yog‘och belkurakcha va qorni tashish uchun yashikcha bilan chana bo‘lishi kerak. Kichkina bolalar kattalar yig‘ib qo‘ygan qor uyumini yog‘och belkurakchalari bilan kovlashadi.

Nazorat savollar

1. Bolalarning qurish materiallari bilan o‘ynaydigan o‘yinlari qanday?
2. Nima uchun qurish lozimligini, uning mavzusini aytadi?
3. Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlar geometrik jisimlarning xususiyatlar qanday?

25-Mavzu: Bolani intellektual zukko bo‘lishini ta‘minlash.

Reja:

1. Bolaning intellektual qobiliyatini o‘stirishda amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar
2. Tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatini aniqlash usullari

Tayanch so‘zlar: Bolalar, rivojlanish, tarbiya, ta‘lim, mashg‘ulot

Bolalarga ta'lim berishdan maqsad ularni aqliy tomondan rivojlantirish bo'lganligi sababli yuqoridagi metodlardan shunday foydalanish lozimki, ular bolalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy xulosalar chiqarishga imkon bersin. Me-todlar ta'limning mazmuniga qarab tanlanadi. Agar ta'lim berish metodini mashg'ulotning ma'lum bir qismiga yoki ayrim mashg'ulotga qo'llanilsa, unda metod qismlarga bo'linib, usulga aylanib ketadi.

Usul—bu metodning bir qismi. Usul mustaqil vazifani hal etmaydi. Metod bajaradigan vazifaga bo'ysunadi. Shuning uchun bitta usulni har xil metodda qo'llash mumkin yoki har xil tarbiyachilar bitta metodga har xil usul qo'shishlari mumkin. Metodlarning har bir guruhi tarbiyachi va bolalar faoliyatining o'ziga xosligini belgilab beradi.

Kuzatish metodi bolalarni tevarak-atrofdagi hayot bilan tanishtirish imkonini beradi, bunda bolalar ko'rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniga ega bo'ladilar. Bu asosan yangi bilim berishda qo'llaniladi.

Kuzatish — bolaning narsa, buyum va voqealarni ma'lum maqsad bilan rejali ravishda idrok etishidir; bunda idrok, tafakkur, nuth bir-biriga faol ta'sir etadi. Kuzatish metodi orqali tarbiyachi bolalarni narsa va buyumlarni taqqoslashga, sabab-oqibat bog'lanishlarini farqlashga, narsa-buyumlar o'rtasidagi bog'liqlikni ularning o'ziga xos belgi va sifatlarini ajrata bilishga o'rgatadi. Kuzatish metodi ma'lum maqsadga qaratilgan sayr, ekskursiyalarda, jonli obyektlarni (hayvonlar, o'simliklarni) kuzatishda yetakchi o'rin egallaydi. Kuzatishni bolalarning faol ishtirok etishi bilan bog'lab olib borish maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishda solishtirish usulidan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Agar kuzatish bolalarning amaliy faoliyat-lari bilan qo'shib olib borilsa, yanada yaxshi bo'ladi: bular tasviriy faoliyat, qurish-yasash, og'zaki nutq, ya'ni kuzatgan narsalarni amalda qo'llay bilishdir.

Namoyish etish metodi. Bu metodda tarbiyachi bolalarga narsaning o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi.

Bolalarga bilim berishda ta'lim metodlari va ularni tanlash materialning mazmuniga, bolalarning yoshiga va tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Agar tarbiyachining oldida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni buyumlar, hayvonlar, qushlar bilan tanishtirish vazifasi tursa, ularni ko'zdan kechirish, kuzatish yoki tegishli suratlar, diafilmlardan foydalanish eng maqsadga muvofiq metodlardan biridir; agar bolalar hayvonni bilsalar-u, lekin uning haqidagi tasavvurlarini aniqlash talab etilganda suratdan foydalanish maqsadga muvofiqdir; agar hayvonlarning xatti-harakati to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirish zarur bo'lsa, badiiy asarlardan foydalanish

mumkin. Bolalarning yoshi yoki tayyorgarlik darajasiga qarab tarbiyachi ta'limning turli xil metod va uyeullarini qo'llaydi: masalan, kichik guruhda hikoya qilishga o'rgatish uchun suratlar yoki o'yinchoqlarni ko'zdan kechirish, o'rta guruhda — kichikroq ertak yoki hikoyalarni qaytadan gapirib berish, suratga qarab hikoya qilish, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida — reja bo'yicha, boshlab berish bo'yicha, xotira bo'yicha ijodiy hikoyalar tuzish va hokazolar maqsadga muvofiqdir. Bolalarning ko'nikma va malakalarni egallab borishiga qarab ta'lim metodlari ham o'zgaradi: rasm chizishga o'rgatishda dastlab kichikintoylar taqlid qilishi ke-rak bo'lgan namuna beriladi, keyin esa bolalarning tasvir xilini o'zgartira olishlari uchun ularga bir nechta namuna tak-lif qilinishi mumkin va, nihoyat, zarur ko'nikma va malaka-lar paydo bo'lgandan keyin o'zlari o'ylab rasm chizishlari tak-lif qilinadi.

Har bir mashg'ulotda tarbiyachi usullar birikmasidan foydalanadi. masalan, «qo'g'irchoqqa uycha quramiz» mavzusidagi mashg'ulotni o'tkazish uchun kichik guruhda shunday usullar qo'l-laniladi: kutilmagan o'yin usuli («eshikni kimdir taqillat-yapti»), buyumlarni (dastlab qo'g'irchoqni, keyin uning mebel-larini ko'rsatish), ko'rsatilganlarga tushuntirish, bolalarga savol berish («stol nima uchun kerak?») va didaktik o'yin (.o'yin vaqtida bolalar xonasini mebel bilan jihozlaydilar).

Bolaning oldida kattalarning obro'si juda yuqori bo'ladi. Bola bilmagan narsasini bilish uchun tarbiyachi va ota-onalarga ishonch bilan murojaat qiladi. Mana shunda kattalar bolaning savoliga, uni qiziqtirgan narsa to'g'risida javob berishdan bosh tortsalar, bola boshqa manbalardan javob qidirishga urinadi, bular aksariyat ishonchsiz manbalar bo'ladi.

Bu bilan kattalar bolaning aqliy rivojlanishiga to'sqin-lik qiladilar, uning ma'naviy o'sishiga yordam bermaydilar. Bolani qiziqtirgan savollarga kattalar har doim ham batafsil javob berishlari shart emas, agar shu savolga bolaning o'zida yetarli bilim borligi sezilsa, u holda bolani mustaqil fikrlashga undan lozim (ya'ni «Qani, o'zing o'ylab ko'r-chi, bu qanday narsa ekan?»). Bolaning savollari uning bilim dara-jasiga mos bo'ladi. Avvaliga unga narsa va buyumlarning nomini, nimaligini («Bu nima?», «Nomi nima?») aniqlovchi savollar beriladi.

Nazorat savollar

1. Bolalarning intellectual faolligida ota- onalar qanday e'tibor berishi kerak?
2. Bolalarning aqliy salohiyati yuksak darajada rivojlanishi uchun tartbiyachi nimalarga katta e'tibor berishi kerak?

26-Mavzu: Bolaning rivojlanishida o'yinchoqlarning ahamiyati

Reja:

1. Bolaning rivojlanishida o'yinchoqlarning o'rni
2. O'yinchok bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi
3. O'yinchoqlarga qo'yiladigan gigienik talablar

Tayanch so'zlar: Bolalar, rivojlanish, tarbiya, ta'lim, mashg'ulot

Farzandlarimiz milliy xunarmandchiligimiz asosida yaratilgan o'yinchoqlarni o'ynashsa, ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir etgan bo'lar edik " degan fikrni birinchi prezidentimiz I.A Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlaydi. (156 bet) Darhaqiqat go'dakning ulg'ayib kelajakda qanday yo'ldan borishi o'zi ning hayet tarzini qanday axloqiy ma'naviy asoslarga qurishi ham uning bolalikda qanday o'yinchoqlar o'ynagani bilan belgilanadi O'yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi va ijobiy his-tuyg'ularni tarki b toptiradi. Axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirishda qo'g'irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy ko'g'irchok bolalarni boshka millatga mansub bo'lgan tengdoshlariga bo'lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San'atni biri nchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo'lgan o'yinchok estetik hislar va kechinmalarni uyg'otadi, estetik tarbiyani to'plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o'rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq o'yinchoklarining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

O'yinchok bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiklashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoklar (shakldoklar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshk.) bolada ko'rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlar harakatlari va buyumli harakatlarni o'stirishga yordam beradi.

Texnika o'yinchoqlari bolalarda texnikaga va texnika asboblari bo'lgan qiziqishni uyg'otib, ularni o'z o'yinlarida qo'llay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko'rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o'yinchoqlar yaqin turadi.

Qurish-yasash o'yinchoqlari bolalardagi qurish-yasash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ijodkorlikka intilish uyg'otadi. Bu o'yinchoqlarni o'ynash buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim. (avtomobilda g'ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinchoqlarning asosiy 2 turi mavjud:

kublar, prizmalar, kon uslar, piramida. sli ndrlar, plasti nkalar. geometrik shakllar to'plami.

turli blok - devor, kolonka va boshqa arxitektura va qurilish materiallari.

Mayda (stol o'yi nlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o'ynashga mo'ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xii bo'lishi mumkin.

Didaktik o'yinchoklarning asosini xalq o'yinchoklari tashkil qiladi. Ular o'ynashda bola o'z-o'zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaykalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o'yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

Harakatli o'yinlarga mo'ljallangan o'yinchoklar: suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, koptoklar, arg'amchilar, chambaraklar va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoklar bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

Pedagogic talab o'yinchok obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi, jamiyatimiz g'oyasi nukta nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchok bolada olijanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalash, voqelikka nisbatan olijanob tuyg'ular uyg'otishi, ijobiy axloqiy tajriba to'plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak. Obrazli o'yinchok real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

Gigiyenik talablar. O'yinchoq qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.

Badiiy talablar. Shakl, buyoq va bezaklarning har tomonlama uyg'unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to'ldirib, ta'kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi.

Nazoratsavollar

1. Qanday vosita bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi?
2. Didaktik o'yinchoklarning asosini nima tashkil qiladi?
3. Harakatli o'yinlarga mo'ljallangan o'yinchoklarga nimalar kiradi?

27-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning nazariy asoslari.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi
2. MTMsi bilan maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning nazariy asoslari.

Tayanch so'zlar: Tarbiya, ta'lim, faoliyat, bolalar, yosh, o'yin, qonun

Ta'lim sohasida jumladan uning birinchi pog'onasi hisoblanmish maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar qilinmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari faoliyatini meyorlashtiruvchi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizom, «Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari» kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi.

Islah etish jarayonida bolalarga ta'lim va tarbiya berish vazifalari, mazmuni, shakl va uslublari, shuningdek pedagogika fani taraqqiyotining ustivor yo'nalishlari qamrab olinmoqda.

Bugungi maktab bo'lsidan aniq biJimJargina emas, fikrlash ko'nikmasi, kattaJar hamda sinfdosh o'rtoqlarini tushunish, ular biJan hamkorlik qilish taJab etiJadi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo'yayotganida nechog'li bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi muhimroq hisoblanadi.

Bo'iani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

«O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda ota-onaning mustaqil ravishda ta'lim-tarbiya berishi orqali yoki maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, maxallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi xamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasida yoki oilada maktab ta'limiga tayyorlash, uni murakkab bo'lmagan bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

MTMsi bilan maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik katta maktabgacha yoshdagi bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Shunday ish tutilganda bolalarning maktab sharoitiga moslashishi ancha engillik bilan o'tadi. Bolalar maktab sharoitiga tabiiy moslashib ketadilar, bu esa o'z navbatida maktabda o'qishning birinchi kunidan boshlab ta'lim-tarbiya ishining samarasini oshiradi.

Zero, maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lim olishga tayyorlashlari kerak.

Maktab bilan MTM o'rtasidagi uzviy aloqa murakkab va ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi etakchi tomonlari ni ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda

quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Maktab talabi nuqtai nazaridan bolalar bilimlarni chuqurroq egallab olishlari lozim.

MTM nuqtai nazaridan bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, kunikmalar bilan qurollantirish

Bolalarning maktabga ruxiy tayyorligi. Bu erda vazifa bolalar mehnatning har kanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat-bilishga qiziqishni o'stirishning kelajakdagi mustaqil faoliyatga tayyorlashdan iborat.

MTMda beriladigan ta'lim rivojlantiruvchi tarzda bo'lishi kerak. 5. MTMsi bilan maktab o'rtasida izchil aloqa o'rnatish.

Uzviylik MTMsi va maktabda shaxsni har tomonlama shakllantirish bo'yicha olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini izchillik bilan amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. MTM maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda boshlang'ich sinf ta'limi maqsad va vazifalariga mos keladigan sifat jihatdan yangi xususiyatlarni shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar egallagan xulq-atvor shakllari, kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabat shakllari, axloqiy xis-tuyg'u va tasavvurlar maktabning boshlang'ich sinflarida bolalarga yangi axloqiy xulq-atvor shakllarini ularning ongini, his-tuyg'ularini tarbiyalash uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Maktab bolalarda axloqiy tasavvurlar va xulq - atvorda birlik bo'lishini tarbiyalash, o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarlikni seza bilish, jamoachilik xislatlari, sifat jihatdan yangi bo'lgan xulk, atvor shakllarini tarkib toptirish uchun shart-sharoit yaratadi. Maktabda vatanparvarlik, baynalmilallik, o'z vatani oldidagi burchini chuqur anglash kabi his-tuyg'ular shakllanadi. Sunday yuksak hislar bolalarning MTMda ota-onalariga, oilasiga muhabbat, kattalarga hurmat, ona tabiatga mehr va shu kabi axloqiy hislari asosida shakllanadi.

Maktabda bolalarni estetik tomondan tarbiyalash bo'yicha izchil ish olib boriladi. Bolalar musiqa va ashula darslarida musiqa asbob-anjomlari bilan tanishadilar, ashula aytadilar, marsh sadolari ostida yuradilar, o'yinga tushadi san'at darsida esa o'quvchilar chizmachilik va rasm solishni. naqqoshlik rang tasvir, manzarali-amaliy san'at natyurmortni, portretni bir-biridan farqlashni o'rganadilar. O'qish darsida bolalar adabiy janrlar bilan tanishtiriladi. Amal iy mashg'ulotlarda ularning badiiy , ijodiy qobiliyatlari yanada. rivojlantiriladi. Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalash. mehnat axliga ijobiy munosabat mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish ishlari ham maktabda o'rgatilib bori ladi.

Maktab bilan MTM o'rtasidagi mehnat tarbiyasi bo'yicha uzviy bog'liqlik mehnat tarbiyasining mazmunini murakkablashtirishga, uni ijtimoiy foydali tomonga qaratishga, bolalarning mehnatdagi mustaqilligi, o'z-o'zini tashkil eta bilishga, axloqiy munosabatlarning ongli tus olishiga olib keladi. Mehnat faoliyati yanada tarkib topa boradi. Maktabdagi hamma o'quv-tarbiyaviy jarayonlar bola shaxsi ni har tomonlama shakllantirishni rivojlantirish bo'yicha izchillik asosida olib boriladi.

Maktab bilan MTM o'rtasidagi uzviy aloqa asosini MTM va maktabda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlari mazmunini belgilovchi dasturlar

o'rtasidagi bog'liqlik tashkil etadi.

Hozirgi boshlang'ich sinflar dasturi bilan MTM dasturini olib solishtiradigan bo'lsak, ular o'rtasida bir qancha o'zaro bog'liqlarni ko'ramiz. Bu eng avvalo dasturlarda asos qilib olingan prinsiplarning umumiyliigi bilan belgilanadi. Ularning mazmuni bolalarni har tomonlama tarbiyalash maqsad va vazifalariga mos kelish prinsipi, hayot bilan borliq, ilmiylik prinsiplari, ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyatga egaligi va falsafiy, ruhiy nuqtai nazarlarning birligida namoyon bo'ladi.

Birinchi sinf o'quv dasturi ayrim predmetlar bo'yicha MTM dasturi bilan solishtirilganda ularda umumiylik ko'pligini ko'ramiz. Masalan, MTMsida ona tiliga o'rgatish va boshlang'ich sinflardagi ona tili darsiga bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirish kabi umumiy g'oya asos qilib olinadi.

MTMsida bu ish bolalarning lug'atini boyitish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, ifodali o'qishga o'rgatish, bog'langan nutqni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Maktabda esa bolalarda mana shu MTMda egallagan bilim, malaka, tushunchalarga asoslanib, yozma nutq malakasi, orfografik xat malakasi shakllantiriladi, ularga morfologiya va sintaksis elementlari o'rgatiladi. Shu bilan bir qatorda MTMda boshlangan bolalar lug'atini boyitish, nutqning ifodaliligi, bog'langan nutqni rivojlantirish davom ettiriladi.

MTMda ham, maktabda ham tabiatshunoslik to'g'risidagi bilimlar organizm bilan muhitning birligi to'g'risidagi umumiy g'oyaga asoslangan holda olib boriladi. Shu asosda bolalarga jonli va jonsiz tabiat, tabiat va kishilar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida bilim va tushunchalar beriladi.

Bunda dasturlar mazmunida birlik o'rnatishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan maktab yoshidagi bolalarning yoshlari, bilimlaridagi farq xususiyatlari e'tiborga olinishi kerak.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar egallashlari lozim bo'lgan bilim va tushunchalar mazmunini tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvurlar va ayrim oddiy tushunchalar tashkil etadi.

Nazorat savollar

1. Ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlarini, moddiy va ma'naviy meros qanday nomlanadi?
2. Faoliyatning ma'lum bir reja asosida tashkil etilishi, tartibli bajarilishi uchun MTM xodimlariga beriladigan aniq topshiriq qanday topshiriq sanaladi?

28-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab xamkorligi

Reja:

1. MTM bilan maktab o'rtasidagi izchillikshakl va uslublari
2. Tarbiyachining mashrg'ulotlar jarayonida bolalarning amaliy faoliyatlariga, bilish jarayoniga raxbarlik qilishi

3. Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktabning pedagoglar jamoasi o'rtasidagi aloqa.

Tayanch so'zlar: Tarbiya, ta'lim, faoliyat, bolalar, yosh, o'yin, qonun
MTM bilan maktab o'rtasidagi izchillik ta'limning shakl va uslublarida ham o'z aksini topadi.

Ta'lim berish uslublaridagi izchillikning muhim sharti bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni ongli egallab olishlariga erishish, bog'chada va maktabda ularning aqliy qobiliyatlarini va ijodiy faolliklarini o'stirishdir. MTMi va maktabning boshlang'ich sinfida qo'llaniladigan juda ko'p usullar bir xil bo'lib, ular bolalarning aqliy, axloqiy-irodaviy rivojlanishlarini yaxshilashga qaratilgan.

Shu bilan birga ularning yangi mazmundagi bilimlarni egallashga, amaliy faoliyatga, bilishga qiziqishini oshirib, o'qituvchi bilan dars jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning murakkabroq shakllarini egallab olishlarga yordam beradi.

Tarbiyachining mashg'ulotlar jarayonida bolalarning amaliy faoliyatlariga, bilish jarayoniga bunday raxbarlik qilishi maktab va MTM o'rtasidagi ta'lim usulidagi izchillikning asosini tashkil etadi.

Maktabdagi dars, MTMidagi mashg'ulot bir muncha o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu bilan birga ta'limning tashkiliy asosda olib borilishida esa umumiylik sezilib turadi. Mashg'ulot va darslarning mazmuni aniq dastur asosida olib borilishi, aniq belgilangan vaqt ajratilishi, pedagogning rahbarlik roli, ta'limning ilmiy asoslangan metod va usullaridan foydalanish, ta'lim berish jarayonida bolalarda o'quv faoliyati elementlari, o'z xulqini ixtiyoriy boshqarish qobiliyati, ma'lum maqsadga qaratilgan aqliy ish bilan shug'ullanish qobiliyati tarbiyalab boriladi. Bular hammasi bolani maktab ta'limiga faol kirishib ketishga tayyorlaydi.

Shunday qilib, MTMlari bilan maktab o'rtasida ta'lim-tarbiya ishidagi izchillik bola shaxsini aniq maqsad bilan har tomonlama rivojlantirib borish imkonini yaratadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab o'rtasidagi aloqa ikki yo'nalishda olib boriladi:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktabning pedagoglar jamoasi o'rtasidagi aloqa.

2. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir-birlariga yaqinlashtirish.

Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari katta va tayyorlov guruhlari olib boriladigan ishlar mazmuni bilan tanishib boradilar va maktabda ta'lim berishda bolalar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarga asoslanadilar.

MTM bilan maktab pedagoglarining o'zaro aloqa o'rnatishlaridan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zamon talabiga javob beradigan darajada maktab ta'limiga tayyorlash uchun o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab bilan

maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasida mustaxkam aloqa o'rnatish, bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun MTMsi va maktabda olib bori layotgan ta'lim- tarbiyaviy ishlarni chuqur tahlil qilib, bu sohada yuqori natijalarga erishishdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari yuqoridagi vazifalarga qarab belgilanadi.

MTMsi bilan maktab pedagogik tashviqot, metodik va amaliy masalalar yuzasidan bir-biri bilan aloqa bog'laydi. Pedagogik tashviqot ishlari MTMsi maktabga tayyorlov guruhi tarbiyach isining va birinchi sinf o'qituvchisini MTMning maktabga tayyorlov guruhi da va birinchi sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar vazifasi bilan tanishtirishni, maktabga tayyorlov guruhi va I sinf dasturi mazmunini , tayyorlov guruh i bolalari va maktabdagi 1 sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi. Mana shunday usulda ish olib bori lganda o'qituvchi va tarbi yachilar maktabni 1 sinf va MTMni tayyorlov guruhidagi bolalarga xos bo'lgan yosh xususiyatlarini, ularning ruhiy tabiatini, aqliy va ijtimoiy rivojlantirshlarini tushunib, ularni maktabga tayyorlov masalalarini yaxshiroq anglab olishlarida yordam beradi.

Bu maqsadni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'rtasida quyidagicha konkret aloqa shakllari o'rnatiladi: o' qituvchi va tarbiyachilar bolalarni maktabga tayyorlash va uzviylik masalalari bo'yicha, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha birgalikda o'tkaziladigan tadbirlarning mosligini muhokama qilish uchun seminar, pedagogik kengashlarda qatnashish, shuningdek bolalarning yosh xususiyatlarini, ularning MTMdan maktabga o'tishlaridagi ruhiy qiyinchiliklar, maktab sharoitiga qiynalmay moslashishlariga yordam beruvchi omillar bo'yicha tarbiyachi va o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan leksiyalar orqali tajriba almashuv va boshqalar kiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqaning pedagogik vazifasi MTMning tayyorlov guruhida va maktabning 1-sinfida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradigan faoliyat shakllari va usullari bilan o'zaro tanishishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'rtasidagi aloqaning amaliy vazifasi, shundan iboratki, bir tomondan, o'qituvchi MTMning tayyorlov guruhiga borib o'zining bo'lajak o'qituvchilari bilan tanishib boradi, ikkinchi tomondan tayyorlov guruhi tarbiyachilari o'zlarining sobiq tarbiyalanuvchilari birinchi sinfda qanday o'qiyotganini o'rganib boradilar. Bolalarni maktabga kuzatishda har bir bolaga aniq tavsifnoma beriladi.

Bu tavsifnomada tarbiyachi har bir bolaning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib beradi, bu o'qituvchiga bola bilan munosabatda bo'lganda pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri yondashishda yordam beradi. Tarbiyachi ham o'z navbatida 1- sinfga borgan bolalari bilan izchil ravishda aloqa bog'lab boradi, darslarda bevosita qatnashib qanday o'qiyotganlari, xulqi, o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklari sababini o'qituvchidan so'rash orqali ham aniqlab

boradi. Bular hammasi tarbiyachini bolalar bilan olib borgan ta'lim tarbiyaviy ishidagi yutuq va kamchiliklarni bilib olishga imkon yaratadi.

Tarbiyachi va o'qituvchilar ilg'or tajribalarni tarqatish, tashviqot, targ'ibot qilish maqsadida shahar, rayon konferensiyalarida qatnashib fikr al mashadilar.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqa samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish lozim. MTM bilan maktab o'rtasidagi aloqa izchil amalga oshirib borilishi, u uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi, amalga oshiriladigan ishlar, hal etiladigan masalalar rejali tusda bo'lishi zarur.

Hamkorlik asosini birgalikda ishlash bo'yicha tuzilgan istiqbol rejasi tashkil etib, unda o'zaro aloqaning bosh vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqti, bajarish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi lozim.

Maktab bilan MTM yil davomida mana shunday aloqa o'rnatib borishi natijasida ta'lim-tarbiyaviy ishlar yaxshi natija beradi.

Bolalarni maktab o'quvchilariga yaqinlashtirish shakllari ham xilma-xil: maktabga ekskursiya uyushtirish, maktab muzeyiga, sinf xonasiga, kutubxona, ustaxonaga borish, birgalikdagi mashg'ulotlar, bayram ertaliklari, musiqa-badiiy kechalar o'tkazish, rasmlar hamda loy plastilindan yasalgan o'yinchoqlar ko'rgazmasini tashkil etish va boshqalardir.

Nazorat savollar

1. Maktab bilan MTM yil davomida qanday aloqalar o'rnatib boradi?
2. MTMdan maktabga o'tishlaridagi ruhiy qiyinchiliklar, maktab sharoitiga qiynalmay moslashishlariga yordam beruvchi omillar nima?

29-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab dasturining izchilligi

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab dasturining izchilligi
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim tarbiyaning maqsad va vazifalari.
3. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari

Tayanch so'zlar: Guruh, tarbiyachi, bolalar, vazifa, tarbiya, ta'lim, aloqa

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiya berishning maqsadi yosh avlodni istiqloq mafkurasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va ularni maktabgacha

yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi Qonun talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim sog'lom har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlash ota-onalarga yordam beradi. So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim tarbiya mazmuni shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida e'tibor berilmoqda. Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5 son qarori bilan tasdiqlagan. «Davlat ta'lim standartlari haqidagi nizom»ga muvofiq belgilanadi. Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim tarbiya mazmunining asosiy o'ynalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib, u davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi va bare ha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari quyidagi bo'limlardan iborat:

. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Ta'lim tarbiyaning asosiy yo'nalishlari. Bu bo'lim o'z navbatida quyidagi qismlardan iborat. 1) bolalarni jismoniy rivojlantirish. 2) bolalarni nutq va tafakkurini rivojlantirish. 3) ma'naviy va madaniy. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar.

Bu bo'limni qismlari. 1) jismoniy rivojlanganlik darajasi

2) nutq va tafakkurni rivojlanganlik darajasi 3) ma'naviy va madaniy etuklik. Davlat talablarini amaliyotga joriy etish.

Lekin bu jarayon murakkab bo'lganligi uchun u bosqichma bosqichlarda amalga oshiriladi. Talablarda berilgan ko'rsatkichga erishish uchun davlat tomonidan zaruriy shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratiladi.

Bolalarni bilim, ko'nikma va malakalari har o'quv yili yakunida nazorat mashg'ulotlar orqali tekshirilib boriladi.

6-7 yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi ushbu davlat talablari ko'rsatkichlari asosida tekshiriladi.

Tayyorlov guruhi bolalarini maktabda o'qishga tayyorlash muhimi o'rinni egallaydi. U maktabgacha bolalikni yakunlaydi va maktabda o'qishga o'qituvchi bosqich hisoblanadi. Ayni shu davrda bolalar xulq-atvori, faoliyatida ularning

aqliy, ma'naviy-irodaviy va ko'tarinki sohalariga aloqador keyingi o'qitishlar uchun muhim bo'lgan xususiyatlar faol shakllanib boradi. Tayyorlov guruhi tarbiyachisining asosiy e'tibori barcha bolalarning maktabgacha ta'lim dasturida nazarda tutilgan mazmuni to'liq egallab olishlariga qaratiladi, chunki bu maktab ta'limiga to'laqonli tayyorlashning majburiy sharti hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalaridan kelib chiquvchi katta guruhlardagi pedagogik jarayon o'ziga xosdir. Bu o'ziga xoslik maktabning ta'lim-tarbiya ishlaridan nusxa ko'chirishgina emas, balki bolalarning ularda maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni og'ishmay shakllantirishga yo'llangan faoliyat va xulq-atvorlarini maxsus tashkil etilishidadir.

Tayyorlov guruhiga kelganda bolaning har xii faoliyatlarida: o'z-o'ziga xizmat qilishda, navbatchi likda, tabiat qo'ynidagi mehnatida mustaqil namoyon bo'la boshlaydi. Boladagi mustaqillik va tashkilotchilik qobiliyati tarbiyachining bevosita rahbarligida ularning hamma faoliyatlarida shakllantirilib boriladi.

Jismoniy tarbiya dasturini bajarish umumiy vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, bolalarda ertalabki badantarbiya va jismoniy mashg'ulotlarni bajonidil bajarish, o'z harakatlarini takomillashtirishga xohish tarbiyalanadi. Shuning uchun bolaning jismoniy, aqliy faolligini va ish qobiliyatini o'stiruvchi harakat faolligini rivojlantirish kerak.

Tayyorlov guruhi bolalarini maktabda o'qishga tayyorlash muhurni o'rinni egallaydi. U maktabgacha bolalikni yakunlaydi va maktabda o'qishga o'tuvchi bosqich hisoblanadi. Ayni shu davrda bolalar xulq-atvori, faoliyatida ularning aqliy, ma'naviy-irodaviy va ko'tarinki sohalariga aloqador keyingi o'qitishlar uchun muhim bo'lgan xususiyatlar faol shakllanib boradi.

Tayyorlov guruhi tarbiyachisining asosiy e'tibori barcha bolalarning maktabgacha ta'lim dasturida nazarda tutilgan mazmuni to'liq egallab olishlariga qaratiladi, chunki bu maktab ta'limiga to'laqonli tayyorlashning majburiy sharti hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalaridan kelib chiquvchi katta guruhlardagi pedagogik jarayon o'ziga xosdir. Bu o'ziga xoslik maktabning ta'lim-tarbiya ishlaridan nusxa ko'chirishgina emas, balki bolalarning ularda maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni og'ishmay shakllantirishga yo'llangan faoliyat va xulq-atvorlarini maxsus tashkil etilishidadir.

Tayyorlov guruhiga kelganda bolaning har xil faoliyatlarida: o'z-o'ziga xizmat qilishda, navbatchi likda, tabiat qo'ynidagi mehnatida mustaqil namoyon bo'la boshlaydi. Boladagi mustaqillik va tashkilotchilik qobiliyati tarbiyachining bevosita rahbarligida ularning hamma faoliyatlarida shakllantirilib boriladi.

Jismoniy tarbiya dasturini bajarish umumiy vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, bolalarda ertalabki badantarbiya va jismoniy mashg'ulotlarni bajonidil bajarish, o'z harakatlarini takomillashtirishga xohish tarbiyalanadi. Shuning uchun bolaning jismoniy, aqliy faolligini va ish qobiliyatini o'stiruvchi

harakat faolligini rivojlantirish kerak. To'g'ri tashkil etilgan sayr bolalarni ng jismoniy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Tarbiyachi bolalarning normal uxlashi va ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha g'amxo'rlik qilib boradi.

Ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyati hozirgi zamon ta'limiga xos prinsipdir. Bu bolalardagi bilimga qiziq ish va bilish jaryonlarini rivojlantiradi. Buning uchun bolalarga beriladigan bilim, malaka, ko'nikmala ma'lum izchillik bilan takomillashtirilib boriladi. Natijada bolalar kattalarning ko'rsatmasi va namunasi bo'yicha ish-harakatlarni bajarishga, oldin egallagan bilimlarini yangi faoliyatda qo'llashga, o'zining xulqi, ishi, hatti-harakatini nazorat qilish va to'g'ri baholashga o'rganib boradilar.

Bolalarda topshiriqqa ongli munosabat shakllanadi. Tarbiyachining tushuntirish va ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglash, o'z ishida yaxshi natijaga intilishi, ma'lum tezlik va izchillikda diqqat bilan ishlash malakasi shakllanadi, ish qobiliyati ortadi.

Tarbiyachi mashg'ulot paytida har bir bolaning diqqati, tafakkuri, xotirasi, bilim va malaka darajasidagi o'ziga xos xususiyatlamini e'tiborga oladi.

Ta'lim jarayoniga alohida yondoshish aqliy vazifalarni, ularni bajarish usullarini murakkablashtirib borishni sekin-asta amalga oshirishni taqozo etadi. Masalan, bola biror narsani o'zicha hikoya qilib bera olmasa, tarbiyachi unga mavzuga doir reja beradi, keyinchalik ishni mustaqil bajarishni topshiradi. Alohida yondoshish orqali tortinchoq, sust bolalar faollashtirib boriladi, materialni yaxshi o'zlashtiradigan bolalarga topshiriq murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhida qo'llaniladigan metodlarning o'ziga xos tomoni bor. Ko'rgazmali metodlar bu erda faqat harakat usulida ishlatilmay, shu bilan birga bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirish uchun ham qo'llaniladi. Masalan, manzarali rasm chizish mashg'ulotida namunalar ko'rsatishdan mashg'ulotning boshida xotirani, xayol obrazini jonlantirish uchun foydalaniladi, mashg'ulotning oxirida esa o'zining bajargan ishini, rasmni to'g'ri bajarganini tekshirish uchun namuna bilan taqqosligi ko'rish maqsadida foydalaniladi.

Bilimlarni bolalar puxta o'zlashtirib olishlari, ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida amaliy va o'yin metodlarini ko'rgazmali metod bilan to'g'ri qo'shib olib borishda og'zaki metod katta ahamiyatga ega. O'yin metodlari, ayniqsa didaktik o'yinlar metodi ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunki ta'lim o'yinlar, ayniqsa didaktik o'yinlar orqali olib borilgan bolalar o'quv vazifasini yaxshiroq anglab oladilar, bu ulardagi ixtiyoriy diqqatni oshiradi, faoliyatni faollashtirib, bilishga qiziqishni kuchaytir

Nazorat savollar

1. Ta'lim jarayoniga alohida yondoshish aqliy vazifalar nimalardan iborat?

2. Didaktik o‘yinlar orqali olib borilgan bolalar o‘quv vazifasini nimalar tashkil etadi?

30-Mavzu: Bolani maktabda o‘qishga tayyorgarligi.

Reja:

1. Ta’lim jarayoniga alohida yondoshish aqliy vazifalarni, ularni bajarish usullari
2. MTMning tayyorlov guruhi tarbiyasi tayyorlov guruhi bolalarini maktab bilan tanishtirish bo‘yicha ekskursiya uyushtirish

Tayanch so‘zlar: Guruh, tarbiyachi, bolalar, vazifa, tarbiya, ta’lim, aloqa

Tayyorlov guruhi tarbiyachisining asosiy e’tibori barcha bolalarning maktabgacha ta’lim dasturida nazarda tutilgan mazmuni to‘liq egallab olishlariga qaratiladi, chunki bu maktab ta’limiga to‘laqonli tayyorlashning majburiy sharti hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalaridan kelib chiquvchi katta guruhlardagi pedagogik jarayon o‘ziga xosdir. Bu o‘ziga xoslik maktabning ta’lim-tarbiya ishlaridan nusxa ko‘chirishgina emas, balki bolalarning ularda maktabda muvaffaqiyatli o‘qitish uchun zarur bo‘ladigan sifatlarni og‘ishmay shakllantirishga yo‘llangan faoliyat va xulq-atvorlarini maxsus tashkil etilishidir.

Tayyorlov guruhiga kelganda bolaning har xil faoliyatlarida: o‘z-o‘ziga xizmat qilishda, navbatchi likda, tabiat qo‘ynidagi mehnatida mustaqil namoyon bo‘la boshlaydi. Boladagi mustaqillik va tashkilotchilik qobiliyati tarbiyachining bevosita rahbarligida ularning hamma faoliyatlarida shakllantirilib boriladi.

Jismoniy tarbiya dasturini bajarish umumiy vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, bolalarda ertalabki badantarbiya va jismoniy mashg‘ulotlarni bajonidil bajarish, o‘z harakatlarini takomillashtirishga xohish tarbiyalanadi. Shuning uchun bolaning jismoniy, aqliy faolligini va ish qobiliyatini o‘stiruvchi harakat faolligini rivojlantirish kerak.

Tarbiyachi bolalarning normal uxlashi va ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha g‘amxo‘rlik qilib boradi.

Ta’limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyati hozirgi zamon ta’limiga xos prinsipdir. Bu bolalardagi bilimga qiziqish va bilish jaryonlarini rivojlantiradi. Buning uchun bolalarga beriladigan bilim, malaka, ko‘nikmalar ma’lum izchillik bilan takomillashtirilib boriladi. Natijada bolalar kattalarning ko‘rsatmasi va namunasi bo‘yicha ish-harakatlarni bajarishga, oldin egallagan bilimlarini yangi faoliyatda qo‘llashga, o‘zining xulqi, ishi, hatti-harakatini nazorat qilish va to‘g‘ri baholashga o‘rganib boradilar.

Bolalarda topshiriqqa ongli munosabat shakllanadi. Tarbiyachining tushuntirish va ko‘rsatmalarini diqqat bilan tinglash, o‘z ishida yaxshi natijaga

intilishi, ma'lum tezlik va izchillikda diqqat bilan ishlash malakasi shakllanadi, ish qobiliyati ortadi.

Tarbiyachi mashg'ulot paytida har bir bolaning diqqati, tafakkuri, xotirasi, bilim va malaka darajasidagi o'ziga xos xususiyatlarni e'tiborga oladi.

Ta'lim jarayoniga alohida yondoshish aqliy vazifalarni, ularni bajarish usullarini murakkablashtirib borishni sekin-asta amalga oshirishni taqozo etadi. Masalan, bola biror narsani o'zicha hikoya qilib bera olmasa, tarbiyachi unga mavzuga doir reja beradi, keyinchalik ishni mustaqil bajarishni topshiradi. Alohida yondoshish orqali tortinchoq, sust bolalar faollashtirib boriladi, materialni yaxshi o'zlashtiradigan bolalarga topshiriq murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhida qo'llaniladigan metodlarning o'ziga xos tomoni bor. Ko'rgazmali metodlar bu erda faqat harakat usulida ishlatilmay, shu bilan birga bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirish uchun ham qo'llaniladi. Masalan, manzarali rasm chizish mashg'ulotida namunalar ko'rsatishdan mashg'ulotning boshida xotirani, xayol obrazini jonlantirish uchun foydalaniladi, mashg'ulotning oxirida esa o'zining bajargan ishini, rasmni to'g'ri bajarganini tekshirish uchun namuna bilan taqqoslab ko'rish maqsadida foydalaniladi.

Bilimlarni bolalar puxta o'zlashtirib olishlari, ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida amaliy va o'yin metodlarini ko'rgazmali metod bilan to'g'ri qo'shib olib borishda og'zaki metod katta ahamiyatga ega. O'yin metodlari, ayniqsa didaktik o'yinlar metodi ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunki ta'lim o'yinlar, ayniqsa didaktik o'yinlar orqali olib borilgan bolalar o'quv vazifasini yaxshiroq anglab oladilar, bu ulardagi ixtiyoriy diqqatni oshiradi, faoliyatni faollashtirib, bilishga qiziqishni kuchaytiradi.

Bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda tahlil qilish: solishtirish, taqqoslash, nazorat qilib borish o'quv faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan malakalarni shakllantiradi. Tarbiyachi bolalarni bajarilgan ishlarni tahlil qilishga o'rgatar ekan, avvalo o'zi namuna beradi, keyin reja tuzib beradi va shundan keyin bolalar o'zlari va o'rtog'larining ishini mustaqil tahlil qilib, uni baholaydigan bo'lib qoladilar. Bolalardagi o'z-o'zini tekshirish malakasini tarbiyalash uchun tarbiyachi bolalarga o'rtog'i ishni qanday bajarganligini gapirib berishni taklif etadi va yo'l-yo'lakay "Sen uning ishni qanday bajarganini qayerdan bilib aying?", "Nima uchun shunday deb o'ylaysan?" kabi savollarni berib boradi.

Maktabga tayyorlov guruhida bolalarning mashg'ulotda uyushqoqlik bilan shug'ullanishlariga talab ortadi. Bolalarning ish joyini tayyorlab olish, kerakli materiallarni to'g'ri joylashtirish, ishni ma'lum ketma-ketlik bilan bajarish kabi malakalarni egallab olishlari aqliy mehnat malakasini shakllantiradi. Shuning uchun bolalarni bo'lajak faoliyat uchun zarur bo'ladigan ana shu ishlarga o'rgatib boriladi.

Bolalarni magshg'ulotlardagi xulqiga ham talab ortadi. To'g'ri o'tirish, o'zini batartib tutish diqqat bilan quloq solish, boshqalarning gapini bo'lmaslik, o'rtoqlarining javobini to'ldirish va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Bu yoshdagi bolalarga axloqiy va mehnat tarbiyasi berish dasturi murakkablashadi o'z tengdoshlari va kattlar bilan munosabati shakllantiriladi, insoniy xislarni tarbiyalash kuchaytiriladi. Xulq normalari qoidalarini egallab olishlariga, kundalik hayotda uchrab turadigan odob, axloq doirasidagi vazifalarni hal qilishga e'tibor beriladi.

Bolalarni maktab va o'quvchilar hayoti bilan tanishtirish. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va MTMning tayyorlov guruhi tarbiyasi tayyorlov guruhi bolalarini maktab bilan tanishtirish bo'yicha ekskursiya uyushtiradilar. Bunday ekskursiyalar yil davomida 3 marta o'tkazilishi mumkin. Ekskursiya paytida katta va tayyorlov guruhi bolalari maktab o'quvchilari bilan tanishadilar, ular MTM bolalariga o'zlarining maktabdagi o'qishlari, ishlari to'g'risida gapirib beradilar; o'quvchilar xonasini qanday bezaganliklari, tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni qanday parvarish qilayotganliklari, ustaxonada qanday ishlarini bajarayotganliklarini ko'rsatadilar.

O'quvchilar o'zlari tayyorlagan o'yinchoqlarni bog'cha bolalariga sovg'a qilishadi;

maktabda o'qiyotgan bolalar o'z bog'chasiga kelishadi;

"Maktab" o'yinini tashkil etish.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi va boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyatida izchillik yaqqol namoyon bo'ladi. Biri bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishni boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi. Maktab bilan MTM o'rtasidagi aloqa mustaxkam bo'lgandagiga bola tarbiyasidan ko'zlangan maqsadga erishi mumkin

Nazorat savollar

1. Maktabgachata'limmuassasasitarbiyachisivaboshlang'ichsinfo'quvchisifaoliyatidaizchillik nimalarda namoyon bo'ladi?
2. MTMbolalarigao'zlariningmaktabdagio'qishlari, ishlaritog'risida nimalar haqida gapirib beradi?

31-Mavzu: Bolani maktabga ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi.

Reja:

1. Bolani maktabga tayyorlashda olib boriladigan amaliy ishlar
2. Bolaning maktabga ma'naviy tayyorgarligi
3. Bolaning maktabga axloqiy tayyorgarligi

Tayanch soʻzlar: Bolani, taʼlim, tarbiya, shaxs, rivojlanishi, ijtimoiy

Maktabdagi majburiy taʼlim bolaga maʼlum talablarni qoʻyadi. Maʼlumki, bola taʼlim-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetishi kerak, faqat shundagina bolani maktabga berish mumkin.

Olimlar qanday qilib maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashadi? Pedagogik va psixologik adabiyotlarda bolaning taʼlim va tarbiya jarayoniga kirib, uning mazmunini muvaffaqiyatli oʻzlashtirib olishi shaxsning umumiy rivojlanganligi deb koʻrsatilgan.

Psixologlar maktabga umumiy tayyorgarlikning quyidagi tomonlarini ajratadilar: jismoniy, aqliy, ijtimoiy-axloqiy (yoki ijtimoiy his-tuygʻuli) va sababli (motivli).

Boshlangʻich maktab bolani oʻqitishga tayyorgarlik darajasigaoʻz talablarini qoʻyadi. Talablardan biri — bogʻcha bolalariga xos boigan kun tartibiga rioya qilish. Bolaning mtmga borish vaqti oilaviy sharoitga qarab belgilanadi. Ammo maktabga borish majburiy — bola darslarga har kuni kelishi shart.

MTM bolasi kun boʻyi tuzilishi va mazmuni qiziq boigan turli xil faoliyatlar bilan shugʻullanadi. Bola asosan, oʻz xohishi boʻyicha oʻynaydi yoki ish bilan shugʻullanadi. Maktabda esa kunning birinchi qismini tartibli (sistemali) oʻqitish egallaydi, bun-dan tashqari kunning ikkinchi qismida ham maMum vaqtni dars-larni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bolaoʻz xohishi va qiziqishi bilan tanlagan mashgʻulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga boʻysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maklabga vaqtida kelishi, oʻquv qurollarini olib kelishi, maktab taʼlim sharoitlariga koʻnikishi kerak. Darslarda maʼlum vaqt tinch oʻtirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi tanaffusda esa nisbatan qisqa vaqt ichida oʻz kuchlarini tiklab olishi kerak boladi.

Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan oʻrganish uchun bola eng avval sogʻlom, jismoniy chiniqqan va chidamli boiishi kerak. Sistemali taʼlim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, yaʼni, aniqrogʻi, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uchta fan (oʻqish, yozuv va matema-tika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat toʻgʻrisida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak-atrofdagi hodisalar haqida maʼlum tasavvur bilan maktabga kelishi kerak. Bolaning oʻquv materialni oʻzlashtirishi va taʼlimning bola qobiliyatlariga mos kelishi uning aqliy faoliyatiga bogʻliq boʻladi.

Bolaning yaxshi oʻqishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shugʻullanish odatlari taʼsir qiladi. Bola tahlil qilishni, yaʼni narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim bolmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni oʻrganishi kerak. Bola zehnli, ziyrak, topqir,

mustaqil boiishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo boiadi.

Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishiga bog'liq boladi.

Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o'ronda ham o'zgarishlar sodir boiadi. Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o'tadi.

Oldingi jamoada bola o'zining huquq, burch va imtiyozlarini bilardi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bolani boshidan ko'rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatli o'qish bolib qoladi.

Maktabda uzoq muddat ota-ona g'amxo'rligisiz boigani sababli, bola o'z yoshiga mos his-tuyg'u va iroda mustahkamligiga ega boiishi, o'z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o'quvchi o'qishga ijobiy yondashsa, o'qishni xohlab, intilsa, ta'limdagi boshlang'ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bolish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega.

Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarning shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do'stona munosabato'rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi. Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlan-magani, zaifligi (aqliy, his-tuyg'uli, irodaviy yoki amaliy) maktabda o'zlashtirmaslikning sabablaridan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o'quv fanlarning (o'qish, yozuv, matematika) mazmunini o'zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan, matematikaning o'qitishda o'qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvni o'rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to'g'ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko'nikmalar maktabga maxsus tayyor-garlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarini o'zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi.

Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlash-tirilgan, jadal o'qitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har tarafmuna shakllantirishda ay-nan shu yoshdagi qulay

sharoitlar qo‘llanilmasa, rivojlanish to‘xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og‘ir kechadi.

7 yosh-bola yangi sharoitga tezo‘rganadigan vao‘qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A. Kamenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o‘qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta‘lim-tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarada tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.

Maktabga tayyor bo‘lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, uo‘zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi.

Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi vo-qea-hodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalarni to‘g‘ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o‘z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko‘rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6-7 yoshli bola oiladan tashqarida hamo‘zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko‘nikmalari o‘z tengdoshlari bilan munosabatlar o‘rnatishiga yordam beradi.

Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o‘rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e‘tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.

Bolada estetik idrokni shakllantirish, o‘zining yoshiga mos badiiy asarlarga qiziqish uyg‘otish, yon-atrofni estetik jihatdan bezatishiga intilishini rivojlantirish kerak. Bola musiqa, adabiy so‘z, rasmlarning chiroyini sezishni o‘rganishi, ashula aytish, rasm chizish, yasash, topishmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak.

Nazorat savollar

1. Olimlar qanday qilib maktabga tayyorgarlik darajasini aniq-lashadi?
2. Maktabga tayyor bo‘lgan bola qanday bo‘ladi?

32-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashning shakli, usullari.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashning shakllari
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashning usullari
3. Bolalarga maktabdagi ta‘limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish

Tayanch so‘zlar: Bolani, ta‘lim, tarbiya, shaxs, rivojlanishi, ijtimoiy

Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi.

MTM tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular MTMda ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi.

Ammo ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdano'tishadi va o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning yinqaroqligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rnini topa olmaydilar.

Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj: berilgan vazifalarni tushuna olmaydilar va mustaqil bajara olmaydilar, qo'l larining mayda harakatlari yaxshi rivojlanmagan. Lug'at boyligi, o'z fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotirasi sust, umumlashtirishni bajara olmaydi va hokazo.

Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yengil tug'ma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi.

Maktabga tayyor bo'lmagan bolaning qabul qilishi bola shaxsi-ning rivojlanishiga har tomonlama yomon ta'sir etadi. o'qish-dagi o'zlashtira olmasliklar bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabat tug'diradi. Uning jismoniy va ruhiy sog'lig'i ham xavf ostida. Ularda nevroz belgilari paydo bo'lishi mumkin: uyqu-ning buzilishi, siydik ushlay olmaslik, bosh og'riqlari va bosh-qalar. Tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo bo'la boshlaydi: bola qanday bo'lmasin o'ziga diqqat-e'tiborni qaratmoqchi bo'ladi, yomon harakatlar qila boshlaydi. Agar bolaning tayyor emasligini vaqtida aniqlansa, bunday hollarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Bolaning maktabga tayyorligini turli sohadagi mutaxassislar aniqlay oladilar. Bolalar shifokori bolani tekshirib, somatik rivojlanishini aniqlaydi, agar ma'lum bir jismoniy, ruhiy kamchiligi bo'lsa, uni ruhiy-pedagogik tekshiruvga yuboradi. Ma'lum bir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar maxsus maktabga yuboriladi. 1 sentabrga qadar 7 yoshga to'lmagan, bolalar bog'chasiga bormagan, pedagogik qoloq, nutq kamchiliklari, jismoniy rivojlanish kamchiliklari bo'lgan bolalarni maxsus konsultatsiyalar, boshlang'ich sinfo'qituvchilari tekshirib beradilar.

Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolaning mak-tabga tayyorgarligini har tomonlama aniqlashadi. Ular ta'lim-tarbiyadagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda profilaktik va kor-reksion usullarni tavsiya etadilar, tarbiya sohasiga oid maslahatlar beradilar. Bular bilan birga tuman mahalla qo'mitalari faol ishtirok etadilar. Bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan ota-onalar bilan mahalla qo'mitalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar ishlashadi.

Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolalarning maktabga tayyorligini aniqlashda psixologik testlardan foydalanadi.

Testlarni mazmun jihatdan 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. o'qish jarayonida ishtirok etadigan alohida psixologik to-monlarning shakllanish darajasini aniqlaydigan testlar.

2. Maktabga umumiy tayyorgarlikni tekshiradigan testlar.

Konsultantlar bolani ota-onalar oldida tekshiruvdano'tka-zadilar. So'ngra tekshiruvlar natijalari asosida quyidagi chora-larni maslahat beradilar:

umumta'lim maktabining 1-sinfiga yozish o'qishni 1 yilga qoldirish;

d) bolani bog'cha yoki maktab qoshidagi maxsus sinfga yozdirish;

e) bolani maxsus maktabga yozdirish.

Konsultatsiyalarning xulosasi asosida mahalla qo'mitalarining maktab bo'limlari bola qayerdao'qishini hal qilishadi. Agar bola 7 yoshga to'lib, ammo uning sog'lig'i yaxshi bo'lmasa, unda tekshiruvlar natijasiga ko'rao'qish 1 yilga qoldiriladi. 1 yildan so'ng, bola qaytadan maxsus tekshiruvdan o'tadi va qayerda o'qishi hal qilinadi.

Agar bola tarbiyasida ishtirok etadigan shaxslar unga alohida e'tibor ajratishsa, uning har tomonlama rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratib berishsa, yordam berishsa, o'qishdan qolgan muh-lat ijobiy natija beradi.

o'qishdan qolgan bolalar bilan ishlashda tarbiyachilar uchun hozircha maxsus dasturlar ishlab chiqilmagan. Pedagoglar bun-day bolalar bilan mavjud bo'lgan Maktabgacha ta'lim muassa-sasida ta'lim va tarbiya dasturi bo'yicha ishlashmoqda, faqat ularga ko'proq e'tibor ajratadilar.

Maktabdao'qishnio'zlashtira olmaydigan bolalar uchun max-sus sinflar ochiladi. Bunday sinfdao'qishni vaqtinchao'zlashtira olmaydigan, normal intellektga ega bo'lgan bolalaro'qiydilar.o'qishdagi qoloqlikni individual mashg'ulotlar, alohida parvarish va maxsus kurs tartibi yordamida bartaraf etish mumkin.

Maxsus sinf 12-15o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, maktab direktorining ruxsatibilan ochiladi. Maxsus sinfgao'tkazish sinf rahbari tavsiyasi, maktab shifokori va ruhiy-pedagogik kon-sultatsiya xulosasi asosida amalga

oshiriladi. o'quvchi maxsus sinfda vaqtincha, uning o'qishdagi qoloqligi bartaraf etilguncha qoladi. Sinfda 2 yilgacha o'qish mumkin.

Aqliy va jismoniy, nutq kamchiliklariga ega bo'lgan, qiyin tarbiyalanadigan, kasal va quvvatsiz bolalar maxsus maktablarga yuboriladi. Bularga aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablar va yordamchi maktablar kiradi.

Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rishga jiddiy talablar qo'yilgan, shuning uchun bolani maktabga doimiy ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o'z-o'zidan, avtomatik tarzda paydo bo'ladi. Faqat maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatga mo'ljallangan tarbiya jarayoni bolani maktabga yaxshi tayyorlanishiga olib keladi.

Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni ku-chaytirish kerak deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb ay-tishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, debo'ylashadi.

Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga bi-noan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llarning mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo.

Lekin, oila — bola tug'ilishidan keyin yashaydigan birinchi ijtimoiy muhit. Oilada bolao'zining birinchi ijtimoiy tajriba va malakalarini orttiradi, ota-ona va kattalar namunalari orqali tarbiyalanadi, oilaviy rishtalarni tushunib yetadi va qadrlaydi. Shu-ning uchun bolani maktabga tayyorlashda oila hal qiluvchi, muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarning ko'pchiligi bolani maktabga tayyorlashda bog'cha bilan oilaning hamkorligi zarur deb hisoblashadi. Ba'zi ota-onalar esa bolani maktabga tayyorlashda javobgarlikni bog'chaga yuklashadi, ba'zilar esa butun javob-garlikni o'z bo'yniga olishadi.

Y.A. Kamenskiyo'zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shunio'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilano'qi-gan vao'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.
2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.
3. Bolalarda bo'lajako'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda. Ota-onalarning ko'pchiligi maktabda yaxshio'qish-ning shartlaridan biri shaxsning umumiy rivojlanishi deb hisob-lashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bi-lishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingio'ringa bo-laningo'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiyoyinlaro'y-nashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda mak-tabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.

Nazorat savollar

1. Bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi qanday amalga oshiriladi?
2. Hoziri kunda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda?

33-Mavzu: Bolalarni tarbiyalashda oilaning o'rni.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ishi mazmuni
2. Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarining yillik ish rejasi

Tayanch so'zlar:Bolani, ta'lim,tarbiya,shaxs,rivojlanishi,ijtimoiy

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ishi mazmuniga quyidagilar kiradi:

ota-onalargao'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;

ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, mala-kalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashniig mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);

bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiya-lashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarinio'rganish va ommalashtirish.

Bola bog'chada egallagan eng yaxshi fazilatlamii oila sharoitida davom

ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarni bolalar bog'chasida namoyon qilsa istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir ijobiy ishlarni ko'ribgina qolmay, balki uni qo'llab-quvvatlash va shu asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhiy majlislar, ota-onalar uchiin ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarda ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek, bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va maz-muni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yichajuda ko'p ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nima-larga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tay-yorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi. MTMsi va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni bog'chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish.

Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad — oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usul-lari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarinio'rganib, ommalashtirishdir.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga borishidan awalo'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ularo'rtasida ishonchli aloqao'rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasawurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobiy fazilatlari to'g'risida fikr, mulohazalarini bildiradi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarnio'qib va hikoya qilib berish mum-kinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kat-talarga hurmat nihida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya

ishlari mazmuni va usuli bo'yicha tavsiyalar beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshli, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim muassasasiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday o'ynayotganini ko'radilar, bolalarning uquv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida 2 marta borishi kerak.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

-bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;

-maktabgacha tarbiya muassasalarining yillik ish rejasi to'g'risida;

-ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalar-ning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

Nazorat savollar

- 1.Maktabgacha yoshdagi bolarni oila tarbiyalash usullarini izohlang?
- 2.MTM tomonidan ota-onalarga amaliy-metodik yordamni ta'riflang?
- 3.Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy madaniy jihatdan yetukligiga qo'yiladigan minimal talablari nimalardan iborat?

34-Mavzu:Sharq mutafakkirlarining farzand, oila tarbiyasi to'g'risidagi qarashlari.

Reja:

1. Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayoni
2. Ibn Sin yosh bolalarni yaxshi ahloqli jismoniy sog'lom qilib etishtirish usullari

Tayanch so'zlar:Bolani, ta'lim,tarbiya,shaxs,rivojlanishi,ijtimoiy

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar.

Bu g'oya faransuz hayoliy sotsalistlari Sen Semon, Sharl Fure asarlarida keyinchalik rivoj landirildi. Ular bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'illanishi kerak, degan g'oyani ilgari surganlar. Ammo sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug'illanishi kerak, degan hulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar.

Rizouddin ibn Fahriddinning "Oila" nomli risolasida bola tarbiyasi yomon niyat va qo'pollik bilan emas, balki sabr toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, shavqatu sezgirlik bilan bo'lishi kerak. Zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go'dakni nazoratsiz tutish ulug' hatolikdir. Bal ki uni qattiqlik bilan yumshoqlik o'rtasida adolat bilan tarbiya qilmoq kerakligi xaqida fikrlar berilgan (Rizouddin ibn Faxriddin. Oila. -T.: Mehnat, 1991).

Ma'lumki, bola 2-3 yoshidan boshlab, o'z ehtiyojlari, fikr va talablarini birmuncha aniq ifoda etadigan bo'lib qoladi. U ko'ziga ko'ringan, aqli etgan narsalarni so'ray va ularni sinchkovlik bilan tekshira boshlaydi. Ota-onalar milliy fazilatlarimizga muhabbat bilan qarash, razolatlardan nafrat qilish yo'llarini bolalarga o'rgatadilar. Xalqimiz orasidagi buyuk odamlarning kamolotlari to'g'risida so'zlab beradilar.

Bolalarni kamtarlik va donolikka o'rgatishda buyuk o'zbek mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino kabi olimlarimizning hayot namunalari va bizga meros qilib qoldirgan durdona fikrlarini asos qilib olish foydalidir. U manmanlik, maqtanchoqlik va o'zidagi bilimga ortiqcha baho berish kabi xususiyatlarni kishining ahloqi past ekanligini ko'rsatuvchi belgilar deb ta'kidlaydi. Uning fikricha oilada bola yoshligidan boshlab faqat yaxshi odatlarga o'rgatilishi kerak. Bu esa unda mustahkam karakter shakllanishiga zamin yaratadi. Ibn Sino yosh bolalarni yaxshi ahloqli jismoniy sog'lom qilib etishtirishda ko'pgina foydali usullarni ko'rsatib beradi. U tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo'lish usuli g'oyat katta ahamyatga ega ekanligi qayta qayta uqtirib o'tgan. Ibn Sino oilaviy tarbiya to'g'risidagi fikrlarning chuqur mamunini va amaliy ahamyatini uning quydagi so'zlaridan bilib olish mumkin. Bolaning xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Unga esa bolalarni qattiq g'azablanishdan, qo'rqish, hafalik, uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Boiani hohlagan va foydali narsasini darxol topib berishga hamda sevmagan narsasini ko'zdan uzoqlashtirishga doim tayyor bo'lib turish kerak. Bu ishning ikki xii foydasi bor. Bir tomondan bolani ruhiga foyda qiladi, bola eng yosh chog'idanoq xushhulq odam bo'lib qoladi. Ikkinchi tomondan, bolaning tanasiga foyda qiladi. Chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlariga sabab bo'ladi. Shuningdek agar yomon hulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Ibn Sino o'zining "Tadbirul manozil" asarining katta bir bobini oilaviy tarbiya masalalarga bag'ishlagan. U bu asarida kishilarning oilaviy munosabatlarning

deyarli hamma tomonlarini ko'rib chiqadi. U oila boshlig'i oldiga katta talablar

Mutafakkir olim Abu Rayxon Beruniy o'z asarlarida ota-onalar va tarbiyachilar obro'yining bolaga ta'sir kuchi haqida ham fikr yurgazadi. Bu esa hozirgi talablarga ham javob beradi. U ota-onalarning bolalarga tarbiyaviy ta'sirining bor kuchi obro'ga asoslanadi, deydi. Biroq bu obro' tabitan berilmaydi, sun'iy ravishda yaratilmaydi, qo'rquv, qo'rqitish, zo'rlik bilan erishilmaydi, balki ota-onaga nisbatan mehr oqibatdan kelib chiqadi deb ta'kidlaydi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy xalqimiz rasm-rusumlari va milliy odatlarni juda nozik tushunar edi. Shu sababli inson xulq-atvori, madaniyatining xatto eng oddiy masalalar ham uning diqqatidan chetda qolmadi. A.Navoiy tarbiyada xatolikda yo'q bo'lish qo'yish mumkin emasligini uqtiradi. Haqiqatdan ham bolani tarbiyalashda shunday xatoliklar uchraydiki, ular faqat oilaning hayotida emas balki jamiyat hayotida ham aks ettiradi. Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli tumandir. Ular orasida keng tarqalganlardan biri ota-onalarning xaddan tashqari xukmronlikka intilishlaridir; bolaning erkak bo'lishi ularga nisbatan biror talabning yo'qligi bilan bog'liq; ota-onalarning buvi tomonidan tarbiyada yagona talablarning yo'qligidir; oilaviy tarbiyadagi barqaror xatolar oilaning tuzilishi va oilaviy munosabatlar bilan, kattalarning o'z fuqorolik burchlarga munosabati ularning g'oyaviy yo'nalishi, mehnatga munosabati bilan bog'liq munosabatlar bilan, kattalarni o'z fuqorolik burchlariga munosabati, ularni g'oyaviy yo'nalishi, mehnatga munosabati bilan bog'liq. Bu belgilarga ko'ra oilaning bir necha turini ajratish mumkin. Tarbiyachilarga oila turlarini bilish va u bilan o'ziga xos holda ishlash va munosabatda bo'lish uchun zarur. Oila turlari Rizouddin Ibn Faxriddinning "Oila" nomli risolasida ko'rsatilgan.

Birinchi turi. Tinch oilalar mehnat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda faol

ishtirok etayotgan ko'pchilik oilalar kiradi. Bu turdagi oilaga ota-onalar va bolalar o'rtasida ma'naviy yaqinlik, aqlli va me'yordagi talablar bolaning ijtimoiy munosabati meyorlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi xosdir.

Ikkinchi turi. Yuzaki tinch oilalar. Bu turdagi oilalarga oila azolari tomonidan bolalarga qo'yiladigan talablar bir xilda bo'lmasdan, stixiyali tarzda bo'ladi. Bunda bolaning imkoniyatlari hisobga olinmaydi. Bolaning hayoti noto'g'ri tashkil etiladi. Tarbiyaning bu turida ota-onaga nisbatan hurmatsizlik, ularning talabini bajarmaslik kabi xolatlar rivojlanishi mumkin. Yuzaki tinch oilalar bilan ishlashda tarbiyachi ota-onaga diqqat e'tiburini oiladagi psixologik vaziyatni, ota-onalarning o'rtasidagi munosabat yo'nalishini o'zlashtirishga qaratadi.

Notinch oilalar. Bunday turdagi oilalarda ma'naviy qiziqishlar kam bo'ladi.

Bunday oilalarga ishlab chiqarish, oilaviy vazifalarga befarq munosabatda bo'lish, oilaviy an'analarga e'tibor bermaslik, uy ishlariga loqayd munosabatda bo'lish xos bo'ladi. Bola qo'rs, qo'pol, urishqoq bo'lib qoladi. Kattalar va jamoa tartiblariga bo'ysinmaydi. "Tarbiyasi og'ir" bolalarning ko'p qismi ana shunday oilalarda etishadi. Zamonaviy sharoitlarda notinch oila muammosi eng dolzarb muammolardandir. Oila - maktabgacha ta'lim yoshidagi bola uchun birinchi ijtimoiy muhitdir. Agar u notinch bo'lsa, bolaning sog'lig'iga ham, uning xulqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi

Tarbiyachi bolalarning salomatligi, xulqi o'z tengdoshlari bilan munosabatini doimo kuzatib boradi va kichik insonlar qalbiga qanday kechinmalar yuz berayotganini sezadilar.

To'liqmas oilalar. Bu turdagi oilada ota onadan biri bo'lmaydi. Bunday oilalarda ota-onalardan birining yo'qligini bildirimaslik uchun oila azolaridan har birining bolaga ta'sirini kuchaytirish, bola o'zaro munosabatlarda kamchilik sezmasligi uchun bola tarbiyasiga oiladan ketgan a'zoni boshqa qarindoshlarini jalb qilish muhimdir. Shunday qilib maktabgacha ta'lim muassasalarida oila bilan ishlash o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, oilaning turiga bog'liq xolda o'tqaziladi. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, xilma-xil va o'zaro bog'liq bo'lgan shakl va usullar yordamida rejali ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nazorat savollar

1. Tarbiyachi bolalarning salomatligi, xulqi o'z tengdoshlari bilan munosabatini doimo kuzatib boradi va kichik insonlar qalbiga qanday kechinmalar yuz berayotganini izohlang?
2. A.Navoiy tarbiyada xatolikda yo'l qo'yish mumkin emasligini uqtiradi?

35-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarining oila bilan ishlash shakillari

Reja:

1. Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish
2. Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi
3. Maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar bilan hamkorlik ishlari

Tayanch so'zlar: Bolani, ta'lim, tarbiya, shaxs, rivojlanishi, ijtimoiy

Ota-onalar majlisiga bog'chadagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo'mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtiriladi. Majlisda mudira yoki metodist-tarbiyachi ma'ruza qiladi, ota-onalar so'zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta'lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o'z bolasining tarbiyasi uchun javo-garligini oshiradi, ularda bog'chaga qiziqish uyg'onadi.

Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur yoshdagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo'lgan masalalar muhokama qilinadi. Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tartiyya be-rishda oilaning roli» bo'lsa, o'rta guruhda o'tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda mehnatsevarlikni tar-biyalashda bog'cha va oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda kat-talarga hurmatni tarbiyalash» va hokazo bo'lishi mumkin.

Ota-onalar uchun tayyorlangan ma'ruzani tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to'g'risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallar ko'proq bo'lishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qilinuv-chilarning nomlari ko'rsatilmashligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetka-zilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin.

Yilning oxirida o'tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejaları haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisob beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi.

Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jur-nallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bo-laning uyidagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqti-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlisleri, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta'limi to'g'risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lim muassasalari tar-moqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o'sishini ko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi fotosuratlar, kitob vao'yinchoqlar, bolalarning ishlari o'rin oladi. Ota-onalar burchagi -oila bilan olib boriladigan ishning ko'rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to'g'risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko'pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshg'lanishiga sababchi bo'ladi.

Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktab-gacha ta'lim muassasalari ishida muhimo'rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatlari, sayrlar va bolalarning jamoada o'zlarini qanday tutishlari va shungao'xshashlar ko'satiladi.

Ota-onalar qo'mitasi «Maktabgacha ta'lim muassasasining Nizomi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi. U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo'-mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1—2 vakil saylanadi. Qo'mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta'lim muassasasining xo'jalik va ta'lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo'mita a'zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o'tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko'maklashishdir.

Ota-onalar qo'mitasi bolalarning ota-onalari bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo'yicha ular bilan ish olib boradi. Qo'mita a'zolari har ikki oyda bir marta yig'ilish o'tkazadi. Ota-onalar qo'mitasi mudiraning ish rejaları va ishning ahvoli to'g'risidagi ota-onalarni qiziqtiruvchi ba'zi masalalar haqidagi ma'ruza va hisobotini eshitishga haqlidir.

Ota-onalar qo'mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktab-gachata'lim muassasasida saqlanadi.

Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish natijasida millionlab kishi-lar bolalarini maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalash prinsiplarini ongli ravishda anglab oldilar.

Korxonalarda, xo'jaliklarda, jamoa joylarida, mahallalarda oilada bola tarbiyasi to'g'risida ma'ruzalar bilan chiqish, televi-deniya va radioeshittirishlar pedagogik targ'ibot ishining keng vositalaridandir. Shuningdek, bu targ'ibot vaqtli matbuot: «Sog'lom avlod», «Maktabgacha ta'lim», «Xalq ta'limi», «Pedagogik ta'lim» jurnallari, ko'p sonli badiiy pedagogik, ilmiy-ommabop va metodik adabiyotlarni chiqarish orqali ham amalga oshiriladi.

Ota-onalar uchun maxsus pedagogika va ruhshunoslik, anatomiya va fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti to'g'risida ma'ruzalar o'qish, bolalar tarbiyasi to'g'risida kinofilm va spektakllar namoyish qilish ijobiy natija beradi. Bu mashg'ulotlarni har xil sohalar bo'yicha yuqori malakali o'qituvchi, aktyor, ruhshunos mutaxassislar olib boradilar.

Pedagogik targ'ibot ishida quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ'ibot hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ'ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo'llari, ilmiy asoslangan usullari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

2. Oila tajribasining ijobiy tomonlari, oiladagi bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar va ularning oldini olish, bartaraf etish yo'llari to'g'risida targ'ibot ishlari olib boriladi.

- 3. Pedagogik targ'ibotga tayyorlashda ota-onalarning har xil saviyada ekanliklari hisobga olinib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko'rgazmali va ularning his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi kerak.
- Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o'rtasidagi birlik o'rnatilishi mumkin.
- Iлк bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davr). Bola rivojlanishining dastlabki yilida unda kattalarga bog'liqlik (itoat qilish mexanizmi) va ularga qaramlik shakllangan bo'lsa, bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrda esa bolaning xatti-harakatida va fikr yuritishida mustaqillikning dastlabki belgilari rivojlanadi. Bu davr boladagi amaliy bilimlarning keyingi yo'lini belgilaydi. Bu yoshda bolalar har bir sohada o'zlarini sinab ko'rishga intiladilar. Ayni shu paytda unda narsalar dunyosini o'zlashtirish, amaliy xatti-harakatlarni bajarish, o'z tanasini boshqarish mexanizmlari shakllanadi.
- Agar bu davrning imkoniyatlari boy berilsa bolada tegishli qo-biliyatlar rivojlanmay qolishi mumkin. Bu davr bolaning biror-bir ishni bajara olish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay davrligini ota-onalar doimo yodda tutishlari lozim.
- Aziz ota-onalar Bolalar bilan so'zlashganda gap va so'zlarni to'liq talaffuz eting. Agar bola biror so'zni noto'g'ri talaffuz etsa, unga «bu noto'g'ri» demang, uning o'rniga so'zning to'g'ri talaffuzini takrorlang.
- Iлк bolalik yoshida bolalar barcha narsaga qiziquvchan bo'ladilar. Ularni qiziqtirgan savollarga imkon qadar batafsil javob berishga harakat qiling.
- Yodingizda bo'lsinki, agar kichkintoyingizni qiziqtirgan savolga javob berishdan qochsangiz, uning bilishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirib qo'yishingiz mumkin.

Nazorat savollari

1. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila va jamoatchilik bilan olibboradigan ish shakllari.
2. Ota-onalar qo'mitasining faoliyati.
3. Maktabgacha yoshdagi (3-7) bolalarning bir-biridan jismoniy varuhiy jihatdan farqlanishi.
4. Ota-onalar uchun umumiy majlislar qanday uyushtiriladi?

36-Mavzu: Oila bilan yakka va jamoatchilik tarzida ishlash

Reja:

1. Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash.
2. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar
3. Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar
4. Ota-onalar qo'mitasi va jamoachilik bilan ishlash.

Tayanch soʻzlar:Ota-ona,bolani, taʼlim,tarbiya,shaxs,rivojlanishi,ijtimoiy


MTMning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka xolda ishlash shakllarini mohirlik bilan qoʻshib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTMi xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir qanchasini keltiramiz:

ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilgʻor pedagogik tajribalarni koʻrsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini oʻrganib ularni oʻzining tarbiyaviy ishida xisobga oladi. MTMlarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarining turli xil shakllari aniqlangan; oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat oʻtkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning MTM hayoti bilan tanishishlari.

ota-onalar bi/an jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol javob kechalari.

koʻrsatmali ishlar. Ishning bu turi koʻrgazmati, bolalarni ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari boʻyicha materiallar solingan papka.

ota-onaga pedagogik taʼlim berish va boshqalarni koʻrsatish mumkin.



Bola yashab turgan oilani o'rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odat bilan o'tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlarini ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo'lgan hurmati va ishonch i ortadi. Tarbiyachi bolaning uyida ko'rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda ularni tahlil qiladi, ota onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o'zining maslahatlarini beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan testlarda aks ettirish ham mumkin. Oilani borib ko'rgandagi taassurotlarini tarbiyaviy ishlarni hisobga olish ustuniga yozib qo'yishi kerak Oilaga kamida yiliga 2 marta borib ko'riladi tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi.

Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar. Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar bilan ota-onalarni bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'ladi, shuningdek uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Ota-onalarni bola tarbiyasida yo'! qo'ygan biror kamchilik va xatosi ni tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o'tqazish zarurati tug'ilganda vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo'lganda maslahatlar o'tkaziladi

Agar tarbiyachiga aynan bir masala bir nechta ota ona ni qiziqtirayotgani ma'lum bo'lsa, ular uchun umumiy maslahatlar tashkil etadi. Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabiyotlarni va ko'satmali materiallarni tanlaydi. Maslahat o'tkaziladigan aniq vaqt xaqida ota-onalarini ogohlantiradi. Bunday maslahatlar onda sonda va muntazam o'tkazilishi mumkin. Ota-onalarning guruhii majlislari zaruriyatiga qarab yil choragida bir niarta o'tkaziladi. Bunday majlislardan maqsad ota-onalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur guruhdagi bolalarni tarbiyalash masalalari muhokama qilinadi, guruh ish i bilan bog' liq tashki liy masalalar qarab chiqi ladi, ota-onalarning bayramda ishti rok etishlari haqida gapiriladi.

Majlislar mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik ko'rishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarni yoshini xisobga olish zarur. Shu munosabat bilan o'yin yoki mehnat faoliyatlari haqida masalalar ko'proq o'rin egallash mumkin. Ota-onalarning umumiy majlisi maktabgacha ta'lim muassasalari hamma tarbiyalanuvchilarining ota onalari uchun yiliga ikki marta o'tkaziladi. Ularni maktabgacha muassasa mudirasi, vrach, tarbiyachilar ishtirokida tashkil etiladi. Umumiy majlislarda ta'lim-tarbiyaviy ishning yakunlari muxokama

qilinadi. Birinchi umumiy majlis o'quv yili boshida o'tkazilib, unda mudira ota-onalarni maktabgacha ta'lim muassasining yillik ish rejasi bilan tanishtiradi. Rejaning oila bilan bog'liq qismiga aniq to'xtalib o'tish lozim. Ikkinchi umumiy majlis o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Bunda maktabgacha ta'lim muassasining o'tgan yildagi ish yakunlari haqida ma'lumot beriladi. Bolalar muassasida tarbiyalanuvchilarning yashash sharoitlarni yaxshilashda ota-onalarning qo'shgan xissalari ta'kidlab o'tiladi. Umumiy majlislarda bolalar muassasasi jamoasi qanchalik katta va murakkab ishni bajarishni va bu ishda qanday yordam berish kerakligini ishonchli tarzda ko'rsatish kerak. Majlislarda pedagog ma'ruzasining xajmi 20-25 minutga mo'ljallanadi .

Ota-onalar bilan MTMsi xodimlarini birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni MTM dagi sharoitlarga bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiriladigan joyda o'zaro yordam, bir-birini tushunish, topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi. Ota-onalar MTM maydonini ko'kalamzorlashtirish, xonalarni qish mavsumiga tayorlash, sog'lomlashtirish ishlarini o'tkazishda yordam ko'rsatishlari, bolalarga bayram kastyumlari tayyorlashda, bolalarni sayyohatga kuzatib borishda ishtirok etishlari mumkin. Agar ota-onalar orasida fotosuratchilar, tikuvchilar, rassomlar bor bo'lsa, ular MTM ga bevosita yordam ko'rsatishlari kerak.

Ochiq eshiklar kuni ota-onalar bilan ishlashning samarali shaklidir. Ochiq eshiklar kuni jamoaning o'z kalendar yillik rejasi bo'yicha har bir yosh guruhning ma'lum rejimi bo'yicha odatdagi mehnat kunidir. Sunday kunlarni yiliga 1-2 marta o'tkazish tavsiya qilinadi. Ochiq eshiklar kunini o'tkazish zarur.

YA'ni ota-onalarga bolalarni jismoniy chiniqtirish, ovqatlantirish, mashg'ulotning borishi sayr haqida ko'pgina narsalarni ko'rish imkoniyatiga ega ekanliklari haqida ma'lum qilinadi.

Ota-onalarga esa quyidagilar eslatiladi: bolalar bilan oddiy munosabatda bo'lish, ularning faoliyatida imkon boricha ishtirok etish, tarbiyachiga xalaqit bermaslik, farzandiga tanbeh bermaslik (mashg'ulotlar o'tkazilayotganda).

Ochiq eshiklar kunini o'tkazishga tayyorlana yotganda fotosuratchini taklif etish, keyinchalik esa «Ota-onalar bizning mehmonimiz», «Bizda ochiq eshiklar kuni» mavzusida foto ko'rgazma tashkil etish mumkin. Bu ochiq eshiklar kunida qatnasha olmagan ota-onalarda qiziqish uyg'otadi.

Ota-onalar qo'mitasi va jamoachilik bilan ishlash.

Har bir MTM sida ota-onalar qo'mitasi bo'lib "MTM nizomi" bo'yicha tashkil etiladi. Ota-onalar qo'mitasi ishning vazifalari va mazmuni uning huquqlari, hisoboti va ish yuritishi Ota-onalar qo'mitasi haqidagi "Nizom" da aks etiriladi. Bu qo'mita ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Uning tarkibiga har bir guruhdan 1-2 vakil kiradi. Ular orasidan rais va kotib saylanadi. MTM rahbari va pedagogik jamoa ota-onalar qo'mitasiga faol tarbiya masalalarida uzoq bo'lmagan kishilarni tarafdoridir. Tarbiyachilar u yoki bu oila qanday ota-onalar qo'mitasiga a'zo bo'lganda so'ng MTMga ota yoki ona qanday yordam berishi mumkin, ular jamoa tarbiyasi hayoti bilan qiziqishadimi, MTMda bo'lish kerakligi haqidagi mashg'ulotlarni tartibini kuzatish, sayr qilishda ishtirok

etish haqidagi taklifga labbay deb javob berishadimi? Degan savollarga javob berishlari kerak. Ota-onalar qo‘mitasini unda ishlashni xohlovchi ota-onalardan ham saylash mumkin. Bunday ota-onalar odatda, samarali qiziqib ishlaydilar. Ota-onalar qo‘mitasi ota-onalarning umumiy majlisiga hisob beradi, unga avval qabul qilingan qarorlarning bajarilishi xaqida hisobot beradi. Ota-onalarning umumiy majlisiga xisob beradi. Ota-onalar qo‘mitasining faoliyati MTMning yillik rejasiga mos holda rejali ravishda olib borilishi kerak. Qo‘mita ishini mudiri boshqarib boradi. Uning majlislari kamida ikki oyda bir marta o‘tkazilishi kerak

Umumiy majlislar

MTM va oilada bolaning axloqiy tarbiyasi. Mavzu bo‘yicha ota-onalar chiqishlarini tayyorlash.

Bola tarbiyasida ota-onalar obro‘yi. Ma‘ruza mavzusi bo‘yicha tayyorlangan ota-onalar chiqishlari.

a) Yoz payti da mtm hovlisida tarbiyaviy ishlar (bunda mehnat tarbiyasi masalalariga alohida e’tibor beriladi).

b) Yoz sharoitida sog‘lomlashtirish tadbirlari (shifokor axboroti).

v) Bolalarni ekskursiyaga olib chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy masalalar.

a) Bolalar bilan o‘tkazilgan yozgi sog‘lomlashtirish ishlari ning yakuni.

b) Ota-onalar qo‘mitasi ishining hisoboti.

Nazorat savollar

1. MTM va oilada bolaning axloqiy tarbiyasi nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Bolalar bilan o‘tkazilgan yozgi sog‘lomlashtirish ishlari ning yakuni qanday bo‘lishini bilishimiz mumkin?

37-Mavzu: Bolani maktabga tayyorlashda oilaning o‘rni.

Reja:

1. Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko‘rishdagi talablar
2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.
3. Bolalarda bo‘lajak o‘qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Tayanch so‘zlar: Bolani, ta'lim, tarbiya, shaxs, rivojlanishi, ijtimoiy

Respublikamizda 1998 yil - Oila yili deb e‘lon qilinishi munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturini hayotga joriy etish natijasida oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari takomillashtirildi, "Oila kodeksi" ning yangi tahriri. bir qator qonunchilik va meyoriy hujjatlar qabul qilindi. Oilani moddiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan zarur shart-sharoitlar yaratildi. Kam ta'minlangan, serfarzand oilalarni qo‘llab-quvvatlash ishlari ni davlat o‘z zimmasiga oldi. 1999-yil mamlakatimizda "Ayollar yili" deb e‘lon qilinishi munosabati bilan jamiyatda xotin- qizlarning mavqei yanada oshirish, turmush sharoitlarini yaxshilash uchun barcha davlat va nodavlat tashkilotlarini

birlashtirildi. Shu yildan boshlab (1999) ayollarga ularning istaklariga binoan hamda qonunda belgilangan mehnat staji bo'lgan taqdirda 54-yoshdan pensiyaga chiqarish huquqi berildi.

3-yoshgacha bolasi bo'lgan ayollar budget hisobidan moliyalashtirilgan muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan bo'lsalar, ular uchun ish haqining to'liq miqdori saqlangan holda ish vaqti ni haftasiga 35 soatda oshmaydigan muddati belgilandi. Ayollar yili munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturi mamlakatimizda yashayotgan ayolning xayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Respublikamizda 2000 yil "Sog'lom avlod" yili deb e'lon qilindi. 2000 yilda amalga oshiriladigan ishlar "Oila", "Ayollar yili"dagi chora-tadbirlarining mantiqiy davomi bo'lib, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, sog'lom avlodni shakillantirish yuzasidan ko'plab ijobiy natijalarga erishildi.

yoshlarni turmush qurishdan avval tibbiy ko'rikdan o'tkazish amaliyoti xayotga joriy qilindi.

nogironlikni oldini olish maqsadida respublikamizning barcha hududlarida xomilador ayollar va chaqaloqlarni skrining ko'rigidan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

bolalar organizmida yod tanqisligi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Respublikada yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga etkazish maqsadida turli mazmunlarda ko'rik-tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining XI sessiyasida qabul qilingan "Oila kodeksi" sharqona va umuminsoniy axloq normalari mushtarakligida shakllangan, farovon oilalarning manfaatlarini ta'minlashda muhim xuquqiy poydevor bo'ladi. Konsititutsiyaga binoan, "Onalik va bolalik davlat tomonidan muxofaza qilinadi" (65-modda).

Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola hayotining daslabki davrlaridan boshlaboq, ota-ona oldida turgan asosiy maqsad va vazifalardir. YA'ni ota-ona uchun ham qarz, ham farzdir, oila bolaga ta'sir ko'rsatadi, uni atrofidagi hayotga moslaydi.

Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir.

Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rishga jiddiy talablar qo'yilgan, shuning uchun bolani maktabga doimiy ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o'z-o'zidan, avtomatik tarzda paydo bo'ladi. Faqat maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatga mo'l-jallangan tarbiya jarayoni bolani maktabga yaxshi tayyorlanishiga olib keladi.

Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni kuchaytirish kerak deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb

ay-tishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, debo'ylashadi.

Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? MTM tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binoan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llaming mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo.

Lekin, oila - bola tug'ilishidan keyin yashaydigan birinchi ijtimoiy muhit. Oilada bolao'zining birinchi ijtimoiy tajriba va malakalarini orttiradi, ota-ona va kattalar namunalari orqali tarbiyalanadi, oilaviy rishtalarni tushunib yetadi va qadrlaydi. Shuning uchun bolani maktabga tayyorlashda oila hal qiluvchi, mu-him ahamiyatga ega. Ota-onalarning ko'pchiligi bolani maktabga tayyorlashda bog'cha bilan oilaning hamkorligi zarur deb hisoblashadi. Ba'zi ota-onalar esa bolani maktabga tayyorlashda javobgarlikni bog'chaga yuklashadi, ba'zilari esa butun javob-garlikni o'z bo'yniga olishadi.

Y.A. Kamenskiyo'zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shunio'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan vao'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.
2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.
3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda. Ota-onalarning ko'pchiligi maktabda yaxshi o'qishning shartlaridan biri shaxsning umumiy rivojlanishi deb hisoblashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingio'ringa bo-laningo'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlarni o'y-nashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.

Nazorat savollar

1. Oila va MTM hamkorligini mustahkamlash usullarini ko'rsating?
2. Tarbiyachi-metodist ota-onalar va oila bilan qanday shakldagi ishlarni olib boradi?
3. Hozirgi kunda bola tarbiyasida dolzarb hisoblangan vazifa nima deb o'ylaysiz?

38-Mavzu: MTMda bolalar hayotini tashkil etish.

Reja:

1. Bolalarni yosh guruxlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlashni aytib bering?
2. Mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtda o'ynaladigan didaktik va harakatli o'yinlar
3. Bolalarning o'yin, mehnat, mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilish

Tayanch so'zlar: Mehnat, o'yin, faoliyat, guruh, tarbiya, ta'lim, bola, yosh

Har bir yosh guruxda bolalarni jamoachilik ruhda tarbiyalash va har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish.

Bolalarni yosh guruxlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Bolalarning har xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo'lgan moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigiyenik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob anjomlar bilan ta'minlash.

Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta'minlash.

Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlari ni (uyin, mehnat, ta'lim) tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vakt ajratish.

Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan prinsiplar asosida almashtirib borish MTMning har xil yosh guruxlarida bolalar hayotini tug'ri tashkil etish


Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.

Ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o'z-o'ziga xizmat kilish sayrlar o'tkazish gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish MTMsidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

MTMsining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, o'yinda, mehnatda, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari xal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o'stirish va savod o'rganish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchilikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.



Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o'zining haftalik mashg'ulotlar jadvalini tuzib oladi, bu ta'limning hamma bo'limlari bo'yicha belgilangan ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi. Mashg'ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

Dasturning hamma bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni haftaga teng taqsimlash. Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg'ulotlar qo'yiladi.

Xaftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy

faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.

Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg'ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Ikkinchi mashg'ulotga engilroqlari: tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg' uloti va shunga o'xshashlar rejalashtiriladi.

Kun davomida mashg'ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va hokazo.

Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini engilroq o'zlashtirib olishiga imkon yaratadi. O'yin bolalarning muhim faoliyati hisoblanadi. U bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida, shaxs sifatida shakllanishida va bolalar jamoasining tashkil topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin bolaga quvonch bag'ishlaydi, ijobiy his va kechinmalarini, hayotdan olgan taassurotlarini aks ettiradi. O'yin mazmuni bola shaxsining shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun kattalar bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularda tevarak-atrofdan olayotgan taassurotlari ijobiy tomonini aks ettirish xohishini uyg'otishlari kerak.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, ularning tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi bilimlarini boyitadi (bu orqali o'yin mavzusi, mazmuni, syujeti boyiydi), bolalarning axloqiy hislarini, o'zaro ijobiy munosabati va odatlarini tarbiyalaydi. O'yindan bolalardagi o'zaro o'rtoqlik, do'stlik, bir-biriga yordam ko'rsatish xislatlarini tarbiyalashda va bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida foydalanadi.

Bolalarning o'yin bilan shug'ullanishi va mehnat qilishlari uchun kerakli materiallar bilan ta'minlanadi, shu orqali bolalar o'yinining mehnat bilan uyg'unlashi b ketishiga erishiladi.

Tarbiyachi bolalarning syujetli-rasmi o'yinlarining hamma xilini syujetli-rolli, qurilish dramalashtirilgan tabiiy materiallar bilan o'ynaydigan qilib tashkil etadi. Bolalarga o'yin harakatlari ni o'rgatadi, tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarda xaqqoniylik prinsipiga rioya qilishni uqtiradi. Shu bilan birga u bolalardagi ijodkorlik, tashabbuskorlik, faollik va boshqa xislatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Ijodiy o'yinlar ertalabki qabul paytida, kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi sayrda, ya'ni mashg' ulotdan tashqari hamma vaqtda tashkil etilaveradi

Mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtda o'ynaladigan didaktik va harakatli o'yinlar muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning sensor rivojlanishini, aqliy tarbiyasini, bilish jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshiradi. Xarakatli o'yinlarda bolalarning jismoniy madaniyatini tarbiyalash uchun yaxshi shart-sharoit yaratish kerak.

Harakatli o'yinlar ertalabki va kechki sayr soatlarida tashkil etilib, kuniga 1-2 marta butun guruh, yoki guruhcha bilan o'tkazilishi kerak. O'rta va katta gurhlarda turli xil rolli o'yinlari o'tkazib turiladi. Hamma o'yinlar uchun kun tartibidan vaqt ajratish va kerakli materiallar bilan ta'minlash tarbiyachining zimmasiga yuklatilgan.

Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalar o'zlariga tanish bo'lgan didaktik va harakatli o'yinlarni o'ynaydilar, xohlagan rasmlarini chizadilar, xohlagan narsalarini (plastilindan) yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xohlagan badiiy asarlarini tinglaydilar.

Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtda bolalarning o'z-o'zini tashkil eta bilish qobiliyati o'sishiga, xulk, madaniyati irodaviy sifatlarining tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xii faoliyatlarda bolalardagi o'ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi taqozo etiladi: chunki xohlagan ishi bilan shug'ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob uskunalar bilan ta'minlashda yordam berishda, tarbiyachining maslahati lozim buladi. Kun davomida sistemali ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi. Bu ish Mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatida amalga oshiriladi.

Navbatchilik ikkinchi kichi k guruxda y il ni ng ikkinchi yarmidan boshlanadi va hamma yosh guruhlarida davom etadi. Katta guruh bolalarining qo'l mehnati, tabiatdagi mehnati, xo'jalik-maishiy mehnatlari har kuni ertalabki soatda ertalabki va kechki sayrda sistemali ravishda tashkil etib boriladi. Haftasiga bir marta butun guruh ishtirokida bolalarning jamoa mehnati tashkil etiladi, mashg'ulotlarda qo'l mehnatining yangi turi o'rgatiladi. Mehnat jarayonida bolalarning mehnat qilish malaka va ko'nikmalari takomillashadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, qiziqishlari ortadi, mehnasevarlik, javobgarlik, burch hissi kabi axloqiy sifatleri shakllanib boradi.

Bolalarning mehnat faoliyatini ularning jismoniy va aqliy faolligini o'stiradigan qilib tashkil etilishi kerak. Buning uchun ularni hamma kerakli materiallar va mehnat qurollari bilan ta'minlash lozim. O'z-o'ziga xizmat bolalar mehnatini tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi.

Kichkina guruhdan boshlab bolalar mustaqil kiyinish va echinishga o'rgatiladi. Katta guruh bolalari o'zlarini bar doim batartib (tashqi ko'rinish i, sochi, kiyimlari, oyoq kiyirni) tutishlari kerak. Ular o'yinchoklarni, kitoblarni, ish qurollarini o'yin va mashg'ulotdan keyin joy-joyiga yig'ishtirib qo'yadilar.

Har kuni ertalabki mashg'ulotdan keyin, kunduzi uyqu, kechki nonushtadan keyin sayr uyushtiriladi. Sayrda ijodiy o'yinning hamma turlari, bolalarga tanish va yangi qoidali, o'yinlar tashkil etiladi. Bolalarning o'yin, mehnat, mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi bolalarning xilma-xil mustaqil faoliyatlari uchun shart-sharoit yaratadi: kerakli material, asbob-anjomlar, o'yinchoqlar bilan ta'minlaydi, maydonchada, guruh xonasida o'yin uchun joy tayyorlaydi.

O'yin va mashg'ulotlar o'tkaziladigan joy gigiyenik jihatdan talabga javob berishi (yorug', ozoda, yaxshi shamollatilgan, nam latta bilan pollari artilgan, havo temperaturasi normal bo'lishi) kerak.

Sayrda tabiatni, kattalar faoliyatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatish imkoni yaratiladi sayr boshlanishida bolalarning mustaqil xatti-harakat qilishlari: yugurish, o'tirish, gaplashish va tomosha qilish uchun sharoit mavjud bo'ladi. Keyin harakatli o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, kuzatish, turli-tuman ijodiy o'yinlar tashkil etiladi.

Nazorat savollar

1. **Biror ishni tartibi bilan va o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq va taxminiy mo'ljal – bu...**
2. **MTM da pedagogic jarayonni rejalashtirish necha bosqichda amalga oshiriladi?**
3. **Ilmiylik, istiqbollilik, pedagogic jamoaning o'ziga xosliklari нимада?**

39-Mavzu: Bolalarning faoliyatida ta'lim- tarbiya vazifalarini amalga oshirish va raxbarlik qilish.

Reja:

1. Bolalarning faoliyatida ta'lim- tarbiya vazifalari
2. Bolalarning faoliyatida ta'lim- tarbiyasida raxbarlik qilish

Tayanch so'zlar: Bolani, ta'lim, tarbiya, shaxs, rivojlanishi, ijtimoiy

MTMda bolalar turmushini tashkil etishga katta e'tibor beriladi. Har bir yosh guruhida tashkil etilgan kun tartibi bolalarning uyquga, ovqatlanishga, faol mehnat qilishga bo'lgan talabini tu'la qundirishi, bolalarda ijobiy hissiy kayfiyatni saqlash, bolalar va kattalar o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish uchun kerakli shart-sharoit yaratilishi kerak.

Amalga oshiriladigan tadbirlarda tarbiyachi bolalarda madaniy-gigiyenik malakalarni: ijtimoiy xulqni, xatti-harakatlar madaniyatini tarbiyalab boradi.

Bolaning sog'lom bulib, to'g'ri rivojlanishi uchun tinch va chuqur, kerakli uyqu muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyachi guruh xonasida bolalarni uyquga yotqizgandan keyin xonaning

shamollatilgan bo'lishini, tinchlikni ta'minlaydi. Bolalarning uyg'onganlarini sekin astalik bilan turg'azish kerak

Bola organizminmg o'zgaruvchan tashki ta'sirlarga chidamliligini oshirish maqsadida har xii chiniqtiruvchi tadbirlar havo, quyosh, suv vannasi bilan chiniqtirish amalga oshiriladi.

Bunga chiniqtiruvchi tad birlar vaqtini sekin-asta kupaytirib borish, suv temperaturasini pasaytirib borish. kunduzi uyquni ochiq havoda tashkil etish, bolalar kiyimlarini engillatib borish orqali erishiladi. Bolalarning kunduzi va

kechki soatlarda ochiq havoda bo'lishlarini ta'minlash ularning sog'lom, barkamol bo'lib o'sishlarida katta ahamiyatga ega.

Bolalarning ochiq havodagi faoliyatlarini qiziqarli va maroqli o'tishini ta'minlash uchun bar xii uyinlar,ermak o'yinlari, kuzatish va mehnat faoliyatlariga kerakli shart-sharoit yaratiladi.

Kuning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish

Bolalar hayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kun tartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uch un hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Kichik guruh bolalarining ko'p vaqti guruh xonasida o'tadi. Yaxshi jihozlangan xona , o'yinchoq va qo'llanmalarni to'g'ri tan lash bolalarning to'laqonli hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Guruh xonasidagi o'yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 4-3 ta bo'lib o'ynashlarini e'tiborga olib joylashtirilishi, «Oila»,«Bolalar bog'chasi» va shunga o'xshash o'yinlarni o'ynashlari uchun o'yinchok burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, harakatlanuvchi o'yinchoqlar ham bo'lishi kerak, qolgan o'yinchoqlar, rasmlar shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o'ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak. Harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jixozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo'yiladi

II kichik guruh Moddiy muhit ikkinchi guruh bolalari uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek tashkil etiladi. Bundan tashqari kuzatish va mehnat uchun tabiat burchagiga akvariumda baliq to'rlarda kushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. MTM maydonchasida sport o'yinlari bi lan shug'ullanish uchun maxsus joy bo'ladi, u kerakli anjomlar bilan jihozlab qo'yiladi: velosipedda uchish uchun yo'lka, tirmashib chiqish uchun jismoniy tarbiya narvonchalari, muvozanatni saqlash uchun ma'lum balandlikda yotqizilgan g'ola va shunga o'xshashlar bo'ladi. Olib chiqilgan o'yinchoqlarni o'ynash uchun maxsus stollar, o'rindiqlar, suv bilan o'ynash uchun maxsus idish, qum yashigi bo'lishi kerak.

O'rta guruh Guruh xonasi uxlash xonasi, xojaxona va echinish xonasiga ega

bo'lishi kerak.

Guruh xonasi bir necha bo'limdan iborat bo'lishi kerak. Birinchi o'yin bo'limida qo'g'irchok. bilan o'ynash uchun hamma kerakli narsalar joylashtirilgan shkafl buladi. Ikkinchi uyin bo'limida kuri lish materiallari qo'yiladigan shkafl

Shu xonani ng yana bir qismida bolalarning badi iy faoliyat bilan mustaqil sh ug'ullanishlari uch un kerakli materiallar qo'yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o'yini bilan shug'ul lanishlari uchun o'yin burchagida tinchroq joyni ajratish kera k. Tabiat burchagi ni derazalarga yaqinrokda joylashtirgan ma'kul. Xona amal iy sa n'at asarl ari va ko'kalarnzorlashtiruvchi o'siml iklar bilan bezati

ladi.

Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o'simliklar bilan to'silib, jismoniy mashqlar va sport ermak o'ynalari uchun kerakli asboblardan jihatlanadi.

Katta guruh. O'yin bo'limlari bolalarning yoshiga mos holda, o'rta guruh xonasi kabi jixozlanadi. Guruh xonasida yana mashg'ulot o'tkaziladigan bo'lim ajratiladi va u erga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, doska joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o'ynashlari uchun hamma kerakli materiallar ular bimalol foydalana oladigan qilib joylashtirilishi kerak (stollar, uyinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafi, tokchalar va boshqalar). Tabiat burchagi, qo'l mehnati bilan shug'ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanadigan burchak, musiqaviy faoliyat burchaklari bo'lishi kerak. Bulardan tashqari bolalar bimalol, erkin harakat qilishlari uchun kattagina bo'sh joy bo'lishi zarur. Maydonchada sport o'yinlari, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, iringitish uchun katta joy ajratiladi. Syujetli o'yinlar uchun o'yinchoqlar ham bo'ladi.

Tayyorlov guruhi. Bu erdagi mashg'ulot o'tkaziladigan bo'limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo'yiladi. Guruh xonasidagi jihozlar zarurat tufayli shug'ullanganda o'yinga joy bo'shatish maqsadida boshqa tomonga surib qo'yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o'yinlari va har xil o'yinlar uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u erda bolalar o'zlari gul va sabzavotlarni etishtiradilar.

Bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish, bolalarning MTMda 9-10 soat bo'lishi kun tartibida belgilab qo'yilgan. Bunda ertalabki qabul muxim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning MTMdagi vaqti qiziqarli, sermazmun o'tishini ta'minlaydi.

Buning uchun ertalab bolalarni ochiq chehra bilan kutib oladi, ota-onalari bilan xushmuomala, xayrixox munosabatda bo'ladi. Ertalabki qabul vaqtida ijodiy o'yinning hamma turlari tashkil etiladi, tabiat burchagida kuzatish, bolalarning guruh xonasidagi, ovqat va mashg'ulotlardagi navbatchiliklari, nonushtadan oldin ertalabki gimnastika va yuvinish tashkil etiladi. Nonushta vaqtida tarbiyachi bolalarning ovqatlanish madaniyatini nazorat qilib turadi.

Nonushtadan keyin dasturda ko'rsatilgan vaqt mobaynida mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotgacha va mashg'ulot o'rtasida o'yinlar tashkil etiladi. Qanday o'yin o'tkazilishi mashg'ulotning mazmuni va xususiyatiga bog'liq. Bolalar o'tirib shug'ullanadigan mashg'ulotdan oldin harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya va musiqaviy mashg'ulotdan oldin tinch o'yinlar o'ynashadi. Mashg'ulotdan keyin sayr o'tkaziladi. Tarbiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni, kattalar mehnatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatishni tashkil etadi.

Mana shu vaqt ichida bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, didaktik o'yinlar, ijodiy o'yin turlari bilan shug'ulanishlari uchun katta e'tibor beriladi. Maqsadli sayrlar uyushtiriladi. Sport o'yinlari va mashqlar, jismoniy dam olish va shunga o'xshashlar bolalarning harakat faolligini o'stirishga ham katta ahamiyat

beriladi.

Bolalarning sayrdan qaytishlari, echinib yuvinishlari, tushki ovqat va kunduzgi uyqu ham juda uyushqoklik bilan o'tishi kerak.

Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni uyg'otib, faoliyatga kirishlarini ta'minlaydi va kechki nonushta tashkil etiladi. Keyin musiqaviy yoki jismoniy tarbiya mashg'uloti o'tkazilishi mumkin. Kechki sayrga quyidagilar kiradi: hamma ijodiy, didaktik o'yinlar, tinch harakatli o'yinlar, kuzatish, qo'I mehnati, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyati, ko'ngil ochishlar (haftada bir marta). Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talab har bir bolaning mazmunli va qiziqarli faoliyat bilan shug'ullanishini, ularning har tomonlama rivojlanishi va baxtli bolaligikni ta'minlashdir.

Shunday qilib, kun davomida bolalar hayotini tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.
2. Har bir yosh guruhda faoliyat turlarini almashtirib borish
3. Bolalarning harakat faolligini etarlicha ta'minlash.
4. Mashg'ulot, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat o'rtasida aloqa o'rnatish.

Bolalarning olgan bilim, malaka, ko'nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo'llay olishga o'rgatish.

Boiani faol bo'lishga, har doim biron narsa bilan mashg'ul bo'lishga o'rgatish.

Har bir bolani ijobiy xoxish va qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.

Bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi.

Kun tartibiga qafiy rioya qilish.

Nazorat savollar

1. Tevarak- atrof, borliqdagi hodisalarni aniqlang?
2. MTM tarbiyachisi tomonidan oilalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-pedagogic yordam qanday turlarga bo'linadi?

40-Mavzu:Rejalashtirishning nazariy asoslari.

Reja;

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi reja, moliya, mehnat intizomiga va pedagogik mehnat intizomiga qat'iy rioya qilish
2. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi budget yoki tarmoq moliya prinsipi
3. Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish

Tayanch so'zlar: Bolani, ta'lim, tarbiya, shaxs, rivojlanishi, ijtimoiy

Respublika xalq xo'jaligi rejasi asosida maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalashtirish, rejalash belgilanadi. U budget, banklar,

ta'minotchilarva boshqa kontraktlar, shu-ningdek, tasarrufida turgan xalq ta'limi bo'limlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar oldidagi o'z majburiyatlarini vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir. Rejalashtirish istiqbol va joriy turlardan iborat.

Istiqbol rejalashtirish 10 yoki 5 yillarga mo'ljalanadi. Bu maktabgacha ta'limi moliyaviy-iqtisodiy bo'limlarida va uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarda aks etadi.

Joriy rejalashtirish har yili amalga oshiriladigan moliyaviy xo'jalik ishlaridir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi reja, moliya, mehnat intizomiga va pedagogik mehnat intizomiga qat'iy rioya qilishga majburdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi yerdan, suvdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, mehnat resurslaridan foydalanish, xodimlar soni va maktabgacha ta'lim muassasasi huquqi doirasidan tashqariga chiqadigan boshqa sohalar bo'yicha o'z rejasini xalq deputatlari kengashi bilan muvofiqlashadi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi budjet yoki tarmoq moliya prinsipi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari vazirliklar, idoralar, xalq deputatlari kengashlari ko'rsatmasiga binoan ularga bo'ysungan korxonalar, muassasalar, xalq deputatlari tomonidan rejada belgilab berilgan bolalar kontingenti doirasida to'ldiriladi.

Smetada maktabgacha ta'lim muassasasining barcha xara-jatlari va bu xarajatlar qoplanadigan manbalar, budjet ajratmalari va ota-onalar mablag'lari ko'rsatiladi.

Yozgi sog'iomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun alohida smeta tuziladi. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini aniqlashda muassasa guruhlaridagi bolalar soni, muassasada bolaning bo'lish vaqti necha soat ishlashiga qarab ishni turiga ham alohida e'tibor beriladi. Smeta quyidagi moddalarni o'z ichiga oladi:

1-modda. Ish haqi.

2-modda. Ish haqiga nisbatan ajratmalar.

3-modda. Idora va xo'jalik xarajatlari.

4-modda. Komandirovka va xizmat xarajatlari.

5-modda. o'quv-o'rganuv, kutubxona va o'yinchoqlar sotib olish.

6-modda. Ovqatlantirish xarajatlari.

7-modda. Asbob-uskuna va inventarlar sotib olish.

8-modda. Bino va inshootlarning kapital remonti.

9-modda. Boshqa xarajatlar.

10-modda bo'yicha taomnoma tuzish uchun bolalarni ovqatlantirishga mo'ljallangan mablag' kiritiladi.

Bu mablag'larning miqdori 1 ta bolaga kunlik ovqatlanish uchun belgilangan pul meyori va yil davomida ovqatlantiriladigan bolalar soniga qarab belgilanadi. Bunda bolalar bog'chalarining turi, ishlash soati albatta hisobga olinadi. Ovqatlantirish meyorio'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash, Moliya vazirliklari tomonidan belgilab beriladi. Ovqatlanishga ajratiladigan mablag' miqdorini aniqlash uchun bir bolaga kuniga sarflanadigan ovqat qiymatini turli maktabgacha ta'lim va yasli guruhlari bo'yicha jami bola kuniga ko'paytirish kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasining smetasiga bog'cha xodimlarining ovqatlanishi uchun mablag' ajratish ko'zda tutiladi. Bu xalq ta'limi bo'limlari, moliya bo'limlari tomonidan alohida ro'yxat bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda xodimlar haq to'lash hisobiga bolalar muassasalarida ovqatlanishlari mumkin. Smeta amal qiladigan yil va muassasa qaysi mablag' bilan ta'minlanishi yozib qo'yiladi.

Smetada maktabgacha ta'lim muassasasining barcha xarajatlari va bu xarajatlar qoplanadigan manbalar: budget ajratmalari va ota-onalar mablag'lari ko'rsatiladi.

Yozgi sog'iomlashtirish tadbirlarinio'tkazish sarflari maktabgacha ta'lim muassasalarining xarajat smetasiga kiritilmaydi. Bunday tadbirlaro'tkaziladigan hollarda ularni amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar uchun alohida smeta tuziladi. Shuningdek, bolalar bog'chalarida ota-onalar mablag'i hisobi bo'yicha ham alohida smeta tuziladi.

Smeta O'zbekiston Respublikasida klassifikatsiyalangan xarajat moddalari Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan hujjatlar bo'yicha tuziladi. Smetada muassasa kelasi yilga hisoblab chiqqan jami hamda alohida moddalar bo'yicha xarajatlar summasi joriy yilga tasdiqlangan xarajatlar summasi bilan va smeta qachon tu-zilayotganiga qarab o'tgan davrdagi haqiqiy xarajatlar miqdori bilan kiritilgan o'zgartishlar hisobga olingan holda taqqoslab keltiriladi.

Ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqqoslashda smetani tuzish ja-rayonida yuz bergan chetlanishlarni aniqlash, bu chetlanishlarning sababini topish, shu asosda kelasi yilgi xarajatlar miqdorini to'g'ri belgilash kerak.

Maktabgacha bolalar muassasalari smeta tuzish vaqtida yana muassasaning kelasi yilgi ish ko'rsatkichlari (guruh va bolalar sonining ortishi, bolalarning muassasada bo'lish vaqti va h.k.) bo'yicha o'zi bo'ysungan yuqori tashkilotning ko'rsatmalariga amal qiladi. Smetaga kiritilgan xarajatlar smeta blankasida keltirilgan hisob-kitoblar bilan asoslangan bo'lishi shart.

Smetaga hisob-kitoblar bilan birga maktabgacha tarbiya muassa-sasi egallab turgan bino haqida umumiy ma'lumotlar (uning kuba-turasi, maydoni, isitish sistemasi, vodoprovod, kanalizatsiya mav-judligi) va muassasaning ko'lamiga oid ko'rsatkichlar (guruh bola-lar soni va h.k.) ham keltiriladi. Smetaga

maktabgacha tarbiya muas-sasasining pedagog, tibbiy va boshqa xodimlari tarifikatsiya ro'yxati albatta ilova qilinishi shart. Mazkur ro'yxat ikki nusxada tuziladi.

Smeta loyihasi tegishli ilovalar bilan maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan muddatga yuqori tashkilotlarga ikki nusxada, zarur bo'lgan hollarda esa uch nusxada yuboriladi)

Yuqori tashkilot maktabgacha ta'lim muassasasining smetasini qabul qilib olgach, eng awalo smetaning to'g'ri tuzilganligini, smetada barcha grafalar to'lg'azilgan, alohida moddalar bo'yicha harakat summalari tegishli hisob-kitoblar bilan bog'langanligini aniqlaydi.

Barcha hisob-kitoblar qarab chiqilgandan, har bir modda bo'yicha xarajatlar aniqlangandan va budjet hisobidan qoplanadigan xarajatlar budjetda aniq maqsadlar uchun ajratilgan summaga teng holga keltirilgandan keyin maktabgacha ta'lim muassasasining smeta hujjatiga jami xarajatlar (alohidamodda bo'yicha va hammasi), shuningdek, budjet hamda ota-onalar mablag'i hisobiga qoplana-digan xarajatlar jami kvartallar bo'yicha tasdiqlangah smetaga binoan taqsimlab yozib qo'yiladi. Smeta yuqori tashkilot tomonidan qabul qilingandan keyin maktabgacha ta'lim muassasasi xarajatlari va ota-onalardan tushadigan mablag'ni kvartallar bo'yicha taq-simlab, hisob-kitob qilib qo'yadi.

Xarajatlarni taqsimlashda ba'zi xarajatlarning mavsumiy xa-rakterda bo'lishi (yoqilg'i tayyorlash, sabzavot jamg'arish, ta'mirlash ishlari va h.k.) hisobga olinishi shart. Boridi-yu, bolalar sonining ko'payishi ko'zda tutilgan bo'lsa, bu bilan bog'liq sarflar (ish haqi, bolalarni ovqatlantirish va h.k.) tegishli kvartallar xarajatlari miq-doridao'z ifodasini topishi kerak. Smetaning bir nusxasi muas-sasada, ikkinchi nusxasi yuqori tashkilotda qoladi, uchinchi nus-xasi esa markazlashgan buxgalteriyaga, qishloq Kengashiga, moliya bo'limi va boshqalarga havola qilinadi.

Smetaning tasdiqlanishi smeta hujjatining birinchi betiga maxsus yozuv bilan rasmiylashtiriladi. Mazkur yozuvda harakatlarning jami summasi, xodimlarning ish haqi fondi, smeta tasdiqlangan kun ko'rsatiladi. So'ngra smetani tasdiqlagan yuqori tash-kilot boshlig'i imzo chekadi, uning imzosi idora muhri bilan mus-tahkamlanadi. Smetani tasdiqlagan tashkilot unga o'zgartirish kirita oladi. Buo'zgartirishlar yuqori tashkilotning muassasaga yuborgan maxsus yozishmasiga asosan rasmiylashtiriladi.

Nazorat savollar

1. Necha yoshdan bolalardan tasvirni to'liq aks ettirish talab etiladi?
2. Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorgarligi qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

41-Mavzu: Ta'lim-tarbiyaviy ishni rejalashtirish mazmuni.

Reja:

1. Ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmuni. metod iva usullari hamda uni tashkil etish turlari
2. Bolalarning jamoa shaklidagi mehnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi
3. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish

Tayanch so'zlar: Bolani, ta'lim, tarbiya, shaxs, rivojlanishi, ijtimoiy

Ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmuni. metod iva usullari hamda uni tashkil etish turlari, bolalar xulq-atvorini tarbiyalash mazmuni, ularda madaniy-gigiyenik malakalarni shakllantirish, bolalar mehnati va o'yinlariga rahbarlik usullari, bolaning bo'sh vaqti, ko'ngil ochar daqiqalarni tashkil etish, shuni ngdek, otanalar bilan ishlash turlari rejalashtirilishi lozim.

O'qitishning har bir bo'limiga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda bilimlarni egallashning asosiy bosqichlari hisobga olinadi. Rejada bilimlar mazmunining takrorlanish ularni sekin asta murakkablashtirish nazarda tutiladi. Istalgan bo'limga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda mazkur bo'lim bilan boglangan asosiy ta'lim tarbiyaviy masalalardan tashqari dasturning boshqa bo'limlaridan ayrim masalalarni kiritish kerak. Mashg'ulotlarni bunday yaxlitlash ularni rivojlantiruvchi samarasini oshiradi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlar mashg'ulotlardan tashqarida: kundalik turmush, o'yin, mehnatda ham davom ettiriladi. Rejada bolaning xulq-atvorini: bir-birlariga xayrixoxlik munosabatini, bir-birining o'yiniga qiziqishlari bilan hisoblashishni, yuzaga kelgan nizolarni xaqgo'ylik bilan hal qilish kabilarni tarbiyalash vazifalari nazarda tutiladi.

Rejada o'yinda bolalarni o'zaro munosabatlari va xulq-atvorlarini tarbiyalash vazifasini kiritib, tarbiyachi bolalar o'yinlarining mazmuni ni, ularning o'ynash ko'nikmalarini hisobga oladi. Kun davomida tarbiyachsi xilma xii harakatli va didaktik o'yin larni uyushtiradi, ularga rahbarlik rejalashtiradi.

Bolalarning mehnat faoliyatlarini tashkil etish shakllariga doir rejalashtirish muhimdir. Mehnatni tashkil etish shakli sifatida barcha guruhlarda topshiriqlardan foydalaniladi. O'z mazmuniga ko'ra topshiriqlar turlicha bo'lishi mumkin. Tarbiyachining ish rejasida yangi topshiriq mazmunini qayd etish, so'ngra uni bajarishga jalb etiladigan bolalar ismlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi bolalar navbatchiligiga rahbarlikni rejalashtirar ekan, tarbiyachi mehnat hajmi va mazmumi, bolalarga navbalchilik vazifalarini tanishtirishda foydalanadigan jihoz, metod va usullarni ko'rsatadi.

Rejada bolalarning jamoa shaklidagi mehnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi, o'tkazish vaqti ko'rsatiladi. Zarur jihozlar belgilanadi va joylashtiriladi.

Mustaqillik bayramlari, mustaqil yurtimizdagi muhim sanalar va xodisalar bilan bog'liq bayramlar, maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga Vatanga muhabbat, baynalminal xislarni tarbiyalash, ularni xalqimizning boy milliy va umumbashariy qadriyatlarini asosida tarbiyalash maqsadida bayram ertaliklari o'tkaziladi. Bayramlarni tarbiyaning muhim vositasi sifatida puxta rejalashtirish lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibotni amalga oshiradi. Ularni oila va maktabgacha ta'lim muassasasining bolalarga ta'sir ko'rsatishda hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadlarida ta'lim-tarbiyaviy ish mazmuni bilan tanishtiradi. Bolalarni oilada tarbiyalashning ilg'or usullarini o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi. Bu ish izchil tarzda amalga oshiriladi va maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi tomonidan yillik rejada, tarbiyachi tomonidan ham rejalashtiriladi. Ishni tashkil etish usullari quyidagilarni: ota-onalar majlisi, bolani oilasiga borishni, ochiq eshiklar kunini, mashg'ulotlar o'tkazishni, bolalar ishlari bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etishni nazarda tutadi.

Ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish shakllarini ilova etamiz.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish tarbiyachidan tegishli tayyorgarlikni talab etadigan ancha murakkab ishdir. Tarbiyachi bolaning psixik-fiziologik rivojlanish darajasini, «Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari»ni hamda u asosida yaratilgan ta'lim-tarbiya dasturini yaxshi bilishi kerak. Reja tarbiyachiga dastur talablarini bir yilga bir tekisda taqsimlashga yordam beradi hamda ta'lim-tarbiya berish va tarbiyalashning usullarini oldindan o'ylab olish, maqsadni aniqroq ko'rish imkonini beradi. Reja bo'lsa, tarbiyachi bugun nima ish qilishi va qanday qilishini, qaysi qo'llanmalardan foydalanishni biladi.

Ta'lim-tarbiyaviy ish rejasi tarbiyachi tomonidan tuziladi. Reja oy boshlanishidan besh kun avval metodistga tasdiqlash uchun beriladi, oylik ish reja daftarida avvalo haftalik mashg'ulotlar jadvali, bir oylik rejaning taqsimoti beriladi. Har o'n besh kunga mo'ljallangan badan tarbiya mashqlari, ota-onalar bilan ishlash rejasi va kundalik faoliyatining yuritilishi ochib beriladi.

Nazorat savollar

1. Reja bo'lsa, tarbiyachi bugun nima ish qilishi vaqanday qilishini, qaysi qo'llanmalardan foydalanishi kerak?

2. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish tarbiyachidan nimalarni talab etadi?

42-Mavzu: Ta'lim-tarbiyaviyishnirejalashtirishshakillari

Reja:

1. Bolalarni madaniy-gigiyenik malakalarga o'rgatish bo'yicha yakka tartibdagi ishlar qanday rejalashtiriladi
2. Bolalarning og'zaki nutqini tuzatish va rivojlantirish
3. Mashg'ulotni rejalashtirish bolalar tomonidan ma'lum xajmdagi bilimlarni egallash va kengaytirish

Tayanch so'zlar: Tarbiya, ta'lim, jamoa, faoliyat, o'yin, dastur, malaka, ko'nikma

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dasturni yaxshi bilishning o'zi yetarli emas, shu bilan birga, har bir bolaning shaxsini rivojlantirish yo'llarini yaxshi bilish, bolaning bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olish qobiliyati har xilligini ham e'tiborga olish kerak.

Tarbiyachining ishini muvaffaqiyatli rejalashtirishning yana bir zarurati – uning metodik qo'llanma, pedagoglar kengashi, metodik birlashma, kurslarda va shunga o'xshashlardan olgan tavsiyalardan keng foydalanishidir.

Kalendar rejani guruhda ishlovchi har ikkala tarbiyachi birgalashib bamaslahat tuzishlarilozim. Tarbiyachilar vaqti-vaqti bilan bolalarning ishlarini tahlil qilib borishlari lozim. Kalendar reja bir-ikki xaftaga tuziladi va tarbiyachining majburiy hujjati hisoblanadi.

Dasturga muvofiq hamma ta'lim-tarbiya ishlari bolalar faoliyatining barcha turlari: o'yin, mehnat, maishiy faoliyat va mashg'ulot orqali amalga oshiriladi. Kalendarrejaningmazmunibolalarfaoliyatininghammaturlaridaaksettiriladi. Kalendar rejani tarbiyachi kun tartibiga binoan tuzib chiqadi. Bolalarning o'yini ham, mehnat mashg'uloti ham, maishiy faoliyati ham tarbiyachinin ghar kungi kalendar rejasidan o'rin olishi lozim.

Kalendar rejaning mazmuni va shakli bolalarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi qaydarajada borayotganligiga qarab baholanadi.

Ertalabki soatlarni rejalashtirish. Ertalabki soatlarga quyidagilar rejalashtiriladi:

1. Bolalarning og'zaki nutqini tuzatish va rivojlantirish:

kitoblar, o'yinchoqlar, bolaning dam olish kunini qanday o'tkazgani, uning oila a'zolari ota-onasi, opa-singlisi, aka-ukasi va shunga o'xshashlar to'g'risida jamoa tarzida va yakka tartibda suhbatlar o'tkazish

albomlar, jurnallar, yangi kitoblar, rassomlarning yangi asarlarini ko'rish;

v) she'rlarni takrorlash;

g) to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantiruvchi didaktik o'yinlar;

d) tovushlarni to'g'rilash bo'yicha yakka tartibda shug'ullanish.

Bolalarni kattalik, rang, vaqt, fazoviy masofa bilan tanishtirish bo'yicha didaktik o'yinlarni rejalashtirish (kichik va o'rta guruhlarda).

Bolalar xoxlagan faoliyat rejalashtiriladi. Bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun plastilin, buyoqlar, qalamlar, bo'yashlari uchun rasmlar kitobchalar va o'zlarining chizgan rasmlari beriladi.

Bolalar tomosha qilishlari uchun xalq o'yinchoqlari, kiyimlar, kashtalar, idish tovoqlar, narsa-buyumlar, milliy kiyimdagi qo'g'irchoklar beriladi.

Bolalarni madaniy-gigiyenik malakalarga o'rgatish bo'yicha yakka tartibdagi ishlar rejalashtiriladi, masalan, kichkina guruhda dastro'molchadan foydalanishga o'rgatish bo'yicha didaktik o'yin o'tkaziladi. Ashula va raqsning ayrim qismlarini takrorlash rejalashtiriladi.

Bolalarning o'yin faoliyatlari rejalashtiriladi :

qurilish o'yinlari rol, syujet bilan bog'liq qurilish o'yinlari rejalashtiriladi;

syujetli-rolli o'yinlar, turmushni aks ettiruvchi va boshqa shunga o'xshash o'yinlar rejalashtiriladi;

v) stol usti bosma didaktik o'yinlari. so'zli buyumlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, xorovod o'yinlar, xalq didaktik o'yinlari rejalashtiriladi. Bolalarning sezgisini, idrokini, tovushlarni idrok etishini, rang, vaqt, didni, nutqni o'stiruvchi ishlar rejalashtiriladi. Dramalashtirish va sport o'yinlari ham rejalashtiriladi.

Mehnatning turli xillari rejalashtiriladi:

tabiatdagi mehnat ko'chat o'tkazish, suv sepish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish va shu kabilar;

xo'jalik maishiy mehnat idishlarni yuvish, xonani yig'ishtirish, kitoblarni yopishtirish-yelimlash, o'simliklar bargini artish);

v) qo'l mehnati (tabiiy materiallar, daraxtlar mevasi, samonchalar, lattalar yog'och va kartondan har xil buyumlar yasash) har bir yosh guruhida mehnatning qaysi turi o'tkazilishi dasturda ko'rsatilgan. Ertalab 2-3 xil faoliyat rejalashtiriladi. Ertalabki soatlarni rejalashtirishda shu kungi o'tkaziladigan mashg'ulotlar e'tiborga olinadi. Mashg'ulotda biror narsa o'qib berish rejalashtirilgan bo'lsa, ertalabki soatda rasm ko'rish, onasi to'g'risida so'zlab berish, o'qish rejalashtirilmaydi, shu kuni ertalabki soatga mehnat, kattalik, shakl bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat rejalashtiriladi. Tarbiyachi har xil mashg'ulotlarni rejalashtiradi; bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlar ularning olgan bilimlarini, orttirgan tajribalarini mustahkamlovchi va tartibga soluvchi mashg'ulotlar, kompleks mashg'ulotlar va hisobot-nazorat (tekshiruvchi) mashg'ulotlari bo'ladi. Tarbiyachi o'zining kalendar rejasiga mashg'ulotning nomi va dastur mazmunini yozib qo'yadi. Dastur mazmuniga mashg'ulotning ta'lim-tarbiyaviy vazifalari va bolalar egallab olishlari, aniqlash va mustahkamlash kerak bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar xajmi ham yoziladi.

Mashg'ulotni rejalashtirish bolalar tomonidan ma'lum xajmdagi bilimlarni egallash va kengaytirish imkoniyatini yaratibgina qolmay, shu bilan birga ularning bilimlarini aniqlash, mustahkamlash, mustaqil faoliyatlarida qo'llash imkonini beradi. Bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarining hajmi

rnashg‘ulotdan mashg‘ulotga kengaytirib, murakkablashtirib boriladi. Masalan, tarbiyachi birinchi mashg‘ulotda bolalarni uy hayvonlari bilan tanishtiradi, bolalar ularni kuzatishadi, nomini aytishga o‘rganadi. Keyingi mashg‘ulotda esa bu bilimlar mustahkamlanib, hayvonlarni kuzatish jarayonida yangi bilimlar hosil bo‘ladi. Bolalar bu hayvonlarning foydali belgilarini, xatti-harakatini kuzatishsa, kelgusi mashg‘ulotda bolalar uy hayvonini odamlar qanday parvarish qilishi va bu parvarishga hayvonlar o‘z «minnatdorchiligini» qanday bildirishi to‘g‘risida gap boradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dasturni yaxshi bilishningo‘zi yetarliemas, shu bilan birga, har bir bolaning shaxsini rivojlantirish yo‘llarini yaxshi bilish, bolaning bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallab olish qobiliyati har xilligini ham e‘tiborga olish kerak.

Tarbiyachining ishini muvaffaqiyatli rejalashtirishning yana bir zarurati – uning metodik qo‘llanma, pedagoglar kengashi, metodik birlashma, kurslarda va shunga o‘xshashlardan olgan tavsiyalardan keng foydalanishidir.

Kalendar rejani guruhda ishlovchi har ikkala tarbiyachi birgalashib bamaslahat tuzishlari lozim. Tarbiyachilar vaqti-vaqti bilan bolalarning ishlarini tahlil qilib borishlari lozim. Kalendar reja bir-ikki xaftaga tuziladi va tarbiyachining majburiy hujjati hisoblanadi.

Dasturga muvofiq hamma ta‘lim-tarbiya ishlari bolalar faoliyatining barcha turlari: o‘yin, mehnat, maishiy faoliyat va mashg‘ulot orqali amalga oshiriladi. Kalendar rejaning mazmuni bolalar faoliyatining hamma turlarida aks ettiriladi. Kalendar rejani tarbiyachi kun tartibiga binoan tuzib chiqadi. Bolalarning o‘yini ham, mehnat mashg‘uloti ham, maishiy faoliyati ham tarbiyachining har kungi kalendar rejasidan o‘rin olishi lozim.

Kalendar rejaning mazmuni va shakli bolalarning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi qay darajada borayotganligiga qarab baholanadi.

Ertalabki soatlarni rejalashtirish. Ertalabki soatlarga quyidagilar rejalashtiriladi:

1. Bolalarning og‘zaki nutqini tuzatish va rivojlantirish:

kitoblar, o‘yinchoqlar, bolaning dam olish kunini qanday o‘tkazgani, uning oila a‘zolari ota-onasi, opa-singlisi, aka-ukasi va shunga o‘xshashlar to‘g‘risida jamoa tarzida va yakka tartibda suhbatlar o‘tkazish

albomlar, jurnallar, yangi kitoblar, rassomlarning yangi asarlarini ko‘rish;

v) she‘rlarni takrorlash;

g) to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantiruvchi didaktik o‘yinlar;

d) tovushlarni to‘g‘rilash bo‘yicha yakka tartibda shug‘ullanish.

Bolalarni kattalik, rang, vaqt, fazoviy masofa bilan tanishtirish bo‘yicha didaktik o‘yinlarni rejalashtirish (kichik va o‘rta guruhlarda).

Bolalar xoxlagan faoliyat rejalashtiriladi. Bolalarning mustaqil shug‘ullanishlari uchun plastilin, buyoqlar, qalamlar, bo‘yashlari uchun rasmlar, kitobchalar va o‘zlarining chizgan rasmlari beriladi.

Bolalar tomosha qilishlari uchun xalq o‘yinchoqlari, kiyimlar, kashtalar,

idish- tovoqlar, narsa-buyumlar, milliy kiyimdagi qo'g'irchoklar beriladi.

Bolalarni madaniy-gigiyenik malakalarga o'rgatish bo'yicha yakka tartibdagi ishlar rejalashtiriladi, masalan, kichkina guruhda dastro'molchadan foydalanishga o'rgatish bo'yicha didaktik o'yin o'tkaziladi.,

Bu yoshdagi bolalarning yosh xususiyati asosan ko'rgazmali metoddan kuzatish namoyish qilish metodi xikoya, suxbat tushuntirish; amaliy metod mashq o'yindan foydalanishni takrorlaydi.

Har bir metod umumiy vazifani amalga oshirishga qaratilgan yagona yo'l bo'lib, usullar yig'indisidan tashkil topadi. Hamma usullarni shartli ravishda uchta guruhga bo'lish mumkin: ko'rgazmali (ko'rsatish), og'zaki (savol. solishti rish, she'r aytish, topishmokdan foydalanish), amaliy (topshiriq, o'yin, vaziyat usullari va boshqalar).

Bevosita faollashtiruvchi metodlardan tashqari bilvosita metodlardan ham foydalaniladi (yeslatish, maslahat, tanbeh berish, tuzatish). Ko'p xollarda metod va usullardan kompleks tarzda foydalaniladi. Mashg'ulot vaqtida beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni bolalar yaxshi o'zlashtirib olishlari ularning hissiy holatini ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Nazorat savollar:

1. Bolalarda bevosita faollashtirilgan metod va usullarga nimalar kiradi?
2. Bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish uchun nima ishlar amalga oshirilmoqda?

43-Mavzu:Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish

Reja:

1. Kunning ikkinchi yarmidada o'tkaziladigan mashg'ulotlarni rejalashtirish
2. Sayr va ekskursiyaning ahamiyati

Tayanch so'zlar:Tarbiyachi,ta'lim,tarbiya,faoliyat,reja,dastur mazmun

Tarbiyachi o'zining kalendar rejasida mashg'ulotda foydalaniladigan usulnigina yozib qolmasdan, shu bilan birga uning mazmunini ham ochib yozishi kerak.

Bolalarga beriladigan savollarni ham qanday izchillikda berilsa, shunday yozib qo'yish zarur. Agar tarbiyachi mashg'ulotda topishmoq yoki she'rdan parcha keltirmoqchi bo'lsa, uning mazmunini yozib qo'ygan ma'qul. Solishtirishga o'rgatishda qaysi buyumlardan, ularning qaysi belgisidan, qanday savollardan foydalanish lozimligi ham yoziladi.

Tarbiyachining mashg'ulotni rejalashtirishdagi ba'zi bir metod va usullarini ko'rib chiqamiz.

Tarbiyachi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rayotganda, albatta, yosh bolaning tafakkuri ko'rgazmali-obrazli bo'lishini e'tiborga oladi va asosan

mashg'ulotda ko'rgazmali metodlarni rejalashtiradi. Kuzatish metodi tarbiyachi rahbarligida kuzatilayotgan obyektning bolaning hissiy idrok qilishini ta'minlaydi. Narsa va buyumlarni namoyish etish ham shunday ahamiyat kasb etadi. Ko'p mashg'ulotlarda, ayniqsa-nutqni o'stirish mashg'ulotida tarbiyachining hikoyasidan foydalaniladi. Bu bolalarga tanish bo'lgan badiiy asardan, tevarakatdagi hayotdan olingan voqea hodisalarni tarbiyachi xis-hayajon bilan jonli, obrazli qilib bayon etishidir.

Suhbat metodi ham rejalashtiriladi. Suhbat bolalarga avval egallagan bilimlari bilan yangisini bog'lash imkonini yaratadi, shuningdek, yangi bilimlarni o'zlashtirib olishlarini yengillashtiradi. Tarbiyachi mashg'ulotlarda foydalanadigan so'zli metodda uning qiyinligini savollar tashkil etadi. Savollarni bolalarning bilish jarayonlari: sezgi, idrok, tafakkurini faollashtiradigan qilib tuzish kerak. Savollar bolalardan aqliy zo'r berishga, sabab-natijalarni aniqlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar yaratish ham bolaning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, bilimlarni egallab olishini engillashtiradi, ularning fahm-farosatli, mustaqil fikrlaydigan bo'lishiga yordam beradi.

Mashg'ulotlarda solishtirish usulidan foydalanish insonning eng qimmatbaxo aqliy xazinasini bo'lib, u buyumlarni yaxshiroq o'rganish va tushunishga yordam beradi.

Maqsadli sayrlar maydoncha bo'ylab va maydonchadan tashkariga o'tkaziladi. Avval ekskursiyaga bori b kel ingan joyga maqsadli sayr uyushtiriladi. (Masalan, bahorda mana shu o'tloqqa kelgan edik, shu vaqtgacha ko'p narsalar o'zgari bdi)

Qurilish o'yinlari va ularga kerakli materiallar, qurollar sayrda bolalarning syujetli-rolli o'yinlari yuzaga kelish va rivojlanishi, o'yin harakatlariga bolalarni o'rgatish usullari ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi kalendar rejasi o'yin uchun olib chiqiladigan o'yinchoklarni, ularning ayrimlarini ham ko'rsatadi. Sayrga chiqishdan oldin tarbiyachi bugun say r vaqtida nima bilan shug'ullanishlari, kanday mehnat faoliyatini bajarishlari yoki qanday o'yin materiallarini olib chiqishlari kerakligi to'g'risida bolalar bilan gaplashib oladi.

Kunning ikkinchi yarmi ikki qismdan iborat: guruhdagi va sayrdagi ishlar kunning ikkinchi yarmida bolalarning guruhdagi o'yin faoliyati rejalashtiriladi.

Uyqudan keyingi o'yin uchun kichik guruxda - 45daqqa, o'rta guruhda 1 soat, katta guruhda tayyorlov guruhida -1,5 soat ajratiladi.

Syujetli-rolli o'yinlar ham rejalashtiriladi (faqat nomigina yoziladi). Rejada shu ningdek stol usti bosma o'yinlari, didaktik o'yinlar ham mo'ljallanadi. Rejaga stol usti bosma uyinlari qoidasi, tushuntirilishi ham yoziladi. Bu vaqtda dramalashtirilgan o'yinlar ham rejalashtiriladi.

Tarbiyachi qurilish o'yinlarida o'zining qatnashishini ham rejaga yozib qo'yadi.

Unda tarbiyachining bolalar bilan atributlar yasashi ham mo'ljallanadi.

Kechqurunga ko'ngil ochish o'yinlarini rejalashtirish mumkin. U haftasiga bir marta o'tkaziladi. Katta va tayyorlov guruhida kitoblarni bir necha kun

davomida o'qib berish ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi har gal o'qishdan oldin "O'tgan gal men sizlarga nima o'qib bergan edim" deydi. Bolalar buni esga tushirib, so'zlab berishadi. Tarbiyachi savollar bilan yordam berib turadi.

Kunning ikkinchi yarmida asosan bolalarning xilma-xil o'yin faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari uchun sharoit yaratish, o'yinchoqlar bilan o'ynashga o'rgatish va boshqalar kalendar rejasiga yoziladi. O'yinda tarbiyachining qatnashishi ham rejada qayd etiladi. Bu bolalar o'yinini tashkil etish va unga tarbiyachining rahbarlik qilishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Katta va tayyorlov guruhlarida tarbiyachining bolalar o'yiniga rahbarligi o'zgarib, bevosita rahbarlikdan bivosita rahbarlikka o'tadi, tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatlarini rag'batlantiradi. Tarbiyachi qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarni, sahnalashtirilgan va qoidali o'yinlarni ham rejalashtiradi.

Kunduzgi uyqudan keyin guruh xonasini yig'ishtirish, yirtilgan kitoblarni ta'mirlash, qo'g'irchoq kiyimini yuvish, kichik bolalar uchun o'yinchoqlar yasab berish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi mehnat faoliyati rejalashtiriladi. Tarbiyachi shuningdek ko'ngil ochar o'yinlarni ham unutmaydi. Bunga qo'g'irchoq, soya teatri, konsertlar, sport, musiqa va badiiy ko'ngil ochish soatlari, musiqa eshitish va shunga o'xshashlar kiradi. Tarbiyachi badiiy asarlarni o'qib berish, klassik va zamonaviy rassomlarning rasmlarini tomosha qilishni ham esdan chiqarmaydi. Kunning ikkinchi yarmida har kuni sayr o'tkaziladi, uning mazmuniga harakatli va ijodiy o'yinlar, mehnat faoliyati kiradi.

Buyumlarni, ijtimoiy hayot voqealari ni kuzatish. jon li obyekt bilan muloqotda bulish ham kalendar rejasidan o'rin egal lashi kerak.

Tarbiyachi bolalarning o'zlari qiziqqan faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Reja kun davomida har bir bola mazmun!i, qiziqarli faol iyyat bilan shug'ullanadigan qilib tuzi lishi kerak.

Nazorat savollar;

1. Tarbiyachining calendar rejasidan nimalar o'rin olgan?
2. Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bola bilan qanday faoliyatlarni amalga oshiradi?

44-Mavzu: Pedagogik jarayonni rejalashtirish turlari.

Reja:

1. Rejalashtirish - ta'lim-tarbiyaviy ishning zarur sharoit, foydalanadigan vosita, ishning usul va metodlari
2. Reja asosida ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorgarlik ko'rish
3. MTMning yillik rejasi, istiqbol rejasi va tarbiyachining kalendar rejasi

Tayanch so'zlar: Tarbiya, tarbiyachi, ta'lim, reja, metod, vosita, faoliyat

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiyaviy ishini rejalashtirish pedagoglar, tarbiyachi-metodist, mudira faoliyatining muhim turlaridan biridir.


Rejalashtirish ta'lim-tarbiyaviy ishning zarur sharoit, foydalanadigan vosita, ishning usul va metodlarini ko'rsatib, ta'lim-tarbiyaviy ish dasturini amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir.

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta'lim muassasasi ishini rejalashtirish mumkinligini va zarurligini ta'kidlab, bunda u inson shaxsini shakllanishida ijtimoiy omillar, muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga egaligi haqida asosiy qoidalarga tayanadi. Rivojlanishning asosiy omili bo'lgan tarbiya jarayonida bilim, aqliy va amaliy malakalar hamda harakat usullarini bola tomonidan egallanishi amalga oshiriladi. Tarbiyaning mazmunini uning maqsadi belgilaydi. Rejalashtirishning maqsadi-«Bolajon» dasturining bajarilishini ta'minlashdir.

Pedagogik jarayonni yagona bir butun sifatida tashkil etish vazifasi rejalashtirishda etakchi hisoblanadi.

Rejalashtirish pedagogik jarayonni yaxlit tashkil etishga: bolalar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifasini aniqlashga, bolalarni yoshiga ko'ra pedagogik ta'sir mazmunini va usullarini tanlashga, bolalar hayoti, faoliyat turlari, rahbarlik metodlari va shu kabilarni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yo'llangan bo'lishi kerak

Reja bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlariga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish metod va usullarni yaxshilab o'ylab olish, kerakli material va jihozlarni tayyorlash imkonini yaratadi. Tarbiyachi rejalashtirgan hamma ishlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi lozim. Shu bilan birga reja qotib qolgan narsa bo'lmay, vaziyatdan kelib chiqib, unga o'zgarishlar kiritish mumkin.



MTMning yillik rejasi, istiqbol rejasi va tarbiyachin ing kalendar rejasi. Yillik reja asosan MTM mudirasi, metodist tarbiyachi tomonidan tuzilib, bolalar muassasasida amalga oshiriladigan barcha ishlarni o'z ichiga oladi.

Istiqbol rejasi 1-3 oyga mo'ljallangan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini tartibga solish va uning ma'lum maksadga qaratilgan va samarali bo'lishini ta'minlashdir. Unda « Bolajon dasturi »ning hamma bo'limlari o'z aksini topadi.

Istiqbol rejasida dasturning hamma bo'limlari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ta'lim-tarbiya ishlari tizimi bolalar faoliyatining hamma turlarida aniq mavzular buyicha belgilab chiqiladi.

Kalendar reja 10-12 kunga tuziladi kun davomida amalga oshiriladigan ta'lim tarbiya mazmunini aks ettiriladi. Uni tuzishda dastur talablari, bolalarning rivojlanish va tarbiyalanish darajalari, maktabgacha ta'lim muassasasining ish sharoiti hisobga olinadi.

Kalendar rejaga bolalarning aniq bilim va tasavvurlarni egallash jarayoni va ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar to'g'risida umumlashgan bilimlarni shakllantirish, bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni o'stirish, axloqiy ongini shakllantirish, axloqiy xulq, odat va malakalarni egallashi va boshqalar kiradi.

MTM tarbiya dasturini yaxshi bilish kalendar rejani muvaffaqiyatli tuzishning asosiy garovidir.

Pedagog va ruxshunoc olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalari bolalarning malaka va ko'nikmalarni egallashi ma'lum yosh bosqichida yuzaga kelishini ko'rsatadi.

Tarbiyachi xuddi mana shu davrni qo'ldan boy bermay, bolani har tomonlama rivojlantirishga erishmog'i zarur. Tarbiyachi o'zi ishlayotgan gurux, shuningdek o'zidan oldingi va keyingi guruxlar dasturi talablari va mazmunini yaxshi bilishi kerak. Masalan, dasturning kichkina gurux bolalarini tevarak-atrof bilan tanishtirish bo'limida bolalarni hayvonlar, o'simliklar va shunga o'xshashlar tug'risidagi eng oddiy bilim va tushunchalar bilan tanishtirish vazifasi belgilangan.

Katta va tayyorlov guruxi bolalarini narsa-buyumlar, vokea hodisalar tug'risidagi xaqiqiy tasavvur va tushunchalarini, ularning tabiiy sabablar bilan bog'lik ekanligini shakllantirish dasturning muxim vazifasidir.

Nazorat savollar

1. Bolalarni mustaqil ovqatlanishga, yuvinishga, kiyinishga, yechinishga, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga o'rgatadigan mehnat qanday nomlanadi?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashi qanday shakllarda kechadi?

45-Mavzu: O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalari tizimi, unga rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari

Reja:

- 1.O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalari tizimi
- 2.O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalari tizimiga rahbarlik qilish
- 3.O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalari tizimini tashkil etishning zamonaviy usullari

Tayanch so‘zlar: Bolani, ta’lim, tarbiya, shaxs, rivojlanishi, ijtimoiy

Maktabgacha ta’lim muassasasi uzluksiz ta’lim tizimining birinchi bosqichi, maktabgacha ta’lim Davlat jamoat tizimining asosiy bo‘g‘ini, jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo‘limidir. Maktabgacha ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi rol o‘ynaydi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari oila va jamiyatning bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, milliy hamda mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etiladi. Muassasalar mustaqil ravishda, o‘z tashabbusi bilano‘z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik prinsip-larga mone‘lik qilmasa har qanday qaror qabul qilishga haqlidir.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyaviy-ta’limiy ishlar sifati, bolalar va ota-onalar huquqiga jamiyat hamda Davlat manfaatla-riga rioya qilish uchun mas’uldir. Muassasalarning mehnat jamoasi xalqchillik asosida o‘z-o‘zini boshqarish prinsipiga muvofiq jamiyat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy tiplari quyidagi-lardan iborat:

yaslilar;'

yasli-bog'chalar;

g)bog'chalar;

maktab-bog'chalar.

Yetim bolalar va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar uchun go'daklar, bolalar uyi, maktabgacha ta'lim bolalar uyi, maktab internatlari va aralash tipdagi bolalar uylari huzurida «Maktabgacha ta'lim guruhleri» tashkil qilinadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining iqtisodiy-huquqiy ma-qomi quyidagilarga bo'linadi:

1. Davlat muassasalari xalq deputatlari mahalliy kengashlari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar qaroriga ko'ra tashkil etiladi. Budjetdan, tegishli korxonalar mablag'i hisobidan pul bilan ta'minlanadi.

2. Shirkat muassasalari shirkatchilik to'g'risidagi qonunda ko'zda tutilgan tartibda tashkil qilinadi.

3. Aksionerlik muassasalari amaldagi qonunchilikda belgi-langani tartibda aksionerlik korxonalari, tashkilotlari mablag'lari hisobiga tashkil qilinadi va faoliyat ko'rsatadi.

4. Jamoat muassasalari yotoqxonalar, turarjoylardan foydalanish idoralari madaniy va savdo markazlarida, shuningdek, oila ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda boshqa ko'rinishlarda tashkil etiladi.

5. Oilaviy muassasalar shirkatchilik va xususiy mehnat faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq bir yoki bir necha oila to-monidan tashkil qilinadi va faoliyat ko'rsatadi.

6. Aralash muassasalar Davlat shirkatchilik korxonalari, muassasalar, tashkilotlar uyushmalari asosida va oilalarning shartnomalari asosida tashkil etiladi hamda faoliyat ko'rsatadi.

7. Uy muassasalari asosiy maktabgacha ta'lim muassasalarining filiallari sifatida tashkil etiladi.

Shaharda bo'lgani kabi qishloq joylarda ham ehtiyojga qarab boshqa shu tizimlarda birlashgano'quv-tarbiya muassasalari va umumiy hamda maxsus ahamiyatga molik (yo'nalishdagi) turli tipdagi guruhlar tashkil qilinadi. Maxsus ahamiyatga molik yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim muassasalari bolalar nuqsonlarining oldini barvaqt olish, bolalardagi ikkilamchi va keyin uchraydigan nuqsonlarga barham berish maqsadida tashkil qilinadi. Bu yo'nalishdagi muassasalar umumiy tarbiyaviy masalalarni hal qilish bilan birga bolalarni rivojlantirishdagi tegishli nuqsonlarni bartaraf qilishga va ommaviy yoki maxsus maktabdao'qishga tayyorlashga qaratilgan davlat ishlarini amalga oshiradi.

Aqliy yoki jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun:

nutqi buzilgan (eshitish qobiliyati saqlangan);

eshitish qobiliyati buzilgan;

ko'rish qobiliyati buzilgan;

tayanch harakat a'zolari buzilgan;

ruhiy rivojlanishda orqada qolayotgan;

aqliy rivojlanishda orqada qolayotgan;

sil kasalligiga chalingan;

tez-tez kasallikka chalinadigan;

virusli gepatitga chalingan bolalar uchun kabi, agar ehtiyoj tug'lsa boshqa yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilinishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalari amaldagi qoidaga binoan bo'lalarga meditsina xizmati ko'rsatish huquqiga ega. Bolalarga meditsina xizmati ko'rsatish maxsus biriktirilgan sog'liqni saqlash bo'limlari yoki idorasiga qaram bo'lgan tegishli meditsina muassasasining meditsina xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Meditsina xodimlari bog'cha ma'muriyati bilan bir qatorda bolalarning salomatligi va jismoniy rivojlanishi, davolash, profilaktika tadbirlarini o'tkazish, sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya qilish, tarbiyalanuvchilarning uxlash tartibi va ovqatining sifati, ularning jismoniy va aqliy kamoloti uchun mas'uldir. Meditsina xodimlari faoliyatini nazorat qilish mahalliy sog'liqni saqlash bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi kimga bo'ysunishidan qafiy nazar xalq deputatlari mahalliy kengashi ro'yxatidan o'tkaziladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi ro'yxatdan o'tkazilgach, unga tartib raqami beriladi va u yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini qaytadan tuzish (qo'shish, olish, birlashtirish, ajratish, bo'linish, qayta tashkil etish) xalq ta'limi bo'limlari, korxonalar, muassasalar, tashkilot tavsiyasiga ko'ra xalq deputatlari mahalliy kengashlari qarori asosida amalga oshiriladi. U bog'cha mehnat jamoasi va xalq ta'limi kengashi bilan kelishilgan bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasi turlicha: tipiga, tuzilishiga qarab shtat birliklarini, xodimlar oylik maoshlarini tasdiqlaydi.

Ota-onalar qo'mitasining asosiy vazifalari bolalar bog'chasi Nizomida ko'rsatilib berilgan. Maktabgacha ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan ko'p variantli taxminiy dasturlardan birini tanlash huquqiga ega. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyaviy ta'lim muassasasi bo'lib, ijtimoiy vazifalar bilan bir qatorda konsepsiya, nizom hamda dasturga muvofiq malakali tarbiya va ta'lim berishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi dasturi va metodikasini ishlalab chiqish hamda amaliy faoliyatida qo'llash huquqiga ega. Ularning tasdiqlangan tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni hamda metodikani erkin tanlash huquqiga ega.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil qilish va rivojlantirishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yangi tipdagi, yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim muassasalarini tuzish respublika xalq ta'limini boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tomonidan belgilanadi.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta'lim muassasalarida ish xususiyati, ularga qabul qilish qoidalari, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashni tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston

Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli yo'riqnomalar bilan aniqlanadi.

Nazorat savollar:

1. Ota-onalar qo'mitasining asosiy vazifalari qaysi hujjatda ko'rsatilib berilgan?
2. Aqliy yoki jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun qanday imtiyozlar yaratilgan?
3. Bugungi kundagi maktabgacha ta'limda qanday o'zgarishlar bo'lmoqda?

46 Mavzu- Mudira va uslubchi tomonidan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etish tamoyillari, maktabgacha ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minlash.

Reja:

1. Mudira va uslubchi tomonidan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etish
2. Mudira va uslubchi tomonidan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etish tamoyillari
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim muassasasida mudiraning roli, faoliyati ko'p qirralidir. Mudira maktabgacha ta'lim muassasasining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'la-qonli hal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablar muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. o'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Mudira o'z ishida davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik, mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Jamoadagi o'zaro to'g'ri munosabatlar, har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilishini nazorat qiladi. Rahbarlik mavqeyi mudirani o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-huquqiy saviyasini va mutaxassislik mahoratini doimo ongli ravishda oshirishga, pedagogik bilimlarni, bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashiga, hozirgi bos-qichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan faoliyatida foydalanishga majbur etadi. U dastur, metodik, instruktiv-me'yoriy hujjatlarni puxta bilishi va amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilishi, kam-chiliklarni darhol bartaraf qilish choralarini ko'rishini lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi xalq ta'limini bosh-qarish bo'limlari tomonidan oliy ma'lumotga va 5 yildan kam bo'lmagan ish tajjiga ega

shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tar-biyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi, maktabgacha ta'lim muassasasi kengashining faol ishtirokida amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umu-miy ta'lim mahoratini va madaniy darajasini muntazamo'stirib borishiga g'amxo'rlik qiladi, xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli vao'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turili-shini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlar rezervini shakllantirib, ular bilan doimiy ish olib boradi. Mudira bolalar bog'chasining butun faoliyatiga, bolalar bog'chasini obodonlashtirish, ko'kalam-zorlashtirish ishlariga rahbarlik qiladi. Smeta bo'yicha xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, muassasani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tartibini to'g'ri tashkil etish, bog'chani rejadagi bolalar bilan to'ldirish, ta'lim-tarbiya dasturining bajarilishi uchunjavobgar, yozgi sog'lomlashtirish ishlari, pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularning mala-kasini oshirish ishlari bo'yicha bosh rahbardir.

Mudira bolalar hayotini saqlash, muhofaza qilish uchun bolalar muassasasida to'g'ri kun tartibi, shart-sharoit yaratadi. Sanitariya va gigiyena qoidalarning bajarilishini nazorat qiladi, yong'inga qarshi tadbirlaro'tkazadi. Qishga vitamanga boy oziq-ovqat mahsulotlarini g'amlaydi. Bog'cha xodimlarinio'z vaqtida oylik maosh bilan ta'minlaydi. Ish yuritishni qattiq riazorat qiladi. Faol xodimlarni rag'batlantiradi. Bolalar bog'chasidao'tkaziladigan joriy va kapital ta'mirga bosh rahbardir. Xo'jalik mudiri, ombor mudiri, kir yuvuvchi, bog'bon, duradgor, farrosh, qorovul, elektrik, santexnik, haydovchi bilan yakkama-yakka suhbato'tkazadi. Ularning ishlari ustidan qat'iy nazorat tashkil etadi.

Tashkiliy-pedagogik jarayonlarga quyidagilar kiradi:

- 1) bayram ertaliklarinio'tkazish va rahbarlik;
- 2) ochiq tadbirlarni tashkil etish va rahbarlik qilish, ochiq tadbirlar va pedagogik jarayonlarni jamoa bo'lib kuzatish va tahlil qilish. Masalan, ochiq mashg'ulot, sayrlarni kuzatish;
- 3) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan berilgan topshiriq asosida tajtiyachi va bolalarni ko'rik-tanlovlarga qatnashtirish, yil tarbiya-chisi, san'at bayrami, sport bayramlarinio'tkazish.

Mudiraning talim-tarbiyaviy jarayonlarga rahbarligi quyidagi-larda namoyon bo'ladi:

- a) har bir guruhda ta'lim-tarbiyaviy reja asosidagi ishlarni kuzatish va tahlil qilish, tarbiyachining ish hujjatlarinio'rganish va tahlil qilish: guruhning ta'lim-tarbiyaviy ish rejasi, tashxis daf-tari, bular —o'tkazilgan ishlarning hisobotidir.
- b) guruhning jihozlanishini nazorat qilish, bunda guruhlarga qarab burchaklar

soni takomillashib boradi

Mudira kvartalda bir marta umumiy ota-onalar majlisini tashkil etadi. Majlisni ota-onalar qo'mitasining raisi olib boradi yoki yor-dam beradi. Mudira 1 haftada 3 marta ota-onalarni qabul qiladi. Bunda ota-onalar tomonidan ba'zi bir muammo, kamchiliklar, bolalar tarbiyasiga oid muammolar hal etiladi.

Mudiraning jamoatchilik va mahalla qo'mitasi bilan ish usul-lari quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

1. Ota-onalar va jamoatchilik uchun anjumanlar o'tkazish.
2. Ota-onalar universitetlari tashkil qilish.

Unda oila markazidan vakil, yetuk olimlar, xalq ta'limi bo'limi xodimlari va barcha ota-onalar ishtirok etadilar. Ota-onalar universitetining asosiy maqsadi oila va bolalar tarbiyasi masalalarini o'rganish va kamchiliklarni, muammolarni hal etishdan iborat. Mudira maktab bilan aloqao'r-natib 1 yilga mo'ljallangan reja asosida ish ko'radi. Bunda bog'-chani asosiy vazifalari, maktab tomonidan amalga oshirila-digan tadbiriy choralar, bolani maktab ta'limiga tayyorlash, lotin alifbosini o'rgatish ishlari amalga oshiriladi. Bunda mudira va maktab direktorining vazifalari belgilanadi.

Mudiraning ma'muriy xo'jalik faoliyati bu reja asosida konting bo'yicha bolalarni joylashtirish, «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturining bajarilishi ustidan nazorat qilish, maktabgacha ta'lim tizimida belgilangan xarajatlarni o'z vaqtida joy-joyiga qo'yib ish-latishni tashkil etish, bolalarni ovqatlantirishni to'g'ri tashkil etish, yozgi sog'lomlashtirish mavsumlarini tashkil etish, xizmat qiluvchi xodimlarni to'g'ri joylashtirish va ishlash malakalarini oshirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishdan iborat.

Mudira bog'chani kerakli texnikaviy va xo'jalik materiallari bilan muntazam ravishda ta'minlab turishi, binoni jihozlar bilan (qattiq va yumshoq inventarlar) jihozlashi, binoni o'z vaqtida ta'mirlashi va o'quv-ko'rgazmali qurollar bilan to'ldirib borishi, turli yosh guruhi uchun dasturiy-metodik hujjatlarda tavsiya etilgan (ularni fiziologik, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tarbiyalash maqsadida) bolalar badiiy adabiyoti va pedagogik adabiyotlar bilan ta'minlashi, bolalar maydonchasi va yer uchastkasini to'g'ri, rejali jihozlashi, kadrlarni joylashtirishda ularni bolalar bilan ishlash stajiga qarab, xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, shifokor bilan birgalikda tibbiy ishlarini nazorat qilishi va bolalarni tizimli tibbiy ko'rikdano'tkazishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasining mudirasi amaldagi qo'nunchilik doirasida maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogik xodimlari va ma'muriyatini ularning kasb-kor va mansab faoliyat-lariga asossiz aralashuvga chek qo'yuvchi zarur choralar ko'radi, maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasiga nisbatan ma'muriy-buyruqbozlik urinishlariga, uning mustaqilligini cheklovchi buyruqlarga chek qo'yadi, shu masalalar bo'yicha tegishli organlarga murojaat qiladi.

Mudira ishonch qog'ozisiz maktabgacha ta'lim muassasasi no-midan harakat qiladi, barcha shirkat va jamoat korxonalari, muassasalarva tashkilotlarda uning manfaatini himoya qiladi, kreditlar tarqatadi; shartnomalartuzadi, ishonch qog'ozlarini beradi, bank-larda hisob va boshqa schyotlarini ochadi, u maktabgacha ta'lim muassasasi uchun zarur bo'lgan jihozlar va boshqa moddiy resurslarni xohlagan korxonalardan, tashkilotlardan, shirkatlardan va ayrim shaxslardan naqd pulga yoki pulo'tkazish yo'li bilan ijaraga olish va buyurtma berish huquqiga ega.

Mudira maktabgacha ta'lim muassasasi huquqi doirasida buyruq chiqaradi, ko'rsatma beradi. Bu buyruq va ko'rsatmalar maktabgacha ta'lim muassasasining barcha xodimlari uchun majbu-riydir. Tarbiyachi-metodist, katta meditsina hamshirasi, xo'jalik mudiriningo'z huquqlari doirasida bergan ko'rsatmalari barcha xodimlar uchun majburiydir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining shaxsiy tarkibi quyida-gilardan iborat: ma'muriy guruh (mudira, tarbiyachi-metodist, xo'jalik mudiri, katta meditsina hamshirasi), pedagogika, meditsina xizmati ko'rsatish tarmoqlari xodimlari. Maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyati har bir tarkibiy birlikka tegishli moddiy re-surslarni biriktiradi.

Mehnat jamoasi vakolatini amalga oshirishning asosiy shakli umumiy yig'ilishidir. Maktabgacha ta'lim muassasasintng umumiy yig'ilishi:

-maktabgacha ta'lim muassasalari to'g'risida Nizom asosidao'zining har bir Ustavini (Ustav deyiladi) ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

-maktabgacha ta'lim muassasasi kengashini tuzish zaruriyatini aniqlaydi, kengash tarkibini va uning raisini saylaydi;

-yillik va istiqbol rejalarini muhokama qiladi ya tasdiqlaydi, uning bajarilishi haqida ma'muriyat hisobotini eshitadi, pe-dagogik va xizmat ko'rsatish mehnatining samaradorligini oshirish yo'larini belgilaydi;

-jamoat shartnomasini muhokama qiladi va kasaba uyushmasi qo'mitasiga taqdim etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari kadrlarining lavozimi huquqlari va majburiyatlari, ularning boshqaruv vakolatlari va vazifalario'z-bekiston Respublikasining qonun hujjatlari, tegishli me'yoriy huj-jatlar, ta'lim muassasasi Nizomi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi xalq ta'limi boshqaruv organlari tomonidan oliy maiumotga ega va besh yildan kam bo'l-magan pedagogik stajga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tarbiyalash bo'yicha ishni ma'muriyat, mehnat jamoasi, maktabgacha ta'lim muassasasi kengashining faol ishtirokida amalga oshiradi. Kadrlarni tanlash chog'ida maktabgacha ta'lim muassasasi rahbario'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 3-avgustdagi 205-sonli qaroriga,

maktab-gacha ta'lim muassasasi Ustaviga amal qiladi. Bunda da'vogarlarning shaxsiy sifatlari va tanlagan sohaga moyilliklari inobatga olinadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyati jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'z-o'zini boshqaruv asosida bolalarni tarbiyalashda yuksak natijalarga erishishga qodir boigan turg'un mehnat jamoasini shakllantiradi; kadrlarni pedagogik va xizmat ko'rsatish mehnati samaradorligini oshirish ruhida tarbiyalaydi, o'z jamoasi, tanlagan kasbi uchun faxrlanish hissini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazamo'stirib borishga g'amxo'rlik qiladi; xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli va o'z vaqtidajoydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi. Bu maqsadlar uchun ma'muriyat ruhiy-pedagogiko'qitishning huquqiy va iqtisodiy uyg'unlanishini ta'minlaydi; xodimlar malakasini oshirishga bevosita maktabgacha ta'lim muassasasida shart-sharoit yaratadi, murabbiylik harakatini rivojlantiradi; mamlakatda va chet ellarda pedagogik va boshqa fanlar erishgan yutuqlar haqida axborot beradi.

Ma'muriyat jamoat tashkilotlari bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini attestatsiyadano'tkazish uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlaydi, ulargao'z vaqtida zarur metodik yordam ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlar zaxirasi shakllantirilib, ular bilan ish olib boriladi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida, umumiy yig'ilish qarori bilan, maktabgacha ta'lim muassasasida yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash ishlari amalga oshiriladi.

Kadrlar bilan ishlashda hamkorlik prinsipida ish olib boriladi, bular quyidagilar:

- a) mutlaq hamkorlik minimumi — jamoa a'zolari soniga va ishni to'g'ri olib borishga suyanadi;
- b) bekorga vaqto'tkazmaslik, doimo to'g'ri siyosatni izchillik bilan amalga oshirish;
- d) tezkorlik va fikrlashish, uddaburonlik;
- e) fikrlashuv natijasini xabar qilish, aniq amaliyotga asoslangan holda olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim ishini metodik jihatdan to'g'ri rejalashtirish, maqsadida yillik reja tuziladi. Bolalar muassasasining yillik rejasi davlatimizning xalq ta'limi va maktabgacha ta'lim sohasidagi qarorlariga hamda xalq ta'limining dasturiy-metodik hujjatlariga muvofiq ravishda tuziladi.

Yillik reja maktabgacha ta'lim muassasasining istiqbol faoliyatini aks ettiruvchi asosiy hujjatidir. Unda pedagog va xizmat qiluvchi xodimlarning

Mudira quyidagi shaklda metodik ishlarga rahbarlik qiladi:

- pedagogik kengash;
- seminar, seminar mashg'uloti;
- tibbiy-metodik pedagogik kengash;
- ochiq tadbirlarni tashkil etish;
- yakkama-yakka ishlash;
- jamoat tariqasida maslahat.

•Pedagogik kengash jamoat pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir.

•Maktabgacha muassasa mudiri pedagogik kengash raisi hi-soblanadi.

•Pedagogik kengashga bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash, muassasa ish tajribasiga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish, tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish kabi masalalar kiritiladi.

•Pedagogik kengash Xalq ta'limi vazirligi, Xalq ta'limi bo'limlarining maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, instruksiya, ni-zom va boshqa me'yoriy hujjatlarini; maktabgacha muassasaning yillik ish rejasini; bolalar sog'lig'ini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhi bo'yicha «Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya dasturi»ning sifatli bajarilishi jarayonini; ish tajribasiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish-ning aktual masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayyorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha muassasa faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

•Pedagogik kengash kun tartibini belgilashda barcha qatnash-chilarni qiziqtiruvchi mavzularning kengligini, aktualigini ta'minlash zarur. Faqat shundagina pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermahsul va faol bo'ladi.

•Pedagogik kengash tarkibiga katta tarbiyachi, tarbiyachilar, mu-siqqa rahbari, maktabgacha muassasaga xizmat ko'rsatuvchi shi-fokor, katta hamshira, kasaba uyushmasi qo'mitasining raisi, ota-onalar qo'mitasining raisi kiradi. Kengash yig'ilishiga jamoat tash-kilotlarining vakillari, maktablarni qituvchilari, maktabgacha muassasada tarbiyalanuvchilarning ota-onalari taklif etilishi mumkin.

•Pedagoglar pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan va maktabgacha muassasaning yillik ish rejasiga kiritilgan reja bo'yicha ishlaydilar. Pedagogik kengash ishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglar jamoasi muhokamasiga qo'yilgan masala qan-chalik savodli va jiddiy tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi.

•Pedagogik kengashning yig'ilishi ikki oyda bir marta chaqiriladi, zaruriyat tug'ilganda navbatdan tashqari yig'ilish chaqirilishi mumkin. Muhokamaga ko'pi bilan 2—3 masala qo'yiladi, pedagogik kengash ishdan tashqari vaqtda o'tkaziladi. Pedagogik kengash qarorining loyihasini ma'ruzachi (bolalar bog'chasining mudirasi yoki katta tarbiyachi) oldindan tayyorlaydi.

•Seminarlar pedagoglarning nazariy, metodik bilimlarini, mu-taxassislik,

malakasini oshirishning keng tarqalgan shakli bo'lib, o'qituvchilar malakasini oshirish instituti va metodik kabinetlar tomonidan amalga oshiriladi.

- Seminarlarning asosiy maqsadi — alohida metodika bo'yicha tarbiyachilarning bilimlarini chuqurlashtirish va tarbiya bo'yicha dolzarb masalalarini hal etishdir. Seminar o'quv tema-tika rejasi 1 yilga mo'ljallangan bo'lib, shahar, tumanda seminar oyda 1—2 marta ishdan ajralmagan holda, viloyat va respublikada esa 5—12 kunda ishdan ajralgan holda tashkil etiladi.

- Seminarlar ish sifatini yaxshilash maqsadida ilmiy tekshirish instituti tomonidan o'quv tematikasining rejaları, seminar dasturi ishlab chiqilgan.

- Seminar o'quv tematika mavzusini katta tarbiyachi va mudira tarbiyachilar bilan birgalikda tanlaydi, pedagogik kengash uni tasdiqlaydi, bu yillik rejada aks etadi, so'ngra metodist faol tarbiya-chilar bilan birgalikda seminar ishining aniq rejasini ishlab chiqadi.

- Seminar ishida ayrim bir mavzu yildan-yilga takrorlanmasligi kerak. Bu seminar qatnashchilarining qiziqishlarini pasaytiradi. Har bir seminar quruq nazariyachilikka yo'l qo'ymay, o'rganilayotgan materialni hayot bilan bog'lash kerak.

- Seminar rejasi metod kabinetga ilib qo'yiladi. Seminar mavzulari taxminan shunday bo'lishi mumkin:

- 1. Ilk yosh va kichik yoshdagi bolalar psixofiziologik xususiyatlari (seminarni pediatr vrach yoki psixolog olib boradi).

- 2. Turli faoliyat turlarida bolalarga individual yondashish.

- 3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni vatanparvarlik va baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash.

- 4. Tarbiyachining bolalar bilano'zaro munosabatlari va h.k.

- Seminar mashg'ulotlari tarbiyachining amaliy malakalarini o'stiruvchi ish shakli bo'lib, bunda: bolalar loy, applikasiya, qurish-yasash, badiiy o'qish, ashula aytish, raqsga tushish va boshqa ishlarni amalga oshiradilar. Ular mutaxassis yordamida amaliy ji-hatdan saviyalarini o'stirib boradilar. Seminar mashg'ulotlariga mudira, katta tarbiyachi yoki tajribali tarbiyachi rahbarlik qiladi. Seminar mashg'uloti maxsus daftarga qayd qilib boriladi.

- Tarbiyachilarning bilimlarini boyitish maqsadida yangi metodik va pedagogik adabiyotlar, sohaga oid jurnaldagi maqolalarga o'qilib, muhokama qilinadi. Maktabgacha ta'lim xodimlarning dunyo-qarashlarini kengaytirish maqsadida esa shahar va tumanning diqqatga sazovor yodkorliklariga o'quv ekskursiyalari tashkil etiladi. Bir yilda 3—4 marta o'quv ekskursiyalar tashkil etiladi. Muzeylarga ekskursiya tashkil etilsa yanada yaxshi, chunki bundan olingan taassurotlar pedagoglar bilimini yanada kengaytiradi.

- Vaziyat tug'ilganda metodist tomonidan yakkama-yakka maslahatlar o'tkaziladi. Uzoq joylardagi xodimlarga yozma ravishda beriladi.

- Jamoa maslahati 1 oyda 1 marta o'tkazilib, oylik rejada aks etadi. Tumandagi tarbiyachilarni oldindan ogohlantiriladi, o'tkazish muddatini belgilab tuman shart-sharoitidan kelib chiqilgan holda o'tkaziladi.

- Tarbiyachilarning g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va ishlash malakalarini o'stirish uchun turli mavzular bo'yicha ma'ruzalarga o'tkaziladi. Bular

siyosiy yoki pedagogik mavzularda bo'lishi mumkin.

•Maktabgacha ta'lim xodimlarining o'z ustida ishlashlari g'oya-viy-siyosiy saviyalarini oshirib borishdagi keng tarqalgan usuldur. Metodik ishlarni jamoa ish shakli bilan birgalikda olib borilsa, bilim manbayi boyib boradi. Yillik rejada maktabgacha ta'lim bo'yicha ayrim nazariy ma-salalarni, maktabgacha ta'lim dasturini, dasturiy-metodik materiallarni o'rganish rejalashtiriladi. o'z ustida ishlashda faqatgina o'rganiladigan mavzular emas, balki undagi asosiy savollar, masalalar o'rganiladi adabiyotlar ko'rsatiladi.

•Mudira kasaba uyushmasi raisi bilan birgalikda tarbiyachilar bilan o'z ustilarida ishlashni qanday tashkil etishi yuzasidan suh-batlashishi, yordam ko'rsatishi shart.

•Bu tadbirlarning tizimli, aniq reja asosida olib borilishi goyat muhimdir. Tashkiliy-pedagogik vazifalarni amalga oshirishda jamoa uchun shart-sharoit. kerakli materiallar, bajaruvchi — javobgar shaxslar, ularni hisobga olib borish o'quv yilining boshida bel-gilanadi, buni mudira doimo nazorat qilib boradi.

•*Umumiy ota-onalar majlisida* bolalar muassasasining butun ishi muhokama qilinadi, tegishli chora-tadbirlar ko'riladi. Ota-onalar majlisiga rais qilib ota-onalar qo'mitasining raisi belgilanadi.

•Bolalar muassasalarida tashkil etiladigan ochiq eshiklar kuni g'oyat ahamiyatlidir. Bunda bog'chaning butun faoliyati ota-onalar tomonidan kuzatiladi, yo'I qo'yilayotgan kamchiliklar joyida hal etiladi. Bolalar muassasasining barcha xodimlari bunga tayyorgarlik ko'radilar.

•Bola tarbiyasida qiynalgan ota-onalar uchun yakkama-yakka suhbatlar tashkil qilinadi, bunda guruh tarbiyachisi va bog'cha mu-dirasi masalalarni ilmiy asoslangan holga hal etmog'i lozim. Mas-lahatlar qisqa, aniq shaklda olib boriladi, ayniqsa guruhlarda «ko'-chirma papka»lardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

•Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalarga yaqindan yordam berishda — kutubxona tashkil etish ahamiyatlidir. Bola tar-biyasiga oid kitoblar ota-onalarga katta yordam beradi, kitoblar bog'cha mudirasi, metodist va tarbiyachilar tomonidan tanlanadi. Adabiyotlar ro'yxati hisobot tarzida olib boriladi.

•Pedagogik tashviqot ishlaridan eng qulayi ota-onalar burchagidir. Bu ota-onalarga bola tarbiyasiga hamda muassasa ishiga ijodiy yon-doshishga yordam beradi.

Nazorat savollar:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalarga yaqindan yordam berishda — kutubxona tashkil etish ahamiyatli tomoni nimalardan iborat?
2. Bola tarbiyasida qiynalgan ota-onalar uchun yakkama-yakka suhbatlar tashkil qilinadi. Nima uchun?
3. Mudira kasaba uyushmasi raisi bilan birgalikda tarbiyachilar bilan o'z ustilarida ishlashni qanday tashkil etadi?

47-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etish bo'yicha qonun hujjatlari va amaliyotga joriy etish prinsiplari.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etish bo'yicha qonun hujjatlari
2. Maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etish bo'yicha qonun hujjatlariva amaliyotga joriy etish prinsiplari.

Maktabgacha ta'lim muassasasi maxsus loyiha bo'yicha qurilgan yoki moslashgan SNIP me'yorlariga, yong'in xavfsizligi qoidalariga javob beradigan va ob-havo sharoitini, ekologik vaziyatni, tarkib topgan milliy ao'nalarni hisobga oladigan binoda tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining sig'imi, odatda 320o'rinli boiishi kerak. Umumiy yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim muassasasi uchun 140—160o'rinni, maxsus ahamiyatga molik maktab-gacha ta'lim muassasasi uchun 90—120o'rinni muvofiq deb hisoblash zarur.

Binolar ufq tomoni derazalarida soyabonlar boiishi, ko'ka-lamzor yerlar, suv bilano'ynash uchun fontanchali hovuzchalar, qattiq narsa bilan qoplangan yoiaklari vao'tish joylari, 0,25 metr chuqurlikda suv basseyni, ko'cha shovqinidan uzoqda, maktabga yaqin joyda, yong'indan saqlanish talablariga toiiq javob beradigan qilib, iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda loyihalashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi amaldagi normativlarga mu-vofiq yumshoq va qattiq sport jihozlari, meditsina apparati, ta'-limning texnik vositalari, o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar hamdao'yinchoqlar bilan ta'minlanadi. Muassasani jihozlash ro'yxatiga milliy anjomlar ham kiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi Xalq ta'limi boiimlari tomonidan boshqariladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi yoki uning ayrim guruhlari haftasiga 5, 6 va 7 kun kunduzgi va bolalar sutka mobaynida bo'-ladigan, bir yoki ikki kunlik dam olish kunlari bilan, shuningdek, xodimlarga sirg'aluvchi jadval bo'yicha dam olish kuni beriladigan tartibda ishlashlari mumkin.

Ota-onalarning xohishlariga ko'ra maktabgacha ta'lim muas-sasasida kuni uzaytirilgan kun, shuningdek, shanba, yakshanba va bayram kunlari tartibida, ertalab va kechki vaqtda ishlovchi nav-batchi guruhlar ochilishi mumkin.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyaj tartibi zarur to'g'rilash-tarbiyaviy ishlar olib borishni hi-sobga oigan holda belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tilga ko'ra (o'zbek, qozoq, rus, tatar, koreys va sh. k.) farqlanishi va bu bog'chalarda ta'lim-tarbiya milliy an'analarga asoslanib yoiga qo'yilishi lozim. Tar-biya vazifalariga ko'ra esa ijodiy, yordamchi, umumiy boiadi. Qishloq va shahar bog'chalari: mavsumiy, bolalarni jamlash ishiga ko'ra turli yosh yoki bir yoshli guruhlarga ega, mablag' bilan ta'minlanishiga ko'ra: davlat, idora va xo'jalik, xususiy va boshqa turlarga bo'linadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi, shu jumladan, uning ayrim guruhlari ishining davomiyligi, boshlanishi va tugashi ota-ona-larning ehtiyojini hisobga olgan holda belgilanadi. Ammo u ertalabki 6.30 dan barvaqt boimasligi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar arizasi bo'yicha xalq

deputatlari kengashi qarori bilan, shu jumladan, shartnoma va xo'jalik hisobi asosida ish 6 soatdan kam davom etadigan qisqa muddatli guruhlar; ota-onalar bolalarini 1—2 soatga qoldiradigan guruhlar; sayr guruhlari; jismoniy tarbiya-sogiomlashtirish guruh-lari; musiqiy va badiiy tarbiyalash, aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun xo'jalik hisobi asosida ishlaydigan guruhlar ochilishi mumkin. Bunda mazkur maktabgacha ta'lim mu-assasasiga muntazam qatnaydigan bolalarning manfaatlari kam-sitilmasligi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim tilio'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuniga muvofiq belgilanadi.

Ota-onaloro'z bolalarini maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarini ilgaridan ogohlantirgan holda o'zlari uchun qulay paytda olib kechish va olib ketishlari mumkin. Shu bilan birga, ota-onalar maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar hayotining fiziologik asoslangan kun tartibiga rioya qiliishlari va o'quv-tarbiya jarayonini buzmasliklari lozim. Yangi qabul qilinayotgan bolalarni va kichik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ko'niktirish maqsadida ular mazkur yosh guruhlarga asta-sekin, bir oy mo-baynida ko'chiriladilar.

Tarbiyachilar va ota-onalarning munosabatlari amaldagi qonunchilik va bola maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilinayotganda tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan tuziladi va shartnoma bilan boshqariladi. Shartnoma bo'yicha majburiyat-larning bajarilmasligi yuzasidan xalq ta'limi kengashiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiyaviy ishlar sohasidagi huquq va burchiari. Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiyaviy muassasa bo'lib, ijtimoiy vazifalar bilan bir qatorda bolalarga maktabgacha ta'lim konsepsiyasiga asoslangano'z Nizomi va Dasturiga muvofiq malakali ta'lim va tarbiya berilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha aniq vazifalari tegishli dasturiy-metodik hujjatlar, maktabgacha ta'lim muassasasining Nizomi bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalar o'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ko'p variantli taxminiy dasturlardan birini tanlash huquqiga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalar o'z (mualliflik) dasturi va metodikasini ishlab chiqish va amaliy faoliyatida qo'llash huquqiga ega. Ularni tasdiqlash tartibi o'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni va metodikani erkin tanlash huquqiga ega. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarning pedagogik metodlar va usullarni mustaqil ishlab chiqish va ulardan o'z pedagogik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini berish yo'li bilan ularning pedagogik ijodiyotga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi maktab bilan voborislik aloqalarini o'rnatadi va uni doimiy qo'llab-quvvatlaydi. Muassasalar o'z pedagogik faoliyatida quyidagi prinsiplarga o'g'ishmay amal qiladi. Bu prinsiplar:

—bola shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lish asosiga qu-riladigan butun pedagogik jarayon insoniylik yo'nalishlari bilan sug'orilgan bo'lishi;

—psixologik-pedagogik fikr va aralash fanlarning zamonaviy yutuqlarga asoslangano'z-o'zini rivojlantirishga zo'r berilishi;

—kadrlar tanlashda, bolalar va laim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda, agar ular respublikada xalq ta'limi prinsiplariga zid bo'lmasa, ta'limning har qanday shakli va uslublaridan foydalanishda mustaqillik berilishi;

—ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasasini kadrlar va bolalar bilan to'ldirishda, bolalar hayoti va ovqatlanishining maqbul kun tartibini belgilash hamda tashkil qilishda, sog'lomlashtirish tadbirlarinio'tkazishda, dasturlar va metodi-kani tanlashda, maktabgacha ta'lim muassasasi ishining boshqa asosiy, prinsipial masalalarini mustaqil hal qi-lishda ishtirokini ta'minlanishi.

Maktabgacha ta'lim muassasasio'z pedagogik vazifalarini hal qilish uchun pedagogik (metodik) kengash tuzadi. Kengash Ni-zomga muvofiq faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya ishini rivojlantirish va takomillashtirish maqsa-dida maktabgacha tarbiya muassasasi ko'ngillilik asosida turli birlash-malarvao'quv-tarbiya komplekslari (bolalar bog'chasi — maktab, bolalar bog'chasi — maktab — pedagogika bilim yurti, bolalar bog'chasi — maktab — oliyo'quv yurti va h.k.) tuzishi, shuning-dek, ular tarkibiga kirishi mumkin. Ular faoliyatini ushbu birlash-malar yoki komplekslar haqidagi nizom bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi yuqori tashkilot ruxsati bilan tajriba-sinov ishlarida ishtirok etishi, shuningdek, mustaqil ish olib borishi mumkin. Tajriba-sinov ishlari tegishli Xalq ta'limi bo'limi va Ta'lim Markazi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarning hayoti, jismoniy va ruhiy sog'lomligi uchun, har bir bolaning shaxsiy xususiyatlariga mos keluvchi emotsional va toiaqonli rivojlanishi, bolalarga ta'lim berishning tanlangan tizimi samaradorligi uchun mas'uldir. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayonni psixologik ta'minlash psixologik xizmat tomonidan amalga osliiriladi.

Pedagogik jarayon barcha qatnashchilarining aniq huquq va burchlari maktabgacha ta'lim muassasasining Nizomi, ichki mehnat kun tartibi qoidalari, mansab yo'riqnomalari, ota-onalar qo'milasi haqida Nizom bilan belgilanadi.

•. Bolalar bog'chasining Nizomiga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasasida muayyan hujjatlar olib borilishi kerak.

•Buyruqlar daftari bolalar bog'chasiga tartib raqami berilgandan keyin rasmiylashtiriladi. Uning hamma sahifalari raqamlanadi, oxi-rida uning necha varaqligi ko'rsatiladi.

•Bolalarni hisobga olish daftari (Forma DP-2) bolalar va ota-onalar haqidagi ma'lumotlarni, bolalarning uy manzili, bog'chaga kelgan va unclan (butunlay) ketgan sanalarnio'z ichiga oladi.

•Har bir guruhda bolalarning har kungi davomati (bog chaga kelishi) hisobga olinadi (Forma DP-3).

•Shuningdek, xodimlarning, bolalarning shaxsiy hiijatlari; tibbiy kartalari; xodimlarning ish jadvali, ularning ish vaqtini hisobga olish tabeli; maktabgacha tarbiya muassasasiga yo'l-yo'riq beradigan, uni tekshiradigan va nazorat qiladigan kishilarning mulohaza va takliflarini yozish daftari; sanitariya jurnali; pedagogika, ishlab chiqarish yig'ilishlari va ota-onalar majlislarining bayonnomalari; inventar va oziq-ovqat mahsulotlarini hisobga olish daftari; muas-sasaning yillik, oylik ish rejasi va boshqalar olib boriladi.

Nazorat savollar:

1. Maktabgacha ta'lim muassalari haqida bugungi kunda qanday qaror va farmonlarlar chiqarilmoqda?
2. Maktabgacha ta'lim muassasalari haqidagi qonun va qonunosti hujjatar haqida nimalarni bilasiz?

1-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Maktabgacha ta'lim ёшидаги болаларнинг эстетик ривожланишидаги ўзига хос хусусиятлар.

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Bolalarda guzallikni idrok qilishni tarbiyalash .Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalash, shaxsda san'at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish, san'atning ma'lum turlari buyicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlantirish, Bola rasm chizganda yoki uynaganda obrazni tasvirlash.

TOPSHIRIQLAR:

1. Bolalarda estetik didini shakllantirish uchun ularda ijodiy faolligi qanday ekanligini amalda o'rganish
2. Mashg'ulotlar davomida bolalarda estetik tarbiya ishlari olib boorish jaroyinini tahlil qilish



Vazifa:

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib to'ldiring.

| Bilaman | Bildim (mavzudan olingan yangi ma'lumotlar) | Bilishni istayman (qiziqtirgan savollar) |
|----------------|---|--|
|----------------|---|--|

O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bolalarda estetik tarbiya orqali ijodiy qobiliyati qanday shakllantiriladi?
2. Badiiy asarni idrok qildirish orqali estetik tarbiyani shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

2-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyati

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Badiiy asardan haya-jonlanish fikrlashni faollashtiradi, bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradi, tabiat burchagi, estetik rivojlanishi, go'zallikni idrok etish jarayoni, hissiy va sensor rivojlanishi.

TOPSHIRIQLAR:

1. Bolalarda estetik tarbiya mazmuni nimalardan ekanligi to'g'risida ko'nikma hosil qilish
2. Estetik tarbiya o'zi nima ekanligini bolalar ongiga sindirishda tarbiyachi qanday usullardan foydalanishi haqida o'rganish



Vazifa:

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

| Talabalar ro'yxati | Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan maks. 6 b | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sababi va dalillari aniq ko'rsatilgan maks. 4 b | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan maks. 10 b | Jami maks. 20 b |
|--------------------|---|--|---|-----------------|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni estetik tomondan tarbiya-lashda san'atning qanday turlari va janrlaridan foydalaniladi.
2. Estetik madaniyatni shakllantrishda ertaklarning ahamiyati nimalardan iborat?

3-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Turli yosh guruxlarida estetik rivojlantirish

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, " Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lom to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA. Estetik tarbiya, bolaning estetik faoliyati., estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did, maishiy faoliyat, estetik zavq, Sayr, ekskursiya , bolalarning diqqati, bolalarning kayfiyati, estetik idrok.

TOPSHIRIQLAR:

1. Bolalarni hayotdagi, voqelikdagi go'zallikni tushunish
2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, rasm va boshqalar) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishga o'rgatish
3. Bolani san'atning turli sohalari: ashula, o'yin, she'r o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat (ijodiy o'yin, hikoya qilib, rasm chizish, biror narsa yasash yoki qurish) kabilarda yanada faolroq harakat qilish va o'zini ko'rsata bilishga o'rgatish



Vazifa:

Muammoni tahlil qilish va yechish jadvali

| Muammoni tasdiqlovchi dalillari | Muammoni kelib chiqish sabablari | Muallif tomonidan taklif qilingan echim | Guruh yechimi |
|---------------------------------|----------------------------------|---|---------------|
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Sayr va ekskursiyalarning tarbiyalanuvchilarning estetik tarbiyasini shakllantirishda qanday ahamiyatga ega?
2. Bolalarning badiiy qobiliyatlarini ijodiy o'sishi nima bilan bog'liq?

4-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasasida iqtisodiy tushunchalarni berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari.

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lom to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Iqtisodiy tarbiya, Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadi, tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti va boylik, Qur'oni Karimda va muqaddas kitob - Hadisi sharif hamda «Avesto» bitik, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlari.

TOPSHIRIQLAR:

1. Iqtisodiy tafakkurni yuksaltirishga oid o'git va hikmatlardan foydalanish
2. Dars mashg'ulotlarida ulardan mosini tanlab va uni tahlil qilish
3. Iqtisodiy tarbiyaga oid bolalar tafakkurini boyitishda qo'llaniladigan usullar haqida ijodiy ish



Vazifa:

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib to'ldiring.

| Bilaman | Bildim (mavzudan olingan yangi ma'lumotlar) | Bilishni istayman (qiziqtirgan savollar) |
|----------------|---|--|
|----------------|---|--|

O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Iqtisod, mehnat, oila, jamiyat, aloqa, ma'naviyat, boylik, qoida va tartibni saqlash, boshqarish, savdo, pul, mahsulot. Ushbu tushunchalar MTM ning qaysi guruh tarbiyalanuvchilari tomonidan o'zlashtiriladi?
2. Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi-bolalarni iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga tayyorlash. Ushbu maqsad uzluksiz ta'limning qaysi bosqichida amalga oshiriladi?

5-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Katta va tayyorlov guruxlarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Iqtisodiy ta'lim va tarbiya. iqtisodiy savod, oila va bog'cha budjeti strukturasi, pulning vazifasi, iqtisodiy muammolar, iqtisodiy tafakkur, pedagogik faoliyat, iqtisodiy ong.

TOPSHIRIQLAR:

3. Katta guruhlarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda mashg'ulotlarni olib boorish tartibi bilan tanishish
4. Tayyorlov guruxlarida iqtisodiy tarbiya berishning ahamiyatini o'rganish



Vazifa:

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

| Talabalar ro'yxati | Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan maks. 6 b | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sababi va dalillari aniq ko'rsatilgan maks. 4 b | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan maks. 10 b | Jami maks. 20 b |
|--------------------|--|---|--|--------------------|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bog'chada iqtisod o'rganish zarurligi nimalardan iborat?
2. Iqtisodiy ta'lim va tarbiya bolalarga tevarar-atrofimizdagi iqtisodiyot olamini ochib berishi kerak. Buning uchun bog'cha iqtisodiyot darsligi iqtisod nimani o'rganadi?

6-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Qur'oni Karimda va muqaddas kitob - Hadisi sharif hamda «Avesto» bitik, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlari, iqtisodiy savod, oila va bog'cha budjeti strukturasi, pulning vazifasi.

TOPSHIRIQLAR:

1. Sharq mutafakkirlarining asarlarida bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda qanday usullardan foydalanilganligini o'rganish
2. Muhammad al- Xorazmiyning asarlaridagi iqtisodiy tarbiya haqida o'rganish



Vazifa:

Muammoni tahlil qilish va yechish jadvali

| Muammoni tasdiqlovchi dalillari | Muammoni kelib chiqish sabablari | Muallif tomonidan taklif qilingan echim | Guruh yechimi |
|---------------------------------|----------------------------------|---|---------------|
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Sharq mutafakkirlaridan Muhammad Al- Xorazmiyning iqtisodiy tarbiya haqida qanday fikrlarini bilasiz?
2. Bolalarda iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishda pand-nasihat o'rnini va ahamiyatini nimadan iborat?

7-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Maktabgacha ta'lim muasasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Huquqiy ta'lim, qonuniylik, qonunga itoatkorlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalash, Komil inson tarbiyasi, ta'lim- tarbiya jarayoni, tarbiyalanuvchilarga har xil shaklda ta'sir ham o'tkazishi, Huquqiy ta'lim-tarbiya metodi

TOPSHIRIQLAR:

1. Huquqiy normani tushuntirish shakl va metodlarini tanlab olish
2. Huquqiy ta'lim-tarbiya vositalarini tayyorlash;
3. tarbiyalanuvchilarning fikrini o'rganish va savol – javobga tayyorlanish
4. Ta'lim-tarbiya obyektlarini o'rganish, ular bilan huquqiy norma o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash



Vazifa:

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib to'ldiring.

| Bilaman | Bildim (mavzudan olingan yangi ma'lumotlar) | Bilishni istayman (qiziqtirgan savollar) |
|----------------|---|--|
|----------------|---|--|

O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Huquqiy ta'lim-tarbiya nima?
2. Farobiy fikricha qonun qanday bo'lishi kerak?
3. Huquqiy ta'lim-tarbiyaga ilmiy yondoshish qanday faoliyatlardan tashkil topadi?

8-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda huquqiy tarbiyani shakllantirish

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lom to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Huquqiy axborot, huquqiy bilim, Huquqiy tarbiya va ta'limni kuchaytirish, huquqiy ta'limining, huquqiy ongi va huquqiy madaniyat, xulq-atvor qoidalari, Huquqiy ta'lim uzluksiz.

TOPSHIRIQLAR:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning huquqiy tarbiyasini shakllantirishda asosiy vositalarni o'rganish
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni huquqiy tarbiyasini shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy vositalarni aniqlash
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning huquqiy tarbiyasida keng qo'llaniladigan metodlar haqida o'rganish



Vazifa:

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

| Talabalar ro'yxati | Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan maks. 6 b | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sababi va dalillari aniq ko'rsatilgan maks. 4 b | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan maks. 10 b | Jami maks. 20 b |
|--------------------|--|---|--|--------------------|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4 | | | | |

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lib qachondan boshlab berib boriladi?
2. Huquqiy tarbiyaning muhim shakli nima?

9-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Turli yosh guruhlarida huquqiy tarbiyani tashkil etish.

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Huquqiy axborot, huquqiy bilim, Huquqiy tarbiya va ta'limni kuchaytirish, huquqiy ta'limining, huquqiy ongi va huquqiy madaniyat, xulq-atvor qoidalari, Huquqiy ta'lim uzluksiz.

TOPSHIRIQLAR:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning huquqiy tarbiyasini shakllantirishda asosiy vositalarni o'rganish
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni huquqiy tarbiyasini shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy vositalarni aniqlash
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning huquqiy tarbiyasida keng qo'llaniladigan metodlar haqida o'rganish



Vazifa:

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib to'ldiring.

| Bilaman | Bildim (mavzudan olingan yangi ma'lumotlar) | Bilishni istayman (qiziqtirgan savollar) |
|----------------|---|--|
| | | |

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Huquqiy tarbiyaning muhim shakli nima?
2. Huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lib qachondan boshlab berib boriladi?

10-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Shaxs huquqiy madaniyati, qonunga itoatkorlik, qonuniy va huquqiy institutlarni chuqur hurmat qilish, huquqni ijtimoiy o'zgarishlari va shaxs manfaatlarini himoya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida baholash, huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligi, ijtimoiy ong nazariyasi

TOPSHIRIQLAR:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy ta'limni amalga oshirish ishlari haqida o'rganish
2. Huquqiy ta'lim tarbiya jarayonlarining bolalar hayotida qanday ahamiyatga ega ekanligini o'rganish



Vazifa:

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib to'ldiring.

| Bilaman | Bildim (mavzudan olingan yangi ma'lumotlar) | Bilishni istayman (qiziqtirgan savollar) |
|----------------|---|--|
|----------------|---|--|

O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Tarbiyachilar zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va tarbiyalanuvchilar huquqiy ongni shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyotini egallashi lozim. Bu fikr muallifi kim?
2. Oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim-tarbiya berish shakllari qanday?

11-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o'ziga xosliklari

Kerakli materiallar: Maktabgacha ta'lim to'g'risida Prezident qarorlari va farmonlari, "Bolajon" tayanch dasturi, Maktabgacha ta'limda Davlat talablari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomlar

UMUMIY TUSHUNCHA: Ekologik tarbiya yo'nalishlari, milliy tarbiyasi, tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday boisa, o'shandayligicha qoldirishga intilish, atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish, tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy o'illar va ular orasidagi bog'lanish

TOPSHIRIQLAR:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o'ziga xosliklarini o'rganish haqida bilim berish
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsad va vazifalarini o'rganish haqida bilim berish



Vazifa:

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib to'ldiring.

| Bilaman | Bildim (mavzudan olingan yangi ma'lumotlar) | Bilishni istayman (qiziqtirgan savollar) |
|----------------|---|--|
|----------------|---|--|

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

